Абстрактный. В данной статье рассматриваются проблемы повышения влияния военной отрасли в нашем обществе, воспитания молодого поколения в духе патриотизма в образовательных учреждениях, направления их в профессию. Также изучается роль семьи как одного из направляющих факторов придания большего значения повышению любви и верности молодежи к Родине.

Основные понятия: семья, hatsia, государство, молодежь, молодое поколение, Родина, патриотизм, военное дело, учебные заведения, образование, профессия, совершенство, страна, самоотверженный человек, гуманизм, мир и спокойствие.

Abstract. This article examines the problems of increasing the influence of the military sector in our society, educating the young generation in the spirit of patriotism in educational institutions, and directing them to the profession. Also, the role of the family is studied as one of the guiding factors in giving more importance to increasing the love and loyalty of the youth to the motherland.

Basic concepts: family, nation, state, youth, young generation, motherland, patriotism, military field, educational institutions, education, profession, perfection, country, dedicated person, humanitarianism, peace and tranquility.

Оила “Миллат шарафини” юқори маратабага кўтарадиган замин бўлиб ҳисобланади. Оилада фарзандлар туғилади, характери таркиб топади, инсоний фазилатлари вужудга келади, шахс шаклланади.

Шахс тарбияси ва уни ижтимоий ҳаётдаги ўрнини белгилаш масаласи кишилик жамияти тараққиётининг барча босқичларида мутафаккирлар ҳамда психолог, файласуф ва педагог олимларнинг диққат марказида бўлиб келган. Бугунги кунда педагог-олимлар мазкур мавзунинг таълим-тарбиявий жиҳатлари ҳамда шунга боғлиқ масала ва ёндошувларга тўхталиб, оиланинг бола тарбиясида тутган ўрнига алоҳида эътибор бериб, оилавий тарбияни умумий таълим-тарбиянинг бир қисми сифатидаги жиҳатларини ёритишмоқда. Оиланинг жамиятда тутган ўрни, оилавий тарбия, оила аъзоларининг оиладаги ўрни, оилада миллий ва умуминсоний тарбия масалаларининг педагогик нуқтаи назардан олима О. Мусурманова таҳлил этсалар, ўзбек оиласининг этнопсихологик ижтимоий муаммолари бўйича илмий тадқиқот изланишларни Ғ. Шоумаров илмий ишларида кўришимиз мумкин.

Қомусий алломалар Абу Наср Фаробий, Мухаммад Ал-Хоразмий, Абу Али ибн Сино, Алишер Навоий, Абдулла Авлоний ва бошқаларнинг комил инсон тарбияси ва унинг моҳияти ҳақидаги қарашлари бугунги

кунда ҳам ўз аҳамиятини йўқотмаган. Ўзбек халқининг ёш авлодни ижтимоий-маиший ҳаётга тайёрлашдаги тарихий меросидаги урф-одати ва анъаналари, таълим-тарбия соҳасидаги кўп асрлар давомида қўлланган усул ва воситалари, ибратли тажрибалари достонлар, эртаклар, нақллар, ривоятлар, афсоналар, мақоллар, лапарлар, маталлар, ҳикматлар, мавсумий маросим қўшиқлар, аллалардан иборат халқ педагогикасида мужассамлашгандир.

Оиладаги ўзаро муносабатлар маданияти тажрибаси тасаввуф фалсафасида ҳам алоҳида ўрин тутади. Бу фалсафанинг йирик вакиллари бўлган Аҳмад Яссавий, Баҳовуддин Нақшбанд, Нажмиддин Кубро тариқатларида ота ва оналар ўзаро муносабатларининг фарзандлар камолотидаги ўрни, фарзандларнинг ота-оналарга бўлган муносабати мавзуи алоҳида таъкидлаб ўтилганлигини кўрамиз.

Шунингдек, улуғ уламолар бўлмиш Ал-Бухорий, Ат-Термизийларнинг ҳадис тўпламларида, асарларида ҳам мазкур мавзуга катта эътибор берилган. Инсоният тарихий тараққиётининг барча даврларида ҳам муайян уруғ, қабила, элат ёки миллат яшайдиган ҳудудни бегоналардан ҳимоя қилиш яшаш тарзининг муҳим шартларидан эканлиги ва уларни ана шу руҳда тарбиялашга эътибор қаратилган. Ҳудуд учун кураш ҳаёт кечириш ва тирикликни таъминлаш учун зарурият эканлигини чуқур англаган катталар эса болалар, ўсмирларда ҳудудни қўриқлаш, уни душмандан ҳимоялаш кўникмаларини шакллантиришнинг самарали йўлларини излаганлар. Бундай самарали йўл сифатида болалар фаолиятининг асосий кўринишларидан бўлган ўйинлар, эртаклар, достонлар танланган.

Халқ оғзаки ижоди наъмуналари мерганлик, камондан отиш, найза санчиш, кураш, қиличбозлик, от ёки туялар иштирокидаги пойга ҳамда улоқнинг оммавий тадбирларнинг таркибий кўриниши бўлганлиги, улар воситасида ёшларда мардлик, эпчиллик, чаққонлик, уддабуронлик, матонат каби сифатлар тарбияланганлиги, жанговарлик ҳисси, кайфияти ҳосил қилинганлиги тўғрисида ҳикоя қилинади. Турли даврларда йигитларнинг жисмоний чиниққанлиги, уларнинг мард ва жасур бўлишларига жиддий эътибор қаратилганлиги “Алпомиш” ва “Тўмарис” достонларида келтирилган лавҳлар ҳам исботлайди. Широқ, Жалолиддин Мангуберди, Амир Темур, Заҳириддин Муҳаммад Бобур сингари халқ қаҳрамонларининг жасорати, душманга қарши кураш, Ватан озодлиги йўлидаги мардлиги бунинг ёрқин тасдиғидир.

Бобур асарларида Ватан ишқи, ватанпарварлик ғоялари, қонуний ҳолда етакчи ўрин тутади. Унинг асарлари лирик шеърлар ва рубойлари инсон учун Ватандан азиз ва муқаддас, Ватандек олий, илоҳий неъмат йўқлиги, одам учун неки муқаддас, бўлса барчаси Ватан мўътабарлиги айтиб ўтилади. Зотан, Ватан-сўнгсиз мўъжиза. Ҳеч ким Ватандан ўз ихтиёри билан воз кечган эмас. Бобурнинг педагогик таълимоти Ватанга иймон-эътиқод билан боғлиқ.

Инсоний жамиятда ва оилада ўз ўрнини муносиб англаб яшаш, соғлом турмуш тарзини кечириш ҳар бир инсон учун олий мақсад ҳисобланади. Бу мақсад асосида эса маданий муносабатларнинг шундай шакллари ётадики, буларга меҳр, она юртга меҳр, садоқат, ватанга садоқат, мустақил давлатимизга садоқат, ҳурмат, ота-онага ҳурмат, инсонларга ҳурмат, дўстлик, ишонч, хотира, виждон, оқибат, эркинлик кабиларни келтириш мумкин. Бу келтирилган ҳислар одамлар ўзаро муносабати ва маданиятининг ажралмас таркиби ҳамдир. Ер, ота ва она, болалар, қариндош-уруғчилик, оила, элат ва миллат, халқ, давлат, касб буларнинг барчаси ватанпарварликнинг таркибий қисми ва бош омиллари ҳисобланади. Шахс тарбия-

сининг мазмун-моҳияти шахс салоҳиятини такомиллаштириш асосида, яъни сафарбарлик туйғуларини уйғотиш, уни жамият равнақи, Ватан қудрати йўлида самарали меҳнат қилишга йўналтиришдан иборат.

“Ватан”, “ватанпарварлик” табиийки кенг қамровли тушунча. “Ватан” тушунчаси бизда маънавий қадрият сифатида улуғланиб, ватан ҳимояси-муқаддас бурч ҳисобланади. Она Ватан! Нима учун Ватанни она сўзи билан ишлатамиз? Чунки Ватан ҳам онамиз сингари азиз, меҳрибон ва қадрлидир. Инсон дунёга келмасидан аввал онанинг вужудида улғайса, дунёга келганидан кейин эса энди Она Ватанда униб ўсади. Дарҳақиқат, ўқувчи ёшларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялаш масаласида оиланинг ўрнини ҳам шунга йўналтирувчи омиллардан бири сифатида ўрганар эканмиз, оила тарбияси ҳам мазмун-моҳияти жиҳатдан ёшларни ватанпарварликка йўналтирувчи омил вазифасини ўтайди. Ўзбек тилининг изоҳли луғати китобида омил иш-ҳаракат, воқеа-ҳодиса ва шу кабиларнинг юзага чиқиши, содир бўлиши учун сабаб бўлган вазият, нарса; сабаб; фактор сифатида олинган.

Шахс камолотини рўёбга чиқишига асос бўладиган ҳамда уни таъминлайдиган ижтимоий-биологик ҳаракатлар тизимига омил дейилади.

Маданийлашган жамият инсоният цивилизatsiясига ҳамоҳанг тараққий этиш йўлидан боради. Мустақиллик туфайли республикамиз ҳам мана шу йўлни танлаш имкониятига эга бўлди. Она ватанимиз бўлган Ўзбекистондаги ижтимоий ривожланишнинг асосини айни халқ, унинг манфаатлари ташкил этади. Биз Янги Ўзбекистонни “ижтимоий давлат” асосида қуришни мақсад қилдик. Ижтимоий давлат бу, энг аввало, инсон салоҳиятини рўёбга чиқариш учун кенг имкониятлар, одамлар муносиб ҳаёт кечиришига зарур шароитлар яратиш демакдир.

Барча тинчликсевар мамлакатлар сингари Ўзбекистон Республикасида ҳам инсон ҳуқуқ ва эркинлиги, давлат ва фуқаролар хавфсизликлари ҳамда тинчлигини таъминлаш, эркин ва фаровон, осуда ҳаёт кечиришлари учун шарт-шароитларни яратиш каби вазифалари мавжуд. Тинчлик бебаҳо неъмат, осуда яшаш саодат. Юрт ободлиги халқ фаровонлиги. Ҳозирда эришган улкан ўзгаришлар ва келажакдаги буюк тараққиётлар айнан мана шу тинчлик ва осудалик сабабидан юзага келади. Шу борада, мамлакат ёшларида бу вазифаларни амалда таъминлаш учун етарлича билим, кўникма ва малакаси, тажрибаси шаклланган бўлишлари мақсадга мувофиқ ҳисобланади. Уларда ҳарбий ватанпарварлик сифатлари ёшликдан шаклланган бўлиши мамлакат тараққиётида ҳам муҳим ўрин тутади. Шу мақсадда ҳам 2018 йил 23 февралда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ёшларни ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялаш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги 140-сон Қарори билан “Ёшларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялаш концепцияси” қабул қилинди. Унда ёшларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялаш масаласига жисмонан ва маънан соғлом, ижтимоий фаол авлодни тарбиялашга оид яхлит таълим-тарбия тизимининг узвий ва ажралмас қисми сифатида қаралиб, Ўзбекистон Республикасининг Янги тараққиёт стратегияси талаблари асосида миллий ва жаҳондаги илғор тажрибалар, бугунги янги Ўзбекистон ҳаётидаги реал ижтимоий-иқтисодий, стиёсий ўзгаришлар билан ҳамоҳанг тарзда такомиллаштириш масаласига алоҳида эътибор қаратилган.

Ҳарбий соҳнинг жамиятимздаги нуфузини ошириш, янада кенгайтириш, захирадаги зобит кадрлар билан ишлашни йўлга қўйиш, таълим муассасаларида ёш авлодни ватанпарварлик руҳида, фаол ҳаётий пози-

цияга эга инсонлар этиб тарбиялаш масаласи биз учун муҳим аҳамиятга эгалиги юртбошимизнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига йўллаган мурожаатномасида ўз ифодасини топган.

Тинчлик ва осойишталикни асраб-авайлаш, ҳимоя қилиш йўлида барчамиз, бутун халқмиз янада жипс бўлиб, ҳамжихатликда ҳаракат қилишимиз кераклиги ҳаммамизга аён. Ўқитувчи-мураббийлар ўқувчиларга, ота-оналар уйда фарзандларга, Ватан ягоналиги, ватан ҳимояси муқаддас ва шарафли каасб эканини тушунтириб борсалар, ўсиб келаётган ёш авлод ватанга садоқат ҳисси билан ўсиб-улғайиб камол топади. Натижада келажак авлодларимиз юрт ҳимояси нақадар улкан вазифа эканини қалбдан, руҳий жиҳатдан ҳис қиладилар ва бунга қатиқ бел боғлаган ватанпарвар бўлиб камол топадилар.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаб ўтиш лозимки, озод ва обод она Ватанимизни севиш ва қадрлаш, у билан фахрланиш ва ғурурланиш туйғусида яшаш, унинг барча гўшасини, сарҳадларини жанговар тусда ҳимоя қилиш ватанпарварликнинг олий намунасидир. Янги таҳрирдаги Конституциямизнинг 64-моддасида: “Ўзбекистон Республикасини ҳимоя қилиш – Ўзбекистон Республикаси ҳар бир фуқаросининг бурчидир. Фуқароларимиз қонунда белгиланган тартибда ҳарбий ёки муқобил хизматни ўташга мажбурдирлар” деган ҳуқуқий норманинг киритилганлиги ҳам ҳар бир фуқарога ватанпарвалик унинг ажралмас бурчи эканлигини англатади.

Тадқиқотларимизда таъкидланганидек, ҳозирги кунда оилада ёшларни жисмонан ва маънан бркамол этиб тарбиялаш учун ота-оналар ҳам ўз маънавиятларини ва дунёқарашини доимо бойитиб боришлари, фарзандларини ҳам ўз мамлакатлари тарихи, маданияти, адабиёти ва санъати, меъморчилиги, миллий турмуш тарзи, замонавий таълим-тарбия тажрибаларидан, ватанпарварлик, адолат ва маърифат туйғуларидан унумли баҳраманд қилган ҳолда фойдаланиши мақсадга мувофиқдир.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel
2.Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017, 237-bet
3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning oliy majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasi-Toshkent, 20.12.2022
4.Jumaev A.Sh., Sharipova S.B. Ijtimoiy pedagogika T.: “Navro‘z”, 2019.- 7-bet.
5.Tolkovыy slovar uzbekskogo yazыka: v 2-x t./S.F.Akbarov i dr.; Pod.red. Z.M. Magrufova. – M.: RUz. Yaz., 1981. – AN.Uz SSR in-t Yaz.i lit. im. A.S. Pushkina T 1.A-P. 632 s.
6.Munavvarov. Oila pedagogikasi. – T.: “O‘qituvchi”, 1994, 19-b.

LABARATORIYA KLASTERI TASHKIL QILISH ASOSIDA TA’LIMNI INTIGRASIYALASH

U.SH.TURDIEV - Assistent o‘qtuvchi
D.G‘.RASHIDOV - stajor o‘qtuvchi
SH.X.O‘TKIROV - stajor o‘qtuvchi
Toshkent Kimyo Texnologiya Instituti Yangiyer filiali

Annotatsiya: Oliy ta’lim muassasasalari talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini takomillashtirish kompetensiyaviy yondashuv talablarini o‘rganish asosida mazmunan takomillashtirgan holda mustaqil ijodiy faoliyatni tashkil etishga qaratilgan mustaqil ish yo‘riqnomalari, o‘quv-didaktik ta’minoti hamda mustaqil ijodiy faoliyatni tashkil etish metodikasini ishlab chiqish hamda kompetensiyaviy yondashuv asosida labaratoriya klasterini tashkil etish.

Kalit so‘zlar: labaratoriya klasteri, tadqiqotchilik faoliyati, o‘quv-didaktik ta’minot, kompetensiyaviy yondashuv.

Аннотация: Совершенствовать самостоятельную творческую деятельность студентов вузов, разработать направления самостоятельной работы, учебно-дидактическое обеспечение и методику организации самостоятельной творческой деятельности, а также организовать лабораторный кластер на основе компетентностного подхода.

Ключевые слова: лабораторный кластер, научно-исследовательская деятельность, образовательно-дидактическая поддержка, компетентностный подход.

Abstract: To improve the independent creative activity of students in higher education institutions, to develop independent work guidelines, educational and didactic support and methodology for organizing independent creative activity, and to organize a laboratory cluster based on the competence approach.

Key words: laboratory cluster, research activity, educational and didactic support, competence approach.

KIRISH

Yurtimizda ishlab chiqarish korxonalarini yuqori malakali kadrlar bilan ta’minlash, mazkur sohada ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish o‘rtasida o‘zaro integratsiyani yo‘lga qo‘yish, kadrlarni o‘qitishning usul va shakllarini takomillashtirish orqali ta’lim sifatini hamda mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, ilm-fan yutuqlarini ishlab chiqarishga to‘g‘ridan to‘g‘ri tatbiq qilish yuzasidan aniq maqsadga qaratilgan chora-tadbirlarni ko‘rish mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 7-iyuldagi PQ-309-sonli qarori chiqarildi. Bunda keltirilgan birida belganki “Professional va oliy ta’lim tashkilotlarining o‘quv jarayonini ishlab chiqarish korxonalari faoliyati bilan integratsiya qilish maqsadida ta’lim klasteri doirasida ilmiy loyihalar va o‘quv dasturlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan laboratoriyalar, o‘quv poligonlari va boshqa tuzilmalarni tashkil qilish huquqi berildi” deb ta’lim soxasida intigrasiya yo‘nalishini belgilab o‘tgan [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODI

Fizika fanini o‘qitishda yangi pedagogik texnologik yondoshuvlar asosida olib borish hozirgi kunning asosiy talab va zaruriyatidan biri bo‘lib qolayotganligi, tinglovchilarga yetarlicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikma, malakalarni hosil qilish uchun zamonaviy ta’lim talablariga javob beruvchi metodlardan foydalanishga olib kelib bu borada bir qancha izlanishlar olib borilmoqda. Shulardan biri

Fizikadan labaratoriya klasterini tashkil etish bu orqali esa bulajak kadrlarni tadqiqotchilik kunikmasini hosil qilish natijalari orqali ta’lim sifatini sezilarli darajada oshishiga olib kelishini ko‘rishimiz mumkin.

Laboratoriyalar klasteri – hududiy yaqinlik asosida birlashgan, bir-birini to‘ldiruvchi va raqobatbardosh ustunliklarini kuchaytiruvchi ta’lim va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, tarmoq korxonalari va kompaniyalari, infratuzilma, resurslar va ixtisoslashtirilgan xizmatlarni yetkazib beruvchilar va butun klaster birlashmasini o‘z ichiga oladi [3].

Laboratoriyalar klasteri sanoat korxonalari bilan o‘zaro bog‘langan turli ta’lim muassasalari faoliyatini yagona makonda birlashtirishga qaratilgan. Laboratoriyalar klasterlarini yaratish va ularning faoliyati bevosita ta’lim tashkilotlarining raqobatbardoshligiga ta’sir qiladi, shuningdek, ta’lim organlari, moliya, ilmiy-tadqiqot, ta’lim muassasalari va korxonalarning integraцiyasiga yordam beradi

N.Z.Aytimbetovning ta’kidlashicha bo‘lajak fizika o‘qituvchilarining laboratoriya ishlarini bajarish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishda fundamental bilimlari va amaliy ishlari natijalarining o‘zaro munosabatlarini amaliy anglash Laboratoriyalar klasteri yechim bo‘ladi deb hisoblaydi.

Talabalarning tadqiqotchilik faoliyati – bu zamonaviy ilmiy-tadqiqot metodlari, tajriba texnikasi ërdamida ularni mustaqil nazariy va tajribaviy ishlarni egallashga yo‘naltiradigan ijodiy bilish faoliyati turi hisoblanadi. Talabalarning tadqiqotchilik faoliyati quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi: maqsadni belgilash, muammoni shakllantirish, shakllantirilgan muammoga oid nazariyani o‘rganish, tadqiqot metodikasini tanlash va uni amaliy jihatdan egallash, materiallar yig‘ish, uni tahlil qilish va umumlashtirish, xulosalar chiqarishdir.

I.B. Asqarovning ta’kidlashicha tadqiqotchilik faoliyati – bu inson, jamiyat, atrof-muhitning tuzilishi, faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishining asosiy qonuniyatlari haqida yangi bilimlarni olish va ularni amaliy maqsadga erishish uchun qo‘llashga yo‘naltirilgan faoliyat hisoblanadi [4].

MUHOKAMA

Oliy ta’lim muassasasalari talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini takomillashtirish kompetenцiyaviy ëndashuv talablarini o‘rganish asosida mazmunan takomillashtirgan holda mustaqil ijodiy faoliyatni tashkil etishga qaratilgan mustaqil ish yo‘riqnomalari, o‘quv-didaktik ta’minoti hamda mustaqil ijodiy faoliyatni tashkil etish metodikasini ishlab chiqish hamda kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatlarining takomillashganlik darajalarini aniqlashning mezon ko‘rsatkichlarini amalda qo‘llash zarurdir.

Talabalarning o‘quv faoliyatidan tashqaridagi tadqiqotchilik faoliyati esa ularning ilmiy-amaliy anjumanlar, har xil yo‘nalishdagi ilmiy ishlar tanlovlari, turli darajadagi olimpiadalarda ishtirokini ta’minlash orqali amalga oshiriladi

F.M.Sadikovaning fikricha “Ilmiy faoliyat - bu yangi g‘oya va yechimlarni pedagogik hamkorlikda amalga oshirish va ommalashtirishga yo‘naltirilgan tadqiqot faoliyati bo‘lib, tanlab olingan g‘oyalarni axborot-kommunikaцion texnologiyalari asosida sifat jihatidan yangi elementlarga, tashkil etuvchi omillarga to‘liq pedagogik tizim sifatida qabul qilish va amalda sinab ko‘rish va natijalarni taqqoslash, yechimlardagi nomutanosiblik va ziddiyatlarni bartaraf etishga yo‘naltirilgan faoliyatdir”[2-3].

NATIJALAR

Ko‘rishimiz mumkinki, metodologik hamda nazariy asoslarini aniqlash orqali, fizikadan laboratoriyalar klasterini tashkil etish asosida talabalarni tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirishning tashkiliy-mazmuniy modelini ishlab chiqiladi. Bunday

modelni ishlab chiqish quyidagi vazifalarni bosqichma-bosqich hal qilishni talab etish orqali: 1) tadqiqot obyektini hamda tadqiqot maqsadini tanlash; 2) modelni har bir komponentini uzviy bog‘lab chiqish; 3) model elementlari o‘rtasidagi uzviy munosabatlarni aniqlash; 4) modelning samarasini bashoratlash; 5) talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllanganlik darajasini aniqlash natijasiga erishish mumkin bo‘ladi.

Yuqorida tahlil qilinganda fizika fanining rivojlanishi pedagogika fanlari tizimida fizikani o‘qitish metodikasini eng asosiy o‘rinlardan birini egallashiga olib kelishi, statistik metod ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda salmoqli o‘rin tutishi, fizika ta’limida namoyish eksperimentlari hamda innovatsion pedagogik va AKTidan foydalanish uslubi, dars jarayonida o‘quvchilarning matematik tafakkurini fanlararo aloqadorlikdan foydalanish natijasida rivojlantirish, muqobil energiya manbalariga oid o‘quv materiallarining integrativ tavsifi tabiiy va muqobil energiya manbalari o‘quv fanlarining implitsitlik xossalarini belgilash, fizika fanidan ilmiy va o‘quv to‘garak mashg‘ulotlari hamda fakultativ kurslarini tashkil etish, o‘quv jarayonini AKT asosida tashkil etish metodikasini takomillashtirish haqida ma’lumotlar berilgan.

XULOSA

Shunday qilib, hozirgi kunda zamonaviy tasavvurlar asoslariga tayanadigan bo‘lsak, unda ehtimoliy qonuniyatlar orqasida dinamik qonuniyatlar yotmasligi va aksincha ular tasodifning zaruriyat bilan dialektik munosabatini o‘rnatuvchi fundamental tavsifga ega bo‘lgan qonuniyat ekanini ko‘rish mumkin. Umuman olganda fizika o‘qitishning metodologik asosini metodologik yondashuvlar, ta’limiy funksiyalar, umudidaktik tamoyillar tashkil etadi.

Laboratoriya mashg‘ulotlari davomida fizikadan laboratoriyalar klasterini tashkil etish asosida talabalarni tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish orqali labaratoriya ishlarini mazmun mohiyatini tushuntirish va amaliy jarayonga chuqurroq kirib borishda o‘rni katta bo‘lib labaratoriya dars mashg‘ulotlarida amaliy ko‘nikma olishlari va zamon texnalogiyalariga mos ravishda tashkil qilish mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz. – T: O‘zbekiston, 2017. – 484 b.
2. Aytimbetov N.Z. Fizikadan laboratoriya ishlarini integrativ yondashuv asosida takomillashtirish metodikasi (oliy ta’lim muassasalari misolida) // p.f.f.d. (PhD) diss...avtoreferati. Nukus.2021. 52 b.
3. Allayarova S.N. Talabalarni ilmiy tadqiqotga yo‘naltirishning innovaцion mexanizmlar // p.f.d.(DSc) dis. avtoreferati. Termiz. -2023. 62 b
4. Asqarov I.B. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash metodikasi // p.f.f.d. (PhD) diss...avtoreferati.T.2018. 26 b.
5. Ataqulova M.N. Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarida tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (biologiya o‘qitish metodikasi ta’lim yo‘nalishi misolida) p.f.f.d. (PhD) diss... avtoreferati.Samarqand.2021. 46 b.
6. Bim I.L. Lichnostno-orientirovanniy podxod - osnovnaya strategiya obnovleniya shkoli / I.L. Bim // Inostrannie yaziki v shkole. - 2002. - № 2. - S. 11-12.
7. Bobrikov V.N., Sharov A.V. Formirovanie professionalnoy etiki spetsialista v protsesse ego professionalnoy podgotovki // Professionalnoe obrazovanie v Rossii i za rubejom.
8. U.Turdiev GulDU axboratnomasi “Fizika fanini o‘qitishda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish” maqolasi 37-bet.

O‘QITUVCHILARNING ELEKTRON TA’LIM RESURSLARI VA PLATFORMALARIDAN FOYDALANISH TAYYORGARLIGINI TA’MINLASH SXEMASI

ABDURAIMOV JUR’ATBEK G’OFUROVICH,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, “Informatika va AT” kafedrasi katta o‘qituvchi

Annotatsiya. Mazkur maqola o‘qituvchilarning elektron ta’lim resurslari va platformalaridan foydalanish tayyorgarligini ta’minlash sxemasini ishlab chiqishga bag‘ishlangan. Tadqiqot davomida o‘qituvchilarni zamonaviy texnologiyalarga moslashishi va ulardan samarali foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish yo‘llari tahlil qilindi. Maqolada o‘qituvchilarni elektron ta’lim resurslari va platformalaridan foydalanishga tayyorlash uchun tavsiya etilgan sxema va uning asosiy elementlari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: O‘qituvchilar, elektron ta’lim resurslari, ta’lim platformalari, tayyorgarlik, texnologik moslashish.

Annotation This article is devoted to the development of a scheme for ensuring the readiness of teachers to use electronic educational resources and platforms. In the course of the study, ways of adapting teachers to modern technologies and developing their effective use skills were analyzed. The article examines the proposed scheme and its main elements for preparing teachers to use electronic educational resources and platforms.

Key words: Teachers, e-learning resources, educational platforms, preparation, technological adaptation.

Аннотация. Данная статья посвящена разработке схемы обеспечения готовности учителей к использованию электронных образовательных ресурсов и платформ. В ходе исследования были проанализированы пути адаптации учителей к современным технологиям и развития навыков их эффективного использования. В статье рассматривается предложенная схема и ее основные элементы подготовки учителей к использованию электронных образовательных ресурсов и платформ.

Ключевые слова: Преподаватели, электронные образовательные ресурсы, образовательные платформы, подготовка, технологическая адаптация.

Kirish: Ta’lim sohasida raqamli texnologiyalar va elektron resurslarning joriy etilishi tezkor sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Bu o‘zgarishlar o‘qituvchilardan yangi ta’lim vositalarini o‘zlashtirish va ulardan samarali foydalanishni talab qiladi. O‘qituvchilarning elektron ta’lim resurslari va platformalaridan foydalanish tayyorgarligi ularning kasbiy faoliyatini yanada samarali va innovatsion qilish uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada o‘qituvchilarning raqamli texnologiyalarni samarali qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan tayyorgarlik sxemasi taklif etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi: Tadqiqotda sifatli va miqdoriy tahlil usullari qo‘llanildi. Birinchi bosqichda o‘qituvchilar orasida elektron ta’lim resurslari va platformalaridan foydalanish bo‘yicha mavjud bilim va ko‘nikmalarni aniqlash maqsadida so‘rovnomalar va intervyular o‘tkazildi. Ikkinchi bosqichda ilg‘or tajribalar va o‘quv dasturlari tahlil qilinib, o‘qituvchilarni raqamli texnologiyalardan foydalanishga o‘rgatish bo‘yicha eng samarali yondashuvlar o‘rganildi. Ushbu ma’lumotlar asosida tayyorgarlik sxemasi ishlab chiqildi va sinovdan o‘tkazildi.

O‘qituvchilarning elektron ta’lim resurslari va platformalaridan foydalanish tayyorgarligini ta’minlash sxemasi, ularning ta’lim jarayonida

zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanishini ta'minlashga yo'naltirilgan. Quyidagi qadam tartibida olib borilgan[1]

I. Tahlil va Baholash: O‘qituvchilar va ta’lim sohasidagi mudofaa hodimlari bilan suhbatlar olib boriladi. Ular elektron ta’lim resurslarining va platformalarining hozirgi sifatini, ularning muhimiyatini va faolligini baholaydilar. Tahlil va baholash jarayonida o‘qituvchilar va ta’lim sohasidagi mudofaa hodimlari o‘rtasida suhbatlar olib boriladi. Ular elektron ta’lim resurslarining va platformalarining joriy sifatini, ularning muhimiyatini va faolligini tahlil qilish uchun quyidagi bosqichlarni o'tkazishadi:

1. Platformalar va Resurslar Tahlili: O'qituvchilar va mudofaa hodimlari, mavjud bo'lgan elektron ta’lim platformalarini va resurslarini tahlil qilishadi. Bu tahlil jarayonida platformalar va resurslarining interfeysi, turli ta’lim materiallari, interaktiv vositalari, va o'qituvchilarning va talabalarining foydalanish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

2. Muhimiyat va Faollik Baholash: Elektron ta’lim resurslari va platformalarining o'qitish jarayonida o'zlarining o'rinli o'qitishning muhimiyati va faolligini baholash uchun ma'lumotlar to'plashadi. Bu baholash jarayonida, o'qituvchilar va mudofaa hodimlari platformalarning ta’limda qanday o'rinli foydalanish imkoniyatlarini, o'qituvchilarning va o'quvchilarining o'zlashtirishi va platformalardan foydalanish sohasidagi ta'sirini baholaydi.

3. Sug'urta va Maxfiylik Tahlili: Elektron ta’lim resurslari va platformalarining sug'urta va maxfiylik sohasidagi holatini baholash uchun tahlil qilinadi. Bu tahlil jarayonida, platformalar va resurslar uchun sug'urta sohasidagi protokollar, maxfiylikni ta'minlash usullari, va ma'lumotlarni himoya qilishning o'zlashtirilishi o'rniga e’tibor beriladi.[3,4]

II. O‘qituvchilar tarafidan ta’lim: O‘qituvchilarga elektron ta’lim resurslaridan foydalanish va ulardan o'qitish usullari to'g'risida ta’lim beriladi. Bu darslar o'qituvchilar uchun ta’limning o'zlashtirilishi, platformalarning funktsiyalari va ularni amalga oshirishning eng yaxshi usullari haqida ma'lumot taqdim etadi. O‘qituvchilar tarafidan ta'limning bir qismi, o'qituvchilarga elektron ta'lim resurslaridan foydalanish va ulardan o'qitish usullari to'g'risida ta'lim beriladi. Bu darslar o'qituvchilarga raqamli texnologiyalar va elektron ta'lim platformalarini qanday samarali foydalanishlarini o'rganishga yordam beradi. Quyidagi muhim nuqtalarga e’tibor beriladi:

1. Ta'limning O'zlashtirilishi: O'qituvchilarga elektron ta'lim resurslaridan foydalanish va ulardan o'qitish usullari ta'limning o'zlashtirilishida muhim ahamiyatga ega. Bu darslar o'qituvchilarga raqamli texnologiyalar va platformalar orqali ta'limni o'rganish, tayyorlash va ta'lim jarayonida ulardan samarali foydalanishni o'rgatadi.

2. Platformalarning Funktsiyalari: O'qituvchilarga elektron ta'lim platformalarining asosiy funktsiyalari va ulardan foydalanishning muhimliklari haqida tafsilotli ma'lumot taqdim etiladi. Bu, o'qituvchilarga platformalar orqali dars tayyorlash, vazifalarni boshqarish, talabalarni baholash, va komunikatsiya qilishni o'rganishga yordam beradi.

3. Amalga Oshirishning Eng Yaxshi Usullari: Ta'lim jarayonida elektron ta'lim resurslaridan eng samarali foydalanishning usullari o'qituvchilar uchun muhimdir. Bu darslar o'qituvchilarga ta'lim materiallarini sodda va ma'lumotli ko'rinishda tuzish, interaktiv vositalardan foydalanish, va talabalar bilan muloqotni yaxshi tashkil etishni o'rgatadi. [5,6]

III. Amaliyot va masofaviy ta’lim: O'qituvchilar praktik jarayonlarda qatnashishga imkoniyat beriladi. Ularga amaliyotlar

o'tkazish, masofaviy ta’lim vositalarini test qilish va shuningdek, turli ta’lim platformalarini sinovdan o'tkazish imkoniyati taqdim etiladi.

4. Monitoring va qo‘llab-quvvatlash: Sxemaning katta qismi, o'qituvchilarning elektron ta’lim resurslaridan foydalanish jarayonida ularga yordam berishni ta'minlashdir. Ular muammoni yechishda yordam berish, ta’lim materiallarini yaxshilash, va ta’lim platformalari bilan bog'liq boshqa tekshiruvlar va muammo-hallarni bartaraf etishda qo'llaniladi.

5. Natijalarni baholash va qayta tahlil: Sxemaning oxirida, o'qituvchilar va boshqa ta’lim kadrlari tomonidan elektron ta’lim resurslaridan foydalanishning samarali ko'rinishini baholash uchun natijalar baholangan va qayta tahlil qilinadi. Bu, qaysi qatorlarda yangi o'zgartirishlar kerakligini aniqlashda yordam beradi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘qituvchilarni elektron ta’lim resurslari va platformalaridan foydalanishga tayyorlash uchun maxsus tayyorgarlik dasturlarini joriy etish zarur. Bu dasturlar o‘qituvchilarning texnologik savodxonligini oshiradi va ularga zamonaviy ta’lim jarayonlarida faol ishtirok etish imkonini beradi. Taklif etilgan tayyorgarlik sxemasi o‘qituvchilar uchun o‘zlashtirishi oson va samarali bo‘lib, ta’lim sifatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Mazkur sxema asosida amalga oshirilgan dasturlar ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni keng joriy etishga xizmat qiladi. Shunday qilib, bu sxema o'qituvchilarning elektron ta’lim resurslari va platformalaridan foydalanish tayyorgarligini oshirishda kerakli qadam va ta’minotni ta’minlashda yordam beradi. Bu ko'nikma o'qituvchilarning raqamli texnologiyalarni ta’limda samarali foydalanishida muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov, M. (2019). O'zbek tilida filologik ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llashning zarurati. O'zbekiston respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Xalq ta'limi fanlarining ilmiy elektron jurnali, 1(9), 120-124.
2. Rahimova, D., & Aripova, L. (2020). Raqamli dars ishlanmalarini o'qitishda pedagogik axborot texnologiyalaridan foydalanishning muhimiyati. O'zbek tili va adabiyoti, (2), 38-42.
3. Rizaeva, S. (2018). Elektron ta'lim resurslari va platformalari foydalanishning o'qituvchilar tayyorgarligini oshirishda o'zbek tili va adabiyoti fanidan darsning yirik ahamiyati. O'zbekiston respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Xalq ta'limi fanlarining ilmiy elektron jurnali, 1(4), 95-99.
4. Pritchard, R. J., & Roberts, R. D. (2017). Engaging and supporting pre-service teachers' critical thinking in online threaded discussions. Australasian Journal of Educational Technology, 33(3), 66-80.
5. Karpicke, J. D., & Blunt, J. R. (2011). Retrieval practice produces more learning than elaborative studying with concept mapping. Science, 331(6018), 772-775.
6. Means, B., Toyama, Y., Murphy, R., Bakia, M., & Jones, K. (2010). Evaluation of evidence-based practices in online learning: A meta-analysis and review of online learning studies. US Department of Education.
7. Freeman, S., Eddy, S. L., McDonough, M., Smith, M. K., Okoroafor, N., Jordt, H., & Wenderoth, M. P. (2014). Active learning increases student performance in science, engineering, and mathematics. Proceedings of the National Academy of Sciences, 111(23), 8410-8415.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI TARBIYA DARSLARIDA INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA TARBIYALASH

SAIDOVA GAVHAR ERGASHOVNA
Buxoro davlat pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta’lim” kafedra dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda tarbiya fanini o‘qitishda o‘qituvchilarning darslarda pedagogik texnologiya, boshlang‘ich sinflarda interfaol metodlar va ta’limiy o‘yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o‘rganganlarini hayot bilan bog‘lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradigan fikrlar bayon qilingan.

Kalit so’zlar: texnikaviy, axborotli, audiovizualli faol fuqarolik pozitsiyasi, mas’uliyat, majburiyat, huquqiy ong va madaniyat, teran dunyoqarash, sog‘lom e’tiqodlilik, ma’rifatparvarlik, bag‘rikenglik, ma’naviy, g‘oyaviy, nafosat tarbiyasi.

Аннотация. В данной статье использование педагогических технологий, интерактивных методов и обучающих игр в начальных классах, современных информационно-коммуникационных технологий при преподавании педагогики в начальных классах побуждает учащихся к самостоятельному мышлению, творческому исследованию и логике. расширяя круг мышления, представлены идеи, которые помогут им связать то, что они узнали на занятиях, с жизнью и повысить их интерес.

Ключевые слова: техническая, информационная, аудиовизуальная активная гражданская позиция, ответственность, обязанность, правосознание и культура, глубокое мировоззрение, здоровая вера, просвещение, толерантность, духовное, идеологическое, утонченное образование.

Annotation. In this article, the use of pedagogical technologies, interactive methods and educational games in primary classes, modern information and communication technologies when teaching pedagogy in primary classes encourages students to independent thinking, creative research and logic. By expanding their thinking, ideas are presented that will help them connect what they have learned in class to life and increase their interest.

Key words: technical, informational, audiovisual active citizenship, responsibility, duty, legal consciousness and culture, deep worldview, healthy faith, education, tolerance, spiritual, ideological, sophisticated education.

Kirish. Tarbiya fani O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida 2020-2021-o‘quv yilidan boshlab joriy qilindi. Ushbu fan Uzluksiz ma‟naviy tarbiya konsepsiyasining bir qismi sifatida o„quvchilarda “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” g‘oyasini singdirish, ularni ijtimoiy muvaffaqiyatli hayotga tayyorlash, faol fuqarolik pozitsiyasi, mas’uliyat, majburiyat, huquqiy ong va madaniyat, teran dunyoqarash, sog‘lom e’tiqodlilik, ma’rifatparvarlik, bag‘rikenglik kabi fazilatlarni shakllantirishni maqsad qilib qo‘ygan. Fan va darslik konsepsiyasini yaratishda Yaponiya, Singapur, Angliya, BAA, Xitoy, Koreya, Rossiya, Germaniya kabi xorijiy davlatlarning tajribasidan foydalanildi. Ta„lim jarayoni nihoyatda murakkab jarayon bo‘lganligi uchun ta’lim samaradorligi pedagog va o‘quvchi faolliligiga, ta’lim vositalarining mavjudligiga, ta’lim jarayonining tashkiliy, ilmiy, metodik

mukammalligiga bog’liq.

Ta’lim-tarbiya jarayonini ilg‘or vositalari, metodlar, texnik vositalar, usullariga tayanib takomillashtirish tizimi hisoblanadi. Bu tizim o‘qituvchi tomonidan yaratiladi, ta’lim-tarbiya bosqichlarini o‘zaro bog‘lashga xizmat qiladi. Uning mzmuni va vazifalarini, maqsadini oldindan belgilash, ta’lim-tarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, o‘quvchida shakllantirish ko‘zda tutilgan ma’naviy sifatlarni o‘zlshtirishga yo‘naltirilgan darslarni rejalashtirish kabilarni o‘z ichiga oladi.

Bugungi kunda fan-texnikaning rivojlanishi bilan inson faoliyati nihoyatda kengayib, yangi texnologiyalar kirib kelmoqda. Sifat o‘zgarishlari shundan dalolat beradiki, endilikda yangi metodikalarni talab etadigan va ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib borayotgan, unga o‘zining ma„lum xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli, audiovizualli, vositalar ham mavjud bo‘lib, ular zamonaviy pedagogik texnologiyalarni aniq voqelikka aylantirdi.

Ta’lim-tarbiya jarayonining unumdorligini oshiradi, o‘quvchilarni mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o‘quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o‘zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi. An‘anaviy o‘qitish tizimi, aytish mumkinki, yozma va og‘zaki so‘zlarga tayanib ish ko„rishi tufayli axborotli o‘qitish sifatida tafsiflanadi, chunki o‘qituvchi faoliyati birgina o‘quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib borayotganligini ta’kidlagan holda baholanmoqda.

O‘zbek xalqining yosh avlodni hayotga tayyorlashda ko‘p asrlar davomida qo‘llagan usul va vositalari, tadbir shakllari, o‘ziga xos urf-odatlari va an’analari, ta’lim-tarbiya haqidagi g‘oyalari va hayotiy tajribasi mavjud. Bu meros o‘tmishda ko‘plab alloma-yu donishmandlar etishib chiqishiga asos bo‘lgan.

Hozirgi kunda bu merosdan ijodiy foydalanish katta ahamiyatga ega. Ajdodlarimiz bilim o‘rgatuvchi ustoz faoliyatiga katta ahamiyat berganlar. Bu pedagogik faoliyatga bo‘lgan asosiy talablardan biri edi.

Sharq uyg‘onish davrining buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiy aqlli, dono va o‘tkir fikrlaydigan kishilar to‘g‘risida shunday deydi: «Aqlli deb shunday kishiga aytiladiki, ular fazilatli, o‘tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni kashf va ixtiro etishda zo‘r istidodga ega; yomon ishlardan o‘zini chetda olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil deydilar». Uning fikricha, «Ta'lim so‘z va o‘rgatish bilangina bo‘ladi. Tarbiya esa amaliy ish va tajriba bilan o‘rganishdir, ya’ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat bo‘lgan ish-harakatga, kasb-hunarga berilgan bo‘lishidir. Agar ular ish, kasb-hunarga berilgan bo‘lsalar, kasb- hunarga qiziqsalar, shu qiziqish ularni butunlay kasb-hunarga jalb etsa, demak, ular kasb-hunarning chinakam oshig‘i bo‘ladilar»

Tarbiya jarayoni o‘zaro bog‘liq ikki faoliyatni – o‘qituvchi va o ‘quvchi faoliyatini o‘z ichiga oladi. Tarbiya jarayonida o‟quvchining ongi shakllana boradi, his-tuyg‘ulari va turli qobiliyatlari rivojlanadi, g‘oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi. Tarbiya jarayonida o‘quvchida jamiyatning shaxsga qo‘yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlar hosil qilinadi. Bunga erishish uchun o‘quvchining ongiga (ta’lim jarayonida), hissiyotiga (darsda va turli sinfdan tashqari ishlarda), irodasiga (faoliyatni uyushtirish, xulqni idora qilish jarayonida) tizimli va muntazam ta’sir etib boriladi.Tarbiyalash jarayonida bulardan birortasi (ongi, hissiyoti, irodasi) e’tibordan chetta qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi.

Biror bir maqsadga qaratilgan tarbiya jarayonining mohiyati va vazifalari tarbiyachi tomonidan rejalashtiriladi va tartibga solinadi.

A) O‘quvchining qaysi xislatini shakllantirish yoki yo‘qotish maqsadida rejalashtiriladi.

B) Shu hislatlarni tarbiyalash yoki yo‘qotish uchun xizmat qiluvchi manbalar izlab topiladi.

V) Belgilangan maqsad uchun xizmat qiladigan nazariy va amaliy manbalarni qaysisini va qayerda ishlatish rejalashtiriladi.

Tarbiya fanidan boshlang‘ich sinf bitiruvchisiga qo‘yiladigan minimal malaka talablari (A1, A1+), kompetensiyalar, baholash tartibi va o‘quv dasturlarida har bir bosqich ma’naviy-axloqiy, tafakkur, huquqiy, fuqarolik, iqtisodiy, jismoniy, ekologik, estetik tarbiya turlarini o‘z ichiga oladi. Bunda bola huquqlarini himoya qilish, uzluksiz ta’lim tizimiga «Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari» tamoyiliga asoslangan milliy qadriyatlarni singdirish, o‘quvchilarni har tomonlama, jismoniy, ruhiy, ma’naviy-axloqiy rivojlantirish orqali ijtimoiy-huquqiy hayotga moslashtirish va turli murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishga o‘rgatish, bolada faol fuqarolik pozitsiyalarini shakllantirish kabi maqsadlarga darslikka qo‘yilgan didaktik talablar asosida erishiladi. Shuni qayd etish kerakki, Tarbiya fanini o‘qitish jarayonida turli interfaol metod, hamkorlikda o‘qitish, muammoli ta’lim texnologiyalari, ijodiy-ta’limiy o‘yinlardan foydalanish orqali o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma, malakalarni tarkib toptirish barobarida ularda ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalarni rivojlantirish imkoniyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot jarayonida belgilangan maqsadga erishishda asosiy e’tiborni “shaxs”, “madaniyat”, “qadriyat”, “xulq-atvor”, “huquq”, “burch”, “tarbiya” kabi tushunchalar hamda boshlang‘ich odob-axloq me’yorlari mazmun-mohiyatiga e’tibor qaratildi. Zero, ushbu tushunchalar o‘zaro aloqador bo‘lib, doimiy ravishda bir - birini to‘ldirib boradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisida ijtimoiy-huqiqiy kompetensiyalarni shakllantirishdan oldin ularda mazkur tushunchalar haqidagi bilimlarini tarkib toptirish zarur.

Ushbu maqolada ijtimoiy va huquqiy kompetenlik tushunchalariga quyidagicha ta’rif berishga harakat qildik: ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish hamda qo‘shimcha faoliyatni hamkorlikda tashkil eta olish; huquqiy kompetentlik esa davlat tomonidan belgilangan yoki tasdiqlangan umumiy, majburiy, ijtimoiy normalarni bilish, ushbu normalarga amal qilgan holda ulardan to‘g‘ri foydalanish va shaxsiy hayotda qo‘llay olish.

Tarbiya fani asosida quyidagi kompetensiyalar shakllantiriladi:

Ma’naviy-axloqiy madaniyatlilik kompetensiyasi: odob-axloq (kiyinish, muomala, muloqot, jamoat joylarida o‘zini tutish) madaniyatiga ega bo‘lishi hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglash va hurmat qilish, oila, jamiyat, Vatan oldidagi burch hamda mas’uliyatni anglashi va ularga rioya qilishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, milliy-madaniy an’analar, urfodatlar, marosimlarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lishi, jamoatchilik ishlarida faol bo‘lishi.

Mafkuraviy immunitetga ega bo‘lish kompetensiyasi: yaxshi va yomon xatti-harakatlarni farqlay olishi, ularga nisbatan fikrini bayon eta olishi; yon-atrofida bo‘layotgan voqea-hodisalarga munosabat bildira olishi, ilmlilik insonning yuksak ziynati ekanini anglay boshlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘rganish va bilish darajasi, faolligi, dunyoqarashi va fikrlay olish qobiliyatining

rivojlanganligiga ko‘ra shartli ravishda ikki bosqichga ya’ni 1-2-sinf o‘quvchilarida ijtimoiy-huquqiy me’yorlarni o‘rganish va ushbu tushunchalar haqidagi bilimlarga ega bo‘lish hamda 3-4-sinfda egallagan kompetensiyalarni hayotda qo‘llay olish ko‘nikmasini shakllantirish inobatga olinishi lozim.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy-huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishning tamoyillarini quyidagi tarzda izohlash mumkin:

Birinchidan, o‘quvchida ijtimoiy-huquqiy kompetensiyalarning mavjudligi uning umri davomidagi muvaffaqiyatli faoliyatini kafolatlaydi. Ikkinchidan, o‘quvchi hayotida shaxsiy harakatlarining yetarlicha tanloviga imkon yaratib, shaxsga xos bo‘lgan ijtimoiy rollarni bajarish samaradorligini ta’minlaydi. Uchinchidan, o‘quvchining Vatanga, oilaga, insonlarga, tabiatga, qadriyatlarga nisbatan e’tiqodini hamda shaxslararo munosabatlarini rivojlantiradi. To‘rtinchidan, ijtimoiy va huquqiy kompetensiya ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, estetik qadriyatlar va o‘z-o‘zini rivojlantirishda muhim o‘rin egallaydi. Beshinchidan, o‘quvchilarda ijtimoiy muhit, oilasi, mahallasidagi jamoaviy munosabatlar ham muhim rol o‘ynaydi. Oltinchidan, ta’lim muassasasidagi ochiq ijtimoiy-pedagogik tizim, sog‘lom muhit, o‘qituvchilarning kasbiy darajasi e’tiboga olinadi. Yettinchidan, o‘quvchilarning hayotiy qadriyatlarini aniqlash, ochiqlik, bag‘rikenglik, o‘zaro mehr-oqibatlilik, axloqiy fazilatlar, hayotiy maqsadlar, kasb tanlash motivlari, o‘z-o‘zini tarbiyalash, ijtimoiy harakatchanlik va faollik kabi omillar e’tiborga olinadi.

Tarbiya darsida o‘quvchilarda faollik, ijodkorlik, mehnatsevarlik, intiluvchanlik, bilimdonlik, tadqiqotchilik kabi sifatlarni shakllantiradigan hamda sheriklik (subyekt-subyektlik) muloqoti tamoyillariga asoslangan “Do‘st tanlayman”, “Ta’qiqlangan meva”, “O‘zimizni qanday tutamiz”, “Qadriyatlar”, “Qadr-qimmatliklar yarmarkasi” kabi o‘quvchilarning ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradigan ta’limiy o‘yinlardan foydalandik.

Milliy dastur asosida yaratilgan Tarbiya fanining bosh g‘oyasida kompetensiyaviy yondashuvlarga asoslangan o‘quv dasturlari bo‘yicha ta’lim jarayonini tashkil etish asosida o‘quvchilarda ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalar bilan birgalikda ularda mas’uliyat va moslashuvchanlik, muloqot qilish, ijodiylik va qiziquvchanlik, tanqidiy fikrlash, shaxslararo hamkorlik qilish, muammolarni aniqlash, yechimni topish, o‘z-o‘zini yo‘naltirish, ijtimoiy mas’uliyat kabi ko‘nikmalar shakllanadi. Bunday zamonaviy ta’lim-ta’lim berish jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning vazifasi quyidagicha bo‘ladi.

1. Zamonaviy ta’limning ahamiyati o‘quvchilarda faol ijtimoiylashuv ko‘nikmalarini shakllantirish bilan belgilanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijtimoiy munosabatlar jarayonining faol ishtirokchilari bo‘lishlariga erishishda ular tomonidan ijtimoiy va huquqiy ko‘nikmalarga ega bo‘lish o‘ziga xos ahamiyatga ega.

2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar va shart-sharoitlar o‘quvchilar tafakkurini motivatsion va refleksiv ko‘nikmalarga o‘rgatish vositalari, shakllari, usul va yo‘llarini belgilash asosida qaror topadi. Buning uchun o‘qituvchidan ta’lim-tarbiya jarayoniga ijodiy munosabatda hamda akmeologik yondashuvda bo‘lish talab etiladi.

3. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishga asoslangan innovatsion metod hamda ijodiy-ta’limiy o‘yinlar mazmunini tayanch va fanga oid kompetensiyalar bilan bog‘liq holda izohlash asosida ishlab chiqilgan, maqsaddan natijaga yo‘naltirilgan izchillik va uzviylik xarakteriga ega funksional modelni

ta’lim amaliyotiga tatbiq qilish o‘quvchilarda ijtimoiy va huquqiy me’yorlarga amal qilish ko‘nikmalarining shakllanishiga samarali ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

4. Oila, ta’lim muassasalari va jamoatchilikning o‘zaro hamkorligining tashkiliy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi ta’lim komponentlarini kuchaytirish asosida o‘quvchilarda ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalarni shakllantirish natijasida ularning faol ijtimoiylashuvini ta’minlaydi.

5. Tadqiqot davomida pedagogikaning kognitiv, madaniy, huquqiy kompetentlik tamoyillari asosida ishlab chiqilgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalari darajasini baholash mezonlari o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro sog‘lom raqobat muhitini yuzaga keltiradi.

6. O‘quvchilarni ijtimoiy va huquqiy me’yorlar bilan tanishtirishda boshlang‘ich sinflar o‘qituvchilari alohida o‘rin tutadilar. Ularning mashg‘ulot va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkillashtirish hamda yuqori saviyada o‘tkazishga nisbatan ijodiy yondashishlari pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish bilan birga, o‘quvchilarda ijtimoiy va huquqiy komptensiyalarga ega bo‘lish imkoniyatini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy-huquqiy me’yorlarga hurmat hissini shakllantirish samaradorligini oshirish yuzasidan quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

-boshlang‘ich sinf Tarbiya fanini o‘tishda amaliy tajribalarga alohida e’tibor qaratish, ya’ni imkoniyat darajasida mazkur darslarni sinf xonasida emas, mavzuga mos obyektlarda tashkil etish;

-Milliy dastur asosida yaratilgan Tarbiya fanlari dasturiga qo‘shimcha ravishda “Mashq daftari” ishlab chiqish;

-boshlang‘ich sinflarda Tarbiya fanidan dars beradigan o‘qituvchilar uchun maxsus kurslar tashkil etib, unda xorijiy tajribalarga asoslangan holda treninglar olib borish uchun dasturlar tayyorlash;

-tarbiya darslari mazmuni asosida sinfdan tashqari tadbirlarni tashkil etish orqali o‘quvchilarda ijtimoiy-huquqiy kompetensiyalarni rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar tayyorlash.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.
2. Shavkat Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash
3. Forobiy. «Fozil odamlar shahri». - T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi. nashriyoti, 1993. . 184-185-b.
4. Forobiy. «Fozil odamlar shahri». - T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi. nashriyoti, 1993. 182-b.

AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING KOGNITIV FIKRLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

MATBERDIEVA YULDUZ BAYRAMDURDIEVNA
Nukus innovatsion instituti assistenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kognitiv fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning nazariy asoslari haqida so‘z boradi. Kognitiv qobiliyatning ta’riflari, tasniflari va tarkibiy qismlari tahlil qilindi, shuningdek, ularning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida namoyon bo‘lish xususiyatlari aniqlashtirildi. Ta’lim olish jarayoni o‘quvchilarning ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan qadriyatlar nuqtai nazaridan ko‘rib chiqildi.

Kalit so‘zlar: bilish, kognitiv qobiliyat, aksiologik yondashuv, kognitiv fikrlash ko‘nikmasi, diqqat, idrok, fikrlash, xotira.

Аннотация. В данной статье говорится о теоретических основах развития умений познавательного мышления учащихся младших классов. Проанализированы определения, классификации и компоненты познавательных способностей, а также уточнены особенности их проявления у учащихся младших классов. Образовательный процесс рассматривался с точки зрения ценностей, связанных с возможностями удовлетворения потребностей учащихся.

Ключевые слова: знания, познавательные способности, аксиологический подход, навыки познавательного мышления, внимание, восприятие, мышление, память.

Abstract. This article talks about the theoretical foundations of the development of cognitive thinking skills of elementary school students. Definitions, classifications and components of cognitive ability were analyzed, as well as the characteristics of their manifestation in elementary school students were clarified. The educational process was considered in terms of values related to the possibilities of meeting the needs of students.

Key words: knowledge, cognitive ability, axiological approach, cognitive thinking skills, attention, perception, thinking, memory.

Kirish. Yurtimizda umumiy o‘rta ta’lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va aqliy rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, ta’lim-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Konsepsiyaning asosiy yo‘nalishlaridan kelib chiqib, ta’lim muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish maqsadida quyidagi vazifalar belgilab qo‘yildi:

o‘qitish usullarini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tadbiq etish;

kichik yoshdan o‘quvchilarda o‘qishga sog‘lim, kuchli va ta’sirchan motivatsiyani shakllantirish;

umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish maqsadida yangi, shu jumladan muqobil yondashuvlarni joriy etish tizimini rivojlantirish [1].

Kichik yoshdan boshlab bolalarning bilim olishga bo‘lgan chanqoqligini oshirish, o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini

shakllantirish, ularning kognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Chunki, atrofdagi dunyo haqida ma’lumotlarni va bilimlarni izlash, ularni egallash insonning kognitiv qobiliyatlari tufayli yuzaga keladi. Ushbu bilimlarni egallash esa odamlarning ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan qadriyatlar nuqtai nazaridan ko‘rib chiqilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Bu esa, aksiologik yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslarini chuqurroq o‘rganish zaruriyatini va uning ijobiy xususiyatlarini tahlil qilishni taqozo etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Zamonaviy psixologik-pedagogik tadqiqotlarni tahlil qilish natijasida, biz “kognitiv” atamasini hozirgi kunda olimlar tomonidan keng tadqiq qilinayotgan mavzulardan biri degan xulosaga keldik.

Pedagogika nazariyasi va amaliyotida “kognitiv qobiliyat” tushunchasi insonning bilish, bilim olish, o‘rganish, fikrlash qobiliyati doirasida o‘rganiladi va bugungi kunda unga turli xil yondashuvlar mavjud.

V.Shadrikov [8] va E.Soldatovalar [6], kognitiv qobiliyatni sezish, diqqat, idrok, xotira, tasavvur, fikrlash jarayonlarining individual psixologik xususiyatlari sifatida qaraydi va ular atrofdagi dunyoni muvaffaqiyatli bilishda namoyon bo‘ladi.

T.Ratanova [4] va N.Chuprikovalarning [10] fikricha, kognitiv qobiliyat faoliyat sub’ektlari va ob’ektlarining xususiyatlari, munosabatlari tizimi bo‘lib, u tahlil, sintez, abstraktsiya va umumlashtirish jarayonining asosi sifatida tushuniladi. S.Rubinshteyn [5] esa, tahlil va sintez qilish jarayoni va ularning o‘quvchi shaxsidagi rivojlanish darajasi aqliy qobiliyatlarning tarkibiy qismlari deb hisoblaydi. Bu esa “aqliy qobiliyat” tushunchasi “kognitiv qobiliyat” tushunchasiga sinonim ekanligini ko‘rsatadi.

V.Drujinin [2], A.Matyushkin [3], N.Syrnikova [7], kognitiv qobiliyatni intellekt, intellektual qobiliyat, intellektual mahsuldorlik imkoniyatlarini ifodalovchi manba sifatida tavsiflaydi.

Olimlarning asarlarini tahlil qilish natijasida, quyidagicha fikrga kelish mumkin: kognitiv qobiliyat tashqi dunyoni idrok etishning individual xususiyatlari bo‘lgan idrok, xotira, diqqat, tasavvur va fikrlash sifatida talqin qilinadi. Ushbu qobiliyat insonning intellectual faoliyatining yuqori darajada bo‘lishini ta’minlaydi va baholanadi. Demak, kognitiv qobiliyat samarali intellektual faoliyat bilan bog‘liq jarayon hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada aksiologik yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirishning nazariy asoslari muhokama qilinadi. Shuningdek, adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish, pedagogik kuzatishlar, taqqoslash, bolalarning produktiv faoliyatini tahlil qilish va tadqiqot natijalarini umumlashtirish metodlaridan foydalaniladi.

Tahlil va natijalar. Inson o‘z hayoti davomida doimo muammolarga duch keladi. Ushbu muammolarni faqat kerakli ma’lumotlarni qidirib topish, ularni amalda qo‘llash orqali hal qilishi mumkin. Insonning ma’lumotlarni izlab topishi va muayyan bilimlarni egallashi, uning kognitiv ko‘nikmalari tufayli yuzaga keladi.

Kognitiv (diqqat, idrok, fikrlash, xotira) fikrlash ko‘nikmalari – bu ma’lumotlarni olish, saqlash va qayta ishlash qobiliyati. Kognitiv qobiliyatlarni aksiologik

yondashuv asosida rivojlantirish jarayoni esa insonning ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan qadriyatlar nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning kognitiv fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayoni muhim ahamiyatga ega, chunki u fikrlash, idrok, xotira, diqqat va tasavvurni rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Bu jarayonlar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, bolaning bilim olish faoliyatini tartibga soladi. Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitishda bilish qobiliyatlarini rivojlantirish ta’limning asosiy tamoyili va maqsadlaridan biri sifatida qaraladi.

O‘quvchilarning kognitiv fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda aksiologik yondashuvdan foydalanish masalasi bugungi kunda boshlang‘ich ta’lim tizimida dolzarb masala sifatida qaralmoqda. Bunda bilim olish jarayoni o‘quvchilarning ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan qadriyatlar nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi.

Tadqiqotimiz davomida olib borilgan tahlillar natijasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kognitiv fikrlash ko‘nikmalari quyidagi tarkibiy qismlardan iborat ekanligi aniqlandi: idrok, diqqat, xotira va fikrlash.

Idrok – murakkab jarayon bo‘lib, u amaliyotda kuzatish ob’ektlari bilan ishlash jarayonida shakllanadi. Idrokning rivojlanishi hayotiy tajribani to‘plash jarayonida sodir bo‘ladi, uning natijasida o‘quvchida ichki obraz paydo bo‘ladi.

Xotira – ma’lumotlarni yodlash, saqlash va ko‘paytirishni amalga oshiradigan miya tizimining xususiyatlari.

Diqqat insonning samarali bilim olishi va muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun zarur shartlardan biridir. Maktabda diqqatni rivojlantirishning eng muhim vazifasi diqqatni nazorat qilish funksiyasini rivojlantirishdir. Diqqatning nazorat funksiyasi – bu o‘quv jarayonida harakatlarni nazorat qilish va natijalarni tekshirish qobiliyati.

Fikrlash qobiliyatlari aqliy faoliyatning muvaffaqiyati va unumdorligini belgilaydi. Fikrlashdagi individual xususiyatlar jarayonni belgilovchi fikrlash qobiliyatlarida namoyon bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kognitiv fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish xususiyatlari quyidagilardan iborat:

vizual fikrlashning ustunligi;

hissiyotlarga asoslangan idrok;

mnemonik xotira;

diqqatni yorqin materialga jamlash.

Yuqoridagi fikrlardan va izlanishlardan kelib chiqib, biz kognitiv qobiliyatning etakchi ta’rifini aniqladik, ya’ni kognitiv qobiliyatlar shaxsni individual psixologik jihatdan boshqalardan ajratib ko‘rsatuvchi diqqat, sezish, idrok etish, xotira, tasavvur, fikrlash jarayonlarining xususiyatlari sifatida qaraladi va u atrofdagi dunyoni muvaffaqiyatli bilishda namoyon bo‘ladi [9].

Xulosa va takliflar. Psixologik-pedagogik adabiyotlarning nazariy tahlili shuni ko‘rsatdiki, kognitiv fikrlash ko‘nikmalarini aksiologik yondashuv asosida rivojlantirishni o‘rganish muhim pedagogik muammolardan deb hisoblash mumkin.

Olimlar kognitiv qobiliyatlarni insonning barcha kognitiv jarayonlarining yig‘indisi deb hisoblashadi. Turli manbalarda “kognitiv fikrlash qobiliyati” aqliy qobiliyat,

intellektual qobiliyat tushunchalari bilan sinonim sifatida qaraladi. Quyidagi fikrlar esa buning ayni isboti hisoblanadi: aql-idrok har qanday faoliyatda muvaffaqiyatga olib keladigan va boshqa qobiliyatlar asosidagi umumiy bilish va muammolarni hal qilish qobiliyatini anglatadi; intellekt deganda shaxsning barcha kognitiv qobiliyatlari tizimi tushuniladi: sezish, idrok etish, xotira, tasvirlash.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni
2. Дружинин, В.Н. Когнитивные способности: структура, диагностика, развитие / В.Н. Дружинин. – Москва: ПерСе, 2001. – 223 с.
3. Матюшкин, А. М. Проблемы психодиагностики, обучения и развития школьников / А. М. Матюшкин. – Москва: АПН СССР, 1985. – 160 с.
4. Ратанова, Т. А. Диагностика умственных способностей детей / Т. А. Ратанова. – Москва: Флинта, 2003. – 164 с.
5. Рубинштейн, С.Л. Основы общей психологии / С.Л. Рубинштейн. –Санкт-петербург : Питер, 1990. – 720 с.
6. Солдатова, Е.Л. Развитие когнитивных способностей: учеб. пособие / Е. Л. Солдатова, Юж.-Урал. гос. ун-т – Челябинск, 1995. – 47 с.
7. Сырникова, Н. А. К вопросу о системной трактовке интеллекта / Н. А. Сырникова // Ученые записки института непрерывного педагогического образования: сб. статей – Великий Новгород, 1999. – С. 148-151.
8. Шадриков, В. Д. Деятельность и способности / В. Д. Шадриков. –Москва: Логос, 1994. – 315 с.
9. Шадриков, В. Д. Психология деятельности и способности человека / В. Д. Шадриков. – Москва: Логос, 1996. – 320 с.
10. Чуприкова, Н. И. Принцип дифференциации когнитивных структур в умственном развитии, обучение и интеллект / Н.И. Чуприкова // Вопросы психологии: сб. статей : в 5 ч. – Москва, 1990. – Ч.5. – С. 31-39.

BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA TADQIQOTCHILIK KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

OZODA ODILJON QIZI ABDULLAYEVA
Chirchiq davlat pedagogika universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo’lajak pedagoglarda tadqiqotchilik ko’nikmalarini shakllantirish zarurati, pedagogik asoslari hamda bosqichlari haqida fikr yuritilgan. Tadqiqotchilik ko’nikmalari shakllantirish mazmuni tahlil etilgan

Kalit so’zlar: tadqiqotchi, tadqiqotchilik, eksperimental tadqiqotlar, o‘quv-tadqiqotchilik, tadqiqotchilik ko’nikmalari.

Bugungi kunda ta’lim sohasida sodir bo‘layotgan jadal o‘zgarishlar ta'lim muassasalarida bo’lajak pedagoglarni faol ilmiy-innovatsion, tadqiqotchilik faoliyatini olib borishini talab qilmoqda. Ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borish shuningdek, tadqiqotchilik ko’nikmasini shakllantirish talabalarni mustaqil istiqbolli olim bo'lib yetishish imkonini beradi. Shuningdek, o'qish davomida muammolarni hal etish, yangi bilimlar kashf etish kabi faoliyatlar bilan shug'ullanish motivatsiyalarni oshiradi. Tadqiqotchilik ko’nikmasi talabalarda innovatsion yondashuvni, muammolarni hal etish va yechimlar topishning yangi usullarini o'rganishni rivojlantiradi. Shu nuqtayi nazardan oladigan bo’lsak, ta'lim muassasalarida talabalarning tadqiqotchilik ko’nikmasini rivojlantirish, ularni ilmiy faoliyatini qo’llab-quvvatlash dolzarb masala hisoblanadi. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi” ning 3-bobida “Oliy ta’lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish” bandining keltirilganligi ham fikrimizning dolzarbligini asoslaydi.

Talabalarni ilmiy tadqiqotga yo‘naltirish, tadqiqotchilik qobiliyatlarini shakllantirishga oid samarali yondashuvlarini aniqlash borasida ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Talaba yoshlarni ilmiy faoliyatida amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish metodologiyasiga oid tadqiqotlar “Ilmiy tadqiqot metodologiyasi” fani doirasida o‘zbek olimlaridan N.A.Shermuxamedova, M.N.Abdullaeva, A.A.Azizqulovlar, oliy ta’lim muassasalarida iqtidorli talabalarni ilmiy tadqiqotchilik kompetentligini shakllantirish bo‘yicha A.A.Abduqodirov, R.B.Abduraxmanova, B.S.Abdullaevalar, ta’limjarayonigapedagogiktexnologiyalarni qo‘llash orqali o‘quv samaradorligini oshirish, talabalarda tadqiqotchilik malaka va ko‘nikmalarini shakllantirishga oid qarashlar MDH olimlaridan V.P.Bespalko, B.T.Lixachev, V.I.Chuprasovalar asarlarida o‘rganilgan, shuningdek, N.G.Alekseyev, A.V.Leontovich, A.S.Obuxov, L.F.Fominalar o‘quvchilarda tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishgan.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida tadqiqotchi – taqdqiqot ishi bilan mashg‘ul bo‘lgan shaxs, tadqiqotchilik esa tadqiqiotchilik ishi bilan mashg‘ul bo’lgan ishlar deya tavsif qilinadi. Tadqiqotchilik XXI asr mutaxassislarining asosiy

ko‘nikmalaridan bo‘lib, u ta’lim jarayonida ilmiy tadqiqot faoliyatida namoyon bo‘ladi. Ilmiy tadqiqot – yangi bilimlar va nazariyalarni aniqlash jarayoni. Har qanday ilmiy tadqiqot bilishning maxsus tashkil qilingan jarayoni bo‘lib, unda voqelik haqidagi nazariy bilimlar o‘rganiladi, o‘zlashtiriladi va tizimga solinadi.

A.V. Leontovich o‘quvchilarda o‘quv-tadqiqotchilik faoliyati quyidagi bosqichlar orqali amalga oshirishni nazardan tutgan. Bular: o‘qituvchi tomonidan o‘z o‘quv fani bo‘yicha olib borishi mumkin bo‘lgan o‘quv-tadqiqot ishining yo‘nalishini aniqlashtirish; o‘quv-tadqiqotchilik faoliyatiga jalb etish bo‘yicha nazariy kurs dasturi va rejasini ishlab chiqish; mavzulami tanlash, o‘quv tadqiqot maqsadini aniqlashtirish; o‘quv-tadqiqot metodini tanlash va uni o‘zlashtirish; mavzuga oid ma’lumotlami yig‘ish; olingan natijalami tahlil va xulosa qilish; o‘quv-tadqiqot ishi natijalarini taqdimot qilish [1].

A.I. Savenkov o‘quv-tadqiqotchilik faoliyatini amalga oshirish jarayoni orqali o‘quvchi tadqiqotchilik izlanishi bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarga quyidagi bosqichlar orqali erishishini nazarda tutgan: muammoni qo‘yish, gipotezani ilgari surish; eksperimentni o‘tkazish; to‘plangan ma’lumotlami birlashtirish; o‘quvchining ijodiy fikrlari va xulosalari; ma’ruza matnini tayyorlash; o‘z xulosalarini himoya qilish [2].

T.V.Avgusmanovaning tadqiqot ishida o‘quv-tadqiqotchilik faoliyatini muvaffaqiyatli tashkil etishning pedagogik sharoitlarini quyidagilarda ko‘radi: ta’lim muassasalarida o‘quv-tadqiqotchilik-faoliyatini tizimli tashkil etish; o‘quvchilarda o‘quv-tadqiqotchilik faoliyatini baholash va o‘rganish; ijodiy pedagogik jamoasining tuzilishi hamda o‘quvchilarda bu faoliyatning rivojlanishini pedagoglar tomonidan kuzatib borilishi[3].

Oliy ta’lim o‘quv jarayonidagi tadqiqotchilik faoliyati talabada quyidagi bilim va ko‘nikmalarni shakllanishga zamin yaratadi[4]:

- birinchidan, sohaga oid chuqur nazariy bilimlar asosida tadqiqot mavzusini tanlash, mavzuning qamrovi, obyekti va predmetini aniqlash, amaliy ahamiyatini izohlay olish;

- ikkinchidan, ilmiy izlanishdan ko‘zlangan maqsadni belgilash, muammoli vaziyatga bartaraf etishga oid gipotezalarni ilgari surish;

- uchinchidan, tadqiqotni vorisiylik, muvofiqlik, tarixiylik, mantiqiylik va boshqa tamoyillar asosida o‘rganilgan darajasini yorita olish bilan birga, qanday ilmiy maktablar tajribasiga qarab mo‘ljal olinganligini asoslash;

-to‘rtinchidan, zamonaviy paradigmalar talabiga mos tadqiqotning ilmiy apparatini yoritish;

-beshinchidan, o‘rganilgan manba (nazariya, ta’limot, ilmiy maktablar qarashlari va hokazo)larga tayangan holda masalaga o‘z pozitsiyasini bildirish, muammoga ilmiy yechim taklif qilish va fikrlarni ilmiy uslubida kurs ishi, malakaviy bitiruv ishi, tezis, maqola, risola va dissertatsiya kabilar shaklida rasmiylashtirish.

Raxmatov A.D, Yunusov R.F lar esa o‘zining “Ilmiy tadqiqot asoslari” qo‘llanmasida ilmiy tadqiqot yoki ilmiy tadqiqiy ishlarini (ITI) maqsadiga, tabiat yoki sanoat bilan bog‘liqlik darajasi va ilmiy chuqurligiga ko‘ra uch asosiy turga ajratadi: fundamental (nazariy), amaliy va ishlanma. Shuningdek, ular fundamental va amaliy ilmiy tadqiqot ishlarni bajarish

jarayonini oltita bosqichga ajratadi va ularni asosoy bosqich sifatida tasniflaydi[5].

1-bosqich. Tanlangan mavzuning dolzarbligini asoslash va ifoda etish:

bo‘lajak tadqiqotlarga taalluqli muammolar bilan mamlakat va xorijiy adabiy manbalar bo‘yicha tanishish, uning dolzarbligini asoslash;

muammolar bo‘yicha tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlarini belgilash va tasniflash;

mavzuni ifodalash va tadqiqot annotatsiyasini tuzish;

texnikaviy topshiriqni ishlab chiqish va ITI umumiy kalendar rejasini tuzish;

kutilayotgan iqtisodiy yoki boshqa foydali samarani oldindan belgilash.

2-bosqich. Tadqiqotning maqsadi va vazifasini ifodalash:

- mamlakat va xorijiy nashrlar bibliografik ro‘yxatini tanlash va tuzish (monografiya, darsliklar, maqolalar, patentlar, kashfiyotlar va b.), shuningdek, tanlangan mavzu bo‘yicha ilmiy-texnikaviy hisobot tuzish;

- mavzu bo‘yicha manbalar va referatlar annotatsiyasini tuzish;

- mavzu bo‘yicha masalalarning ahvolini tahlil qilish;

- tadqiqot maqsad va vazifalarining bayonini tuzish.

3-bosqich. Nazariy tadqiqotlar:.

- obyekt va tadqiqot predmetini tanlash, fizik mohiyatini o‘rganish va tadqiqot topshirig‘i asosida ishchi farazni shakllantirish;

- ishchi farazga muvofiq modelni aniqlash va uni tadqiq etish;

- tadqiq etilayotgan muammo nazariyasini ishlab chiqish, tadqiqot natijalarini tahlil qilish.

4-bosqich. Eksperimental tadtiqotlar (tasdiqlash, to‘g‘rilash yoki nazariy tadqiqotlarni inkor etish uchun):

- eksperimental tadqiqotlar maqsad va vazifalarini aniqlash;

- eksperimentni rejalashtirish va uni o‘tkazish metodikasini ishlab chiqish;

- eksperimental qurilmalar o‘rnatish va eksperimentning boshqa vositalarini yaratish;

- o‘lchov usullarini asoslash va tanlash;

- eksperimental tadqiqotlar o‘tkazish va ular natijalalarini ishlab chiqish.

5-bosqich. Ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish va rasmiylashtirish:

- nazariy va eksperimental tadqiqotlar natijalarini taqqoslash, ular farqlarini tahlil qilish;

- tadqiqot ob’yekti nazariy modelini aniqlashtirish va xulosalar;

- ishchi farazni nazariyaga yoki uning raddiga aylantirish;

- ilmiy va ishlab chiqarish xulosalarini shakllantirish, tadqiqot natijalarini baholash;

- ilmiy-texnikaviy hisobot tuzish va uni resenziya qildirish.

6-bosqich. Joriy etish va iqtisodiy samaradorligi:

- tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish;

- iqtisodiy samarani belgilash.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda bo‘lajak pedagoglarda tadqiqotchilik ko‘nikmasini shakllantirishda mutaxassislik bo‘yicha chuqur bilimga ega bo’lishiga erishish, yo’nalishlari doirasida muommolarni aniqlay olishi, mavjud muommolarga ilmiy usulda yechim bera olishi, mavzu yoki mavzuga oid ilmiy manbalarni topa olishi, ilmiy muommoni tahlil qila olishi va unga mos taklif va tavsiyalar bera olishi, muommoning yechimi va unga berilayotgan taklif va

tavsiyalarga kreativ, kretik yondasha olishi, axborotlari to’g’ri tahlil qila olishi va ularni tog’ri talqin qila olishi kabi ko’nikmalariga ega bo‘lishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Леонтович А.В. Концептуальние основания моделирования исследовательской деятельности учащихся // Школьние технологии. -2006. -5. С.63-71.
2. Савенков А.И. Концепция исследовательского обучения // Школьние технологии. - М., 2008. -4. -С. 47-50.
3. Августмонова Т.В. Педагогические условия развития исследовательской деятельности старшеклассников в инновационном образовательном учреждении. Диссертация на соискание ученой степени кандитата педагогические наук. - Иркутск, 2003. -184 с.
4. Allayarova Soliha Narzulloyevna. “Talabalarni ilmiy tadqiqotga yo‘naltirishning innovatsion mexanizmlari” Ped.fan.bo‘yicha falsafa dokt. diss.si avt. Termiz, 2023. 13-bet.
5. Рахматов А.Д., Юнусов Р.Ф. Илмий тадқиқот асослари.- Т.: ТИМИ, 2008.- 210 б.

JISMONIY MADANIYAT YO‘NALISHI TALABALARINING KASBIY KOMPETENTLIGIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

VALIXANOV SAIDBEK SHOXOBIDINOVICH
ADU Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining kasbiy tayyorgarligi darajasiga qo‘yiladigan talablar nuqtai nazaridan kompetentlik bo‘lajak mutaxassisning muayyan vaziyatlarda bilim, malaka va faoliyat metodlari majmuasini maqsadga muvofiq qo‘llash qobiliyatini anglatadi.

Kalit so‘zlar: kompetentlik, kasbiy kompetentlik, kompetentli yondashuv, jismoniy madaniyat, kasbiy kompetentlikni shakllantirish tamoyillari, kasbiy kompetentligiga qo‘yiladigan talablar.

Ta’lim sifatini oshirish – bu bugungi kunda butun jahon hamjamiyatidagi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Uni hal etish uchun esa, ta’lim mazmunini modernizatsiyalash, ta’lim jarayoni texnologiyalarini va so‘zsiz ta’limning yakuniy maqsadini qayta ko‘rib chiqish talab etiladi.

Kompetentliyondashuvta’limoluvchining ijtimoiy, huquqiy, kommunikativ, ma’suliyat va moslashuvchanlik, o‘zini-o‘zi rivojlantirish, axborot savodxonligi, kasbiy va shaxsiy sifatlarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, zamonaviy sharoitlarni o‘zida amalga oshirish imkonini beradi. Kompetentli yodashuvning maqsadi – ta’lim sifat-samaradorligiga erishishdir.

“Kompetentlik” atamasiga ko‘plab tadqiqotchilar o‘z ishlarida ta’rif berib o‘tganlar. Masalan, M.A. Xolodnaya fikricha kompetentlik - bu mos faoliyatda samarali qarorlar qabul qilishga imkon beruvchi predmetli o‘ziga xos bilimlarni tashkil etishning maxsus tipi [5].

N.A. Muslimov kompetentlikni quyidagicha ta’riflagan: «kompetentlik bu talabaning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy faoliyatining amalga oshirilishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni kasbiy faoliyatda qo‘llay olishi bilan ifodalanadi» [4].

A.X. Mahmudov esa, kompetentlikka quyidagicha ta’rif bergan: «kompetentlik bu doimo o‘zgarib borayotgan sharoitlarda yoki mutaxasisning kasbiy faoliyatini samarali olib borishga imkon beruvchi shaxsga xos integrallashgan sifatlardir» [3].

Demak, kompetentlik bu aniq faoliyatni amalga oshirish uchun bilim va tajribalarga ega bo‘lgan shaxs tavsifi bo‘lib, u ta’lim oluvchi tomonidan alohida bilim va ko‘nikmalarni emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrallashgan bilimlar va sifatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi.

Kasbiy faoliyatni tashkil etishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan kompetentlikning asosiy elementlari Davlat ta’lim standartlarida o‘z ifodasini topgan.

Jismoniy madaniyat yo‘nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini aniqlash uchun ushbu tushunchani o‘rganishga bag‘ishlangan ba’zi bir tadqiqotlarga e’tiborni qaratamiz.

V.A. Adolf kasbiy kompetentlikni quyidagicha izohlagan: kasbiy kompetentlik – bu mahsuldor pedagogik faoliyatga nazariy, metodologik, predmetli, psixologo-pedagogik va texnologik tayyorgarlikni

o‘z ichiga olgan umumlashgan shaxsiy ta’limdir. Uning fikridan kelib chiqqan holda shuni ta’kidlash mumkinki, to‘laqonli kasbiy kompetentlik faqatgina harakatchan va yangilikka intiluvchi mutaxassisdagina namoyon bo‘lar ekan [2].

Shunday qilib, kompetentsiya – ma’lum bir ijtimoiy va kasbiy maqomga ega bo‘lgan shaxslarning bilimlari, ko‘nikmalari va tajribasining ular bajaradigan vazifalar va ular hal qiladigan muammolarning haqiqiy murakkabligi darajasiga muvofiqligi o‘lchovidir.

Bugungi zamonaviy modernizatsiyalashgan ta’limning asosiy maqsadlari quyidagilardir: mehnat bozorida raqobatbardosh, malakali, mas’uliyatli, o‘z kasbiga ravon va tegishli faoliyat sohalariga yo‘naltirilgan, o‘z mutaxassisligi bo‘yicha jahon andozalari darajasida samarali ishlashga qodir, mehnat faoliyatiga tayyor, tegishli profildagi malakali xodimni tayyorlash. Faoliyatning eng muhim yo‘nalishlari qatorida universitet darajasida talabalarning sifat jihatidan farq qiladigan kasbiy tayyorgarligi zarurati va keyinchalik – uning kasbiy rivojlanishi qo‘shimcha kasbiy ta’lim tizimida asosiy kasbiy bilimlarning fundamentalligini innovatsion fikrlashga, aniq ta’lim muammolarini hal qilishda amaliyotga yo‘naltirishga, tadqiqot yondashuvi bilan birlashtirishga imkon beradi. Zamonaviy jamiyat mutaxassisni kasbiy sohada bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lgan shaxs sifatida emas, balki qiyin, ba’zan nostandart vaziyatlarda samarali harakat qilishga qodir, ya’ni kompetentli deb biladi. Bunday sharoitda oliy ta’limda kompetentsiyaga asoslangan yondashuv o‘z kuchini oshirmoqda

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislarning kasbiy mahoratini rivojlantirishning muhim talabi, birinchi navbatda, uni shakllantirishning pedagogik tamoyillari hisoblanadi. Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi tahlil qilingan ilmiy tadqiqotlar har bir muallifning kasbiy kompetentsiyasini shakllantirish tamoyillariga oid falsafiy pozitsiyasini aks ettiruvchi umumiyliklarini, o‘ziga xos xususiyatlarini va muayyan subyektivizmini ochib beradi va asoslaydi. Ilmiy ishlarni tahlil qilish quyidagi prinsiplar guruhlarini ajratishga imkon berdi: oliy o‘quv yurtlarida mutaxassislarning adaptiv jarayonini tartibga soluvchi asosiy tamoyillar (kasbiy fanlarni o‘qitishning adaptiv funksiyasi prinsipi; sport mutaxassisi kasbini olishda talaba shaxsining adaptiv rivojlanishini individuallashtirish prinsipi; adaptiv-boshqariladigan ta’lim prinsipi; kelajakdagi jismoniy tarbiya va sport mutaxassisining kasbiy mahoratini rivojlantirishga qaratilgan o‘quv prinsipi); ushbu talabalarning shaxslararo, interaktiv, texnologik mashg‘ulotlarga moslashishini osonlashtiradigan asosiy tamoyillar (to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita ta’limning maqbul kombinatsiyasi prinsipi; shaxsga yo‘naltirilgan adaptiv ta’lim kontekstida bilvosita o‘zaro ta’sir usullari va vositalaridan (talaba - kontent - mutaxassis - talaba) ustuvor foydalanish prinsipi; o‘z-o‘zini moslashtirishning hal qiluvchi roli prinsipi; o‘quv jarayoni subyektlari o‘rtasida ochiq o‘zaro ta’sir sharoitida ma’naviy qulaylik prinsipi) va tartibga soluvchi umumiy didaktik tamoyillar (ilmiy bilimlar; tizimlilik; ta’lim; o‘quv jarayonini atrof-muhit bilan bog‘lash; voqelik; individuallashtirish; faoliyat; ko‘rinish), intizomiy, fanlararo va umumiy bilim, ko‘nikmalarni egallash maqsadida ta’lim muassasasining o‘quv jarayonini tartibga soluvchi va sport sohasidagi professional mutaxassislarning ularni amaliyotda qo‘llash qobiliyatini belgilaydi. Aniqlanishicha, bu tamoyillarning har biri faqat boshqalar bilan bog‘liq holda mazmunli bo‘ladi. Sport sohasidagi bo‘lajak mutaxassislarni o‘rganishning har bir bosqichida ushbu tamoyillarning izchil va uzviy o‘zaro ta’siri mehnat bozori ehtiyojlarini hisobga olgan

holda kasbiy kompetentlikni egallashni kafolatlaydi.

Jismoniy madaniyat yo‘nalishi talabalarida quyidagi kompetentsiyalarni shakllantirilishi ularning yaxlit kasbiy kompetentligini rivojlantirishga olib keladi: asosiy (g‘alaba qozonish istagini shakllantirish); umummadaniy; ijtimoiy (sport o‘yinlari ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirish vositasi sifatida); kognitiv; shaxsiy; axborot, kommunikativ, o‘zini-o‘zi tarbiyalash, o‘z sog‘ligiga malakali munosabat, moslashuvchanlik, tashkiliy (kun tartibi), harakatlanish (motorik) - amaliy kompetensiyalar.

Jismoniy madaniyat yo’nalishi talabasining kasbiy kompetensiyasi quyidagilarda yaqqol namoyon bo’ladi:

1. Jismoniy tarbiya yo’nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyasi mutaxassisning ishbilarmonlik va shaxsiy fazilatlarining uzviy xarakteristikasi bo‘lib, uning bilimi, qobiliyati, malakasi va tajribasi darajasini aks ettiruvchi, barkamol qarorlar qabul qilish bilan bog‘liq faoliyatni amalga oshirish uchun yetarlidir.

2. Jismoniy madaniyat yo’nalishi talabasining kasbiy kompetensiyasi uning shaxsiy fikr va his-tuyg‘ulari mazmuni, qadriyat yo‘nalishlari, qiziqish va ehtiyojlarining rivojlanish darajasi, jismoniy rivojlanish darajasi, o‘zlashtirish darajasi ta’sirida shakllanadi. Bo’lajak mutaxassisning bu sifatini shakllantirish uchun jismoniy madaniyat sohasida kasbiy faoliyatni amalga oshirishga psixologik, ilmiy-nazariy, amaliy, psixofiziologik va jismoniy tayyorgarligini shakllantirish kerak.

Demak, talabaning kasbiy kompetensiyasi tushunchasi shaxsning yaxlit tarkibida uning nazariy va amaliy tayyorgarligining birligini ifodalaydi va uning kasbiy mahoratini tavsiflaydi.

Jismoniy tarbiyaning maqsadi (demak, jismoniy madaniyat yo’nalishi talabasining faoliyati) insonning jismoniy rivojlanishini optimallashtirish, jismoniy fazilatlarni va ular bilan bog‘liq qobiliyatlarni har tomonlama yaxshilashdir. Ijtimoiy faol shaxsga xos bo‘lgan ma’naviy-axloqiy fazilatlarni tarbiyalash bilan jamiyatning har bir a’zosining samarali mehnatga va boshqa faoliyat turlariga tayyorgarligi asosida ta’lim, tarbiya va sog‘lomlashtirish masalalarini hal etishni ta’minlaydi. Ta’lim vazifalari ushbu profildagi talabaning asosiy funksiyalarini belgilaydi. Boshqa ixtisoslik talabalari bilan solishtirganda, jismoniy tarbiya yo’nalishi talabasi kelajakda muayyan sharoitlarda ishlaydi – bu psixologik zo‘riqish sharoitlari, jismoniy faoliyat shartlari va tashqi omillar bilan bog‘liq sharoitlardir. Shu sababli, harakatning timsolida pedagogik o‘zaro ta’sir jismoniy madaniyat talabasining kasbiy faoliyatining psixologik-pedagogik tuzilishining asosiy o‘quv va tarbiyaviy vositasi bo‘lib, uning tarkibiy qismlari dinamik harakatni konstruktiv, tashkil etish, kommunikativ, harakatchanlik sifatida hisobga olinishi kerak.

Jismoniy madaniyat bo‘yicha mutaxassislar tayyorlashga qo‘yiladigan asosiy malaka talablaridan biri ham ta’lim, fan va texnikani axborot texnologiyalari bilan ta’minlash asoslari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga qo‘yiladigan talablardan iborat bo’lib, talaba jismoniy tarbiya va sportdagi didaktik qonuniyatlar, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish va olib borish usullari; turli toifadagi odamlarni motor harakatlariga o‘rgatish hamda jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari jarayonida jismoniy fazilatlarni rivojlantirish texnologiyasiga ega bo‘lishi kerak

5112000 – Jismoniy madaniyat bakalavriat ta’lim yo’nalishining malaka talablarida quyidagilar belgilab qo’yilgan:

Umumiy talablar:

• dunyoqarash bilan bog’liq tizimli bilimlarga ega bo’lishi; gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlar asoslarini, joriy davlat

siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;

• Vatan tarixini bilishi, ma'naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g'oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lishi;

• tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi, tabiat va jamiyat rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallashi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilishi;

• insonning boshqa insonga, jamiyatga va atrof muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy hamda ma'naviy mezonlarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;

• axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

• tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;

• yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

• sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida ilmiy tassavvur hamda e'tiqodga, o'zini jismoniy chiniqtirish uquv va ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim [1].

Xulosa qilib aytganda, jismoniy madaniyat yo'nalishi talabasidan jismoniy mashqlarning nafaqat estetik tomonini his qilish, balki uni ochib bera olish qobiliyati ham talab qilinadi. Bu yerda talabaning o'ziga xos iste'dodi va, albatta, unga mos keladigan badiiy-estetik madaniyat namoyon bo'ladi. Har bir talaba tomonidan jismoniy mashqlar ma'nosini tushunish, ichki ongli konsentratsiyagae'tiborberishkerak.Insonda takomillashtirish, o'zida go'zallik yaratish zarurligini uyg'otish kerak. Shaxsning estetik fazilatlarini shakllantirishni axloqiy fazilatlarni tarbiyalamasdan, ma'naviyatni rivojlantirmasdan turib bajarib bo'lmaydi. Kuch, epchillik, go'zal figurani rivojlantirish uchun kuchli irodali harakatlar, sabr-toqat, jasorat ko'rsatish kerak. Jismoniy tarbiya ruhi nafaqat shijoatli ishtiyoq, balki, shubhasiz, yolg'on, qo'pollik, va xiyonatni istisno qiladigan xatti-harakatdir. Bu yerda jismoniy tarbiya etikasi va estetikasi birlashadi. Jismoniy tarbiyaga xos bo'lmagan xatti-harakatlar, xunuk ishlar, albatta, estetik rangga ega bo'lishi kerak. Talabalar kelajakda quyidagi vazifalarni hal qiladi: go'zallik tuyg'usini tarbiyalash, tana go'zalligini tarbiyalash, xulq-atvor axloqini tarbiyalash, ijodiy faoliyatni tarbiyalash.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 5112000 – Jismoniy madaniyat bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari 2018-yil
2. Адольф В.А. Теоретические основы формирования профессиональной компетентности учителя: автореф. дисс. д-ра пед. наук. - М. - 1998. - 48 с.
3. Mahmudov A.X. Uzluksiz ta'lim jarayoniga kompetentlik yondoshuvini joriy qilishning didaktik asoslari // Uzluksiz ta'lim. - 2012. - № 4. 8-12 betlar.
4. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. - T.: Fan. - 2004. - 127 b.
5. Холодная М.А. Психология интеллекта. Парадоксы исследования. 2-е изд. - СПб.: Питер. - 2002. - 272 с.

MEHNAT VA PREDMETLI AMALIY TA’LIM TEXNOLOGIYASI FANINING TARKIBI, MAQSAD VA VAZIFALARI, METODLARI VA UMUMIY MASALALARI

TEMUROVA GULCHEHRA XUDAYKULOVNA
Jizzax davlat pedagogika universiteti Maxsus pedagogika kafedrasi v.b.dotsenti, p.f.f.d.(PhD)

Annotatsiya: Maqolada kar va zaif eshituvchi bolalar tarbiyasida predmetli amaliy ta’lim fanining ahamiyati va uning tutgan o‘rni orqali nutq nuqsonlarini bartaraf etish va korreksiyalash haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so’zlar: nuqson, zaif eshituvchi, kar, nutq nuqsoni, korreksiyalash, mehnat, predmetli amaliy ta’lim, konsruksiyalash, qurish, yasash, elementlar

Аннотация: В статье представлена информация о значении предметно-практического обучения в обучении глухих и слабослышащих детей и его роли в устранении и коррекции дефектов речи.

Ключевые слова: дефект, слабослышащий, глухой, нарушение речи, коррекция, работа, предметно-практическое обучение, конструкция, конструкция, изготовление, элементы.

Abstract: The article provides information on the importance of subject-based practical education in the education of deaf and hard-of-hearing children and its role in the elimination and correction of speech defects.

Key words: defect, hard of hearing, deaf, speech impairment, correction, work, object-oriented practical education, construction, construction, making, elements

Bugungi kunda jamiyatimiz uchun har tomonlama rivojlangan fan-texnika taraqqiyoti natijalarini hayotga tatbiq eta oladigan, yetuk malakali kadrlar tayyorlash masalasi dolzarb bo‘lib turibdi.

O‘sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash borasidagi mavjud muammolarni hal etish ta’lim va tarbiya samaradorligini zamon talablari asosida ta’minlash, uni dunyo talablari darajasiga olib chiqishga erishish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanish orqali ta’lim-tarbiya mazmunini takomillashtirish, maktabgacha ta’lim tizimini xalqimizning boy tajribalari asosida boyitib borish va uning yangi qirralarini kashf etish bugungi kunning muhim muammolaridandir.

Mehnat va predmetli amaliy ta’lim texnologiyasi fanining maqsadi - talabalarda ruhiy va jismoniy rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalarga mehnat va predmetli amaliy ta’lim texnologiyasi yuzasidan zarur nazariy bilim va amaliy malakalar, korreksion ta`lim-tarbiya jarayonini tashkil etish shakllari hamda usullari bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdir.

Mehnat va predmetli amaliy ta’lim texnologiyasi fanining vazifasi alohida yordamga muhtoj o‘quvchilarni mehnatga o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari hamda usullarini amaliyotda qo‘llashga o‘qitishdan iborat.

Maxsus maktabning asosiy maqsadi – o‘quvchilarni kasb-hunarga o‘rgatish.

Maxsus maktabning asosiy vazifalaridan biri - o‘quvchilarni amaliy faoliyatga, ishlab chiqarish mehnatida ishtirok etishga tayyorlashdan iborat. Ushbu vazifa maxsus maktabda o‘quvchilarga kasbiy tayyorgarlik imkoniyatini yaratib beruvchi aqliy va jismoniy rivojlanishdagi nuqsonlarni bartaraf etuvchi mehnat va predmetli amaliy ta’lim texnologiyasi tizimida hal qilinadi. Mehnat va predmetli amaliy ta’lim texnologiyasi va tarbiyasi jarayonida insonning dunyo qarashi shakllanadi, iroda, jamiyatchilik tuyg`usi tarbiyalanadi. Mehnat yosh avlod tarbiyasining asosiy qismini tashkil etadi.

Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, maxsus maktablarda doim mehnat tayyorgarlik olib borilgan. Mustaqillikkacha bo‘lgan davrda mehnat faqatgina kasbiy yo‘nalishi bo‘yicha olib borilgan, uning bolalar ta’lim va tarbiyasidagi ahamiyati deyarli hisobga olinmagan edi.

Hozirgi paytda barcha maxsus maktablarda mehnat va predmetli amaliy ta’lim texnologiyasiga, umum texnika mehnati va kasbiy texnik tayyorgarlik kiradi. Ko‘rsatilgan mehnat turlarini belgilashda alohida kategoriyadagi bolalarning rivojlanish xususiyatlari hisobga olinadi.

Mehnat va predmetli amaliy ta’lim texnologiyasining birinchi bosqichida – mashg‘ulot paytida bolalar sodda asboblar, materiallar bilan tanishadilar ulardan foydalanishni o‘rganadilar, kerakli bilim va malakalarni egallaydilar. Bolalarda mehnat malakalariga bo‘lgan talablar ishlab chiqiladi. O‘quvchilar shuningdek, sodda kasbiy asboblar bilan ishlash usullarini o‘zlashtiradilar.

Mehnat va predmetli amaliy ta’lim texnologiyasining asosiy mazmunini materiallar bilan amaliy ishlash tashkil etadi (qum, plastilin, qog‘oz va boshqalar). Material bilan ishlash jarayonida ularning jismoniy xususiyatlari haqida tasavvur hosil qiladilar.

Mehnat va predmetli amaliy ta’lim texnologiyasining mazmuni maktabning o‘quv, tarbiyaviy va korrektsion vazifalari bilan aniqlanadi. Dastur o‘quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishni ko‘rib chiqadi. Mehnat va predmetli amaliy ta’lim texnologiyasi mashg‘ulotlarida boshqa darslarda egallanadigan bilimlarni mustahkamlash va kengaytirishga asosiy e’tibor qaratiladi. Shunday qilib, ta’limning birinchi bosqichida umumiy ta’lim vazifalari hal qilinadi.

Mehnat va predmetli amaliy ta’lim texnologiyasining ikkinchi bosqichida umum texnik tayyorgarlik, uning vazifasi bolalarni oddiy materialni qayta ishlash, mehnat turlari bilan tanishtirish tashkil etadi. Shular bilan birgalikda o‘quvchilarda amaliy faoliyatida turli asboblardan foydalanish malakasi shakllanadi.

Bu ma’lum bir mehnat turiga bo‘lgan qiziqishni aniqlash va kasb tanlashga yordam beradi. Bu bosqichda o‘quvchilar kasbiy ta’limga tayyorlovchi bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘ladilar. Umum texnik mehnat darslari o‘quvchilar bilish faoliyatining keyingi bosqichida nutqni takomillashtirish, xotira, diqqat, tafakkur, tasavvurni rivojlantirish ishlari amalga oshiriladi. Umum texnik mehnat mazmunini belgilashda umumiy ta’lim vazifalari hisobga olinadi.

Uchinchi bosqich - kasbiy texnik tayyorgarlik. Uning vazifasi mutaxassisliklar bo‘yicha ishchilar tayyorlashdan iborat. Bu bosqichda kasbiy va yordamchi material usullari talablarini amalga oshirish yo‘li orqali qo‘l asboblari bilan ishlash malakalari rivojlantiriladi. Texnologiya haqidagi savollar bilan tanishishga ko‘proq vaqt ajratiladi.

O‘quvchilar mehnatning turli shakllari va ishlab chiqarish bilan tanishadilar. Yordamchi maktab o‘quvchilari ishlab chiqarishni tashkil etish va texnologiya haqidagi eng oddiy tushunchalarga ega bo‘ladilar.

Kasbiy-texnik tayyorgarlik dasturiga mashina boshqarish kursi ham kiradi. Yordamchi maktabda o‘quvchilarga mashina boshqarish bo‘yicha ba’zi bir mashg`ulotlargina beriladi, ko‘r va zaif ko‘ruvchilar, eshitishda nuqsoni bor bolalar maktablarida mashina boshqarish kursi kengroq hajmda olib boriladi. O‘quvchilar ish tartibi bo‘yicha konstruksiyalar bilan tanishadilar. Har bir o‘rganilayotgan kasb uchun stanoklar jihozi bilan tanishish ko‘zda tutiladi. Ish hujjatlaridan foydalanishga bo‘lgan talab ortadi. Kasbiy tayyorgarlikda o‘quvchilarning bilim va malaka doirasini kengaytiruvchi va ularni zamonaviy ishlab chiqarish amaliyoti muhim o‘rin tutadi.

Ishlab chiqarish amaliyoti - o‘quvchilarga maktab ustaxonalaridagi mashg`ulotlarda har doim ham o‘rgana olmaydigan bilim va malakalarni egallashga yordam beradi. Ishlab chiqarishni tanlashda amaliyotni o‘tkazish

uchun maxsus maktab o‘quvchilarining nuqsoni hisobga olinadi. Mehnat va predmetli amaliy ta’lim texnologiyasi barpo etishning yagona tamoyiliga qaramay, har bir maxsus maktab uni o‘quvchilarning xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etadi. Turli toifadagi nuqsonli bolalarning psixojismoniy rivojlanish xususiyatlari, maxsus maktabdagi umumiy ta’lim , kasbiy va politexnik ta’lim mazmunini belgilashga, shuningdek, o‘quvchilarning mehnat tayyorgarligining darajasiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi,.

Bugungi kunda umumiy ta’lim va politexnik tayyorgarlik kasbiy mehnat va predmetli amaliy ta’lim texnologiyasi uchun asos bo‘ladi. O‘quvchilar metallni qayta ishlash turlari bilan tanishadilar, radio va elektromontaj ishlarini o‘zlashtiradilar.

Eshitishning yo‘qligi kasb egallashda kar insonlarning imkoniyatlarini cheklovchi obyektiv sabab bo‘ladi.

Surdopedagogika tarixidan ma’lumki, tilga maxsus o‘qitish amaliyotiga kommunikativ (muloqot) tamoyili kirib kelishining amaliy faoliyat bilan bog‘liqligi S.A.Zikov tomonidan ishlab chiqilgan. Bizning respublikamizda eshitmaydigan bolalar maktablarining ovoz kuchaytiruvchi apparatlar, sinf xonalarining maxsus jihozlar, muassasalarning defektolog-surdopedagoglar bilan ta’minlanganligi, o‘quvchilarda so‘zlashuv nutqidan (og‘zaki, yozma) muloqotda foydalanish imkoniyatining past ko‘rsatkichdaligi hamda o‘zbek tili qonuniyatlarining rus tili qonuniyatlaridan tubdan farq qilishi S.A.Zikov va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan metodikani aynan qo‘llash imkonini bermaydi. Tilga maxsus o‘qitishning faoliyat tamoyilini qo‘llash predmetli amaliy ta’lim darslarida amalga oshadi. Bu darsda o‘quvchilarning o‘qituvchilar, o‘rtoqlari bilan bevosita muloqoti uchun tabiiy vaziyatlar yaratiladi.

Amaliy faoliyat davomida o‘qituvchilarning o‘quvchilarga murojaatlari, savollari, topshiriqlari oson o‘zlashtiriladi.

Predmetli amaliy ta’lim darsi eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar maktablarida asosiy va yetakchi dars hisoblanadi.

Uning mohiyati shundan iboratki, predmet anglatgan mazmun, predmetga oid voqea-hodisalar, miqdor va sifat tushunchalari bevosita amaliy faoliyat asosida egallanib, tajribada qo‘llaniladi.

Predmetlarning o‘quvchilar tomonidan o‘z qo‘llari bilan tayyorlanishi, ularni tayyorlashda turli predmetlardan foydalanish o‘quvchilarga predmet va uning xususiyatlari bilan tanishishda qulay va mos sharoitni yuzaga keltiradi. Amaliy ta’lim orqali shu sharoitning yaratilishi predmetli amaliy ta’lim darsining mazmunini ochib beradi.

Bu darsda amaliy faoliyat jarayonida nutq, nutqiy ko‘nikmalar egallanadi.

Eshitmaydigan bolalar maktablarida predmetli amaliy ta’lim darsi o‘zida nutq o‘stirish, daktil nutqqa o‘qitish, yozuv, matematika darslari va shular zamirida tarbiyaviy yo‘nalishlar mazmunini mujassam etadi.

Surdopedagogika karlarni mehnatga tayyorlashda kasbiy yondashuvdagi qiyinchiliklarni bartaraf eta oladi. Maxsus maktablar amaliyoti shuni isbotlab berdiki, karlar turli kasblarni egallashlari va unda samarali mehnat qila olishlari mumkin. Karlar maktablarining tarbiyalanuvchilari metallni qayta ishlash sanoatining turli mutaxassisliklarini egallaydilar. Karlar uchun mos keluvchi mutaxassisliklar yog`ochni qayta ishlash sanoati bilan bog`liqdir. So‘nggi yillarda kar o‘quvchilar elektr va radiomontaj, chizmachilik va boshqa mehnat turlari kabi kasblarni egallamoqdalar.

Umum ijtimoiy vazifalardan tashqari, maxsus mehnat va predmetli amaliy ta’lim texnologiyasi zaif eshituvchi bolalar rivojlanishidagi kamchiliklarining korreksiyasi va kompensatsiyasi bilan bog‘liq alohida vazifalarga ega. Bu vazifalarni yechishda pedagogik, tibbiy va texnik vositalar kompleksi ishlatiladi. Bunda pedagogik vosita asosiy vosita hisoblanadi. O‘quv predmetlari nafaqat

o‘rganish obyekti, balki maxsus vazifalarni yechish vositasi bo‘lib ham qo‘llaniladi. Bu rejada Mehnat va predmetli amaliy ta’lim texnologiyasi zaif eshituvchi bolalar rivojlanishidagi kamchiliklarning korreksiya va kompensatsiyasida yetakchi vositalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Mehnat yosh avlod tarbiyasining asosiy qismini tashkil etadi. Mehnatda aqliy operatsiyalarni bajarish, malaka va ko‘nikmalari bolada maqsadga qaratilgan tarbiyalash ishlari o‘qituvchi tomonidan doimiy ravishda olib borilgan holdagina ta’sirliroq bo‘ladi. Odatda, istalgan predmetni ishlab chiqarish jarayoni bir qator operatsiyalardan iborat. Ularni bajarish jarayonida ketma - ketlikni qat’iy kuzatish kerakligi, bolalarda ishni rivojlantirish rejasini to‘zishni bilish, fikrlashning oliy shakllari rivojlanishidan dalolat beradi. Predmetlarning analitik idrok bilan bog‘liq ma’lum belgilari bo‘yicha bahosini chiqarish, qilingan ishning sifatini belgilash zarurati bilan o‘quvchilar mahsulotni ishlab chiqarish ustida ishlayotganlarida duch keladilar. Bu yerda ham idrok jarayonlarining tartiblanganiga qaratilgan korrektsion tarbiyaviy ish olib borilishi kerak.

Fikrlash operatsiyalari (analiz, taqqoslash) ni yuzaga keltirish qobiliyati maktabdan tashqari ta’lim jarayonida shakllanganlarni o‘z amaliy faoliyatida foydalanish holatida bo‘lganlarida yordamchi maktab ta’lim oluvchilarining aqliy rivojlanishi mustahkamlanadi. Shuning uchun ham ta’lim vaqtidagi yangi sharoitlarda orttirilgan malakalarni qo‘llash maqsadi maxsus rejalashtirilgan va tashkillashtirilgan sinfdan va maktabdan tashqari mehnat faoliyati kar va zaif eshituvchi bolalar uchun katta ahamiyatga ega.

Mehnat jarayonida eshitish, harakat va boshqa saqlangan analizatorlarning takomillashishi markaziy apparat analizatorlarining analitika-sintetik faoliyati takomillashishi bilan bog‘liq. Bu esa mehnat va predmetli amaliy ta’lim texnologiyasida ko‘zi ojizlarning oliy ruhiy funktsiyalarining takomillashishiga xizmat qilishini bildiradi.

Mashinaning qismlari mexanizm tugunlari, ularning vazifasi va harakatlanish prinsiplari bilan tanishtirish ko‘zi ojizlarning konstruktiv texnik fikrlashi, maxsuslashtirilgan (texnik) fazoviy mo‘ljalni rivojlantirish vositalaridan biridir.

Mehnat va predmetli amaliy ta’lim texnologiyasida ko‘zi ojizlarda tirishqoqlik, intiluvchanlik, diqqat, mehnat va predmetli amaliy ta’lim texnologiyasida oriyentatsiya uchun mavjud bo‘lgan belgilarni ajrata olishni bilish sifatlari tarbiyalanadi.

Bolalar uchun asosiy maxsus vazifa ta’lim oluvchilarning og‘zaki nutqini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat. Uning yetarlicha rivojlanmaganligi karlarning barcha bilish faoliyatlariga, kasbiy mehnat tayyorgarligini oshirish imkoniyatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Surdopedagogikada og‘zaki nutqni shakllantiruvchi turli xildagi uslublar va vositalar ishlab chiqilganligi ta’lim tizimida mehnat darslarini qo‘llash ma’lum o‘rinni egallashidan dalolat beradi. Mehnat va predmetli amaliy ta’lim texnologiyasini to‘g`ri tashkil qilish aniq tasavvurlarni beradi, qabul qilishni, xotirani, fikrlash va bilish faoliyatining boshqa turlarini rivojlantiradi. Bundan tashqari, mehnat tayyorgarligi jarayoni lug`at boyligini kengaytirish, jamiyat talabini rivojlantirish, boyitish, ularga taalluqli mehnat bilimlarini, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

Karlar bilan amaliy ishlashda ma’lum qiyinchiliklar mavjudki, ta’lim oluvchilar o‘qituvchidan olayotgan topshiriqni har doim ham tushunmaydilar.

So‘zli topshiriqni (texnologik kartochkalarni, chizmalarni) tushunish qiyinchiligi, ayniqsa, ma’lum obyekt tayyorlashda talab qilinadigan operatsiya kompleksini mustaqil bajarish zaruriyatida bilinadi. Bu holat karlarning ishlab chiqarishda, sanoat va qishloq xo‘jaligida qatnashish imkoniyatlarini pasaytiradi.

Kar bolalarni mehnatga tayyorlash tizimiga ta’lim oluvchilarni so‘zli vosita (og‘zaki va yozma so‘zli topshiriq turli

xildagi texnologik kartochkalar, chizmalar, tushuntiruvchi tekstil rasmlar) asosida o‘z ish faoliyatini tashkillashtirish kiradi. Bu bilan bog‘liq holda o‘quvchilarda hamma vazifalar va alohida operatsiyalarni bajarishning sifatiga to‘g‘ri baho berish, operatsiyalarni belgilash, rejalashtirish va reja asosida ishlay bilish qobiliyatini shakllantirish bo‘yicha ishlar olib boriladi.

Mashina uskunalari, asboblar, materiallar bilan o‘quvchilarning bevosita amaliy faoliyati Mehnat va predmetli amaliy ta’lim texnologiyasiga kiritilgan real hodisalar va narsalar haqida o‘quvchilar tasavvurlarini aniqlashtirish uchun qulay sharoit yaratib beradi. Mehnat mashg`ulotlari jarayonida so‘zli vositalarda aks etgan turli xil sabab oqibatli bog‘lanishni sezish mehnat faoliyati bilan bog‘lik. Agar mehnat, mashg`ulotlari jarayonida bunga maxsus o‘rgatilmasa, karlar uchun ma’lum qiyinchilik tug‘diradi. Ko‘rsatilgan topshiriqni muvaffaqiyatli bajarish karlarni ishlab chiqarish jamiyatiga qabul qilish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

Shuni ham aniqlash lozimki, eshitishning yo‘qligi ta’lim oluvchilarning harakat sohasi rivojlanishiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Ularda tengdoshlariga qaraganda harakatlarining sustlashganligi yaqqol seziladi.

Ta’lim jarayonida, karlarning harakat tezliklari osha boradi. Mehnat darslariga tegishli mashqlarni kiritish qisqa muddat ichida to‘g`ri tezlashgan malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish imkonini beradi, karlarning motorikasi to‘la rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Ish rejasini to‘zishni bilish fikrlashning oliy shakllari rivojlanishidan dalolat beradi.

Predmetlarning analitik idrok bilan bog‘lik ma’lum belgilari bo‘yicha bahosini chiqarish, qilingan ishning sifatini belgilash zarurati bilan o‘quvchilar mahsulotni ishlab chiqarish ustida ishlayotganlarida duch keladilar. Bu yerda ham idrok jarayonlarining tartiblanganiga qaratilgan korrektsion tarbiyaviy ish olib borilishi kerak.

Kar va zaif eshituvchi bolalarning ta’lim jarayonida shakllangan malakalari yangi sharoitlarga yomon moslashadi.

Fikrlash operatsiyalari (analiz, taqqoslash, umumlashtirish)ni yuzaga keltirish qobiliyati ta’lim jarayonida shakllangan maktabdan tashqari o‘z amaliy faoliyatida foydalanish holatida bo‘lganlarida yordamchi maktab ta’lim oluvchilarining aqliy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Shuning uchun ham ta’lim vaqtidagi yangi sharoitlarda orttirilgan malakalarni qo‘llash maxsus rejalashtirilgan va tashkillashtirilgan sinfdan tashqari va maktabdan tashqari mehnat faoliyati kar va zaif eshituvchi bolalar uchun katta ahamiyatga ega.

Mehnat va predmetli amaliy ta’lim texnologiyasi ta’lim oluvchilarga atrofdagi olam haqida aniq bo‘lmagan va xato tushunchalar va tasavvurlarni to‘g‘rilashga, aniqlashtirishga yordam beradi. Ijtimoiy ahamiyatli ishlab chiqarish mehnatida qatnashish yordamchi maktab ta’lim oluvchilarida zaruriy axloqiy (mehnatsevarlik, jamoa bilan ishlay bilish malakasi) sifatlarini shakllantirishning asosiy shartlaridandir.

Karlar maktablarining tarbiyalanuvchilari metallni qayta ishlash sanoatining turli mutaxassisliklarini egallaydilar. Karlar uchun mos keluvchi mutaxassisliklardan yana biri bilan yog‘ochni qayta ishlash sanoati bilan bog‘liqdir. So‘nggi yillarda kar o‘quvchilar elektro va radiomontaj, chizmachilik va boshqa mehnat turlariga oid kasblarni egallamoqdalar.

Jismoniy rivojlanishdagi kamchiliklarni korreksiyalashga kar va zaif eshituvchi bolalardagi Mehnat va predmetli amaliy ta’lim texnologiyasi yordam beradi. Eshitish faoliyatining buzilishi sababli kar va zaif eshituvchilar maktablari ta’lim oluvchilarining rivojlanishida bir qancha kamchiliklar mavjud. Bu kabi hollarda Mehnat va predmetli amaliy ta’lim texnologiyasi mehnat terapiyasi sifatida qo‘llanilishi lozim.

Bu haqda xorijiy adabiyotlarda quyidagicha qarashlar mavjud: “Art terapiya malakali art-terapevt ishtirokidagi o‘zligini ifodalash va aks ettirishda badiiy vositalarning qo‘llanilishidir. Art-terapevtga yo‘naltiriladigan mijozlar

avval ushbu sohada tajriba yoki malakaga ega bo‘lishlari shart emas, ya’ni art – terapevt mijozning estetik va diagnostik imijini shakllantirishga birinchi galda e’tibor qaratmaydi. Uning amaliy faoliyati – mijozga badiiy materiallar yordamida shaxsiy o‘sish va o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun xavfsiz va qulay muhit yaratishdan iborat”.

Bayon etilgan materialni umumlashtirib quyidagicha xulosalarga kelish mumkin: Maxsus maktabdagi Mehnat va predmetli amaliy ta’lim texnologiyasi keng doirali vazifalarning yechimini ta’minlash, eng avvalo, o‘z tarbiyalanuvchilariga keyinchalik ishlab chiqarish mehnatida ishtirok etishga imkon beruvchi tayyorgarlikni berishi kerak. Ta’lim oluvchilarning umum ta’lim va ruhiy - irodaviy tarbiyalanishlarida mehnat darslari muhim ahamiyatga ega. Maxsus maktab o‘quvchilarining atrofdagilar bilan muloqoti chegaralanganligi mehnat va predmetli amaliy ta’lim texnologiyasining vazifasiga zaif eshituvchi bolalarning kamchiliklarini korreksiyalashni ham kiritadi. Barcha maxsus maktablari uchun mehnat va predmetli amaliy ta’lim texnologiyasi vazifalarining yagona shakliga qaramay, har bir turdagi maktab uchun uning mohiyatli maxsuslashtirilgandir.

Hozirgi vaqtda zaif eshituvchi bolalarning har bir kategoriyasi ta’limiga mehnat metodlari va vositalarini ishlab chiqish defektologiyaning dolzarb muammolaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami. 1997 y. O`z.Res Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 4 iyundagi 282-sonli “HUNARMAND” xalq hunarmandlari uyushmasini tashkil etish va uning faoliyati masalalari to`g`risida”gi Qarori. O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami. 2005 y., 12-13-son, 90-modda.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 28-mart, PF-3588-sonli “Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san`atining yanada rivojlantirish chora tadbirlari to`g`risida”gi Farmoni.
3. N.Yusupova, “Qo‘l mehnatini o‘qitish maxsus metodikasi va predmetli -amaliy ta’lim” T.: «Nizomiy nomidagi TDPU”, 2012
4. L.N.Gushkin., V.R.Xiltunin «Mehnat eng yaxshi tarbiyachi» t.2020 y.
5. S.Karimova «Moxir qo‘llar». T. «O‘qituvchi» nashiryoti. 2018y.
6. 1—5 sinf uchun «Texnologiya» darsligi.
7. «O‘zing yasa» Xasanboyeva .O.T. 2020 y
8. M.F.Xakimova Maxsus yordamga muxtoj o‘quvchilarni kasb-hunarga tayyorlashning pedagogik asoslari Ped. fan. dok. Diss. – T.: 2010.

TALABALARDA “ELEKTR VA MAGNETIZM”DAN MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISH METODIKASI

MAMANAZAROV BO’RI QULTO’RAYEVICH
TerDU, Umumiy fizika kafedrasi o’qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada oliy ta’lim muassasalarining fizika ta’lim yo’nalishi talabalarida “Elektr va magnetizm” kursida mustaqil ishlarni tashkil etish yuzasidan taklif va tavsiyalar o’rin olgan.

Tayanch so’z va iboralar. Kognitiv, kreativ, loyiha, eksperiment, SWOT tahlil, tanqidiy fikrlash.

Ta’lim muassasasi barcha turdagi ta’lim texnologiyalarini amalga oshirish muhim, chunki ularning bir-birlarini to‘ldirish imkoniyati talabalarda mustaqil ishni bajarish jarayonini ilmiylik, izchillik, tizimlilik, uzluksizlik tamoyillarini hisobga olgan holda, amalga oshirish imkonini beradi. Shuningdek, mustaqil ishni bajarish faoliyatini samarali amalga oshirishda o‘qitishning faol metodlari tanlandi. Bular: kognitiv, kreativ, loyiha va eksperiment.

Kognitiv (o‘quv anglash) metodlar orqali voqea hodisa to‘g‘risida yangi bilimlar o‘zlashtiriladi. Kognitiv metodlar gipotezalar, evristik savollar, evristik kuzatish, eksperiment metodi, loyiha metodi kabi metodlarni o‘z ichiga oladi. Kognitiv metodlarning o‘quv jarayoniga qo‘llanilishi ta’limdagi samaradorlikni oshiradi hamda talabalarda kognitiv (muamoni qo‘yish va izlash, tadqiqot gipotezani shakllantirish, mustaqil ishni o‘tkazish rejasini tuzish; mustaqil ishdagi ob’yektlar orasidagi bog‘lanishlarni ko‘ra olish va ularni ajrata olish; mustaqil ishi yuzasida muhokamaga kirisha olish, kezi kelganda o‘z qarashida turib fikrini himoya qilish; mustaqil ishi yuzasidan tahlil, umumlashtirish va xulosa chiqarish) sifatlarning rivojlanishiga olib keladi.

O‘qitishda kreativ metodlar, talabalarda ta’limga oid yangiliklarni shaxsan kashf etishga yetaklaydi. Kreativ metodlar o‘ylab topish, giperbolizatsiya, aqliy hujum, qora yashik yoki ko‘p o‘lchamli matritsa, SWOT, inversiya yoki murojat qilish metodi kabi metodlarni o‘z ichiga oladi. Kreativ metodlarning o‘quv jarayoniga qo‘llanilishi ta’limdagi samaradorlikni oshiradi hamda talabalarda kreativ (fantaziya qiladigan, g‘oyalarni bera olish, fikriy eksperimentni o‘tkaza oladigan, ichki kechinmalar bilan kurasha olish, tashabuskorlik, kashfiyotchilik, o‘ylagan fikriga tayyor turish, o‘rganilayotgan ob’yekt haqida dialog olib borish, anglash metodlarini tanlay olish kabi) sifatlarning rivojlanishiga olib keladi.

Loyiha (lot. “projectus” - “ilgari surilgan”) metodida - aniq reja, maqsad asosida uning natijasi kafolatlanadi. Eksperiment loyihalari - izlanish tavsifiga ega loyihalar bo‘lib, uning tarkibiy tuzilishi muammoning qo‘yilishi, tadqiqot maqsadi, vazifalari, muammoni tadqiq etishda qo‘llaniladigan metodlarga asoslangan holda ilgari suriladigan amaliy tavsiyalardan iborat bo‘ladi.

Talabalarda mustaqil ishni bajarish ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayoniga qo‘llanilgan metodlardan biri - SWOT metodi hisoblanadi. “SWOT” inglizcha so‘zlarning bosh harflari bo‘lib (S- (strength)- kuchli tomonlari, W- (weakness)-zaif, kuchsiz tomonlari, O -(opportunity)- imkoniyatlari va T - (threat)- to‘siqlar) manosini angatadi. “SWOT” metodining maqsadi mavjud nazariy bilimlar va loyiha eksperimentlarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash,

takrorlash, baholash, tahlil qilish, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

Talabalarning mustaqil ishni bajarish ko‘nikmalarini rivojlanganlik darajasini aniqlashning mezonlari ishlab chiqishda O.V.Onoprienkoning baholash mezoni asos qilib olindi. Talabalarning Umumiy fizika fanidan mustaqil ishni bajarish ko‘nikmalarni rivojlanganligini quyidagi uch darajasi yetarlicha asoslangan bo‘lib, ular quyidagilardan tashkil topadi.

Birinchi (quyi) daraja, o‘quv dasturiga ko‘ra, talabalarda asosiy tushunchalar shakllantirilishi talab qilinadigan amaliy ko‘nikma va malakalar quyidagi talablardan tashkil topadi:

mustaqil ish uchun kerakli asboblarni va ular qo‘llanadigan sohalarini (masalan, multimetr, otsillograf, vatmetr, ampermetr tok kuchini, ommetr yordamida qarshilikni, voltmetr yordamida esa elektr zanjirining uchlarida yoki ma’lum qismida kuchlanishni o‘lchash asbobi ekanligi va hokazo) bilish;

o‘lchanadigan kattaliklarning birliklari va ularning qanday harflarda ifodalanishini bilish;

o‘lchov sxemalarda asboblarning shartli belgilarini (elektr asboblarining o‘zgaruvchan yoki o‘zgarmas tokka mo‘ljallanganligini) va ularni sxemada qanday aks ettirish lozimligini bilish.

Bunday ko‘nikmalarning talabalarda shakllanganligi, ularga tavsiya etilgan reproduktiv topshiriqlar asosida, ularning zaruriy ko‘nikmalarni qayd qila olish qobiliyatlari orqali aniqlanadi.

Ikkinchi o‘rta daraja. Talabalarda mustaqil ishni bajarish ko‘nikmalarini rivojlanganligining ikkinchi o‘rta darajasi ularda shakllangan quyidagi ko‘nikmalar asosida aniqlanadi:

mustaqil ish uchun zarur bo‘lgan jihoz va asboblarni to‘g‘ri tanlay olish;

mustaqil ishda qo‘llaniladigan asboblarning ishlash prinsipini yaxshi anglash, jumladan, asbob shkalasining har bir bo‘lagining qiymatini aniqlay olish, asbobning o‘lchash chegarasi va unda ko‘rsatayotgan qiymatni qayd qila bilish;

agar mustaqil ish elektr bo‘limiga oid bo‘lsa, mustaqil ish qurilmasini elektr zanjir sxemasi asosida qurish va bu ishni to‘g‘ri bajarish konikmasiga erishish. Buning uchun berilgan topshiriqlar ham reproduktiv tavsifida bo‘lib, biroq ularni bilish faqat xotira asosidagina emas, balki aqliy mushohada qila olish orqali yechilishi lozimligini (ma’lum darajada - ijodiy yondashish asosida) hisobga olish kerak bo‘ladi.

Uchinchi yuqori daraja. Uchinchi bosqich, o‘qitishda mustaqil ish mohiyatini o‘zlashtirishning uchinchi yuqori darajali maqsadiga erishishga qaratilgan bo‘lib, talabalar faoliyatida erishilgan quyidagi ma’lumotlar asosida aniqlanadi:

mustaqil holda zaruriy ma’lumotlarni to‘plash, hisob ishlarini (shuningdek, o‘lchash xatoliklarini aniqlashni) mustaqil bajara olish qobiliyatiga ega bo‘lish;

mustaqil ishda olingan natijalarni qayta ishlashda AKT dasturlari va kompyuter vositasida bajarishlari uchun zarur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish;

olingan natijalarni jadvalga tushirish, kattaliklar orasidagi o‘zaro bog‘lanishlarni grafik holatda tasvirlay olish;

mustaqil ishda olingan natijalar asosida, talabalarning nazariy bilimlarini mushohada qilishi (olingan natijalar asosida xulosa chiqara olish);

aqliy faoliyat jarayonida texnik yondashuvlarning shakllantirilganligi, mustaqil ishga oid savollarga javoblar bera olishi va boshqalar kiradi.

Faoliyat natijalarining ko‘rsatishicha, o‘qitish jarayonida talabalarda mustaqil ishni bajarish ko‘nikmasining shakllanganlik darajalariga kelsak, tekshirishning birinchi

darajasiga oid tushuncha, bilim, ko‘nikma va malakalari yetarlicha to‘la, biroq ikkinchi va uchinchi bosqichiga oid yuqorida ta’kidlangan omillar, aksariyat to‘la o‘zlashtirilmaganligini ko‘rsatadi. Gap shundaki, birinchi bosqichga doir erishilgan bilimlardan so‘ng ikkinchi va uchinchi bosqich bilim va ko‘nikmalariga barchani bir tekis o‘tkazish ancha murakkab bo‘lib, unga erishish, asosan o‘quv jarayonida topshiriqlarni tizimli bajarib borish orqali amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tursunova S.I., Choriyeva H.B. Talabalarda mustaqil ta’lim jarayonida ishlash ko’nikmalarini shakllantirish. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. -Toshkent, 2023. -B. 1158-1162.
2. Abdimurotov A.I. Talabalarning mustaqil ta’lim olish imkoniyatlarini rivojlantirish mexanizmlari. Zamonaviy biologiyaning dolzab muammolari, yechimlari, istiqbollari va o‘qitishda fan-ta’lim integratsiyasi. Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman, 26-27 oktabr. - Chirchiq, 2023. -B. 370-374.
3. Abdumuminova D. Ingliz tilini o’qitishda talabalarning mustaqil ta’lim ko’nikmalarini rivojlantirishning nazariy asoslari. O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. -Toshkent, 2023. -№17.-B. 351-358.
4. Ibragimova Sh.T. Talabalarning mustaqil ta’lim olishlarini samarali tashkil etish pedagogik muammo sifatida. Scientific approach to the modern education system. international scientific-online conference. 5-noy-abr. -France. 2023. -B. 143-146

INKLYUZIV TA’LIM TAMOYILLARI

RUZIYEVA NIGORA ZOHIDJONOVNA
Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o’rgatish milliy markazi

Annotation: This article discusses some principles related to inclusive education. How to avoid barrier regarding to inclusive education, barriers of race, gender, ability, socioeconomic status. Here, we delve into the foundational principles that underpin this transformative educational model.

Key words: inclusive, principles, race, gender, equity and access.

Аннотация: В данной статье рассматриваются некоторые принципы, связанные с инклюзивным образованием. Как избежать барьеров в отношении инклюзивного образования, барьеров расы, пола, способностей, социально-экономического статуса. Здесь мы углубимся в основополагающие принципы, лежащие в основе этой преобразующей образовательной модели.

Ключевые слова: инклюзивность, принципы, раса, пол, равенство и доступ.

Annotatsiya: Ushbu maqolada inklyuziv ta’lim bilan bog’liq ba’zi tamoyillar muhokama qilinadi. Inklyuziv ta’lim, irq, jins, qobiliyat, ijtimoiy-iqtisodiy maqomga bog’liq to’siqlardan bartaraf etish yo’llari muhokama qilinadi. Ushbu maqolada biz ushbu o’zgaruvchan ta’lim modelini asoslaydigan asosiy tamoyillarni ko’rib chiqamiz.

Kalit so’zlar: inklyuziv, tamoyillar, irq, jins, gender tenglik va foydalanish imkoniyati.

Inklyuziv ta’lim ta’lim sohasida taraqqiyot yo‘li bo‘lib, har bir shaxsning farqlaridan qat’i nazar, sifatli ta’lim olish uchun asosiy huquqlarini himoya qiladi. Xilma-xillik ta’lim tajribasini boyitadi, degan ishonchga asoslangan inklyuziv ta’lim irq, jins, qobiliyat, ijtimoiy-iqtisodiy maqom va boshqalar to‘siqlarini yengib o‘tadi. Bu shunchaki pedagogik yondashuv emas, balki har bir o‘quvchining o‘ziga xosligini nishonlaydigan va moslashtiradigan falsafadir. Bu yerda biz ushbu o‘zgaruvchan ta’lim modeliga asos bo‘lgan asosiy tamoyillarni ko‘rib chiqamiz.

Tenglik va foydalanish imkoniyati: Inklyuziv ta’lim barcha o‘quvchilarning kelib chiqishi yoki sharoitlaridan qat’i nazar, ta’lim olish imkoniyatlaridan teng foydalanishini ta’minlaydi. Bu o‘quvchilarning ayrim guruhlarini ta’lim jarayonida to‘liq ishtirok etishiga to‘sqinlik qiladigan qashshoqlik, kamsitish va resurslarning yetishmasligi kabi tizimli to‘siqlarni hal qilishni o‘z ichiga oladi. Ta’lim sohasidagi tenglik nafaqat ta’lim resurslari va vositalaridan teng foydalanishni ta’minlashni, balki chekka va kam ta’minlangan aholi duch keladigan noyob ehtiyojlar va muammolarni tan olish va hal qilishni ham talab qiladi.

Turli xillikni aniqlash: Inklyuziv ta’lim xilma-xillikni ta’lim jamiyatida kuch va boyitish manbai sifatida nishonlaydi. U o‘qituvchilarni barcha o‘quvchilarning o‘ziga xos kelib chiqishi, madaniyati, tillari, qobiliyatlari va istiqbollarini tan olishga va qadrlashga undaydi. O‘quv dasturiga turli nuqtai nazar va tajribalarni kiritish orqali o‘qituvchilar barcha talabalarning hayotiy tajribalarini aks ettiruvchi yanada inklyuziv va madaniy ta’lim muhitini yaratishi mumkin. Bu turli millatga mansub o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro hurmat va o‘zaro tushunish hissini uyg’otadi.

Universal Design for Learning (UDL): Universal Design for Learning (UDL) ta’lim tizimi bo‘lib, u ko‘plab ifodalash, ifodalash va jalb qilish vositalarini taqdim etish orqali o‘rganishdagi to‘siqlarni bartaraf etishga

qaratilgan. UDL o‘quvchilarning turli xil ehtiyojlari, imtiyozlari va o‘rganish uslublariga ega ekanligini tan oladi va shuning uchun o‘quv materiallari va usullari ushbu farqlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilishi kerak. UDL tamoyillarini o‘qitish amaliyotiga kiritish orqali o‘qituvchilar barcha talabalar o‘quv dasturiga kirishlari va ular bilan samarali shug’ullanishlari mumkin bo’lgan yanada inklyuziv ta’lim muhitini yaratishi mumkin.

Hamkorlikdagi hamkorlik: Inklyuziv ta’lim o‘qituvchilar, talabalar, oilalar va jamiyat manfaatdor tomonlari o‘rtasida hamkorlik aloqalarini o‘rnatish muhimligini ta’kidlaydi. Ushbu hamkorlik talabalarning turli ehtiyojlarini aniqlash va hal qilish, inklyuziv amaliyotni rivojlantirish va keng qamrovli yordam xizmatlarini ko‘rsatish uchun juda muhimdir. Birgalikda ishlash orqali manfaatdor tomonlar barcha talabalar uchun yanada inklyuziv va qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim muhitini yaratish uchun bilim, resurslar va tajriba almashishlari mumkin. Hamkorlik, shuningdek, barcha talabalarning muvaffaqiyati uchun jamiyat va umumiy mas’uliyat hissini rivojlantirishga yordam beradi.

Individual qo‘llab-quvvatlash va farqlash: Inklyuziv ta’lim har bir o‘quvchi noyob ekanligini tan oladi va akademik va ijtimoiy muvaffaqiyatga erishish uchun turli darajadagi yordamni talab qilishi mumkin. Shuning uchun o‘qituvchilar o‘quvchilarning turli ehtiyojlarini qondirish uchun individual yordam va farqlashni ta’minlashi kerak. Bu o‘quv strategiyalarini moslashtirish, qo‘shimcha resurslar yoki turar joy bilan ta’minlash yoki o‘quvchilarning o‘ziga xos kuchli tomonlari, qiyinchiliklari va qiziqishlarini hal qilish uchun shaxsiylashtirilgan o‘quv rejalarini taklif qilishni o‘z ichiga olishi mumkin. Ta’limni har bir o‘quvchining individual ehtiyojlariga moslashtirish orqali o‘qituvchilar o‘zlarining ta’lim imkoniyatlarini maksimal darajada oshirishlari va ularning umumiy farovonligini oshirishlari mumkin.

Ijobiy maktab madaniyati va iqlimi: Inklyuziv ta’lim xilma-xillikni qadrlaydigan, hurmatni rag’batlantiradigan va o‘quv hamjamiyatining barcha a’zolariga tegishlilik hissini uyg’otadigan ijobiy maktab madaniyati va iqlimini yaratish muhimligini ta’kidlaydi. Ijobiy maktab madaniyati xulq-atvor uchun aniq umidlar, o‘quvchilar va xodimlar o‘rtasidagi qo‘llab-quvvatlovchi munosabatlar va barcha o‘quvchilar o‘zlarini qabul qilingan va qadrlangan his qiladigan xavfsiz va inklyuziv ta’lim muhiti bilan tavsiflanadi. Ijobiy maktab madaniyatini tarbiyalash qo‘rqitish, kamsitish va chetlash kabi muammolarni hal qilish, o‘quvchilar o‘rtasida hamdardlik, mehr-oqibat va o‘zaro hurmatni rivojlantirish uchun faol harakatlarni talab qiladi.

Uzluksiz kasbiy rivojlanish: Inklyuziv ta’lim turli xil o‘quvchilarni samarali qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha o‘qituvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish uchun doimiy kasbiy rivojlanishni talab qiladi. Kasbiy rivojlanish imkoniyatlari inklyuziv pedagogika, madaniy kompetentsiya, travmadan xabardor amaliyot va yordamchi texnologiyalar kabi mavzular bo‘yicha treningni o‘z ichiga olishi mumkin. Uzluksiz kasbiy rivojlanishga sarmoya kiritib, o‘qituvchilar inklyuziv ta’lim muhitini yaratish, o‘quvchilarning turli ehtiyojlarini qondirish va inklyuziv ta’limning ilg‘or tajribalari va rivojlanayotgan tendentsiyalaridan xabardor bo‘lish qobiliyatini oshirishlari mumkin.

Ushbu tamoyillarni kengaytirish inklyuziv ta’limning asosiy tamoyillari va ularning barcha o‘quvchilar rivojlanishi mumkin bo‘lgan ta’lim muhitini yaratishdagi ahamiyatini yanada to‘liqroq tushunish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, inklyuziv ta’lim tamoyillari xilma-xillikni o‘z ichiga olgan, tenglikni ta’minlovchi va barcha o‘quvchilarga muvaffaqiyat qozonish imkoniyatini beruvchi ta’lim muhitini yaratish

uchun yo‘naltiruvchi asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu tamoyillarni qo‘llab-quvvatlagan holda, o‘qituvchilar har bir o‘quvchi o‘zini qadrli, qo‘llab-quvvatlanayotganini va o‘z salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqara oladigan inklyuziv sinflarni yaratishi mumkin. Bunda biz ta’limni hamma uchun ochiq bo‘lgan umuminsoniy huquq sifatidagi qarashlarni amalga oshirishga yaqinlashamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jarvis, J. M., McMillan, J. M., Bissaker, K., Carson, K. L., Davidson, J., & Walker, P. M. (2020). Inclusive School Communities Project: Final Evaluation Report. Research in Inclusive and Specialised Education (RISE), Flinders University.
2. Department of Special Education, Princess Rahma University College, Al-Balqa’ Applied University, P.O. Box 371, Marj Al-Hamam, 11732 Amman. Jordan

SYUJETLI-RO‘LLI O‘YINLAR VOSITASIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA HAMKORLIK HISSINI SHAKLLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

YULDASHEVA SHOXIDA BOTIROVNA
Nukus innovatsion instituti assistenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada syujetli-ro‘lli o‘yinlar bolalarning jamoaviy faoliyatini yo‘lga qo‘yish bilan birga, ularda hamkorlik hissini rivojlantiruvchi, bola shaxsiyatini shakllantiruvchi vositasi sifatida ko‘rib chiqiladi. Syujetli-ro‘lli o‘yinlar vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarda hamkorlik hissini shakllantirishning nazariy asoslari va olimlarning qarashlari tahlil qilinadi. Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarda hamkorlik hissini shakllantirishning tarkibiy qismlari aniqlashtiriladi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha yoshdagi bolalar, o‘yin, syujetli-ro‘lli o‘yin, birgalikdagi faoliyat, jamoaviy faoliyat, hamkorlik, hamkorlik hissi.

Аннотация. В данной статье сюжетно-ролевые игры рассматриваются как средство развития чувства сотрудничества и формирования личности ребенка, а также налаживания коллективной деятельности детей. Анализируются теоретические основы формирования у дошкольников чувства сотрудничества средствами ролевых игр и взгляды ученых. Также определены компоненты формирования чувства сотрудничества у детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: дети дошкольного возраста, игра, ролевая игра, совместная деятельность, коллективная деятельность, сотрудничество, чувство сотрудничества.

Abstract. In this article, plot role-playing games are considered as a means of developing a sense of cooperation and forming a child's personality, along with establishing the collective activities of children. The theoretical foundations of forming a sense of cooperation in preschool children by means of role-playing games and the views of scientists are analyzed. Also, the components of forming a sense of cooperation in preschool children are determined.

Key words: children of preschool age, game, role-playing game, joint activity, team activity, cooperation, sense of cooperation.

Kirish. O‘tgan davr mobaynida mamlakatimizda o‘sib borayotgan avlodni sog‘lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta’lim-tarbiya jarayoniga samarali ta’lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta’limning samarali tizimini tashkil etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta’limdan teng foydalanishini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Unga ko‘ra, maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida quyidagilar belgilab qo‘yildi:

maktabgacha ta’limda fanlarni rivojlantiruvchi muhitning innovatsion texnologiyalari va modullarini ishlab chiqish;

maktabgacha ta’lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun

sharoitlar yaratish;

bolaning kelgusida o‘zini o‘zi muvaffaqiyatli namoyon qilishi uchun asos sifatida ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni rivojlantirish [1].

Yuqoridagi ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish esa maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishi, ijtimoiylashuvi va aqliy va ma’naviy jihatdan barkamol shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Maktabgacha bo‘lgan yosh davri – inson rivojlanishining alohida davri bo‘lib, bu davrda bola ijtimoiy muhitga moslashish, ma’naviy-axloqiy va hissiy jixatdan shakllanish bosqichida bo‘ladi. Har bir bolaning psixologik va fiziologik rivojlanishi turli darajada bo‘lishini hisobga olgan holda, bu davrda ularning hissiy va kognitiv rivojlanishi bir-biriga mos kelmasligi mumkin. Shunday bo‘lsa ham, bugungi kunda ushbu yosh davridagi barcha bolalarga samarali va ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan umumiy rivojlanish muhitini yaratish katta ahamiyatga ega. Bu jarayonda syujetli-ro‘lli o‘yinlar vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning birgalikdagi faoliyatini yo‘lga qo‘yish va ularda hamkorlik hissini shakllantirish juda muhim.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ko‘p yillik pedagogik va psixologik tadqiqotlarning natijasi shuni ko‘rsatadiki, bolalar o‘rtasidagi jamoaviy munosabatlar tizimida o‘yin alohida ahamiyatga ega.

E.Smirnova va V.Xolmogorovalarning fikrlariga ko‘ra, ro‘lli o‘yinlar bolalar o‘rtasida do‘stona munosabatlarni ta’minlashga xizmat qiladi, chunki bola o‘yin davomida o‘z harakatlarini boshqalar bilan muvofiqlashtirish zaruriyatiga duch keladi, qoidalarga amal qiladi va boshqalarga yordam beradi [8]. Demak, ro‘lli o‘yinlar nafaqat bolalarning jamoaviy faoliyatini yo‘lga qo‘yish, balki ularda hamkorlik hissini rivojlantirish, bola shaxsiyatini shakllantirish vositasi ham hisoblanadi.

L.Vygotskiy, R.Jukovskaya, I.Zaporojets, N.Mixaylenko, N.Korotkova, V.Usova singari olimlar o‘z asarlarida o‘yinlar va ularning maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishidagi rolini o‘rganishgan [10].

T.Babaeva [3], T.Repina [4], L.Rimashevskaya [6], E.Smirnovalar [9] o‘z tadqiqotlarida, maktabgacha yoshdagi bola shaxsiyatining birlamchi ijtimoiylashuvi va shaxs sifatida shakllanishining muhim omili – tengdoshlari bilan hamkorlik, – deb ta’kidlaydilar. Darxaqiqat, hamkorlik jarayonida bolada xulq-atvor, ma’naviy ehtiyojlar, axloqiy va estetik his-tuyg‘ular shakllanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda hamkorlik hissini shakllantirish muammolari V.Belkina, A.Koshelev, M.Safronovalarning, maktabgacha yoshdagi bolalar o‘rtasidagi hamkorlik munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlari K.Ivleva, T.Repina, E.Rusina, E.Smirnovalarning, hamkorlik psixologiyasi asoslari E.Korotaeva, A.Zaporojetslarning ilmiy ishlarida o‘rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada syujetli-ro‘lli o‘yinlar vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning hamkorlik hissini rivojlantirishning nazariy asoslari muhokama qilinadi. Shuningdek, mavzu bo‘yicha pedagogik, psixologik adabiyotlar o‘rganiladi va olimlarning fikrlari tahlil qilinadi, tadqiqot natijalari umumlashtiriladi.

Tahlil va natijalar. Bolaning barcha aqliy funksiyalari, ijtimoiy-emotsional

ko‘nikmalari jamoaviy xatti-harakatlar shaklida, syujetli-ro‘lli o‘yinlar jarayonida, boshqalar bilan hamkorlik vaqtida namoyon bo‘ladi va shundan keyingina individual xususiyatga ega bo‘ladi.

Hamkorlik hissi madaniy qadriyatlardan biri sifatida bolaning xulq-atvori va faoliyatining asosi bo‘lib, unga o‘zini o‘zi anglashga, ijobiy o‘z aro ta’sir qilish tajribasini namoyon etishga imkon beradi [5].

Sh.Amonashvili [2], V.Sitarov [7] singari olimlar “hamkorlik hissi”ni sub’ektlarning umumiy natijaga erishish jarayonida birgalikdagi faoliyatini muvofiqlashtirishga qaratilgan o‘zaro ta’siri deb hisoblaydi.

Hamkorlik bolalarning umumiy natijaga erishish uchun bir-birini tushunish va qo‘llab-quvvatlash istagi, bir-birining manfaatlariga muvofiq harakat qilish, faollikning namoyon bo‘lishi, muzokaralar olib borish, fikr almashish, o‘zini va sheriklarini tushunish va baholash qobiliyati bilan ifodalanadi.

Syujetli-rolli o‘yinlar bolalarda hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularda muloqot normalarini singdirish va haqiqiy munosabatlarni rivojlantirishning samarali vositasidir. O‘yinning o‘zaro ta’siri bolalarga sherigi bilan birgalikdagi harakatlarni rivojlantirishga imkon beradi. Birgalikda o‘yinga kirishgan maktabgacha yoshdagi bolalar bir-birlari bilan tanishishni, o‘yin tajribasini almashishni va bir-birlari bilan shaxsiy va rol munosabatlarini namoyish qilishni boshlaydilar.

Syujetli-rolli o‘yin – bu bolalar kattalarning mehnat yoki ijtimoiy vazifalarini o‘z zimmalariga oladigan va maxsus yaratilgan o‘yin, xayoliy sharoitlarda kattalar hayotini va ular o‘rtasidagi munosabatlarni takrorlaydigan yoki namuna qiladigan faoliyatdir.

Syujetli-rolli o‘yinlarning maqsadli yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- ta’limiy – kognitiv faollikni, o‘z dunyoqarashini kengaytirishni;
- tarbiyaviy – mustaqillikni, tashabbusni, irodani, muloqotni, hamkorlikni tarbiyalash;
- rivojlantiruvchi – kognitiv jarayonlarni rivojlantirish va ta’lim faoliyati uchun motivatsiya berish.

Tadqiqotimiz davomida olib borilgan tahlillar natijasida syujetli-rolli o‘yinlar vositasida shakllanadigan hamkorlik hissining tarkibiy qismlari aniqlashtirildi:

sherigini qabul qilish, uning istaklarini va ehtiyojlarini tushunish;

umumiy faoliyatga qiziqish;

o‘yin ishtirokchilarining o‘zaro bog‘liqligi;

o‘yin ishtirokchilarining huquqlari va majburiyatlarini aniq taqsimlash;

birgalikdagi umumiy maqsadga intilish va natijalarga erishish.

Bolalarda syujetli-rolli o‘yinlar asosida hamkorlik hissini rivojlantirish usullari orasida quyidagilar ajralib turadi: muayyan hayotiy voqeaga qiziqish uyg‘otish, bolalarning tasavvuriga va his-tuyg‘ulariga ta’sir qilish, rolli o‘yinlar uchun muhit yaratish, bolalarni do‘stona munosabatga o‘rgatish, o‘yin uchun yangi hikoya yaratish.

Xulosa va takliflar. Bolalarda hamkorlik hissining optimal shakllanishi va rivojlanishi maxsus tashkil qilingan birgaliktagi faoliyat sharoitida sodir bo‘ladi. Syujetli-rolli o‘yinlar ana shunday faoliyatni tashkil qilishning samarali vositasi hisoblanadi. O‘yin davomida hamkorlik turiga ko‘ra o‘zaro ta’sirning

turli shakllari amalga oshiriladi, ijtimoiy rollarni bo‘lishish va ro‘llarga kirish, o‘z harakatlarini tengdoshlarining xohish-istaklariga qarab muvofiqlashtirish jarayoni yuzaga keladi.

Syujetli-rolli o‘yinlar orqali hamkorlik hissini shakllantirishga bolalarning bir-biriga do‘stona munosabatda bo‘lishlari, o‘zaro yordam berish va samarali muloqatga kirishish qobiliyatlari yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 18 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-son Qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 30.11.2021 y., 06/21/26/1111-son.
2. Амонашвили Ш.А. Психологические основы педагогики сотрудничества: книга для учителя [Текст] / Ш.А. Амонашвили. – Киев: Освита, 1991. – 80 с.
3. Бабаева Т.И., Римашевская Л.С. Как развивать взаимоотношения и сотрудничество дошкольников в детском саду. Игровые ситуации, игры, этюды: – СПб.: ООО «ИЗДАТЕЛЬСТВО «ДЕТСТВО-ПРЕСС», 2012. – 224 с.
4. Репина Т.А. Общение детей в детском саду и семье : монография. – М.: Педагогика, 1990. – 152 с.
5. Римашевская Л.С. Технология развития навыков сотрудничества у старших дошкольников. – М.: Центр педагогического образования, 2007. – 112 с.
6. Римашевская Л.С. Развитие сотрудничества старших дошкольников со сверстниками на занятии : Дис. ... канд. пед. наук : 13.00.07. – СПб., 2001. – 183 с.
7. Ситаров В.А. Теория обучения: теория и практика: учебник для бакалавров [Текст] / В.А. Ситаров. – М.: Юрайт, 2016. – 447 с.
8. Смирнова Е., Холмогорова В. Дошкольный возраст: формирование доброжелательных отношений // Дошкольное воспитание. -2003. - № 9. - С. 69.
9. Смирнова Е.О. Особенности общения с дошкольниками. − М.: Издательский центр «Академия», 2000. − 160 с.
10. https://www.maam.ru/detskijsad/teoreticheskie-osnovy-syuzhetno-rolevoi-igry-kak-sredstvo-formirovanija-gumanisticheskoi-napravlenosti-detei-doshkolnogo-vozrasta.html

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA TURKIY XALQLAR AN’ANAVIY SPORT O‘YINLARINING O‘QUVCHILARARO TARG‘IB ETILISHI

QODIROVA XALIMAXON NURMUXAMMAD QIZI
PhD, v/b dotsent, T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O‘zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti 1-bosqich doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Mustaqillik yillaridan to bugungi kunga qadar ya’ni Yangi O‘zbekistonda ta’lim tizimiga oid islohatlar samaradorligi, qonun, farmon va qarorlarda boshlang‘ich ta’limning 1-4 sinf “Jismoniy tarbiya” faniga oid me’yoriy hujjatlarda, Turkiy xalqlar an’anaviy sport o‘yinlarining keng ko‘lamda targ‘ib etilishi shu bilan birga kelajak avlodga yetkazishni nazarda tutuvchi huquqiy-me’yoriy hujjatlarning nazariya va amaliyotning uyg‘unligi konsepsiyasiga ko‘ra qiyosiy jahatdan tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, davlat ta’lim standartlari, etnosport, boshlang‘ich ta’lim, jismoniy tarbiya, Turkiy xalqlar, an’anaviy sport o‘yinlari.

Ta’lim tizimini isloh etish, sifatli ta’lim berishni belgilab beruvchi paremetr bu shubhasiz davlat ta’lim standartlaridar. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 16 avgust 1999 yildagi “Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 390 sonli Qarorida “Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar inson va jamiyat, ta’lim sohasi bo‘yicha quyidagi bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlari” belgilangan:

a) Jismoniy kamolotga oid:

Inson salomatligi va jismoniy kamolotiga oid tushunchalarni bilish; chiniqishning mohiyatini anglash; gimnastika mashqlarini bajara olish; shaxsiy gigiyena me’yorlarini bilish va ularga amal qilish; jismoniy mashqlarning inson kamolotini ta’minlashdagi ahamiyatini anglash; jismoniy tarbiya mashqlarini xavfsizlik qoidalariga rioya qilgan holda bajara olish; milliy o‘yinlar qoidalarini bilish; turli sport o‘yinlarining elementlarini qo‘llay olish; jarohatlanishning oldini olish, jarohat olgan taqdirda birinchi yordam ko‘rsata olish[5].

Demakki, mazkur DTSga ko‘ra jismoniy tarbiya, sport shu bilan birga milliy o‘yinlarni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga oid ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Qarorda umumiy o‘rta ta’lim davlat ta’lim standartining tayanch o‘quv rejasi berilgan. Tayanch o‘quv rejaga ko‘ra, “Jismoniy tarbiya” fani 18-o‘rinda yozilgan bo‘lib, 1-4 sinflarda xaftasiga 2 soatdan o‘tilishi belgilangan. Ammo Qarorda bilim, ko‘nikma va malakalar yoritilga qsimida 1-4 sinflarning fanlari yozilgan ketma-ketlikda “Jismoniy tarbiya” fani aks ettirilmagan, “Inson va jamiyat” sohasining tarkibida o‘rin egallagan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 6 aprel 2017 yildagi 187-sonli “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’limning Davlat Ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” gi Qarorida shunday belgilangan:

3-bobi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, professional ta’lim muassasalari uchun o‘quv-metodik majmualarni ishlab chiqish prinsiplari” nomlangan bo‘lib, unga ko‘ra:

O‘quvchilarning aqliy va jismoniy imkoniyatlari, yoshi, psixofiziologik xususiyatlari, bilim darajasi, qiziqishlari, layoqatlari hisobga olinganligi belgilab

qo‘yilgan[6].

Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlarida jismoniy tarbiya fanida o‘qitish bosqichlari hamda egallanishi nazarda tutilgan kompetensiyalar.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 6 aprel 2017 yildagi 187-sonli “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’limning Davlat Ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” gi Qaroriga ko‘ra “Jismoniy tarbiya” fani bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim muassasalari bitiruvchilariga qo‘yiladigan malaka talablari:

1. Sog‘lomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qo‘llay olish kompetensiyasi: A1 kun tartibi qoidalariga rioya qila oladi; ertalabki badantarbiya va dars jarayonida chiniqtirish mashqlarini bajara oladi; saflanish va yurish qoidalarini bajara oladi; harakatli o‘yin turlari va ularning qoidalarini biladi; jismoniy mashqlarni inson salomatligiga ta’sirini biladi; shaxmatning boshlang‘ich o‘yin qoidalarini biladi.

2. Jismoniy mashqlar majmuasini ketma-ketlikda to‘g‘ri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish kompetensiyasi: A1 jismoniy mashqlarni (saf, akrobatika, tayanib sakrash, muvozanat saqlash, tayanish va osilish, tirmashib chiqish) bajarishda mashqlar ketma-ketligini bir-biri bilan bog‘lay oladi; mashqlarni bajarishda jismoniy sifatlarga (chaqqonlik, kuchlilik, tezkorlik, egiluvchanlik, chidamlilik va koordinatsiyaga) ega bo‘ladi; mantiqiy o‘yinlarni (shaxmat, shashka va boshqalarni) o‘ynay oladi.

3. Sport asbob-anjomlaridan xavfsiz usullarda foydalanish kompetensiyasi: A1 jismoniy mashqlarni bajarishda shikastlanishning oldini olish qoidalariga amal qila oladi; jismoniy mashqlarni bajarishdan oldin va keyin yurak urish me’yorini aniqlay oladi; jismoniy mashqlarni bajarish jarayonida texnika xavfsizligi qoidalariga amal qila oladi[6].

Mazkur Davlat Ta’lim standartlarida nazarda tutilgan kompetensiyalarda Turkiy xalqlar an’anaviy sport o‘yinlariga doir o‘zlashtirishi zarur bo‘lgan kompetensiyalar haqida ma’lumotlar taqdim etilmagan.

O‘zbekiston Respublikasining 29 avgust 1997 yildagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 23-moddasida jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar va o‘smirlarni o‘qitish nazarda tutilgan[1].

Mazkur qonunda boshlang‘ich ta’lim tizimida jismoniy tarbiya yoki sportni rivojlantirishga shu bilan birga Turkiy xalqlarning an’anaviy o‘yinlariga doir ma’lumotlar taqdim etilmagan. Faqatgina jismoniy va ruhiy nuqsoni bor bolalarni o‘qitishga etibor qaratilganligini ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining 23 sentabr 2020 yildagi tasdiqlangan (hozirda amalda) “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining “Ta’lim oluvchilarning, ular ota-onasining hamda boshqa qonuniy vakillarining huquq va majburiyatlari” nomli 6-bobining 48-moddasida ta’lim oluvchilarning majburiyatlari belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra, ta’lim oluvchilar “Axloqiy, ma’naviy va jismoniy kamol topishga hamda o‘z dunyoqarashini kengaytirishga intilishi» belgilab qo‘yilgan[2].

Mazkur qonunda esa esa, o‘sib kelayotgan yosh avlodni voyaga yetkazish uchun axloqiy, ma’naviy jihatdan shu bilan birga jismoniy kamol topishi ustuvor vazifa ekanligi ta’kidlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 28 yanvar 2022 yildagi “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmonining 67-maqsad: “Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanadigan fuqarolarning sonini oshirish” deb nomlangan bo‘lib, unda:

Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanadigan aholi sonini 2026 yilda 33 foizga chiqarish; Respublika yoshlari o‘rtasida milliy sport turlarini ommalashtirish; O‘zbekistonda sportning ommaviyligini oshirish maqsadida milliy sport turlari va xalq o‘yinlarini rivojlantirish; Yurtimizning chekka hududlari va qishloqlarida sog‘lomlashtirish ishlarini yanada rivojlantirish; Milliy olimpiada sport o‘yinlarini o‘tkazish dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish; Milliy olimpiada o‘yinlarini yuqori darajada tashkil etish hamda g‘olib va sovrindorlarni munosib rag‘batlantirish; Milliy olimpiada o‘yinlariga tayyorgarlik ishlarining borishini ommaviy axborot vositalari orqali, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog‘ida keng yoritilishini tashkil etish[3].

Mazkur Farmonda esa, milliy sport turlari va xalq o‘yinlariga hamiyat qaratilgan. Lekin Turkiy qardosh mamlakatlar nazarimizda bir-birlarining milliy o‘yinlarini kundalik hayotida qo‘llashi xalqlar o‘rtasidagi rishlalarni yanada mustahkamlashga, bizni urf-odatlargina emas, balki xalq o‘yinlari ham bog‘lashi, maqsadlarimiz va niyatlarimiz mushtarakligini aks ettiradi desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 17 iyun 2021 yildagi “Kamondan otish sport turini yanada rivojlantirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5149-sonli Qarori imzolandi. Mazkur Qaror ijrosi yuzasidan “Kamondan otish sport turini yanada rivojlantirish va ommalashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar” Dasturida quyidagilar o‘rin olgan:

III. Kamondan otish sport turi bo‘yicha respublika va xalqaro miqyosdagi musobaqa va turnirlarni doimiy ravishda tashkil etish har yili «Kamondan otish sport turi kuni»ni keng nishonlash; hududlarda, tuman (shahar) markazlarida, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida, istirohat bog‘larida, «Kamondan otish sport turi kuni»ni keng nishonlash; kamondan otish sport turi bo‘yicha «mahorat darslari»ni o‘tkazish; kamondan otish sport turi bo‘yicha ommaviy sport tadbirlarini tashkil etish; Toshkent shahrida sport tadbirlarini yuqori saviyada o‘tkazish maqsadida chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritish[7].

Mazkur Qarordan ko‘rinadiki, O‘zbekiston Respublikasida Turkiy xalqlarning an’anaviy sport turlaridan biri hisoblanmish kamondan otish sporti va uni o‘rganish, keng ko‘lamda amaliyotga tatbiq etish dolzabr masalalardan biri sifatida ta’kidlash mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 25 may 2022 yildagi “Etnosport turlarini ommalashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-259-sonli Qarori tasdiqlangan bo‘lib, Qarorning 2-bobida “Etnosport turlarini ommalashtirish va rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari” mavjud bo‘lib unda:

birinchi yo‘nalish — aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, o‘smirlar va yoshlarning etnosport turlari bilan shug‘ullanishga qiziqishini oshirish, ular o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, etnosport turlari bo‘yicha respublika va hududiy musobaqalarni, shu jumladan Qurolli Kuchlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimida o‘tkazish; ikkinchi yo‘nalish — etnosport turlari bo‘yicha sportchilar, trenerlar, mutaxassislar va boshqa kadrlarni tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish, shuningdek, ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish; uchinchi yo‘nalish — milliy sport turlari va xalq o‘yinlarining mohiyati haqida targ‘ibot materiallarini (qo‘llanma, buklet, banner, flayer va boshqalar)ni tayyorlash, ta’lim muassasalarida targ‘ibot ishlarini olib borish, malakali ustozlar, polvonlar, trenerlar hamda mutaxassislar ishtirokida seminar,

trening, mahorat saboqlarini o‘tkazish; to‘rtinchi yo‘nalish — xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, etnosport turlarini yanada ommalashtirish va rivojlantirish[8].

3-§. Uchinchi yo‘nalishdagi vazifalarni ro‘yobga chiqarish uchun quyidagi asosiy chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

Milliy sport turlari va xalq o‘yinlarining mohiyati haqida targ‘ibot materiallarini (qo‘llanma, buklet, banner, flayer va boshqalar) tayyorlash; Bolalar va o‘smirlar uchun alohida shartlarni nazarda tutuvchi «Milliy xalq o‘yinlari» o‘quv metodik qo‘llanmasini nashr etish; Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va oliy ta’lim muassasalarida etnosport turlarining jismoniy, intellektual, ma’naviy-axloqiy jihatdan o‘rni haqida jismoniy tarbiya darslari hamda ma’naviyat soatlarida tushuntirishlar berish; Ijtimoiy tarmoqlarda yoshlarni etnosport turlariga keng jalb etish, ular o‘rtasida musobaqalarni ommalashtirishga qaratilgan motivatsion roliklar tarqatish; Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va oliy ta’lim muassasalarida malakali ustozlar, trenerlar, polvonlar hamda mutaxassislar ishtirokida seminar, trening, mahorat saboqlari tashkil etish.

Etnosport turlari bo‘yicha sportchilar, trenerlar, mutaxassislar va boshqa kadrlarni tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish, shuningdek, ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish:

2023/2024 o‘quv yilidan boshlab etnosportning boshqa turlari bo‘yicha (shu jumladan, milliy kurash, turon kurashi, belbog‘li kurash, bel olish va uchkurash, bahodirlar o‘yinlari va tosh ko‘tarish, uloq-ko‘pkari, ot poygasi, o‘zbek jang san’ati, dorboz, qarabtep/lanka) mutaxassislar tayyorlash bo‘yicha taklif kiritish; Milliy sport turlari va xalq o‘yinlari bo‘yicha ilmiy-tadqiqot loyihalarini amalga oshirish; Milliy sport turlari va xalq o‘yinlarining mohiyati haqida targ‘ibot materiallarini (qo‘llanma, buklet, banner, flayer va boshqalar)ni tayyorlash, ta’lim muassasalarida targ‘ibot ishlarini olib borish, malakali ustozlar, polvonlar, trenerlar hamda mutaxassislar ishtirokida seminar, trening, mahorat saboqlarini o‘tkazish; Milliy sport turlari va xalq o‘yinlarining mohiyati haqida targ‘ibot materiallarini (qo‘llanma, buklet, banner, flayer va boshqalar) tayyorlash; Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va oliy ta’lim muassasalarida etnosport turlarining jismoniy, intellektual, ma’naviy-axloqiy jihatdan o‘rni haqida jismoniy tarbiya darslari hamda ma’naviyat soatlarida tushuntirishlar berish; Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va oliy ta’lim muassasalarida malakali ustozlar, trenerlar, polvonlar hamda mutaxassislar ishtirokida seminar, trening, mahorat saboqlari tashkil etish; Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va oliy ta’lim muassasalarida milliy sport turlari va xalq o‘yinlari bo‘yicha musobaqalar o‘tkazish, g‘olib va sovrindor bo‘lgan jamoalarni o‘z mablag‘lari hisobidan rag‘batlantirish; Bolalar va o‘smirlar uchun alohida shartlarni nazarda tutuvchi «Milliy xalq o‘yinlari» metodik qo‘llanmasini tayyorlash va nashr etish[8].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Umumiy o‘rta ta’lim tizimining asosiy bo‘g‘ini bo‘lmish boshlang‘ich ta’lim tizimi o‘quvchi shaxsini kamol topishi uchun fundament vazifasini bajaradi. Davlatimiz tomonidan olib borilayotgan islohatlarda esa albatta Turkiy xalqlarning an’anaviy sport o‘yinlarini rivojlantirish, keng targ‘ib qilish, ommalashtirish, an’analarni saqlab qolish va kelajak avlodga yetkazish kabi vazifalarni bajarishimiz uchun bir qator huquqiy-me’yoriy hujjatlar, o‘quv dasturlarida mazkur o‘yinlar kengroq o‘rin olishi zarur. Zero bizning o‘sib kelayotgan farzandlarimiz

o‘tmishini, kimlarning avlodi ekanligini, necha ming yillik tarixi borligini har jabhada yodida saqlamig‘i lozim. Afsuski, umumiy o’rta ta’limning “Milliy o’quv dasturi”ning jismoniy tarbiya faniga oid bo‘limida Turkiy xalqlarning ana’anaviy sport o‘yinlari haqida ma’lumotlar nazariy va amaliy bo‘limlarida, “Ta’lim to‘g‘risi”dagi Qonunda, “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’limning Davlat Ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” gi Qarorida aks etmagan. Birgina, “Etnosport turlarini ommalashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-259-sonli Qarorda Turkiy xalqlarning an’anaviy sport o‘yinlarini targ‘ib etishga qaratilgan ustuvor vazifalarni ko‘rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 29 avgust 1997 yildagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. https://lex.uz/docs/16188
2. O‘zbekiston Respublikasining 23 sentabr 2020 yildagi tasdiqlangan (hozirda amalda) “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. https://lex.uz/docs/5013007
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 28 yanvar 2022 yildagi “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmonining https://lex.uz/docs/5841063
4. Turkiy davlatlar tashkiloti: kecha va bugun. https://mediator.uz/jangiliklar/584-turkij-davlatlar-tashkiloti-kecha-va-bugun.html
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 16 avgust 1999 yildagi “Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 390 sonli Qarori. https://lex.uz/docs/316337
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 6 aprel 2017 yildagi 187-sonli “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’limning Davlat Ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” gi Qarori. https://lex.uz/docs/3153714
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 17 iyun 2021 yildagi “Kamondan otish sport turini yanada rivojlantirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5149-sonli Qarori. https://lex.uz/ru/docs/5460671
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 25 may 2022 yildagi “Etnosport turlarini ommalashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-259-sonli Qarori https://lex.uz/docs/6035637

SHE'RIYAT ORQALI MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING UMUMIY BILIM DARAJASINI OSHIRISH VA XOTIRASINI YAXSHILASH

CHORIYEVA DURDONA ANVAROVNA
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Maktabgacha ta'lim fakulteti Maktabgacha ta'lim psixologiyasi va pedagogikasi kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta`lim yoshidagi bolalarning she'riyat orqali aqliy va ahloqiy rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish, nutqni rivojlantirish va bolani madaniyatini shakllantirish, idrok etish, xotirani yaxshilash, o'qishga qiziqishlarini rivojlantirish, bolaning umumiy bilim darajasini oshirish hamda she`r yodlatish usul va uslublari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar. Maktabgacha yosh, she'riyat, dunyoqarashini kengaytirish, nutqni rivojlantirish, madaniyatini shakllantirish, idrok etish, xotirani yaxshilash, o'qishga qiziqish.

Аннотация. В данной статье рассматривается интеллектуально-нравственное развитие детей дошкольного возраста посредством поэзии, расширение их мировоззрения, развитие речи и формирование культуры ребенка, совершенствование восприятия, улучшение памяти, развитие интереса к чтению, повышение общего уровня знаний ребенка, запоминания. В этой статье обсуждаются стихи и объясняются методы.

Ключевые слова. Дошкольный возраст, поэзия, расширение мировоззрения, развитие речи, формирование культуры, восприятия, улучшение памяти, интерес к чтению.

Kichkintoylar tez rivojlanadi va atrofida sodir bo'layotgan barcha narsalarni bir zumda o'zlashtiradilar. Bolalarni aqliy va ahloqiy rivojlanishlarida musiqa, ertaklar, she'rlar yordamga keladi. Bolalar adabiyoti juda ko'p turli xil ajoyib she'rlarni taklif etadi, bu she'rlar bolalarga ahloq-odob, mehr-oqibat, sevgi-muhabbat, tabiatni kuzatish, fasllarni tahlil qilish, dunyoni anglash va mukammal idrok etishga, xotirani mustahkamlashga o'rgatadi. Bolalikda she'rlarni yodlash va o'rganish nafaqat ta'lim, balki tarbiyaviy ahamiyatga ega. She`r yodlash maktabgacha ta`lim yoshidagi bolaning dunyoqarashini kengaytiradi, she'riyatni idrok etishga o'rgatadi, nutqni rivojlantiradi va bolani madaniyatini shakllantiradi. Bolalar uchun she'rlarning muhim vazifalaridan biri hayotni yanada qiziqarli qilishdir. Chiroyli bolalar she'rlari kichkintoyni xursand qilishi aniq. She'rlarni ko`p yodlash maktabgacha yoshdagi bolalarni ma`naviy va intellektual boyitishga xizmat qiladi. Bolalar bilan she'r yodlashni boshlashdan oldin, buni qiladigan kattalar va tarbiyachilar birinchi navbatda uni o'zi ifodali o'qishi va aynan she`rni ma`nosini tushuntirishi hamda she`rni tasvirlab, keyin she'rni kichik semantik qismlarga ajratib berishi kerak. Ayniqsa, bolani kichikdan kichik, ikki-uch qisqa jumladan iborat oddiy misralarni yodlashi va mashq qilishi orqali kichik bola xotirasi rivojlanadi. She'r yodlash juda qiyin va muhim vazifa ekanligini ota-onalar va tarbiyachilar bilishadi. She'rni his-tuyg'ular bilan ifodali o`qish lozim, his-tuyg'ularsiz amalga oshirilsa bu bolaga bema'ni she`r bo`lib ko'rinadi. Ayrim tarbiyachilar she'rni ifodali o'qishga alohida e'tibor bermaydilar. Bunga guruhda bolalar ko'pligi sabab bo`ladi. Shu sababli tarbiyachi jamoaviy she`r yodlatganda uning tovushi monoton tovushga aylanadi va bu noto'g'ri yondashuv bo`lib, ozgina ma'noga ega bo'ladi. She'rni har bir bolaga individual o'rgatish lozim. Agar bolaga bolaligidan she'riy go'zallik singdirilmasa, u katta bo'lganda ham she'rga qiziqmaydi. She`riyatning qahramonlari tanish o'yinchoqlar, hayvonlar yoki qushlar bo`lishi lozim.

Bolalarga yodlashga beriladigan barcha she'rlar yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda tanlanganidir va she`rlar qisqa hajmli,

qiziq, eslab qolish oson bo`lishi hamda bolaning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan xatti-harakatlar qoidalarini tavsiflovchi bo`lishi lozim. She'riy motiv erta bolalikdanoq seziladi, shuning uchun bolalar bilan ishlashni imkon qadar erta boshlash kerak. Bolalar katta zavq bilan she'r tinglashadi. Aksariyat bolalar yozuvchilari o'z asarlarini she'r bilan yozadilar. She`riyat bolalar tomonidan juda oson eslab qolinganligi sababli, ota-onalar buni inobatga olishlari kerak. She'rlar xotirani yaxshilaydi, shuning uchun bolaning umumiy bilim darajasini oshiradi. Yaxshi xotira maktabda o'tilgan materialni osonroq o'rganishga yordam beradi. Farzandingiz she'riyatni qanchalik tezroq o'rganishni boshlasa, maktab darslarida ta`lim olishi osonroq bo'ladi. She'rni eslab qolishni osonlashtirish uchun, u bolaning yoshiga mos kelishi kerak. Kichkina bolani she'r o'rganishga majburlamaslik lozim. Anvar Obidjon, Quddus Muhammadiy, Po`lat Mo`min, Tursunboy Adashboyevlar yozgan bolalar klassik asarlaridan foydalanish ancha yaxshi bo'lar edi. She`r yodlashda bolaning temperamentiga e'tibor berish lozim. Ba`zi bolalar uchun ritmik, quvnoq yoki xotirjam, sokin she'rlarni tanlash maqsadga muvofiqdir. Albatta, maktabda bunday farqlar bo'lmaydi, lekin hozircha, maktabgacha ta`lim yoshdagi bolalarda shunday harakat qilish kerak. Bolalar uchun eng yaxshi va oson yodlatiladigan she'rlar bolalarning yosh xususiyatlariga va qiziqishlariga mos kichik, hajm jihatdan juda qisqa va qiziq she'rlar, lekin bolalar uchun chuqurroq ma`noga ega bo`lishi lozim. Kichkintoy she'rni ifoda bilan o'qishga harakat qilishiga ishonch hosil qilish va asta-sekin o'rgatish kerak.

O`zbek va rus ertaklaridagi she`rlarni 3-4 yoshdan boshlab bolalarga o'qish mumkin. O`zbek xalq ertaklaridagi eng uzun ertaklar bir nechta qismlarga bo'lingan. Uzoq hikoyalar bolalarni bezovta qilishi mumkin, shuning uchun ularni qismlarga bo'lib o'qish, ular bolalarga quvonch baxsh etadi.

Bugungi kunda oilaviy internet saytlarida hatto uch-to'rt yoshli bola ham yodlay oladigan ajoyib bolalar she'rlarini osongina topish mumkin. Masalan, ota-ona, Vatan, tabiat, qushlar va o'rmon hayvonlari haqidagi bolalar she`rlari mavjud. Bolalar bilan she'r yodlashni boshlashdan oldin, buni qiladigan kattalar va tarbiyachilar birinchi navbatda uni o'zi ifodali o'qishi va aynan she`rni ma`nosini tushuntirishi hamda she`rni tasvirlab, keyin she'rni kichik semantik qismlarga ajratib berishi kerak. Agar she`r matnida notanish yoki tushunarsiz so'zlar bo'lsa, ularni bolaga tushuntirish kerak. She`rni bir necha marta o'qish, so'ng bolaga muallif haqida ma`lumot berish ham faoliyatni yengillashtiriladi. She’r yodlashga bunday yondashuv bolani ma`naviy madaniyatini oshiradi va yodlash jarayonini o‘zini osonlashtiradi.

Bir xil kichik she'rni bolaga o'rgatishda bir necha kun davomida, ketma-ket harakat qilish lozim. She'rni rasmlar bilan ko'rsatib tushuntirsa, bola asarning yagona qiyofasini miyasida shakllantiradi, bu esa bolaga matnni o`zlashtirish va uni idrok qilish yordamida bola matnni osongina yodlashi mumkin bo'ladi.

Agar bola to'satdan boshqa narsalarga e`tiborini qarata boshlasa, unga faqat sevimli bolalar she'rini o'qish kerak, chunki bu uning kayfiyati o'zgartiradi. U tabassum qiladi va kattalar bilan yomon kayfiyatini unutib, allaqachon eslab qolgan satrlarini takrorlaydi. Faqat she`rni o'qishda haqiqiy qiziqish va mahoratni ko'rsatib, g'ayratli bo'lish lozim. Agar tarbiyachi charchagan bo'lsa yoki hozir bunga vaqti yo'q bo'lsa, she'riyat bilan tanishishni boshqa vaqtga qoldirgan ma'qul.

Sevimli kichkintoylar uchun she'rlarga bolaning e'tiborini tortish va uni charchatmaslik lozim. Kichkintoylar uchun ajoyib kichik she'rlar tashqi dunyo bilan yaxshiroq tanishtirishga yordam beradi. Aksariyat bolalar maktabgacha ta`lim tashkilotlarida

o`tkazilayotgan bayramlarni, ertaklarni juda yaxshi ko'radilar. Ushbu tadbirlarda, qoida tariqasida, tarbiyachi va barcha mehmonlar oldida yodlangan she`rlarini aytishadi va juda xursand bo`lishadi. Ba'zi bolalar kattalar auditoriyasi oldida gapirishdan uyaladilar, ular she'riyat satrlarini unutishadi, kattalar ularni qo'llab-quvvatlashlari kerak. Bayramga tayyorgarlikning o'zi bolaga she'rlarni o'rganishga katta turtki bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Po`lat Mo`min “Bo`ladigan bolalar” T., 2018 yil
2. Odinaxon Muhammad Yusuf “Bilimsizlikning shifosi” T., 2012 yil
3. Anvar Obidjon “Juda qiziq voqea” T., 2014 yil
4. Chorieva, D. (2020). IMPROVING STUDENTS'READINESS FOR PEDAGOGICAL DIAGNOSTICS OF PRESCHOOL CHILDREN. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(3).
5. Chorieva, D. (2020). DIAGNOSTICS AS A BRANCH OF PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL KNOWLEDGE AND TYPE OF RESEARCH ACTIVITY OF A TEACHER. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(3).
6. Чориева, Д. А., & Камалова, Г. А. (2021). РОЛЬ УЧИТЕЛЯ В ОРГАНИЗАЦИИ УЧЕБНО-ВОСПИТАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ УЧРЕЖДЕНИИ. In Человек в современном мире: пространство и возможности для личностного роста (pp. 161-166).
7. Choriyeva, D. (2022). TARBIYACHINING PEDAGOGIK MAHORATINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK TEXNIKANING ROLI. Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar, 1(24), 101-103.
8. Чориева, Д. А. (2019). Педагогическая диагностика в условиях дошкольного образования. Актуальные проблемы современного образования: опыт и инновации, 86.
9. Чориева, Д. А. (2021). МЕТОДЫ И ПРИЕМЫ РАБОТЫ С АГРЕССИВНЫМИ ДЕТЬМИ. In Человек в современном мире: пространство и возможности для личностного роста (pp. 152-161).
10. Чориева, Д. А., & Ражабова, Г. Ф. (2022). ЗНАЧЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ДИАГНОСТИЧЕСКОГО СРЕДСТВА В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ. Results of National Scientific Research International Journal, 1(6), 327-343.
11. Чориева, Д. А. (2022). ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ДИАГНОСТИКА ФАОЛИЯТИ БИЛАН ШУҒУЛЛАНУВЧИ ШАХСГА ҚЎЙИЛАДИГАН ТАЛАБЛАР: https://doi. org/10.53885/edinres. 2022.9. 09.014 Чориева Дурдона Анваровна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Мактабгача таълим факультети Мактабгача таълим психологияси ва педагогикаси кафедраси педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), в. б. доценти. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (9), 99-102.
12. Chorieva, D. A. BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY MAHORATLARINI OSHIRISH YO‘LLARI. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI, 385.

ZAIF ESHITUVCHI O‘QUVCHILARNI KOGNETIV VA NUTQIY MALAKASINI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

TURG’UNBOYEVA ZULXUMOR IBRAGIMOVNA
Qo’qon davlat pedagogika instituti Inklyuziv ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
XASANOV ABDURAZZOQ JAMOLDINOVICH
Qo’qon davlat pedagogika instituti Inklyuziv ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

Annatatsiya: Ushbu maqolada zaif eshituvchi o’quvchilarning kognetiv va nutqiy malakasini rivojlantirish bo’yicha o’yinlar va metodik tavfsiyalar to’g’risida malumotlar keltirib o’tilgan hamda tavfsiyalar berilgan. Zaif eshituvchi o’quvchilarning kognetiv va nutqiy malakasini rivojlantirish bo’yicha taklif etilayotgan innovatsion texnologiyalar va zamonaviy metodlarning sifat va samaradorligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: O’yin, diqqat, xotira, ijodiy tafakkut, geometrik shakillar, obrazli harakatli, mantiqli tafakkur, yozuv malakasi, idrok o’stiruvchi o’yinlar, tahlil qilish, bilish jarayonlari.

Аннотация. В данной статье представлены сведения об играх и методические описания для развития познавательных и речевых навыков слабослышащих учащихся, даны их описания. Проанализировано качество и эффективность предлагаемых инновационных технологий и современных методов развития познавательных и речевых навыков слабослышащих учащихся.

Ключевые слова: Игра, внимание, память, творческое мышление, геометрические фигуры, образное движение, логическое мышление, навыки письма, познавательные развивающие игры, анализ, познавательные процессы.

Annotation. In this article, information on games and methodical descriptions for the development of cognitive and speech skills of hard-of-hearing students is presented and descriptions are given. The quality and effectiveness of the proposed innovative technologies and modern methods for the development of cognitive and speech skills of hard-of-hearing students were analyzed.

Key words: Game, attention, memory, creative thinking, geometric shapes, figurative movement, logical thinking, writing skills, cognitive development games, analysis, cognitive processes.

Maktabgacha ta’lim yoshida o‘yin bolaning diqqati, xotirasi, ijodiy tafakkuri va tasavvurini o‘stirishga ham xizmat qiladigan vositadir. Bu jihatlar bolaning bundan buyongi hayotida muhim o‘rin tutadi. O‘yin jarayonida bolalar yangi bilim, malakalarni egallaydilar, qobiliyatlarini o‘stiradilar. [3.4.5.] Idrokni o‘stirishga qaratilgan o‘yinlar bolada narsalarning rangi, shakli, kattaligiga ko‘ra tahlil qilish malakasini shakllantiradi. Maktabgacha yosh oxiriga kelib, bolalar rang qatoridagi 7 xil rangni bemalol farqlay oladilar. Ular asosiy geometrik shakllar (doira, oval, to‘rtburchak, to‘g‘ri to‘rtburchak, uchburchak) ni bilishlari lozim. Namunaga ko‘ra yoki nomi aytilgan ma’lum bir shakldagi narsalarni ajrata olishlari kerak. Bolalar narsalarning kattaligini farqlashda ularning o‘lchami bo‘yicha terib chiqishni biladilar [1], 8 — 10 ta tayoqcha, doiracha yoki boshqa bir xil turdagi kattaligi har xil predmetlarni kattalashib va kichiklashib boruvchi tartibda qo‘yib chiqadilar. Narsalar kattaligini 3 xil o‘lchamda nomini ayta oladilar (uzunlik, kenglik, balandlik). Navbatdagi o‘yinlar guruhi diqqatni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, ular voqelikning ma’lum jihatlariga qarata diqqatni to‘plashga o‘rgatadi. (Diqqatni to‘plamasdan hech bir ishni bajarish mumkin emas). [5]

Bu o‘yinlar turkumi orqali maktabgacha yoshda bola diqqatining turg‘unligi, ko‘chuvchanligi, bo‘linuvchanligi kabi xususiyatlari shakllantiriladi. Diqqatning turg‘unligi biror narsa ustida uzoq vaqt

diqqatni to‘plab tura olish, demakdir. [2] Maktabgacha yoshning oxiriga kelib bolalar 1 — 1,5 soatgacha uzluksiz shug‘ullana oladilar. Diqqatni ko‘chirish — uni bir faoliyatdan ikkinchisiga o‘tkaza olishdir. Diqqatning bo‘linuvchanligi bir vaqtning o‘zida kishining ikki yoki undan ko‘proq narsa bilan shug‘ullana olishida namoyon bo‘ladi. Katta maktabgacha yoshdagi bolalar 6 —7 ta narsa o‘rtasida diqqatni taqsimlay oladilar.

Maktabgacha yoshda ixtiyorsiz diqqatdan asta — sekin ixtiyoriy diqqatga o‘tiladi. Ixtiyorsiz diqqat jarayoni ayni paytda bola uchun qiziqarli narsaga diqqatni qaratishda yuzaga keladi. Ixtiyoriy diqqat bolaning o‘zi uchun qiziq bo‘lmagan faoliyat bilan shug‘ullana olishini nazarda tutadi. O‘yinlarning yana bir turi xotirani o‘stirishga qaratilgan o‘yinlardir. [1] Katta maktabgacha yoshdagi bolao‘zoldiga maqsad qo‘ya oladi— biror narsani eslab qolish, ana shu maqsadni amalga oshirish vositalarini izlab topish shular jumlasidandir.Tafakkurni o‘stirish — obrazli—harakatli, ko‘rgazmali — obrazli, mantiqiy tafakkur turlarini egallashdan iborat. Va nihoyat, bolalarni maktabga tayyorlashga yordam beradigan o‘yinlar orqali kichkintoylarda elementar matematik tasavvurlarni rivojlantirish, nutqning tahlili bilan tanishtirish, bola qo‘lini yozuvmalakasini egallashga tayyorlash ishlari olib boriladi.

Naqsh yasa

Bu o‘yinda bola bir xil rangdagi geometrik shakllardan naqsh yasashi lozim. Bu o‘yin bolalarga shaklni idrok etishga, narsalarning fazoda joylashuvini tahlil etishga yordam beradi. Bolaga ko‘rsatish uchun namuna sifatida applikatsiya tayyorlang. Uni bolaga sovg‘a qiling Xuddi shunday sovg‘ani bolaning sevimli o‘yinchog‘iga ham tayyorlash mumkinligini ayting. Bolagauni mustaqil tayyorlashni taklif etib, buning uchun qog‘oz, namunadagiga o‘xshash shakllar bering. Shakllar oddiy bo‘lgani yaxshi. Doira, to‘rtburchak, uchburchak, oval, to‘g‘ri to‘rtburchaklar bir xil o‘lchamda bo‘lishi kerak. Naqshda shakllar ko‘p bo‘lmasligi muhim. Masalan, varaq o‘rtasida — doira, burchaklarida uchburchaklar joylashtirilishi mumkin. Topshiriqni bajarishda qiynalmasligi uchun qog‘oz varag‘ining tegishli joylariga bola yopishtirishi lozim.

Hosil yig‘imi

Olma mevalarini (o‘rnini turli o‘lchamdagi tugmachalar ham bosishi mumkin) turli kattalikdagi savatchalarga solish lozim. Maydaroq mevalarni kichikroq savatchaga, yirik mevalarni katta savatga solishni taklif qiling, keyin ularni sanash mumkin.

Havoli pufaklar

Bolalar narsalarning rangiga e’tibor qilishni o‘rganishlari uchun bir xil rangli narsalarni ajratishga o‘rgatish maqsadida shu o‘yinni taklif etish foydalidir. Buning uchun qalin qog‘ozga 6 — 7 rangli tasmalarni yopishtirib qo‘yish va rangli qog‘ozdan doirachalar qirqib tayyorlash lozim. Tasmalar — ip, doirachalar — pufak bo‘ladi. Bolaga pufaklarni ipga bog‘lashni taklif eting, buni qanday qilish lozimligini ko‘rsatib bering. Shundan so‘ng, mustaqil ishlashlariga sharoit yaratish mumkin, faqat xatoga yo‘l qo‘ygan hollardagina yordamlashib turasiz.

Rangli maydonlar

Bu o‘yinda bola turli rangdagi o‘yinchoq siluetlarni katta rangli qog‘ozlarga joylashtiradi. Qog‘oz betiga faqat shu rangdagi narsalarni qo‘yish mumkin. Bolaning e’tiborini turli xil narsalarning ham rangi bir xil bo‘lishi mumkinligiga qaratish muhim. Shu o‘rinda bir turdagi narsalarning rangi turlicha bo‘lishi mumkinligini ham ta’kidlash lozim. Siz bolaga topshiriqni bajarishning turli usullarini ko‘rsatib berishingiz kerak. Har bir o‘yinchoq va rangli qog‘ozlarning rangini birma — bir taqqoslash, avval bir xil rangdagi narsalarni ajratib olish, tegishli rangdagi qog‘oz betiga qo‘yish shu jumladandir. Bola xatolarga yo‘l qo‘yishi mumkinligiga tayyor turing. Agar u turli rangdagi bir xil predmetlarni qog‘oz varag‘iga yig‘a boshlasa, bu holda o‘yinchoqlar

ko‘rinmay qolishini ko‘rsating.

Qiyalikdagi sharcha

Bu o‘yin bolalar tafakkurini o‘stirishda qo‘llaniladi. Uncha katta bo‘lmagan qiyalik tayyorlang, buning uchun stol tekisligiga burchak ostida qo‘yilgan har qanday taxtacha bo‘lishi mumkin. Qiyalikdan sal narida chiziq tortiladi. Bolaga uncha katta bo‘lmagan sharcha berib, uni boyagi chiziq oldiga kelganda to‘xtaydigan qilib qiyadan g‘ildiratishni taklif qiling. Tabiiyki, bola boshida buning uddasidan chiqa olmaydi, lekin chiziqqacha masofani ko‘z bilan chamalab, sharchani iloji boricha to‘g‘ri tushirishga harakat qiladi. O‘yinni musobaqa tarzida ham uyushtirish mumkin.

Aynan shu topshiriqni bir muncha kattaroq yoshdagi bolalarga berish uchun uni bir oz murakkablashtirish lozim. Shar yo‘liga tayoqcha qo‘yish, darvoza o‘rnatish mumkin. Bola sharni darvozaga kiritishi lozim.

O‘yinchoqni tuzat

Bu o‘yinni o‘tkazish uchun bolaga biror o‘yinchoq berib, uni ma’lum muddat (bir necha kun) o‘ynab turishiga sharoit yarating. O‘yin jarayonida bola o‘yinchoqning tuzilishi bilan tanishadi. (Masalan — mashina). So‘ng, bolaga sezdirmay, mashina g‘ildiragiga rezina qoplab qo‘ying, shunda mashina yurmay qoladi. Bola bu kamchilikni bartaraf etish uchun ko‘p vaqt sarflaydi, harakat qiladi. Kamchiliklar sonini bir o‘yinchoqda 3 tagacha yetkazish mumkin. O‘yin turli o‘yinchoqlar bilan o‘tkaziladi.

Shahar bo‘ylab sayr.

Bu o‘yin bolalarda obrazli tafakkurni o‘stiradi .O‘yin uchun suratlar to‘plami kerak bo‘ladi. Suratlarda: qaychi, taroq, non, igna va ip, avtomobil, xat, dorili idish, sutli idish va hokazolar. Bolaga quyidagicha voqeani aytib bering.

Sen notanish shaharga borib qolding, u yerdagilarning tilini bilmaysan. Buning ustiga charchagansan, qorningoch. Shaharda turli do‘konlar, ustaxona, dorixona, kutubxonalar ko‘p. Lekin ularning qaerda joylashganini qanday bilish mumkin. Bolaga birinchi suratni ko‘rsatib, unda nima tasvirlanganini tahlil qiling. Birinchi suratda sutli idish tasvirlangan, u nimani ifodalashi mumkin — so‘rab ko‘ring. Agar topolmasa, aytib bering. Bola bilan bir oz shu tariqa o‘ynagach, o‘yin mazmunini o‘zgartiring: dorixona qaerdaligini qanday ko‘rsatish mumkin? Shu yaqin orada maktab borligini yoki kasalxona va oshxona qaerdaligini topishga qaysi ko‘rsatkich yordam beradi? kabi savollar bilan bolani faollashtiring. Shahardagi barcha ko‘rsatkichlar bilan tanishib chiqilgach, yangi ko‘rsatgichlarni tayyorlang. O‘yin shu tariqa davom etadi.

Shakllar ustaxonasi

Bu ustaxonani tuzish qiyin emas. Buning uchun boshchasi qirqilgan gugurt cho‘plari (yoki «sanoq cho‘plari») mis sim (yoki yo‘g‘on arqonlar), geometrik shakl namunalari kerak bo‘ladi. To‘g‘ri chiziqli shakllar— kvadrat, to‘rtburchak, uchburchak kabilarni tayoqchalardan tuzish mumkin, dumaloq shakllar —doira, oval kabilarni arqon yoki simdan tuzish mumkin. Kichkintoy har bir shaklni tuzishni yaxshilab o‘rganib olsagina, yangi ko‘rinishlarni tuzishga o‘ting. Masalan, keng va tor to‘rtburchaklar, burchaklari turli bo‘lgan uchburchaklar va hokazo namunalarni tayyorlashda ularni bolaga bergan materiallaringizdan yasash mumkinmi — yo‘qmi, avvaldan tekshirib ko‘rishni unutmang. Bola quyidagi shakllarni yasashi mumkin:

Ajoyib xaltacha

Bu o‘yin jarayonida bola narsalarni paypaslab aniqlashga o‘rganadi, ko‘ruv va sezuv taassurotlarini taqqoslaydi. Sizga bir xil predmetlarning 2 to‘plami — geometrik shakllar yoki mayda o‘yinchoqlar kerak bo‘ladi. To‘plamlarning birini qalinroq matodan tikilgan xaltachaga solib bo‘g‘zini mahkamlang. Bolaning vazifasi — boshlovchi ko‘rsatgan namunaga ko‘ra xaltachadan predmetni izlab topishdan iborat. Bola bilan o‘yin jarayonida o‘rin almashib turing.

O‘yinning boshqa ko‘rinishi — predmetlarning ikkinchi to‘plami qog‘ozga chizilgan bo‘ladi, yana bir ko‘rinishi — boshlovchi izlanishi lozim bo‘lgan predmetlarni topishni aytadi.

Rangli uylar

Bunday uylarni bolalar o‘z sevimli o‘yinchoqlari uchun qurishlari mumkin. Uy o‘rnida stullardan foydalanish mumkin, bola o‘zi xohlagan rangdagi narsalar yordamida o‘z uyini shartli ravishda «ranglaydi». Har kim o‘zi tanlagan rangidagi narsalarni topish bo‘yicha musoboqa uyushtiring: Siz yashil rangdagi narsalarni oling, bolangiz sariq rangdagi narsalarni ajratsin. Bolaga 1 — 2 marta Sizni yutib olishiga imkoniyat yarating. Bu bolaning ishtiyoqini oshiradi.

Suratlarni eslab qol

Bu o‘yin uchun avvaldan 10—12 ta surat tayyorlanadi. Ularning har birida bittadan narsa tasvirlangan bo‘lishi lozim. O‘yinni bir necha bola o‘rtasida yoki Siz va bola o‘rtasidagi musobaqa tarzida o‘tkazish mumkin. Sharti — ko‘proq suratni eslab qolish.

Ishtirokchilar suratlarni 2-3 minut ko‘zdan kechirib, so‘ng qaytarib beradilar. Keyin o‘zlari eslab qolgan suratlarning nomini aytadilar. Nomlar galma —gal so‘raladi. Kim oxirida hech kim aytmagan nomni aytsa, g‘olib chiqadi.

Asalari qayerga yashirindi

Bu o‘yin tafakkurni o‘stirishga xizmat qiladi. Uni o‘tkazish uchun Sizga qo‘g‘irchoq xonasi, mebel kerak bo‘ladi: dumaloq stol, stulcha, kreslo, divan, krovat, javon (etishmagan narsalar bo‘lsa boshqalari bilan almashtirish mumkin). Faqat ularning soni 6 tadan oshmasligi kerak. Agar tayyor mebel bo‘lmasa, uni gugurt qutilaridan tayyorlash mumkin. Xona o‘rnida qutichadan foydalaning.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamarajabova Z.N.Surdopedagogika -T.,2019. – C. 46.
2. Шиф Ж.И. Усвоение языка и развития мышления у глухих детей. – М.: Просвещение, 1990. - С. 33 .
3. Ibragimovna, Turg‘unboyeva Zulxumor. "ZAIF ESHITUVCHI O‘QUVCHILARNI NUTQIY SIFATLARINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI." Science Promotion 1.2 (2023): 131-138.
4. Turg'unboyeva, Zulhumor. "O'ZBEKISTONDA UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA INKLYUZIV TA'LIMNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI." SCIENCE PROMOTION (2023).
5. Turg'unboyeva Zulhumor Ibrohimjon qizi “Zaif eshituvchi o‘quvchilarni kognetiv va nutqiy malakasini rivojlantirishning innovatsion texnologiyasi” Dis. Qo’qon-2023.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

QUDRATOVA SHAXNOZA BAXTIYOR QIZI
Toshkent amaliy Fanlar universiteti, “Boshlang‘ich ta`lim nazariyasi va metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola ta’lim tizimini rivojlantirishda, mamlakatimizda olib borilayotgan innovatsion jarayonlar va STEAM texnologiyasi, ularni amalga oshirishda ta’lim tizimida olib borilayotgan ishlar. Jahonda ta’limga innovatsion yondashuv asosida o‘quvchilarning raqobatbardoshligini oshirish, innovatsion faoliyatini rivojlantirish orqali ijodiy ta’lim jarayonini loyihalashtirishning zamonaviy metodik ta’minotini yaratish.

Kalit so‘zlar. Innovatsiya, kompetensiya, tizim, STEAM, kitobxonlik, boshlang‘ich sinf, loyiha, hamkor, so‘rovnoma, axborot resurslari, mustaqil ta`lim, uzluksiz ta`lim, induktiv, deduktiv, pedagogik texnologiya, muammoli vaziyat, ilg‘or tajriba

Аннотация. Эта статья посвящена развитию системы образования, инновационным процессам и технологии STEAM, проводимым в нашей стране, работе, проводимой в системе образования по их внедрению. Создание современного методического обеспечения проектирования творческого образовательного процесса путем повышения конкурентоспособности учащихся, развития инновационной деятельности на основе инновационного подхода к обучению в мире.

Ключевые слова: Инновации, компетенции, система, STEAM, чтение, начальный класс, проект, партнер, опрос, информационные ресурсы, независимое образование, непрерывное образование, индуктивное, дедуктивное, педагогические технологии, проблемная ситуация, передовой опыт.

Annotation. This article is about the development of the educational system, the innovative processes and STEAM technology carried out in our country, the work carried out in the educational system in their implementation. Create a modern methodological support for the design of the creative educational process by improving the competitiveness of students, developing innovative activities on the basis of an innovative approach to education in the world.

Key words: Innovation, competence, system, STEAM, reading, primary grade, project, partner, Survey, Information Resources, Independent Education, continuing education, inductive, deductive, pedagogical technology, problem situation, advanced experience.

KIRISH. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi №PQ-3931 son qarori bilan tasdiqlangan “2018-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi”ning II bo‘lim, 11-bandida: Umumiy o‘rta ta’limning yangi davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlarini takomillashtirish va shu bilan birga STEAM (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) metodlarini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish belgilab berilgan. Uzluksiz ta’lim tizimining poydevori bo‘lgan boshlang‘ich ta’limda innovatsiya jarayonini amalga oshirishda xalqaro tajribalarni ta’lim samaradorligini oshirishdagi muhim jarayonlardan biri hisoblanadi. O‘quvchilarning ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, kreativ va mantiqiy fikrlashga o‘rgatish, zamonaviy ijtimoiy ko‘nikmalar (mustaqil ishlash qobiliyati, loyihalash, o‘zini-o‘zi tahlil qilish, iqtidorini namoyon qilish, olgan bilimlarini hayotda qo‘llay olishi) ni rivojlantirish, tayanch kompetentsiya mezonlaridan biri bo‘lgan “Hayot davomida ta’lim olish”ga yo‘naltirilgan innovatsion ta’lim muhitini yaratish muammoning ilmiy jamoatchilik tomonidan chuqur tadqiq qilinishini taqozo etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI. STEAM ta'limi g'oyalarining paydo bo'lishi va rivojlanishiga turtki bergan birinchi yirik ta'lim faylasuflaridan biri R. Dekart bo'lib, u "aqlni boshqarish qoidalari" fan metodologiyasi asarida "barcha fanlar bir-biri bilan shunchalik bog'langanki, ularni bir vaqtning o'zida o'rganish ularni ajratishdan ko'ra osonroqdir" deb yozgan. Pansofizm asoschisi, pedagogika bo'yicha fundamental ishlar muallifi Y. A. Komenskiy o'z asarlarida turli fanlar, bilimlarning alohida sohalari va dunyoni bilish usullari o'rtasidagi muloqot dunyoqarashning yaxlitligining kaliti ekanligini bir necha bor ta'kidlagan. Fanlarni faol ravishda farqlash, ularning mavzusini, o'ziga xos tadqiqot usullarini izlash XVII asrda boshlangan va o'z davridan bir necha asr oldin pansofizm g'oyalari fanlararo bilimlarning prototipiga aylangan. Ma'rifat davri pedagoglari I. G. Pestalozzi va J. J. Russo o'z asarlarida fanlarning birligini ta'kidladilar, fanlararo aloqalarning ahamiyati va samaradorligini tan oldilar.[1]

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL. XVII–XIX asrlar oxiridagi pedagogik adabiyotlarda. "hamma narsa hamma narsada" tamoyiliga asoslangan o'qitishning yangi usuli keng muhokama qilindi. Ilmiy tabiatshunoslik tarixida fanlarning differentsiatsiyasi davri bir necha asrlar davom etdi, shu bilan birga ilmiy tadqiqotlar mavzulari qat'iy chegaralandi. XX asr tabiatshunoslikda tendentsiyaning yangi qarama – qarshi differentsiatsiyasining boshlanishi – fanlarning integratsiyasi paydo bo'la boshladi va vaqt o'tishi bilan ushbu tendentsiyaning namoyon bo'lishi tez sur'atlar bilan o'sdi. Fanlarni birlashtirishga bo'lgan qiziqish biotexnologiyadagi yutuqlar, shuningdek, dunyo va jamiyatni ularning namoyon bo'lishi va o'zaro ta'sirining barcha xilma-xilligi bilan ko'rib chiqadigan bir qator sintetik fanlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi bilan bog'liq. Bunday ilmiy yo'nalishlar va tegishli texnologiyalar Stem bilan bog'liq innovatsion ishlab chiqarish tarmoqlari va kasblarini shakllantiradi. E. Toffler o'zining "Future Shock" kitobida shunday yozgan: "XXI asrning savodsizlari o'qish va yozishni bilmaydiganlar emas, balki o'rganish, o'rganish va qayta o'rganishga qodir bo'lmaganlar bo'ladi. Ijodkorlik, qiziqish va dizayn tafakkuri kabi atributlar kelajakdagi ishchi kuchi uchun uzoq yo'lni bosib o'tadi". Ta'lim maqsadlari vaqt o'tishi bilan jamiyat ehtiyojlariga qarab o'zgaradi va rivojlanadi. O'qituvchilar ta'limda iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik o'zgarishlar sharoitida dolzarb bo'lgan texnologiyalar va yondashuvlarni topadilar va sinab ko'rishadi. 20 yildan ortiq vaqt davomida pedagogika fanida faol muhokama qilingan va geografiyani kengaytirishga moyil bo'lgan ana shunday pedagogik texnologiyalardan biri bu STEM ta'limi. Ikkinchisi XXI asrning asosiy vakolatlarini shakllantirishga qaratilgan. integrativ pedagogik texnologiya orqali u zamonaviy jamiyatning bir qator muammolariga javob berib, jadal rivojlanmoqda:

2001 yilda amerikalik biolog J. Ramaley Stem qisqartmasini shakllantirish uchun elementlarni qayta tuzdi. O'shandan beri STEM ta'limiga yo'naltirilgan o'quv dasturi AQShdan tashqaridagi ko'plab mamlakatlarda keng tarqalgan STEM ta'limi doirasida bir qator yo'nalishlar ajralib turdi, ular Stem umumiy nomini va ustuvor faoliyatni aks ettiruvchi xususiy nomlarni oldi. Shunday qilib, eng keng tarqalganlari STEAM (fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika). Buning sababi shundaki, STEAM yondashuvlari o'quvchilarga bir nechta yo'nalishlarga, shu jumladan ijodkorlikka murojaat qilish orqali yuqori o'quv natijalariga erishish uchun ko'proq imkoniyatlar yaratadi. Ilm-fan-tabiiy fanlar (tabiiy tarix, tabiatshunoslik) - insonning tashqi dunyosiga tegishli tabiat, hodisalar va qonunlar haqidagi fanlar to'plami; bu haqiqatan ham mavjud bo'lgan yoki ehtimol koinotda mavjud bo'lgan hamma

1 G. Yakman / / STEAM ta'limi. - Kirish tartibi: https://steamedu.com / tadqiqot/. - Kirish sanasi: 12.05.2019

narsani aniq bilishdir. O‘quv jarayonida samarali metodlardan maqsadga muvofiq foydalanish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘quv-bilish kompetentsiyalarini STEAM ta'limi talablari asosida shakllantirishga imkon beruvchi asosiy omil sanaladi. Kichik amaliy tajribalarni o‘tkazish, bu kabi ishlarni tizimli ravishda amalga oshirish, muammoli vaziyatlarni yaratish hamda mazkur o‘rinlarda o‘quvchilarning mustaqilligini ta’minlash, ularni o‘z fikrlarini erkin bayon etishga rag‘batlantirish ularda nafaqat fanni bilishga bo‘lgan qiziqishni shakllantiradi, balki mavjud qiziqish darajasini oshiradi, uni mustahkamlaydi va barqarorlashuviga olib keladi, bilimlarining chuqur, puxta o‘zlashtirilishiga yordam beradi.

O‘quvchilarning o‘quv-bilish kompetentsiyalarini STEAM ta'limi talab va mezonlari asosida mustaqil ishlar jarayonida shakllantirishda kouching, MIMM, teskari ta’lim metodikalaridan ta’lim tizimiga kirib kelayotgan yangi usul sifatida o‘quv faoliyatida foydalanish maqsadga muvofiq.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning ta’lim mazmuniga qo‘yilayotgan zamonaviy talablar bo‘yicha nazariy va amaliy bilim hamda kasbiy kompetentsiyalarini shakllantirish maqsadida pedagogik oliy ta’lim muassasalari o‘quv rejasiga “STEAM ta’limi” fanini kiritish maqsadga muvofiq.

Mustaqil ishlar jarayonida ijodiy muhitni vujudga keltirish uchun o‘rganiladigan mavzu mazmuniga bog‘liq holda quyidagi didaktik omillarni e’tiborga olish zarur deb hisoblaymiz: darsda o‘quvchilarning avval o‘zlashtirgan bilimlarini mustaqil holda yangi, kutilmagan vaziyatlarda qo‘llash vaziyatini vujudga keltirish maqsadida an’anaviy o‘qitish metodlari bo‘lgan og‘zaki bayon, ko‘rgazmali va amaliy metodlari bilan bir qatorda mustaqil ish, muammoli, mantiqiy o‘qitish metodlaridan foydalanish; mavzu mazmunini hisobga olgan holda o‘quv muammolarini vujudga keltirish orqali avval o‘rganilgan ob’ektlarning o‘ziga xos xususiyatlarini odatiy va tanish vaziyatdagi muammolarni anglash hamda uni hal etish yo‘lini tavsiya etish, ushbu omil o‘qitish jarayonida muammoli o‘qitish metodi ustuvorligiga asoslanadi; o‘quv muammolarini hal etish orqali tanish ob’ektning yangi xususiyatlarini topish, o‘quvchilar avval o‘rganilgan ob’ektga xos yangi xususiyatlarni aniqlashga yo‘naltirilgan omilda o‘qitish jarayonida mantiqiy metodlar ustuvorligiga tayanadi; tuzilish va funktsional qonuniyatiga asosan tushunchalar o‘rtasidagi aloqalar, sabab va oqibatlarni aniqlash, ushbu omil o‘qitish jarayonida muammoli o‘qitish va mantiqiy metodlarni mujassamlashtirishni taqozo etadi; o‘qitish jarayonida o‘quvchilar tomonidan darsda vujudga keltirilgan muammoli vaziyatlarni hal etish uchun turli variantlar asosida fikr yuritishga imkon yaratish, mazkur jarayonda og‘zaki, ko‘rgazmali, muammoli o‘qitish va mantiqiy metodlarni mujassamlashtirish zaruratini keltirib chiqaradi.

Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olishlari uchun katta imkoniyatlar mavjud. Biroq hozirgi vaqtda o‘quv-tarbiya jarayonida o‘quvchilarda mustaqil ta’lim olish qobiliyatini shakllantirish masalasiga dolzarb pedagogik muammo sifatida qaralmaydi, mustaqil ta’lim mazmunini tahlil qilish va ishlab chiqishga zamonaviy nuqtai nazardan yondashilmaydi, uning samarali metod, shakl hamda vositalaridan foydalanishga yetarlicha e’tibor berilmaydi. Bu boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning mustaqil ta’limini tashkil etish, amalga oshirish, nazorat qilish borasida qator pedagogik muammolar mavjudligini bildiradi.

Mustaqil ishlar jarayonida o‘quvchida mustaqil fikrlash qobiliyatining rivojlanishi natijasida, o‘quvchida jarayonlar va hodisalar, ob’ektlar haqida bilimlarni tizimlashtirish ularni chuqur o‘rganish hamda tegishli qarorlar qabul qilish, nazariy bilimlarni amalda qo‘llash ko‘nikmalari shakllanadi.

Savollar yoki topshiriqlar orqali o‘quvchilarning ijodiy fikrlashlarni rivojlantirish, noma’lum yoki noaniq ma’lumotlar mohiyatini tushunish uchun mustaqil izlanishlarini vujudga keltiradi.

O‘quvchining ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish, uning mustaqil bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshirishda mustaqil ish ijobiy ta’sir ko‘rsatar ekan. Boshlang‘ich sinflarda joriy etilgan yangi texnologiya, avvalo, fanlar orasidagi bog‘liqlikni ta’minlash, ortiqcha qiyinchiliklarni bartaraf etish, fanlarni integratsiyalash, o‘quvchi faoliyatini to‘g‘ri izga solish, vaqtdan unumli foydalanish, tashabbuskorlik muhitini yuzaga keltirish, ijodiy ishlash tizimini yaratish kabi qator maqsadlarni amalga oshirish kabi zarur ishlarni bajaradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv-bilish kompetentsiyalarini mustaqil ishlar asosida samaradorligini oshirish dolzarb pedagogik muammo ekanligi, ularni mustaqil ish jarayonini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari va metodik asoslarining yoritilganligi, STEAM ta'limi talab va mezonlariga asoslangan ta’limning o‘ziga xos xususiyatlari, o‘quvchilarda o‘quv-bilish jarayoni kompetentsiyalarini shakllantirish strategiyasini amalga oshirish vazifalari, yo‘nalishlari hamda kamchiliklarning aniqlashtirilganligi kelajak ta’limi uchun muhim nazariy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

XULOSA VA MUNOZARA. STEAM ta’limining ta’riflari va mohiyatiga oid bir qator nufuzli va eng ko'p keltirilgan manbalar ajralib turadi, ammo STEAM ta'limi pedagogik hamjamiyat uchun juda yangi atama bo'lganligi sababli, o'qituvchilar orasida ushbu atamani talqin qilish va tushunishda kelishuv mavjud emas. Aytishimiz mumkinki, oliy ta’limda STEAM yondashuvini amalga oshirishga qodir bo'lgan fanlararo o'qituvchilarni tayyorlashga jiddiy e'tibor berilishi kerak. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning innovatsion tushunchalarini rivojlantirishda mustaqil ishlarini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari, pedagogik shart-sharoitlari, mazmuni va metodikasi o‘rganish lozim. Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi o‘quvchining o‘z bilimini mustaqil oshirish faoliyatini aniq bir maqsadga yo‘naltirishi lozim, degan xulosaga keldik. Mustaqil ishlarni o‘quv va o‘yinli topshiriqlar orqali amalga oshirish uchun qulay ta’limiy muhitni yaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta`limi tizimida ta`lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-sonli qarori. (Qonun hujjatlari ma`lumotlari milliy bazasi,10.12.2018 y., 09/18/997/2289-son; Qonunchilik ma`lumotlari milliy bazasi, 28.08.2021 y., 09/21/545/0832-son; 05.04.2022 y., 09/22/153/0266-son)
2. Yakman, G. // STEAM Education. – Mode of access: https://steamedu.com/ research/. – Date of access: 12.05.2019.
3. Декарт, Р. Правила для руководства ума / Р. Декарт // Соч. : в 2 т. / Р. Декарт. – М., 1989. – Т. 1. – С. 77–153.
4. Марчукова, С. М. Развитие идеи пансофийности в педагогических трудах Я. А. Коменского / С. М. Марчукова // Человек и образование. – 2013. – № 4. – С. 170–173.
5. Татаринов, Д. Л. Об использовании межпредметных связей математика – физика в дополнительном образовании школьников / Д. Л. Татаринов // Вестн. Адыгейс. гос. Сер. 3, Педагогика и психология. – 2012. – № 2. – С. 141–145.
6. Дьюи, Дж. Демократия и образование : пер. с англ. / Дж. Дьюи. – М. : Педагогика-Пресс, 2000. – 384 с.
7. Qudratova Sh.B..“O`zbekistonda ilm-fan va ta`lim masalalari:muammo va yechimlar”2-to`plammasofaviy ilmiy-amaliy onlayn konferensiya 2021.
8. Qudratov, T. B. (2021). Ta’limda xalqaro tajribalar. Вестник магистратуры, (1-3 (112)), 66-67.
9. https://scholar.google.com/citations?user=vok0-_AAAAAJ&hl=en
10.https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=en&user=vok0-_AAAAAJ&citation_for_view=vok0-_AAAAAJ:g5m5HwL7SMYC

AUTISTIK XUSUSIYATLARGA EGA BO'LGAN BOLALAR TA’LIM DASTURINI YARATISHDAGI ASOSIY YONDASHUV TAHLILI

KUDRATOVA IRODA ZAFAR QIZI
Toshkent davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada autistik xususiyati bor bolalarga ta’lim berish jarayonida pedagoglar amal qilishi lozim bo’lgan malak va ko’nikmalar tahlil etilgan. Ta’lim jarayonini tashkil etishda dasturga qanday ta’limiy yondashish kerakligi ko’rsatib o’tilgan. Alohida ta’lim extiyoji bor o’quvchilar bilan ishlash jarayonlari va bosqichlari misollar va yondashuvlar asosida bayon qilingan.

Kalit so’z va iboralar: autism, inkyuziv ta’lim, xulq-atvor, bola, o’quv dasturi, reabilitatsiya, aqliy, jismoniy, ruhiy.

Аннотация: В данной статье анализируются навыки и умения, которыми должен руководствоваться педагог в процессе обучения детей с аутистическими характеристиками. Показано, как подойти к программе в организации учебного процесса. На основе примеров и подходов описаны процессы и этапы работы со студентами с особыми образовательными потребностями.

Ключевые слова и фразы: аутизм, инклюзивное образование, поведение, ребенок, учебная программа, реабилитация, психическая, физическая, духовная.

Abstract: This article analyzes the skills and abilities that pedagogues should follow in the process of teaching children with autistic characteristics. It is shown how to approach the program in the organization of the educational process. The processes and stages of working with students with special educational needs are described on the basis of examples and approaches.

Key words and phrases: autism, inclusive education, behavior, child, curriculum, rehabilitation, mental, physical, spiritual.

Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ta’lim olishlarini tashkil etish va ularni reabilitatsiya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2023-yil 1-iyundagi Farmoni bilan 2024-yil 1-avgustdan boshlab alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlar, ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotlari hamda ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalari jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni ta’lim olishini kafolatlaydi.

2024-yil 2-aprelda butun dunyo autizm spektrining buzilishi (ASD) haqida xabardorlikni oshirish va autizmli shaxslarni qabul qilish va qo‘shishni targ‘ib qilishga bag‘ishlangan Autizmdan xabardorlik kunini nishonlash uchun birlashadi. Ushbu global marosim nafaqat autizm spektridagi odamlar duch keladigan qiyinchiliklarni yoritibgina qolmay, balki ularning noyob iste'dodlari va jamiyatga qo'shgan hissalarini ham nishonlaydi.

Autizm spektrining buzilishi - bu ijtimoiy o'zaro ta'sir, nutq va og'zaki bo'lmagan muloqot, cheklangan yoki takrorlanadigan xatti-harakatlardagi doimiy qiyinchiliklarni o'z ichiga olgan murakkab rivojlanish holati. Autizmning ta'siri va alomatlarning og'irligi odamlar orasida

juda xilma-xil bo'lib, uni "spektrli" holatga aylantiradi.

Autizmningdastlabkibelgilariko'pincha 2 yoshdan oldin kuzatilishi mumkin va ular nutq rivojlanishining kechikishi, ko'z bilan aloqaning cheklanganligi, tengdoshlar bilan muloqotga qiziqishning yo'qligi va takroriy xatti-harakatlarni o'z ichiga oladi. Natijalarni yaxshilash uchun erta tashxis qo'yish va aralashuv juda muhim, ammo ko'plab mintaqalarda diagnostika xizmatlaridan foydalanishda qiyinchiliklar saqlanib qolmoqda.

Alohida ta’lim extiyojiga muhtoj bo‘lgan autizmli bolalarning tafakkuri, diqqati, sezgi va idroklari, xotirasi, analiz va sintez qilish qobiliyatlari ham yaxshi rivojlanmagan bo‘ladi.Bu autizmli bolalarga zarur va yoshiga mos keladigan o'z-o'zini parvarish qilish, aqliy, ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalarga ega bo'lish uchun to'liq mustaqil bo'lish yoki hech bo'lmaganda ularni qaram bo`lmaslik uchun beriladigan maxsus ta'lim dasturi doirasidagi nutq terapiyasi autistik xususiyatga ega bo'lgan bolalarning nutq va til ko'nikmalarini rivojlantirish va yaxshilashga, ular bilan munosabatlar o'rnatishga imkon beradi.

Ta’lim dasturini yaratishdan oldin bolaning pedagogik va psixologik holati ishlashi aniqlanadi. Bolaning aralashuvi yoki mashg'ulotidan oldin faoliyatiga muvofiq tayyorlangan o'quv dasturida istalmagan xatti-harakatlarni kamaytirish yoki asosiy usullar (mukofotlash, e'tibor bermaslik, shakllantirish,) qo'llaniladi. Ushbu usulda, autistik xususiyatlarga ega bo'lgan bola ma'lum bir xatti-harakatlar modelini o'rganish uchun taqlid qilishni ham o'rganishi kerak. Odatda rivojlanayotgan bolalar bir nechta muhitda o'rgangan xatti-harakatlarini amalga oshirishi (umumlashtirishi) mumkin bo'lsa-da, autistik xususiyatlarga ega bo'lgan bolalarga o'rgatilgan ko'nikmalarni umumlashtirish, boshqacha aytganda, ularni turli muhitlarda qo'llash qobiliyati ham o'rgatiladi. Shu sababli, u o'rgangan xatti-harakatlarini uyda, maktabda, xizmatda, boshqacha qilib aytganda, turli xil muhitda takrorlashi kerak.

Ta'lim dasturining ta'lim tamoyillari autizmli bolalarni boshqa guruhlardan ajratib turadigan xususiyatlardan foydalanadi. Bular:

1-Kuchli tomonlari, sohalari va qiziqishlari. Har bir insonning o'zi yaxshiroq bo'lgan sohalari, alohida qiziqishlari va qilishni yoqtiradigan narsalari bor. Odamlar o'zlari qila oladigan narsalarni yaxshiroq qilishga moyil bo'lib, muvaffaqiyatga erishadilar va qiyin va muvaffaqiyatsiz bo'lishi mumkin bo'lgan narsalarni qilishdan qochishadi. U o'zi qiziqqan va yaxshi ko'radigan mashg'ulotlarga ko'proq moyil bo'ladi, chunki uning motivatsiyasi yuqori.

Misol uchun, tartiblash xulq-atvoriga ega bo'lgan bola uchun, biz uni bajarishni xohlagan vazifalarni sanab o'tadigan rasmlar yoki matnlardan iborat diagrammadan foydalanish yoki yozishga qiziquvchi bola uchun “og‘zaki takrorlash”dan ko‘ra, biz o‘rgatadigan so‘zlarni yozma shaklda taqdim etish samaraliroq bo‘ladi. Tegishli ranglar va mashinalarni yaxshi ko'radigan bola bilan mashinalar bilan ishlash, kompyuterni yaxshi ko'radigan bola bilan kompyuterda ishlash samaraliroq bo'ladi. Bu misollarni ko'paytirish mumkin. Muhimi, biz ishlayotgan bolaning yoqtirishi yoki yoqmasligi, o'yinlari, faoliyati va alohida qiziqishlarini (matnlar, raqamlar, rasmlar, musiqa, kompyuter, televizor va boshqalar) aniqlashdir.

2-Individuallashtirilgan ta'lim uchun baholash (Qobiliyat va ko'nikmalarni muntazam ravishda baholash) Autistik bolalar rivojlanishning har bir sohasida turli darajalarda bo`ladi. Uzoq muddatli maqsadlarga erishish uchun birinchi navbatda egallash kerak bo'lgan asosiy ko'nikmalarni o'rganish kerakligini e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Har bir rivojlanish sohasida u qila oladigan, qila olmaydigan va qisman qila oladigan (o'rganishga tayyor) ko'nikmalar aniqlanadi. Olingan ko'nikmalar o'rniga ularni muntazam ravishda baholash orqali yangi maqsadli ko'nikmalar tanlanishi kerak. Har bir tadqiqotda bolaga kerak bo'ladigan va kerakli miqdorda yordam ko'rsatilishi kerak. Yordam asta-sekin kamayishi va bola mustaqil ravishda mahoratni amalga oshirish darajasiga etganida to'xtatilishi kerak.

3-Muammo xatti-harakatlarining sabablarini tushunish(Tushunmaslik natijasida yuzaga kelgan nomuvofiqlik) Autizmli bolaning ataylab bo'ysunuvchi yoki tartibli xatti-harakatlari kamdan-kam uchraydi. Biroq, ko'pincha ota-onalar va o'qituvchilar bolaning ko'ziga qaragan va teskarisini qilgan yoki taqiqlangan harakatni amalga oshirayotgan bola bu xatti-harakatni ataylab qilmoqda, deb o'ylashadi.

“Teach” dasturi noto'g'ri xatti-harakatni shunchaki yo'q qilishning o'zi etarli emas deb hisoblaydi va shuning uchun xatti-harakatning asosiy sababini tushunishga e'tibor beradi. Bu xatti-harakatlarni o'zgartirish uchun kognitiv-xatti-harakat usullaridan foydalanadi.

4- Ota-onalar bilan hamkorlikda ishlash. Oila juda muhimdir, chunki maktabda olingan ko'nikmalarni kundalik hayotda takrorlash va umumlashtirish asosan oila ishtirokida amalga oshirilishi mumkin. Shu sababli, bolaning oila a`zolari o'qituvchi bilan birga terapevt sifatida ishlaydi, bu ta'limning muhim qismidir. Shu boisdan ham pedagoglar ta’lim dasturini tuzishda oilaning istak va ehtiyojlarini hisobga olishi, hayotini qiyinlashtiradigan xulq-atvorni tuzatishga ustuvor ahamiyat berishi asosiy tamoyillardan biri sifatida qabul qilingan.

5-O'qituvchilik bilan shug'ullanadigan mutaxassislar autizmning barcha jihatlarini tushunishlari kerak. Autizmli bolalar bilan ishlaydigan barcha defektolog (oligofrenopedagog, logoped) psixolog mutaxassislar ma'lum bir soha bilan cheklanib qolmasligi kerak, balki autizmdan kelib chiqadigan barcha muammolarni biladigan, umumlashtira oladigan va integral ish tizimini qo'llay oladigan shaxslar bo'lishi kerak.

Tadqiqotlar autizmli bolalarning rivojlanish ehtiyojlarini qo'llab-quvvatlashda erta aralashuvning ahamiyatini ta'kidlaydi. Amaliy xulq-atvor tahlili (ABA), kasbiy terapiya va nutq terapiyasi kabi moslashtirilgan terapiya muloqot, ijtimoiy ko'nikmalar va o'rganishni sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Amaliy xulq-atvor tahlili (ABA) terapiyasi autizmli odamlarga muhim hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam berishning eng samarali usullaridan biri sifatida tan olingan. ABA terapiyasi ijobiy mustahkamlash orqali ijtimoiy ko'nikmalar, muloqot, o'qish va akademiklar kabi muayyan xatti-harakatlarni yaxshilashga qaratilgan. U har bir shaxsning o'ziga xos ehtiyojlarini qondirish uchun moslashtirilgan bo'lib, uni moslashuvchan va ta'sirli aralashuvga aylantiradi.

ABA terapiya bu amaliy hulq-atvor tahlili degan ma'noni anglatadi taxminan 70-

80 yillik tarixga ega. Bu birinchi marta 1913 yilda Jon Uotson tomonidan boshlangan yondashuv bo'lib, so'nggi 20-30 yil ichida Amerikada autizmli bolalar bilan birinchi o'ringa chiqdi va butun dunyoga tarqaldi. Bu Turkiyada Amaliy Xulq-atvor tahlili yoki UDA sifatida ham tanilgan yondashuv va ABA terapiyasi (Amaliy xatti-harakatlar tahlili) va UDA terapiyasi (Amaliy xatti-harakatlar tahlili) bir xil davolash usulidir.

ABA terapiyasining asosi nima? ABA terapiyasi autizmli bolalarda etishmayotgan ko'nikmalarni egallashda yuzaga keladigan xatti-harakatlar muammolarini engishga qaratilgan. Bundan tashqari, bu xatti-harakatlardan oldin va keyin mavjud bo'lgan holatlar xatti-harakatlarga ta'sir qilishiga asoslangan yondashuv. U o'zi ishlab chiqqan xulq-atvor tamoyillari va xulq-atvorni tahlil qilish tamoyillari asosida o'qitish texnikasi va o'quv dasturini ishlab chiqdi va u har bir xatti-harakatni birma-bir o'rgatish va xatti-harakatlarni kichik xatti-harakatlarga bo'lish va ularni soddalashtirish orqali dasturga aylandi. autizmli bola tomonidan tushunarli.

Autizmli bolalarga erta yoshda boshlangan ta'lim dasturi orqali tengdoshlari bilan ta'limni davom ettirishga imkon berishni maqsad qilgan ABA usuli, istalmagan xatti-harakatlarni kamaytiradigan, xatti-harakatlarni juda yaxshi tahlil qilib, muqobil xatti-harakatlarni oshiradigan va xatti-harakatlarni rivojlantiruvchi usuldir. ularni chastotasi, zo'ravonligi va davomiyligi bo'yicha tahlil qilish orqali. Bu muammoli xulq-atvorga dosh berishda juda yaxshi natija beradigan terapiya bo‘lib, Qo‘shma Shtatlarda haftasiga 20-40 soatlik mashg‘ulotlar natijasida autizmli bolalar xulq-atvori bo‘yicha tengdoshlariga yetib olishlari kuzatilgan.

ABA terapiyasi bilan uyda xulq-atvor intizomi. Autizmli bolalarning xatti-harakatlarini qanday o'zgartirish va yaxshilashni o'rgatuvchi ABA usuli - bu ularga qanday qilib yangi xulq-atvorni egallashni o'rgatadigan treningdir. Har bir bola alohida, degan tamoyilga asoslanib, autizmli bolalar uchun maqsadli ko'nikmalar bosqichma-bosqich o'rgatiladi. Maqsadlar mutaxassislar tomonidan amalga oshirilgan baholashlar natijasida aniqlanadi va maqsadli xatti-harakatlar bolalar tomonidan amalga oshirilishi mumkinmi yoki yo'qligini tekshirish o'rniga ularning rivojlanishi muntazam ravishda tekshiriladi.

Bundan tashqari, u uyda istalmagan xatti-harakatlarni bolaning yaqin doiralari tomonidan ular bilmagan holda kuchaytirishi va rivojlanishi mumkinligini tan oladigan dastur sifatida qo'llaniladi. Uyda amaliyotni davom ettirish maqsadli xatti-harakatlarni keng jamoatchilikka tarqatish muammosini ham yo'q qiladi. Shu sababli ota-onalar va bolaning atrofidagilar juda ko'p ish qilishlari kerak.

Mutaxassislarning ko'rsatmalariga muvofiq uyda ABA terapiyasini davom ettirish qisqa vaqt ichida muvaffaqiyatga erishishga imkon beradi va xatti-harakatlardan oldingi va xatti-harakatlardan keyingi natijalarni tahlil qilish orqali istalmagan xatti-harakatlar tinchlanadi va maqsadli xatti-harakatlardagi muvaffaqiyat mukofotlanadi.

ABA terapiyasining xususiyatlari. ABA terapiyasi uchun maxsus yosh oralig'i yo'q, bu yerda qo'llash ayniqsa dastlabki bosqichlarda tavsiya etiladi. Bu faqat autizmli bolalarda qo'llaniladigan usul, lekin u xatti-harakatlarida muammolari bo'lgan bolalar uchun ham qo'llanilishi mumkin. Bu maqsadli xatti-harakatlarni

egallashga va muqobil xatti-harakatlarga ega bo'lishga imkon beradi, shu bilan birga istalmagan muammoli xatti-harakatlarni kamaytiradi. Maqsad, erta davrda berilgan ABA terapiyasi orqali autizmli bolaning o'z tengdoshlari bilan ijtimoiyiy ta'limda ishtirok etishini ta'minlashdir.Autistik bolaning istalmagan xatti-harakatlariga ta'sir qiluvchi atrof-muhit omillarini o'rganish orqali istalmagan xatti-harakatlar nazorat qilinadi. ABA terapiyasi mutaxassis nazorati ostida o'tkazilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://lex.uz/docs/-6779571?ONDATE=26.01.2024%2000#-6781022 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasi qaror Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim olishlarini tashkil etish va ularni reabilitatsiya qilish.

2. https://www.esn-teachers.org/uz/dasturlar/dastur-malumotnomasi-va-zhadvali
My Teacher (My-Teacher) is an application in the educational field that connects school students, and their parents, with school teachers.

3. Nazokat, Abidova. "AUTIZM SPEKTORI BUZILGAN O'QUVCHILARNING BILISH FAOLIYATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI." Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (2023): 412-415.

4. Kutbiddinovna, Abidova Nazokat. "PROBLEMS OF EDUCATION OF CHILDREN WITH AUTISM SPECTRUM IN THE FAMILY." Open Access Repository 9.6 (2023): 176-179.18.

5.Дети с аутизмом / П. Сатмари; пер. с англ. З.Замчук. Санкт-Петербург: Питер, 2005. -224 с.

6.Дети с нарушениями общения: ранний детский аутизм: / К.С.Лебединская, О.С.Никольская, Е.Р.Баенская, М.М.Либлинг, Р.К.Ульянова, Т.И.Морозова. М.: Просвещение, 1989. -95 с.

BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARINING SPORT ESTETIKASIGA DOIR BILIMLARINI RIVOJLANTIRISHNING TEXNOLOGIK USULLARI

SHAXBAZOVA GULRUH ORIFJON QIZI
Farg‘ona davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida sport estetikasiga doir bilimlarni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, sport estetikasiga doir bilimlarni rivojlantirishning amaliy metodik tizimi, sport estetikasiga doir bilimlarni rivojlantirish samaradorligi o`rganilgan. Shuningdek, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining sport estetikasiga doir bilimlarini rivojlantirishning texnologik usullari tahlil qilingan.

Аннотация: В данной статье изучены теоретико-методологические основы развития знаний об эстетике спорта у будущих учителей физической культуры, практическо-методическая система формирования знаний об эстетике спорта, эффективность формирования знаний об эстетике спорта. Также проанализированы технологические методы развития знаний по спортивной эстетике у будущих учителей физкультуры.

Abstract: In this article, the theoretical-methodological foundations of the development of knowledge about sports aesthetics in future physical education teachers, the practical methodical system of developing knowledge about sports aesthetics, and the effectiveness of developing knowledge about sports aesthetics have been studied. technological methods of developing knowledge of sports aesthetics among future physical education teachers were also analyzed.

Kalit so‘zlar: pedagog, jismoniy tarbiya, sport estetikasi, sport, texnologiya, didaktik, modernizatsiya, integratsiya, klasterli yondashuv, fosilitatsion ta’lim, refleksiv, interfaol, trening, innovatsion, integratsion.

Ключевые слова: педагог, физическое воспитание, спортивная эстетика, спорт, технологии, дидактический, модернизация, интеграция, кластерный подход, фоссилизирующее образование, рефлексивный, интерактивный, тренинг, инновационный, интегративный.

Key words: pedagogue, physical education, sports aesthetics, sport, technology, didactic, modernization, integration, cluster approach, fossilization education, reflexive, interactive, training, innovative, integrative.

KIRISH. Zamonaviy sharoitda bo‘lajak jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarining sport estetikasiga doir bilimlarini rivojlantirish samaradorligini oshirishning zaruriy shartlaridan biri – mazkur jarayonni texnologik asosda tashkil etishdir. Ta’lim amaliyotida ta’limiy, pedagogik, tarbiyaviy, o‘qitish texnologiyalari ajratib ko‘rsatiladi. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining sport estetikasiga doir bilimlarini rivojlantirishga ehtiyojni kuchaytiruvchi qator asoslar mavjud. Bu bevosita jismoniy ta’lim va tarbiya samaradorligini oshiruvchi serqirra va murakkab jarayondir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida sport estetikasiga doir bilimlarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslarini tadqiq etishning uch qismga O‘zbekistonda, MDH mamlakatlarida va G‘arb mamlakatlarida o‘rganilishi sifatida tasniflash mumkin.

O‘zbekistonlik olimlardan N.N.To‘xtaboyev, A.N.Shopulatov, S.S.Tajibayev, F.Kerimov, A.Shopulatov, A.Muzaffarov, A.Mirzayev, A.Xudoyorovlar jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining kasbiy mahoratini rivojlantirish, sportchilarda ma’naviy qadriyatlarni shakllantirish ishlarini samarali tashkil qilish masalalari o‘rganilgan. Shuningdek, S.X.Fayzulina, S.K.Annamuratova, A.Hasanov, F.Jo‘rayev,

A.Vosiqov, A.Sulaymonov, K.Dosimov kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida estetik tarbiya, sport estetikasining tarbiyaviy imkoniyatlari yoritilgan.

G‘arb davlatlarida yoshlarni ommaviy sport sog‘lomlashtirish jarayoniga yo‘naltirish, bunda sport estetikasining imkoniyatlaridan oqilona foydalanish va bu borada jismoniy tarbiya ta’lim imkoniyatlarini oshirish masalalari olimlardan B.Lou, H.Slyusher, F.Kinon, A.Vett, E.Zadarko, J.Yunger, Z.Barabas, D.Braun, A.Alpers tomonidan tadqiq etilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Hozirgi paytda sport jahon bo‘ylab juda keng yoyilgan madaniy soha sifatida tan olinadi. Ayniqsa, buni O‘zbekiston misolida yaqqol ko‘rish mumkin. Bizda mustaqillik sharofati bilan sportga milliy madaniyatning uzviy qismi sifatida qarash shakllandi, uning hamma turi bo‘yicha musobaqalar o‘tkazish odat tusiga kirdi, o‘zbek kurashi esa umumbashariy sport turi maqomini oldi, maxsus Madaniyat va sport vazirligi tashkil etildi. Shu sabab bugun O‘zbekiston sport diyoriga, inson jismoniy go‘zalligini jahonga namoyish etayotgan mamlakatlardan biriga aylandi. Sport estetikasidagi eng muhim muammo, bu uning san’at bilan o‘xshashligida. Shundan kelib chiqib, zamonaviy sportni (juda bo‘lmaganda, uning ba’zi turlarini) o‘ziga xos san’at sifatida talqin qilish keng yoyilgan. Rene Mehyu, Morin Kovich, Benjamin Lou singari g‘arb olimlari va ko‘plab mashhur sportchilar sportni san’at sifatida qabul qilish mumkin degan fikrni o‘rtaga tashlaydilar. Lekin haqiqatan ham sport san’atmi, ularni aynanlashtirish mumkinmi? Bu savolga to‘g‘ridan-to‘g‘ri javob berish qiyin. Shu bois sportning kelib chiqishi va mohiyatiga e’tibor qilib ko‘raylik.

San’at bilan sportning yana bir o‘xshash tomoni shundaki, har ikkalasi ham biror bir moddiy ehtiyojni qondirmaydi, bevosita maqsad emas, maqsadga muvofiqlik tarzida voqe bo‘ladi, ularning asosiy xususiyati, mavjudligini oqlaydigan narsa, bu – odamlarga estetik zavq berish xususiyati. Ayni paytda san’atda ham sportda ham o‘yin ijtimoiylik kasb etmasligi mumkin emas, sportchi san’atkor kabi g‘oyaviy-mafkuraviy maylparastlik tabiatiga ega. San’atkor vatanparvarlik, millatparvarlik g‘oyalarini bilvosita – badiiy asari orqali ilgari sursa, sportchi o‘z jismoniy xatti-harakatlari bilan musobaqalarda vatan bayrog‘ini ko‘tarishga, “millatni uyaltirib qo‘ymaslikka” intiladi, ya’ni bevosita va tabiiy ravishda mafkuraviylikni amalga oshiradi. Demak, san’at ham, spolrt ham shunchaki zavq berish va o‘z iste’dodidan zavqlanish bilangina chegaralanib qolmaydigan ijtimoiy-ma’naviy hodisalardir. Biroq ana shu mafkuraviylik mafkurabozlikka aylansa, ya’ni ijodkor mafkura uchun axloqiylikdan chekinsa, san’atda haqiqiy badiiy asar yaratishning iloji bo‘lmaganidek, sport musobaqasida ham g‘irromlik yo‘li bilan, “bir amallab” yutib chiqib, haqiqiy g‘alabaga erishishi mumkin emas, zero haqiqiy g‘alaba tomoshabinning bahosi bilan belgilanadi. Masalan, futbol maydonida raqibi yiqilib, o‘rnidan tura olmayotganini ko‘rgan futbolchi o‘zi qulay vaziyatda bo‘lsa ham, to‘pni maydon tashqarisiga chiqarib yuboradi, raqib o‘rnidan turib, hakam to‘pni o‘yinga kiritishga ruxsat berganida yiqilgan raqibning o‘zi yoki komandadoshi uni yana maydon tashqarisiga chiqarib, to‘p egallash navbatini ixtiyoriy tarzda raqib komandaga beradi. Bu – har ikkala komanda o‘yinchilarining jo‘mardligini “haqiqiy yigitlar” ekanini, ularning faqat jismoniy emas, balki axloqiy jihatdan ham yetukligini ko‘rsatadi, tomoshabin hech qachon ularning birortasini to‘pni raqibiga berib qo‘ydi deb ayblamaydi, afsus chekmaydi, aksincha xursand bo‘ladi, namoyish qilingan mardlikdan zavqlanadi.

Sport nafaqat jismoniy va ma’naviy sog‘lomlik asosi, balki hayotga katta umid bilan kirib kelayotgan yoshlarni turli zararli yot g‘oya va odatlardan asrash, ularga o‘z qobiliyati va iste’dodlarini to‘la ruyobga chiqarish, estetik tarbiya vositasi hamdir. Shu bois so‘nggi yillarda mamlakatimizda bu borada qator huquqiy-meyoriy hujjatlar imzolandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi PF-5924-son Farmoniga asosan Respublikada oxirgi yillarda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, imkoniyatlari cheklangan shaxslarning jismoniy reabilitatsiyasi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish hamda mamlakatning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta’minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bo‘lajak jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarining sport estetikasiga doir bilimlarini rivojlantirish texnologiyasi refleksiv yondashuvning konseptual asoslariga tayangan holda loyihalashtirilib, maqsadga yo‘naltirilgan, tizimli tavsifga ega quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga qamrab oldi: analitik – bo‘lajak jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarining sport estetikasiga doir bilimlarini rivojlantirishga doir ma’lumotlarni to‘plash, tahlil etish, umumlashtirish va baholash; tashkiliy-tayyorlov – texnologiyani amalga oshirish istiqbolini aniqlashtirish, pedagogik jarayon shakl, metod va vositalarini tanlash, o‘qituvchi-murabbiylarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish; faoliyatga doir – bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining sport estetikasiga doir bilimlarini rivojlantirish texnologiyasini bosqichma-bosqich amalga oshirish; monitoring – bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining sport estetikasiga doir bilimlarini rivojlantirish dinamikasini baholash, zaruriyat yuzaga kelganda pedagogik jarayonga tuzatishlar kiritish; natijaviy – natijalarni baholash va ta’limiy-tarbiyaviy ishlarning istiqboldagi vazifalarini aniqlashtirish.

Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini sport estetikasiga tayyorlashning mazmunini uning asosiy turlarini taqsimlash asosida ko‘rib chiqamiz. Tayyorgarlikning barcha turlari bir-biriga bog‘langan.

Umumiy tayyorgarlik - quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish: tabiatni muhofaza qilish va piyoda sayohatlarda ijtimoiy foydali mehnat; turistik mashg‘ulot va musobaqalarning mazmuni, tashkil etilishi va o‘tkazilishi; sport estetikasiga kadrlar tayyorlash tizimi; sport estetikasini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik, tashkiliy, dasturiy-meyoriy va ilmiy-uslubiy asoslari; estetik tarbiya va sport estetikasining tipologiyasi, tarixi va geografiyasi; turizmning hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari; o‘lkashunoslik va turizmning barcha turlari uchun umumiy bo‘lgan boshqa bo‘limlar.

Sport estetikasida estetik tarbiya insonning tabiiy muhit ta’sirida estetik rivojlanishining real imkoniyatlariga asoslanadi.Sportchilarning irodaviy fazilatlarini tarbiyalash sayohat oldidan tayyorgarlik jarayonida va dala sharoitida amalga oshiriladi. Ayrim tadqiqotchilar to‘siqlarni yengish - irodaning namoyon bo‘lishi va rivojlanishining zaruriy omili ekanligini yozadi. Sportchilariga zarur bo‘lgan asosiy kuchli irodali fazilatlarga quyidagilar kiradi: maqsadlilik, jasorat, qat’iyatlilik, qat’iylik, tashabbuskorlik, chidamlilik va sabr.

Maqsadlilik - bu sportchining rivojlanish yo‘nalishi va darajasini belgilaydigan asosiy irodaviy xususiyat. Maqsadlilikni tarbiyalashda sportchilari oldiga erishilishi mumkin bo‘lgan maqsadlar qo‘yish va ularga erishishlarini undash kerak.

Jasorat - qo‘rquvga qarshi turish va xavfli vaziyatlarda ma’lum darajadagi xavfsizlik bilan harakat qilish qobiliyatidir. Tabiiy to‘siqlarni yengib o‘tish bilan bog‘liq ko‘plab texnik jasoratni talab qiladi va ularni amalga oshirish jarayonida jasoratni rivojlantiradi.

Qat’iyatlilik - bu qarorning ko‘p variantlilik va noaniq oqibatlari sharoitida tez va oqilona qarorlar qabul qilish va ularni amalga oshirishni boshlash qobiliyatidir. Ayniqsa, ko‘pincha yo‘l variantlarini tanlashda guruh rahbariga qat’iyatlilik ko‘rsatish talab etiladi.

Qat’iylik - ma’lum qiyinchiliklar va muvaffaqiyatsizliklarga qaramay, maqsadga erishish uchun doimo intilish qobiliyatidir. Sportchilarining qat’iyligi har qanday ekologik sharoitda muntazam turistik faoliyatda namoyon bo‘ladi.

Tashabbuskorlik - bu o‘z tashabbusi bilan alohida va umumiy muammolarni hal qilishga qaratilgan muayyan harakatlarni amalga oshirish qobiliyatidir. Sportchida xavfsizlikni ta’minlash va boshqa vaziyat vazifalarini hal qilishda tashabbuskorlik ayniqsa muhimdir.

Chidamlilik - qarorni amalga oshirishga xalaqit beradigan harakatlar, xulosalar, his-tuyg‘ularning namoyon bo‘lishiga shoshilmaslik qobiliyati; ishonchsizlik, qo‘rqoqlik va hokazolarni ko‘rsatadigan odamlarning ta’siriga berilmaslik. Sportchida yo‘lni tanlashda hatto noto‘g‘ri qaror qabul qilish, agar bu xavfsizlik bilan bog‘liq bo‘lmasa, yo‘lning to‘g‘ri variantini qidirishda qarorni o‘zgartirishdan ko‘ra afzalroqdir.

Sabr - qiyin sharoitlarda charchoqqa, salbiy his-tuyg‘ularga bardosh berish, qo‘shimcha irodaviy harakatlar yordamida ma’lum vaqt davomida nisbatan yuqori yuklarga bardosh berish qobiliyatidir.

XULOSA. Xulosa qilganda, sportchining estetik fazilatlarini tarbiyalashda quyidagilar qo‘llaniladi: shaxs ongini shakllantirishning ma’lum usullari (ma’ruza, suhbat, namuna usuli va boshqalar); faoliyatni tashkil etish va xulq-atvor tajribasini shakllantirish usullari (pedagogik talablar va vazifalar, turli mashqlar, tarbiyaviy vaziyatlarni yaratish va boshqalar); rag‘batlantirish usullari (musobaqalar, mukofotlar, jazolar va boshqalar).

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ананишнев В.В. Проблемы формирования спортивных кластеров в России / В.В. Ананишнев, В.В. Корепова // Кластеры. Исследования и разработки. – 2016. – № 2. – С. 35-38
2. Литовченко В.А., Зубков Д.А., Фендель Т.В. Спортивный кластер как инновационная форма в развитии системы подготовки спортивного резерва / Материалы Всероссийской научно-практической конференции «Экспериментальная и инновационная деятельность – потенциал развития отрасли физической культуры и спорта» 18-19 сентября 2020 г. Чайковский, Пермский край. –С. 37-42.
3. Махмудов, Б. А. Жисмоний тарбия ўқитувчиларини касбий фаолиятга тайёрлашнинг методологик асослари / Б. А. Махмудов. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 52 (342). — С. 459-461. — URL: https://moluch.ru/archive/342/76832/ (дата обращения: 13.06.2023).
4. Маҳмудов Т. Комиллик асрорлари.-Тошкент: Адолат, 2006. - 81 б.
5. Мишагин В. Н., Личностно-ориентированный подход к организации профессиональной подготовки будущего учителя физической культуры. Кан. пед. наук. Дисс. Автореф. Саратов, — 2001. — 190 с.
6. Педагогикадан атамалар луғати. — Тошкент: Фан, 2008. — 196 б.
7. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 4-жилд. Зебуннисо-Конигил. — Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедяси, 2002. — 704 б.
8. Эстетика. Услубий қўлланма. Умаров Э, Шеров.А, Хусанов Б..-Тошкент: Ўзбекистон файласуфлар жамияти, 2010. – 102 б.

NUTQI TO’LIQ RIVOJLANMAGAN BOLALARNI NUTQINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

ZARNIGOR KABIROVA
Qo’qon davlat pedagogika instituti Maxsus pedagogika kafedrasi o’qituvchisi
MUNAVVARA TURDALIYEVA
Qo’qon davlat pedagogika instituti Maxsus pedagogika kafedrasi o’qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada nutqi to’liq rivojlanmagan bolalar nutqiy faoliyatini shakllantirish tahlil qilingan. nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarni korreksiyalovchi ta’lim va tarbiyalash tizimi yoritilgan. Oddiy leksik va grammatik tuzilmalarni yasash, predloglar haqidagi bilimlarni kengaytirish bo‘yicha ishlar ko‘rsatilgan, bolalarni sodda va murakkab gaplar tuzishga o‘rgatish yo‘llari yoritilgan.

Kalit so’zlar: nutqiy nuqson, so’z, fonema, bilish jarayonlari, leksika, grammatika, sensor, motor

Аннотация. В данной статье анализируется формирование речевой деятельности детей, речь которых развита не полностью. выделена система коррекционного обучения и воспитания детей, речь которых развита не полностью. Показана работа по созданию простых лексических и грамматических конструкций, расширению знаний о предлогах, выделены способы обучения детей составлению простых и сложных предложений.

Ключевые слова: дефект речи, слово, фонема, когнитивные процессы, лексика, грамматика, сенсор, моторика

Annotation. This article analyzes the formation of speech activity of children whose speech is not fully developed. the system of correctional education and upbringing of children whose speech is not fully developed is highlighted. Work on creating simple lexical and grammatical structures, expanding knowledge about prepositions is shown, ways to teach children to make simple and complex sentences are highlighted.

Key words: speech defect, word, phoneme, cognitive processes, lexicon, grammar, sensor, motor

Nutqni rivojlantirishda og‘ishlar bo‘lgan bolalarda nutqning leksik va grammatik tuzilishini shakllantirishga tuzatish usullarida alohida ahamiyat beriladi. Shunday qilib, bir qator mualliflar leksik va grammatik tuzilmalarning shakllanishida ma’lum bir ketma-ketlikni ko‘rsatadilar.

“Umumiy nutqi rivojlanmagan bolalarni maxsus bolalar bog‘chasida maktabga tayyorlash”[1.26] nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarni korreksiyalovchi ta’lim va tarbiyalash tizimi yoritilgan. U nutqning leksik va grammatik tuzilishini ma’lum bir ketma-ketlikda rivojlanishini ta’minlaydi. Oddiy leksik va grammatik tuzilmalarni yasash, predloglar haqidagi bilimlarni kengaytirish bo‘yicha ishlar ko‘rsatilgan, bolalarni sodda va murakkab gaplar tuzishga o‘rgatish yo‘llari yoritilgan. Bu izchil nutq bo‘yicha tuzatish ishlarini taqdim etadi, shuningdek, darsda ishlatilishi mumkin bo‘lgan nutq materialini o‘z ichiga oladi.

Professor T.B. Filicheva va T.V. Tumanova leksik va grammatik tuzilmani, uning grammatik tuzilmalarini otlarning sifatlar, sonlar va fe’llar bilan muvofiqlashtirishni o‘zlashtirishga asoslangan bosqichli tizimning muhimligini ko‘rsatadi. Qo‘llanmada nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarda leksik va grammatik tuzilmani shakllantirish bo‘yicha eslatmalar mavjud. Ilovada ish bo‘yicha tavsiyalar mavjud bo‘limlar keltirilgan.

“Umumiy nutq rivojlanmagan maktabgacha yoshdagi bolalarda lug‘at va grammatik tuzilmani shakllantirish”[1.34] ishida R.I.Lalaeva va N.V.Serebryakova

bolaning so‘z boyligini rivojlantirish asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda lug‘at va grammatik tuzilmani shakllantirish bo‘yicha nutq terapiyasi ishini tasvirlaydilar. Shuningdek, leksik va grammatik tuzilmalarni shakllantirish, ularni maxsus tanlangan mashqlar yordamida mustahkamlash usullari taqdim etilgan.

“Bolalar bog‘chasida nutq terapiyasi”da nutq terapevti o‘qituvchisi L.N.Smirnova[2.45] ko‘p funktsiyali xarakterga ega bo‘lgan materialni taqdim etdigan. Murakkablikni oshirish tartibida tanlangan o‘yinlar va mashqlar nutqning barcha tarkibiy qismlarini, shu jumladan leksik va grammatik tuzilmalarni rivojlantirishga qaratilgan.

Umumiy nutqi rivojlanmagan bolalarni korreksion ta’lim va tarbiyalash tizimi “Maktabgacha yoshdagi bolalarda umumiy nutqning kam rivojlanganligini bartaraf etish”[2.17] qo‘llanmasida yoritilgan. Unda maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining leksik va grammatik tuzilishi rivojlanmaganligining asosiy ko‘rinishlari batafsil tavsiflangan. Nutqning tovush tomonini shakllantirishning asosiy usullari, so‘z boyligi, grammatik tuzilishi, izchil nutqi bayon etilgan. L.F.Spirova ishida “Bolalarda nutq buzilishlarini aniqlash usullari”[3.45] maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini tekshirish metodikasini ko‘rsatadi.

Bolalarda aksariyat hollarda kuchli qo‘zg‘aluvchanlik, kayfiyatning tez o‘zgaruvchanligi, qo‘rquvlarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lgan emotsional buzilishlarni aniqlash mumkin. Qo‘rquv xatto eng oddiy taktil ta’sirlar, tana xolatini yoki atrof ko‘rinishini o‘zgartirish natijasida ham yuzaga kelishi extimoldan xoli emas. Ayrim bolalar balandlikdan, yopiq eshiklardan, qorong‘ulikdan, yangi o‘yinchoq, notanish insonlardan qo‘rqadilar. Giperkinetik sindromga ega bolalarda qo‘rquvlar vital (xayotiy) dizadaptatsiya sindromiga o‘tib ketishi mumkin. Bunda turli ko‘ruv va eshituv ta’sirlariga bolalar chamalovchi emas, balki ximoya reaktsiyasi bilan javob beradilar. Kuchli qo‘zg‘aluvchanlik, zaif iroda, to‘siqlarni yengib o‘ta olmaslik va ularni yengishga bo‘lgan motivatsiyaning kuchsizligini ko‘rish mumkin.

Shunday qilib, nazariy materialni o‘rganib chiqib, biz umumiy rivojlanmagan nutq buzilishlari tizimli xususiyatga ega ekanligini va nutq rivojlanishining ko‘p jihatlariga ta’sir qilishini aniqladik. Umumiy nutqning rivojlanmaganligi etiologiyasi bolaning umumiy rivojlanishiga ta’sir qiluvchi turli xil noqulay omillardan iborat.

NRB guruhining asosiy kontingenti nutqni rivojlantirishning uchinchi darajasiga ega bo‘lgan maktabgacha yoshdagi bolalardan iborat bo‘lganligi sababli, ushbu darajadagi bolalarning psixologik va pedagogik xususiyatlari batafsil tavsiflangan.

Tuzatish ishidagi asosiy qiyinchilik leksik va grammatik tuzilmalarni shakllantirish bo‘lganligi sababli, bu ishga alohida e’tibor berilishi kerak. Mavjud leksik va grammatik tuzilmalarni shakllantirishda ma’lum ketma-ketlikni hisobga olish, ko‘rgazmali va tarqatma materiallardan foydalanish, turli mashqlar va o‘yinlarni o‘tkazish, maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining rivojlanish dinamikasini o‘rganish kerak.

Tuzatish va rivojlantirish ishlarini boshlashdan oldin, NRB guruhidagi har bir bolaning nutq terapiyasi tekshiruvini o‘tkazish kerak.

Umumiy nutqning kam rivojlanganligi - bolalarda normal eshitish va intellektga ega bo‘lgan nutq tizimining barcha tarkibiy qismlarining tovush va semantik tomoni bilan bog‘liq shakllanishi buzilgan turli xil

murakkab nutq buzilishlari hisoblanadi.

Tizimli kasallik bo‘lib, umumiy rivojlanmaganlik nutq faoliyatining tipik buzilishlarida namoyon bo‘ladi, chunki barcha lingvistik tuzilmalar yetarli darajada shakllanmagan. Umumiy nutqning kam rivojlanganligining yetakchi belgisi uning kechroq boshlanishidir: bolalarda birinchi so‘zlar 3-4 yoshda, ba’zan esa 5 yoshda paydo bo‘ladi.[4.263-267] U yoki bu darajada tovushlarning talaffuzi va farqlanishi buziladi, morfemalar tizimini o‘zlashtirish to‘liq adekvat emas. Bolalarda nutqning leksik va grammatik tuzilishi buzilgan: lug‘at kundalik lug‘at bilan cheklangan va me’yordan ham miqdoriy, ham sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha orqada qoladi, gapda so‘zlarning noto‘g‘ri kelishish qayd etiladi, grammatizmlar kuzatiladi. Ushbu maktabgacha yoshdagi bolalar nutqni tushunishni buzgan, so‘zlarning bo‘g‘in tuzilishida xatolar mavjud va izchil nutq rivojlanmagan. Umuman olganda, nutq kam tushuniladi, nutq faolligi yetarli emas, bolalar muloqotga kirishmaydi, o‘zini tuta olmaydi, ko‘pincha so‘zlar imo-ishoralar, yuz ifodalari bilan almashtiriladi.

Noto‘g‘ri nutq faolligi bolalarda hissiy, intellektual va affekt-irodaviy sohalarning shakllanishida iz qoldiradi. Nutq nuqsoni neyropsik va kognitiv faoliyatning rivojlanishiga salbiy ta’sir qiladi, shuning uchun ko‘pincha nutqi to‘liq rivojlanmaganbolalarda aqliy rivojlanish tezligining kechikishi kuzatiladi, diqqat, xotira, fikrlashning shakllanishi normadan farq qiladi, bu namoyon bo‘ladi. oliy ruhiy funktsiyalarning etukligida.[4] Diqqatning yetarli darajada barqaror emasligi, uni taqsimlash imkoniyatlarining cheklanganligi qayd etilgan. Bolalarda nisbatan saqlanib qolgan semantik, mantiqiy xotira bilan og‘zaki xotira pasayadi, yodlash unumdorligi, og‘zaki-mantiqiy fikrlash zarar ko‘radi. Ular murakkab ko‘rsatmalar, elementlar va vazifalar ketma-ketligini unutishadi. Bolalar tez charchash, chalg‘itish va charchoqning kuchayishi bilan ajralib turadi.

Umumiy somatik zaiflik bilan bir qatorda, nutqi umumiy rivojlanmagan bolalarda, shuningdek, harakatlarning yomon muvofiqlashtirilishi, o‘lchovli harakatlarni bajarishda noaniqlik, tezlik va epchillikning pasayishi bilan tavsiflangan vosita sohasining rivojlanishida bir oz kechikish ham xarakterlidir. ijro. Maktabgacha yoshdagi bolalardagi eng katta qiyinchiliklar og‘zaki ko‘rsatmalarga muvofiq harakatlarni bajarishda aniqlanadi. Bolalarda qo‘l barmoqlarini muvofiqlashtirish yetarli emas (vosita, ko‘nikmalari rivojlanmagan), sekinlik, bir holatda tiqilib qolganligi aniqlanadi.

Umumiy nutqning rivojlanmaganligi mustaqil buzilishdir, lekin u nutq patologiyasining eng murakkab shakllarida kuzatilishi mumkin: alaliya, afaziya, rinolaliya, dizartriya - grammatik tuzilishdagi lug‘atning etishmasligi va fonetik-fonemik rivojlanishdagi bo‘shliqlar mavjud bo‘lgan hollarda. bir vaqtning o‘zida oshkor qilingan. Nutqning rivojlanmaganligi boshqacha kelib chiqishi va shunga mos ravishda g‘ayritabiiy ko‘rinishlarning boshqa tuzilishiga ega.

Umumiy nutqning rivojlanmaganligi etiologiyasida biologik va ijtimoiy tabiatning turli omillari ajralib turadi. Biologik omillarga quyidagilar kiradi: homiladorlik paytida onaning infektsiyasi yoki intoksikatsiyasi, ona va homila omili yoki guruhga mansubligi bo‘yicha mos kelmasligi, tug‘ilish davrining patologiyasi, markaziy asab tizimining tug‘ruqdan keyingi kasalliklari va birinchi yillarda miya travması. bolaning hayoti haqida. Shu bilan birga, nutqning umumiy rivojlanmaganligi tarbiya va o‘qitishning

noqulay sharoitlaridan kelib chiqishi mumkin, u nutq rivojlanishining sezgir davrlarida aqliy mahrumlik bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ko‘p hollarda nutqning umumiy rivojlanmaganligi turli omillarning murakkab ta’sirining natijasidir, masalan, irsiy moyillik, markaziy asab tizimining organik etishmovchiligi va noqulay ijtimoiy muhit sabab bo‘ladi.[4.199-206]

Eng qiyin va doimiy variant - bu organik miya shikastlanishi natijasida yuzaga kelgan nutqning umumiy rivojlanmaganligi.

Ko‘pincha nutqning umumiy rivojlanmaganligining sababi akustik-gnostik jarayonlarning zaifligi hisoblanadi. Bunday hollarda jismoniy eshitish saqlanib qolgan holda nutq tovushlarini idrok etish qobiliyati pasayadi.

Umumiy nutqning rivojlanmaganligi ko‘pincha organik shikastlanishlar yoki markaziy asab tizimining ayrim qismlarining rivojlanmaganligi, shuningdek, artikulyar apparatlarning tuzilishi va funktsiyasidagi og‘ishlar bilan bog‘liq bo‘lgan nutq va vosita buzilishlari natijasida yuzaga keladi. Nutq motor apparati shikastlanishining bevosita natijasi nutq tovushlarini artikulyatsiya qilishda qiyinchilikga olib keladi. Bolalarda turli darajada ifodalangan talaffuz kamchiliklari paydo bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Tkachenko T.A. «V perviy klass - bez defektov rechi» - SPb.: «NEVA», 2008. 26-bet
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarda umumiy nutqning kam rivojlanganligini bartaraf etish. T.B. Filicheva, G.V. Chirkina. SPB. “Lepestok” 45-bet.
3. Xovodillayev Murodjon Xabibullo o’g’li, Komilov Otabek Iqboljon o’g’li. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning eshitish idrokini rivojlantirish texnologiyalari. Science Promotion 2.1 (2023): 28-34.
4. Murodjon, Xovodillayev. Methods for the formation of speech in mentally retarded children. Academia Repository 4.10 (2023): 332-335

УМУМТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИ РАҲБАРЛАРИНИНГ ПЕДАГОГИК ЖАМОАДАГИ ПЕДАГОГИК ЗИДДИЯТЛАРНИ БАРТАРАФ ЭТИШ УСУЛЛАРИ

САИДОВ АСЛИДДИН НОРБОБО ЎҒЛИ
Таълимни ривожлантириш республика илмий-методик маркази бош мутахассиси

Аннотация: Педагогик зиддиятларни бартараф этиш бугунги куннинг долзарб ва муҳим масалаларидан ҳисобланади. Мазкур мақолада таълими муассасаларида педагогик зиддиятларни бартараф этишда раҳбарнинг бошқарув маҳорати оид фикрлар баён қилинган. Шунингдек, педагогик зиддиятларни бартараф этишнинг услубий, моддий, илмий, ташқилий, каби жиҳатлари тадқиқ қилинган.

Калит сўзлар: Раҳбар, ходим, педагогик зиддиятлар, раҳбар-ходим муносабати, бошқарув маҳорати.

Педагогик кадрларни тайёрлаш методологик, моддий, илмий, биологик, ташқилий, бошқарув ва бошқа турларни ўз ичига олган кўп компонентли жараён. Мазкур жараёнда кўзланган мақсадга эришдаги муҳим иштирокчилардан бири раҳбар ҳисобланади. Раҳбар - устоз, мураббий, раҳбар – миллат тарбиячиси, абадиятга дахлдор шахсдир. «Раҳбарлар ролининг янада ошиши ҳозирги глобаллашув натижасида шахс характерининг мураккаблашуви билан ҳам боғлиқ. Шунинг учун ҳар бир раҳбар инсон ҳарактерини билишга интилмоғи керак.

Агар раҳбар ўз қўл остидаги инсонларнинг индивидуал ва психологик хусусиятларини, қизиқишларини, кўникма, малака ва қобилиятларини билмаса, яхши раҳбар бўла олмайди. У кишиларнинг умумий ва хусусий қобилиятларини, темперамент типларини, характер хислатларини усталик билан ҳисобга олган холда иш тутмоғи керак. Масалан, айрим кишилар тезкор ҳаракатларга таянсалар, бошқаларда эса мантиқий фикр юритиш устун бўлиши мумкин. Шу каби шахсий сифатларни ҳисобга олган ҳолда маълум вазифаларни тавсия қилиши ва технологик занжирда уни ўз ўрнига қўя билиши, таълим тизимига оид маълумотни унумли тарзда кўра билмоғи керак. Шундай экан, ҳар қандай таълим муассасасининг раҳбари ўз фаолиятини юксак даражада ташқил этиши ва жамоани бошқариши учун бир қанча психологик хусусиятларга эга булмоғи лозим.

Умумтаълим мактабларида бошқарув жараёни учун ижрочилар (ўқитувчилар, ходимлар)нинг психологик хусусиятлари ва уларнинг ўзига хослиги шунингдек тизим муҳим аҳамиятга эга. Шу боисдан жамоа, гуруҳ ва уларнинг аъзолари муайян даражадаги психологик маълумотлилик, фаолият ва муомалани ташқил қилиш, уюштириш, мулоқотга киришиш, воқеликка тортилганлик масалаларини эътиборга олиш бошқарув жараёнини мақсадга мувофиқ тарзда амалга оширишни таъминлайди.

Шу ўринда тизим тушунчасига эътиборимизни қаратамиз, зеро у ижтимоий бошқарув назариясининг асосий тушунчаларидан биридир. Тизимларни таснифлаш, қўйилган вазифаларга қараб, турли мезонларга мувофиқ амалга оши-

рилади. Аввало тизимлар объектив оламга мансублигига қараб бўлинади. Ижтимоий, биологик ва жонли табиат билан боғлиқ тизимлар ажралиб туради. Академик В.Г.Афанасьевнинг таърифича интеграл тизим таркибий қисмлар мажмуи сифатида тушунилади, уларнинг ўзаро таъсири унинг генераторларига хос бўлмаган янги (интеграл, тизимли) фазилатларни яратади. Айнан интеграл тизимни раҳбар ходим муносабатларида қўллаш энг самарали усуллардан бири.

Кадрлар тайёрлашнинг энг истиқболли йўллардан бири раҳбар ходим муносабатига эътиборни қаратган ҳолда рҳбар ходим муноабатида хатоларга йўл қўймаслик лозим. Иш жараёнидаги камчиликлар, раҳбар ва ходим ўртасидаги келишмовчиликлар малакали кадрлар етиштириш имкониятларининг пасайишига олиб келади.

Зиддиятли вазиятларни бошқаришнинг бир катор самарали усуллари мавжуд. Уларни куйидаги икки йирик гуруҳга (таркибий - ташқилий ва стратегик усуллар) бўлиш мумкин.

Раҳбар зиддиятли вазиятларнинг келиб чиқиш сабабларини фақат ўқитувчилар ҳаракатларидаги тафовутлардан деб билмасликлари керак. Албатта, бу ҳам қандайдир аниқ ҳолатда зиддиятли вазиятнинг вужудга келишида муҳим омил вазифасини бажариши мумкин. Аммо у таъсир этувчи омилларнинг фақат биттасидир. Шу сабабли, педагог, энг аввало зиддиятни келтириб чиқарувчи омилларнинг таҳлилини қилиши, сўнгра эса у ёки бу усулни қўллаш бўйича қарор қабул қилиши керак.

Ишга бўлган талабни тушунтириш усули. Бу усул дисфункционал усулга мутлақо зид бўлиб, бунда ҳар бир ўқитувчи ва гурухлардан қандай натижа кутилиши тушунтирилади. Бу ерда уларга қуйидагилар эслатилади:

• эришиши лозим бўлган натижа кўлами;

• вазифаларни қай тартибда топширади ва ким уни қабул қилади;

• масъулият, жавобгарлик ва ҳуқуқ тизими;

• аниқ сиёсат, тартиб-қоидалар ва бошқалар.

Раҳбар бу масалаларни ўзи учун аниқлаштириш мақсадида эмас, балки ҳар бир вазиятда, ҳар бир ўқувчи ва гуруҳ кай тарзда йўл тутишини, уларни нима кутишини тушунтириб бермоғи лозим.

Ҳамкорлик усули. Бу усул оғзаки буйруқ занжири деб юритилади. Таълим жараёнида ўқитувчи бурчлари иерархиясини, яъни билим даражасига кўра даражама-даража бевосита ёрдам бериш ёки консультациялар ташқил этиш, билим савиясини тартибини ўрнатиш ўқитувчиларнинг ўзаро харакатларини, таълим жараёнига боғлиқ, ахборотлар оқимини, қарорлар қабул қилишни тартибга туширади, мувофиклаштиради. Агар икки ёки ундан кўпроқ, ўқитувчилар ўртасида у ёки бу вазифа юзасидан қарама-қаршилик, келишмовчилик чиқиб қоладиган бўлса, бундай ихтилофни раҳбарга айттириб ҳал қилиш мумкин. Бу ерда якка ҳокимлик принципи жуда ҳам қўл келади.

Умумташқилий (комплекс) мақсадлар. Мазкур усулнинг моҳияти-барча катнашчиларнинг ҳаракатини, бутун кучини бош мақсаднинг амалга ошишига сафарбар қилишдан иборат.

Рағбатлантиришнинг таркибий тизими. Дисфункционал оқибатлардан ҳоли бўлиш ҳамда ўқитувчиларнинг хатти-ҳаракатларига ижобий таъсир ўтказиш туфайли, келиб чиқиши мумкин бўлган зиддиятларнинг олдини олиш ва уларни бошқариш учун рағбатлантириш тизими кенг қўлланилади. Таълим жараёнида эришган ютуқлари, ташқилий ишларда

жонбозлик кўрсатган, муаммонинг ечимига комплекс ёндошиб атрофдагиларга ёрдам кўрсатишга харакат қилганлар албатта:

- ташаккурнома;
- мукофот;
- мақтов ёрлиғи кабилар билан тақдирланишлари лозим.

Бу ўринда фақат рағбатлантириш эмас, балки ғайри қонуний йўл тутган, ёки таълим муассаси манфаатига зид хатти-ҳаракат қилган ўкитувчига тегишли жазоларни белгилаш ҳам келиб чиқиши мумкин бўлган зиддиятларнинг олдини олишда ҳал қилувчи ахдмиятга эгалигини таъкидламоқ жоиздир .

Зиддиятли вазиятларнинг олдини олиш ёки зиддиятни юмшатишнинг қатор стратегик усуллар мавжуд. Жумаладан, қочиш усули мазкур усулда жамоадаги келишмовччилик ҳолатларида раҳбар муаммодан узоқлашишга ҳаракат қилади. Келишмовчилик авжига чиқганда у муҳокамага қатнашмайди. Бундай усул зиддиятли вазиятнинг ечилишига манфаатдор бўлмаган ва ўзаро муносабатларнинг зоҳирий яхшилигича қолишини исташган ҳолларда томонлар тарафидан қўлланилади. Зиддиятнинг субъектив сабаблар туфайли бўлган бўлса, у холда узоқдашиш стратегияси маъқул стратегиядир. Чунки у томонларга тинчланишга, вазият устида яна бир бор фикр-мулохаза юритиб, фаҳм-фаросат ила англаб олиш, оқибатда эса қарама-қаршиликка боришга, уни давом этгиришга хеч қандай асос йўқ деган хулосага келишига имкон беради. Зиддият объектив сабаблар туфайли юзага келган бўлса, узоқлашиш стратегияси ҳар иккала томонни мағлубиятга олиб боради. Чунки узоқлашиш даврида вақт чўзилади, зиддиятли вазиятни чақирувчи сабаблар чуқурлашуви кузатилади.

Шунингдек, бошқарувда рақобат усули ҳам мавжуд бўлиб, унда истак, иродани, сўзини мажбуран, зўрлаб қабул қилдиришдир. Сўзини ўтказмокчи бўлган ўахс ўзга шахсининг фикри билан қизиқмайди, уни инкор этади. Бундай стратегияни қуллайдиган раҳбар тажаввузкорлик билан ўз истагини мажбурлаб ўтказади. Рақобат стратегияси ташаббусни буғади, иш жараёнида рухий беқарорлигига олиб келади. Айникса, бу усул юқори салоҳиятли ва ёши катта ходимларда нафрат уйғотади.

Бошқарувдаги яна бир усул муроса қилиш усули ҳисобланади. Ушбу усулда зиддиятли холатдан муваффақиятли чиқишнинг энг муҳим шарти, муроса қилиў ҳисобланади. Келишув билан юз берган зиддиятларни хал этиш, юқори баҳоланувчи стратегик усул бўлиб, бунда иккала томонни қаноатлантирувчи қарор қабул қилинади.

Муаммони ҳал қилиш усули бошқарувдаги энг самарали учул бўлиб, ушбу усулда раҳбар барча педагог ва ўқитувчини қаноатлантирувчи ечимни топиш учун зиддиятни чақирувчи сабабларни чуқур таҳлил қилиш ва барчанинг фикрларини инобатга олишга асосланади. Бу усул тарафдорлари ўз мақсадига бошқалар мақсади орқали эмас, балки педагогик зиддиятнинг энг оқилона ечимини топиш эвазига эришишни хоҳлайдилар. Таълим муассасида раҳбар ва ўқитувчилар ўртасида юзага келувчи зиддият жамоага ёки айрим ходимларга ёмон таъсир этиши мумкин [1, 192]. Зиддиятни бартараф этишда раҳбар оқиллиги, адолатлилиги, маданий савияси билан ҳамкорликка интилиши керак. Яъни, ушбу зиддиятли вазиятда мавқеида эмас, балки тенг ҳуқуқийлик асосида ечимни топиши мақсадга мувофиқ.

Юқоридаги келтирилган фикр ва мулоҳазалардан қуйидаги хулосаларга келишимиз мумкин:

Янги Ўзбекистон шароитида раҳбар

фақат ўз соҳасини яхши билибгина қолмай, балки яхши ташқилотчи, рухшунос (психолог) ва тарбиячи бўлмоғи лозим. Бунинг учун ҳар бир раҳбар бошқарувда керак бўлган социология, психология, педагогика, касбий этика каби соҳалар бўйича билим ва кўникмага эга бўлиши керак.

Педагогик жамодаги ҳар бир ўқитувчи ва ходимларнинг қалбига йўл топа билиш раҳбарнинг иш фаолиятида асосий аҳамиятга эга. Раҳбар ўз жамоаси ичида таълим жараёнида вужудга келадиган ҳар хил зиддияларни раҳбар билан, ўқитувчилари билан бирга, юқоридагиларга чиқармасдан ўзида ҳал қилишга кодир бўлади. Бундай раҳбар ўз ишини тўғри ташкил қилади, гурух олдига қўйилган мақсад ва режа топшириқларини ўз вақтида муваффаққятли бажаради. Жамодаги зиддиятли вазиятни раҳбар босиқ, шошмасдан, холисона ҳал этиши керак.

Хулоса қилиб айтганда, миллий мафкура бўлажак раҳбарнинг қобилияти, руҳияти, тафаккури, ижтимоий онги, бурчи ва дунё қарашини ўзгартириб борадиган кучли восита эканлигини тушуниш билан бир қаторда педагогик зиддиятларни бартараф этиўда раҳбарнинг бошқарув маҳорати муносабатининг бардавомлигини таъминлайдиган муҳим омилдир.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ахмедова М.Т. Педагогик конфликтология (ўқув кўлланма). – Тошкент: “Адабиёт учқунлари”, 2016.
2. Ахмедова М.Т., Шайзакова Н.С Низоларнинг юзага келипщдаги шарт-шароитлар, шахе тоифалари ва уларнинг хислатлари. // Мактаб ва хаёт. – Тошкент, 2014. №2. Б 2-4.
3. Боймуродов Н. Рахбар психологияси. – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2007.
4. Бурдыгина Т.Н., Королёва Е.В., Юрченко П.Г. Проблемные ситуации в школе и способы их решения: практическое пособие. – Москва: “АРКТИ”, 2006.
5. Джураев Р.Х., Цой М.Н. ва бошқалар. Мактаб жамоасининг ўз-ўзини ривожлантириш учун маданий-ижодий муҳитини шакллантириш ва лойиҳа методини қўллаш. – Тошкент: “Fan va texnologiya”, 2017.
6. Жумаев Р.З. Конфликтология асослари, асосий тушунча ва тамойиллари. ўкув кулланма. – Тошкент: 2015.
7. Худойбердиев И. Рахбар ва бошқарув.– Қарши:“Насаф”, 2005.
8. Ҳодиев Б.Ю., Болтабаев М.Р. Олий ўқув юртидаги тарбиявий ишларга психологик ёндашувлар. – Тошкент: 2009.
9. Холиков А. Педагогик махорат. – Тошкент: “Иқтисод ва молия”, 2011.

MAKTABGACHA YOSHDAGI ESHITISHIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALARNI MAKTABGA NUTQIY TAYYORLASHDA AMALIY METODLARNING O‘RNI

MUHAMMADJONOVA DILAFRUZ FARHODJON QIZI
Qo‘qon davlat pedagogika institute Inklyuziv ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni maktabga tayyorlov bosqichlari, bolalarni nutqiy tayyorlov jarayonlari, bu jarayonda qo‘llaniladigan amaliy metodar va ularning ahamiyati keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bola, maktabga tayyorlov bosqichlari, amaliy metodlar, o‘yin faoliyati, ta’limiy metodlar, ekskursiya, tabiatshunoslik.

Аннотация: В данной статье рассмотрены этапы подготовки детей с нарушениями слуха дошкольного возраста к школе, процессы речевой подготовки детей, практические методы, используемые в этом процессе, и их значение.

Ключевые слова: Слабослышащий ребенок, этапы подготовки к школе, практические методы, игровая деятельность, методы обучения, экскурсия, естествознание.

Abstract: In this article, the steps of preparing children with hearing impairments of preschool age for school, the processes of speech preparation of children, the practical methods used in this process and their importance are mentioned.

Key words: Hearing impaired child, stages of preparation for school, practical methods, game activity, educational methods, excursion, natural science.

Jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik o‘zgarishlar jismoniy va ruhiy nuqsonmga ega bo‘lgan bolalarning ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan yurtimizda har tomonlama sog‘lom avlodni voyaga yetkazish borasidagi izlohotlarni izchil davom ettirish va yuksak bosqichga ko‘tarish maqsadida qator qarorlar qabul qilinmoqda. Bugungi kunda imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy himoyalash, barcha qatori umumta’lim muassasalarida teng huquqli sharoitda ta’lim-tarbiya olish dolzarb masalalar sarasiga kiradi. Ushbu masalalar O‘zbekiston va xalqaro miqyosda ham jiddiy e’tibor berilib kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining prezidenti farmoni 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekiston tarqqiyoti strategiyasi” ni Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” da amalga oshirishga oid davlat dasturini amalga oshirishning ustuvor vazifalari va yo‘nalishlarida sog‘lom va har tomonlama barkamol avlodni shakillantirish uchun qonunchilik va normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtiris, bu borada qulay tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan yangi qoida va meyorlarni ishlab chiqish, sog‘liqni saqlash tizimining moddiy-texnik bazasini va kadrlar salohiyatini yanada mustahkamlash ko‘zda tutiladi.

Maxsus ehtiyojli bolalarni to‘laqonli ta’lim olishini jamiyat qo‘llab-quvvatlashi, ularni sog‘lomlar qatorida jamiyatda uyg‘unlashib, ijtimoiy hayotga moshlashib ketishiga oid chora-tadbirlarni davlatimiz bir qator qonun va qarorlarida qayd etilgan. O‘zbekiston Respublikasida “Maktabgacha ta’lim to‘g‘risidagi Nizom”ga muvofiq bola maktabgacha ta’limni uyda ota-onalarning mustaqil ta’lim berishi orqali yoki doimiy faoliyat ko‘rsatadigan maktabgacha ta`lim tashkilotlarida, shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlariga jalb qilingan bolalar uchun MTTlarda, maktablarda, mahallalarda tashkil etilgan maxsus guruhlar yoki markazlarda

oladi.

Bolani maktabga tayyorlashda oilaning o‘rni juda kattadir. Bola tarbiyasida oilaning barcha a’zolaridan nafaqat bolalarga nisbatan to‘g‘ri munosabatni, balki ularning taqdiri uchun yuksak ma’suliyat hissini ham talab qiluvchi qiyin va murakkab ishdir. Oila bolani maktabga tayyorlashda tarbiyani har tomonlama, jumladan ma’naviy, axloqiy, aqliy, estetik, jismoniy va mehnat tarbiyalarini birgalikda olib borish yaxshi samara beradi.

Maktabgacha ta’lim yoshida bilim tez sur’atda rivojlanib boradi, boyib boradi. Nutq shakllanadi, bilish jarayonlari takomillashadi, bola eng oddiy aqliy faoliyat usullarini egallab boradi. Bolalarda aqliy faoliyatni dastlab muomala orqali, so‘ng ta`limiy faoliyatlar orqali amalga oshiriladi. Tevarak-atrof, buyum va narsalar bolaning sezgi organlariga, ya’ni analizatorlariga ta’sir etadi va sezgi hosil bo‘ladi. Sezgi bolalarda ayrim xossalarni bilib olishga yordam beradi (issiq-sovuq, g‘adir-budir). Sezgi atrof-muhitni bilishning dastlabki bosqichi hisoblanadi. Bolalarning bilimlarni egallab olishlari, ularning aqliy faolligini rivojlantirish ularning maktabda muvaffaqiyatli o‘qishlari uchun bo`lajak mehnat faoliyatiga tayyorlanishda manba bo‘lib xizmat qiladi.

Maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning bilish jarayonlarini rivojlantirish uchun ularda vaqtli so‘zli nutqni o‘stirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, til va tafakkur muloqotning asosiy vositasidur. Tafakkur va til insoniyatning mehnat faoliyati davomida vujudga keladi va rivojlanadi hamda, borliqning in’ikosi hisoblanadi. Risoladagidek eshitadigan, yaxshi o‘sayotgan bolalarning tafakkuri va nutqi ilk davrdan boshlab butun maktabgacha davr mobaynida takomillashib boradi. Inson tafakkuri nutq va til bilan uzviy aloqada bo‘lganligi sababli ilk yoshdagi bolalar fikr yuritishining vujudga kelishi va rivojlanishi lug‘at boyligi bilan o‘lchanadi. Nutq rivojlanishi bilan bir vaqtda ko‘rgazmali-harakat, ko‘rgazmali-obrazli, so‘z bilan bevosita ifodalanadigan tafakkur taraqqiy etad, uning ruhiyati va hissiy-irodaviy sifatlari shakillanadi. Nutqiy faoliyatning fziologik mexanizmi negizida nutq a’zolarining harakatlaridan hosil bo‘lgan streotiplar yotadi.

Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning nutqi kattalarning nutqiga tahlid qilgan holda bir gapni ko‘p marotaba har hil vaziyatlarda va turli faoliyatlarda takrorlash asosida shakllanadi. Kattalar bilan bolalar muloqotida ko‘p ishlatiladigan so‘zlar maxsus o‘rgatilmasa ham bolalarning faol nutqiga kirib boradi. Bolada barcha zarur nutqiy materialni ovoz chiqarib gapirish ko‘nikmasi paydo bo‘ladi, nutqiy tafakkuri shakllanadi. Lug‘at boyligi kengayishi va umumiy kamolot darajasining oshishi bilan ularda so‘zlar vositasida muloqot qilish ehtiyoji paydo bo‘ladi. O‘quv, o‘yin, mehnat jarayonida bolalar og‘zaki muloqotni talab etuvchi jamoa topshiriqlarini bajaradilar. Pedagog va tarbiyachi bolalarni tengdoshlari bilan so‘zlashuv nutq yordamida muomala qilishga o‘rgatadilar, zarur so‘z va iboralarni shakllantiriladi, nutqiy faollik tarbiyalanadi: navbatchilik vaqtida bolalarga savollar bilan murojaat etish, o‘rtoqlariga topshiriq berish o‘rgatiladi, mashg‘ulotlarda og‘zaki muloqotni talab qiluvchi vaziyatlar vujudga keltiriladi, o‘yinlar tashkil qilinadi, Ayniqsa syujetli-rolli o‘yinlar vaqtida bolalar so‘zli nutqdan faol foydalanadilar. O‘yinda ma’lum rolni o‘ynar ekan, bola zarur harakatlarni bajarib qolmasdangina, o‘z ro‘liga muvofiq o‘rtoqlari bilan muomala qiladi.

Amaliy metodlar. Tabiatning oddiy hodisa va predmetlari haqida bolalarning tasavvurlarini kengaytirish maqsadida o‘tkaziladigan kuzatishlar bilan bir qatorda xilma xil o‘yinlardan keng foydalaniladi. Bu o‘yinlarda bolalar sezuvchanlik tajribasini orttiradilar, egallagan bilimlarini ijodiy o‘zlashtiradilar. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda didaktik xarakterli va ijodiy o‘yinlardan foydalaniladi.

Didaktik o‘yinlar. Didaktik o‘yinlarda bolalar o‘zlarida tabiatdagi predmet va hodisalar hayvonlar va o‘simliklar haqida mavjud bo‘lgan bilimlarni aniqlaydilar,

musitahkamlaydilar, kengaytiradilar. Ko‘pgina o‘yinlar bolalarni umumlashtirish hamda klassifikatsiya qilishga o‘rgatadi. Didaktik o‘yinlar, xotira, diqqat, kuzatuvchanlikning o‘sishiga yordam beradi. Bolalarni mavjud bilimlardan yangi sharoitlardan foydalanishga o‘rgatadi. Turli aqliy jarayonlarni faollashtiradi. Lug‘atni boyitadi. Bolalarda birgalikda o‘ynash ko‘nikmasini tarbiyalashga yordam beradi. O‘yin mashqlari predmet va hodisalarni sifati hamda xususiyatlariga ko`ra farqlashga o‘rgatadi. Kuzatuvchanlikni o‘stiradi. Bu o‘yinlar butun guruh bolalari bilan yoki ularning bir qismi bilan o‘tkaziladi. O‘yin mashqlari kichik va o‘rta guruhlarda alohida ahamiyatga ega. Katta guruhlarga esa u ta’limiy faoliyatning bir qismi hisoblanadi.

Harakatli o‘yinlar. Tabiatshunoslik xarakteridagi harakatli o‘yinlar hayvonlarning xatti-harakati ularning hayot tarziga taqlid qilish bilan bog‘liq. Bolalar bu o‘yinlarda harakatlarga tovushlarga taqlid qilib bilimlarni chuqurroq egallaydilar. O‘yindan zavqlanish bolalardagi tabiatga bo‘lgan qiziqishni chuqurlashtiradi. Ijodiy o‘yinlar. O‘yinda bolalar ta`limiy faoliyat, ekskursiya, kundalik hayot jarayonida olingan tasavvurlarni aks ettiradilar. Kattalarning tabiatdagi mehnati haqidagi bilimni egallaydilar. Bunda ularda mehnatga ijodiy munosabat shakllanadi. Ular kattalarning tabiatdagi mehnatining ahamiyatini anglab oladilar. Tabiatdagi mehnat. Bolalar mehnat obektlari o‘simliklarning xususiyatlari va sifatlari ularning tuzilishi ehtiyojlari rivojlanishining asosiy bosqichlari o‘stirish usullari o‘simliklar hayotidagi mavsumiy o‘zgarishlar haqida hayvonlar, ularning tashki ko‘rinishi ehtiyojlari, harakat qilish usullari, xatti-harakatlari, hayot tarzlari va uning mavsumiy o‘zgarishlari haqida tasavvurga ega bo‘ladilar. Ular yashash muhiti o‘rtasida mutanosiblik o‘rnatishni hayvonning tabiatdagi hayot tarzi va ularni tabiat burchagida parvarish qilishni o‘rganadilar. Mehnatni tashkil etish shakllari va ularga rahbarlik qilish metodikasi maktabgacha ta`lim davomida murakkablashib boradi. Murakkablashish bolaning yosh imkoniyatlari, shuningdek, mehnat faoliyatining o‘sishi tufayli aniqlanadi.

Og‘zaki metodlar. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda tarbiyachining hikoyasidan tabiat haqidagi badiiy kitoblarni o‘qishdan suhbatdan foydalaniladi. Og‘zaki metodlarda foydalanishda tarbiyachi bolalarning nutqini tushunishga bo‘lgan qobiliyatlarini uzoq muddatli ixtiyoriy diqqatlarini va so‘z orqali berilayotgan mazmunga diqqatni qarata olishlarini, shuningdek, bolalarda muhokama, aniqlash, tizimlashtirish predmeti bo‘luvchi u yoki bu hodisa yoki fakt haqida yorqin tasavvurlarning bor-yo‘qligini e’tiborga oladi. Tarbiyachining hikoyasi. Hikoyani idrok etish bolalar uchun anchagina murakkab aqliy faoliyatdir. Bola kattalar nutqini eshitishi va tinglay olishi hikoya davomida uni anglab olishi og‘zaki tasvir asosida yetralicha jonli obrazlarni faol tasavvur qilishi tarbiyachi hikoyasidagi voqea hodisalarni bir biriga bog‘liqligi hamda munosabatlarini aniqlash hamda tushunishi hikoya mazmunidagi yanglishlikni o‘zining avvalgi bilim bilan qiyoslab ko‘rishi lozim.

Suhbat. Didaktik vazifalardan kelib chiqqan holda suhbat ikki turga – oldindan o‘tkaziladigan suhbatlar va yakuniy suhbatlarga bo‘linadi. Bu suhbatlar mazmunan turli darajada bo‘lishi mumkin: birovlar kuzatiladigan obektlarni tor doirada kuzatgandan so‘ng, boshqalari hodisalarning keng doirasini qamrovlari hodisalarning keng doirasini qamrovchilarni – bolalarning jonsiz tabiat hodisalari, o‘simliklar hayoti, hayvonlar, kishilarning mehnati haqidagi bilimlarini tizimlashtirish maqsadida o‘tkaziladi. Badiiy adabiyotni o‘qish. O‘z mazmuniga ko‘ra ilmiy bo‘lgan tabiatshunoslik haqidagi kitob ayni vaqtida san’atning bir turidir. Tabiatshunoslik kitobi bolalarda bilish huquqini, kuzatuvchanlikni, bilimga bo‘lgan havasni tarbiyalash uchun boy meterial beradi.

Ta’limiy faoliyat. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish ta’limiy faoliyatlari bilimlarni bolalarning imkoniyatlari hamda o‘rab turgan tabiatning xususiyatlarini nazarda tutgan holda

izchil shakllantirish imkonini beradi. Tarbiyachi rahbarligida o‘tadigan ta’limiy faoliyat larda guruhning barcha bolalarida dastur talablariga muvofiq elementar bilimlar shakllanadi. Asosiy bilim protseslari va bolalarning qobiliyatlari ma’lum tizim hamda izchillikda o‘stiriladi. Kundalik hayotda kuzatish, o‘yin, mehnat vaqtida bolalarning shaxsiy bilimlari yigilib boriladi. Ta’limiy faoliyatlar ularni aniqlash va tizimlashtirish imkonini beradi. Ta’limiy faoliyatning ta’limiy vazifasi. Bu bolalarga ta`limiy faoliyatlarda berilish yoki aniqlanishi hamda konkretlashtirilishi lozim bo‘lgan bilim hajmidir. Bunga yana bolalarning tabiatni bilishga bo‘lgan qiziqishlarini shakllantirishni ko`shish mumkin. Ta’limiy faoliyatda hal etiladigan tarbiyali vazifalar. Tabiatga ijobiy ehtiyotkorona, g`amxo`rona munosabatni shakllantirish. Tabiatga estetik munosabatni o‘stirishga yo‘naladi. Ta’limiy faoliyatga tayyorlanish hamda uni o‘tkazishda ta`limiy faoliyatning tuzilishi metodini to‘g‘ri aniqlash muhimdir. Metodni tanlash ta’limiy vazifalar xarakteri, tabiiy obyektning xususiyatlari, hamda bolalarning yoshiga bog‘liqdir. Ta’limiy faoliyat davomida topshiriqni bajarishga barcha bolalarni jalb qilish muhimdir. Ta’limiy faoliyat oxirida qoidaga binoan tarbiyachi bolalarni malaka va ko‘nikmalarini ularning ta`limiy faoliyatga munosabatlarini, qiziqishlarni pedagogik jihatdan baholaydi. Baholarning differensiyalashuvi bolalarning yoshiga bog‘liq bo‘ladi.

Ekskursiyalar. Ekskursiya bolalarni tabiat bilan tanishtiruvchi ta`limiy faoliyatlar turidan biridir. Ekskursiyalar vaqtida bola tabiat hodisalarini mavsumiy o‘zgarishlarni tabiiy sharoitda kuzatish insonning hayot talablariga muvofiq tabiatni qanday o‘zgarayotganini va tabiat kishilarga qanday xizmat qilayotganini ko‘rish mumkin. Ekskursiya faoliyatlarining afzalligi yana shundaki, unda bolalar o‘simlik va hayvonlar, ular yashaydigan muhitni ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ekskursiyalar tufayli bolalarda kuzatuvchanlik, tabiatni o‘zgarishiga qiziqish o‘sadi. Ular predmetni sinchiklab kuzatish va uning xarakterini xususiyatlarini qayd qilishga odatlanadilar. Tabiatning go‘zalligi bolalarda chuqur hissiyotlar uyg‘otadi, o‘chmas taassurot qoldiradi. Estetik hissiyotlarning o‘sishiga yordam beradi. Shu asosda yana tabiatga muhabbat, unga ehtiyotkorona munosabatda bo`lish, vatanga muhabbat shakllantiriladi. Ekskursiyalarni uyushtirish. Ekskursiyadan ta`limiy faoliyat turi sifatida o‘rta, katta, hamda tayyorlov guruhlarida foydalaniladi. Har bir ekskursiya uchun barcha bolalar egallashlari shart bo‘lgan dastur mazmuni belgilanadi. Kundalik hayotdagi ish. Ta’limiy faoliyat va ekaskursiyalardagi kuzatishlarni kundalik hayotdagi, shuningdek, boshqa shakllari bilan uzviy aloqada olib boriladi.

Sayrlar. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish uchun sayrlardan keng foydalaniladi. Sayrlar vaqtida tarbiyachi bolalar tasavvurining shakllanishi uchun o‘zok muddat talab qilinadigan tabiat hodisalari bilan tanishtirish imkoniga ega bo‘ladi. Bolalarni qorning erishi, kurtaklarning bo‘rtishi, maysaning paydo bo‘lishi va shu kabilar bilan tanishtiriladi. Sayrlarda tabiiy materiallar kum, loy, suv, muz, barg, va shu kabilar bilan xilma-xil o‘yinlarni tashkil etish mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalarda sezgi tajribasi yig‘ladi, ular tabiat hodisalarini barcha aloqa va munosabatlarda tabiiy sharoitlarda ko‘radilar. Sayrlar bolalarda qiziqish uyg‘otadi, ularga katta quvonch, tabiat bilan munosabatda bulish esa lazzat baxsh etadi. Maktabgacha yoshdagi bolani tabiat bilan tanishtirish orqali bolaning har tomonlama bilimlarini egallashi psixik jarayonlarning rivojlanishi, qobiliyatlarini o‘sishi, ilmiy dunyoqarashini shakllanishi, axloqiy sifatlarni, ijobiy xulq odatlarini o‘zlashtirilishi estetik hissiyotlarni rivojlanishiga erishishda yordam beradi. Tabiatning go‘zalligi bolalarda chuqur hissiyotlar uyg‘otadi, o‘chmas taassurot qoldiradi, estetik hissiyotlarning o‘sishiga yordam beradi. Shu asosda ona tabiatga muhabbat, unga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, vatanga muhabbat shakllantirib,

tabiatni o‘rganishga qiziqish (jonli va jonsiz tabiatga) o‘sadi. Tasviriy faoliyat ta’limiy faoliyatlari orqali bolalarni maktabga tayyorlash. Tasviriy faoliyat bo‘yicha maktabgacha ta’lim tashkiloti dasturi va maktabda tasviriy san’at dasturi bolalarda tevarak-atrofga nisbatan, san’at bolalarda estetik munosabatni tarbiyalash ijodiy qobiliyat va tasvirlashlarini rivojlantirishni ko‘zda tutadi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti mashg‘ulotlarida, maktabda muvaffaqiyatli o‘qib ketishlari uchun zarur bo‘lgan vazifalar hal etiladi. Rasm, applikatsiya, loy ishlari jarayonida bolalarda fikr yuritishning analiz, sintez, takrorlash, konkretlashtirish kabilar shakllanadi. Shuningdek, bu jarayonlarda bolalar jamoada ishlashga, o‘z harakatini o‘rtoqlarining harakatiga bo‘ysindirishga o‘rganadilar. Bolalar maktabgacha ta’lim tashkilotida tasviriy faoliyat ta’limiy faoliyatlari bolalarda, o‘quv faoliyatida zarur bo‘lgan malaka va ko‘nikmalarni shakllantiradi. Bular: topshiriqni tinglash va yodda tutish malum vaqt orasida bajarish o‘z ishini rejalashtirish va baholashga, boshlangan ishni oxiriga etkazishga, xato va kamchiliklarini topishga va uni tuzatishga material qurollarini va ish joyini tartibli saqlash va boshqalar. Pedagoglarning olib borgan tekshirishlari shuni ko‘rsatadiki maktabgacha ta`lim tashkilotida ta’lim-tarbiyaning bunday tizimi bolalarni maktabga tayyorlashga ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, boshqa psixologlar E.A. Labunskiy va boshqalar tomonidan maktab o‘quvchilarining tasvirlash faoliyatini o‘rganish jarayonlari shuni ko‘rsatib o‘tadi, maktabda tasviriy san’at darslarini tuzilishi, bolalarning MTTda olgan bilim, malaka va ko‘nikmalar asosida ularni hisobga olgan holda tashkil etiladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat ta’limiy faoliyatlarida bolalar, asosan, amaliy ish bajaradilar, sa’nat asarlari bilan rasmga qarab hikoya qilish, kitobdagi ilyustratsiyalarni ko‘rib chiqish jarayonida tanishadilar, maktabda tasviriy san’atning turlari rang tasvir, grafik, haykaltaroshlik va dekorativ san’at asarlar bilan yanada chuqurroq tanishadilar maktabgacha ta’lim tashkilotida tasviriy faoliyat ta’limiy faoliyatlari xilma-xildir, rasm,mazmunli dekorativ va loy applikatsiya ta’limiy faoliyatlari. Maktabgacha ta’lim tashkilotida ta`limiy faoliyatlarning hammasiga katta ahamiyat beriladi. Maktabda esa tasviriy san’at darslarining rasm (naturaga qarab) mavzu asosida va dekorativ turlari o‘tkaziladi. Bunda predmetli rasm bo‘yicha naturaga qarab rasm chizish o‘quv predmeti ahamiyatiga ega bo‘ladi. Loy applikatsiya, qurish-yasash bo‘yicha amaliy ishlar maktabda ishlar qo‘l mehnatiga kiritiladi. Boshlang‘ich sinf tasviriy san’at dasturini analizi, ishni ko‘rsatadiki, predmetli,rasm bo‘yicha o‘quv vazifalarini ancha murakablik kiritilishdan tashqari MTT dasturi bo‘yicha ayrim takrorlash ishlari kiritildi. 1-sinfda bolalar doira, kvadrat, turtburchak, oval kabi tuzilishga ega bo‘lgan predmetlarni aniqlashga o‘rganadilar, bolalar oldiga MTTda qo‘yilgan vazifa rasm chizish texnikasini egallash bo‘yicha qo‘yiladi. Bunga sabab, hamma bolalar MTTdan maktabga kelmaydilar va shu sababli bolalar bilan ishni maktabga kelguncha tayyorlov guruhda olgan bilimlaridan boshlash lozim. Mavzu asosida rasm chizish MTTda o‘tkaziladigan mazmunli rasmni davomi sifatida o‘tkaziladi. Bolalar tevarak-atrofdagi hodisa va predmetlarni kuzatib, ko‘rib chiqadilar, so‘ng xotiralariga asoslanib, ularni chizadilar. O‘quvchilar obyektlar o‘rtasidagi mazmunli bog‘lanishlarni tasvirlashga uzoqdagi predmetlarni kichiklashtirib tasvirlaydilar. Dekorativ rasm maktabda texnik tartiblar bo‘yicha vazifalar qo‘yiladi, ya’ni naqsh tuzilishi ketma-ketligida tasvirlash bilan birgalikda yordamchi chiziqlardan foydalanish va o‘z ishlarda xalq amaliy dekorativ san’at elementlaridan foydalanishga san’at haqida o‘tkaziladigan dars suhbat jarayonida o‘rganadilar. Bolalarni tasviriy sanatga o‘rgatish metodlaridan bolalarni xususiyatlarini hisobga olgan holda foydalanish lozim. Katta maktabgacha ta`lim yoshidagi bolalar va kichik o‘quvchilarining

ish xususiyatlari o‘rtasida ko‘p yaqinlik bor. Shuning uchun u yoki bularni o‘rgatish metodikasi o‘rtasida ham ko‘p o‘xshashlik bor. Maktabda o‘qituvchining rasmini ba’zi bir elementini ko‘rsatish va shu jarayonda tushuntirish tarbiyachining ish usullarini ko‘rsatib berishga yaqin turadi. Maktabda ishning ketma-ketligi tartibli ko‘rinishda bo‘ladi Agar tasvirlanadigan predmetning tuzilishi sodda bo`lsa, tartib tushintirilgandan so‘ng, o‘chirib tashlanadi. Agarda murakkab tuzilishga ega bo‘lgan predmetni tasvirlanganda esa, o‘qituvchining doskada ko‘rsatib berishi bilan ketma-ket tasvirlaydilar. O‘qituvchi predmetning umumiy konturini qalamning uchi bilan yengilgina belgilab chiqib, uning kengligini balandligini ham belgilab ko‘rsatadi. So‘ng o‘quvchi predmetni xomaki rasmi bilan naturani solishtirib uning qismlarini, shaklini va aniqlaydi, tuzatadi. Ish jarayonida ko‘rsatish va analiz qilish uchun rasmlar to‘plami, bolalar kitobchalaridagi rangli rasmlar, shuningdek, o‘quv xarakteriga ega bo‘lgan alohida rasmlaridan foydalanadi. Rasm bo‘yicha o‘tkaziladigan har bir dars o‘qituvchining suhbatidan va tushuntirishdan va rasmni nimadan boshlash kerakligini tushuntirishdan boshlanadi. Ishni amaliy bajarilishga o‘tishda o‘qituvchi bolalarining tartibli ravishda chizishi va qoida va yo‘llarni eslatib turadi. Katta maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar va kichik maktab o‘quvchilarining ishiga yoki rasmiga qo‘yilgan talablar bir-biriga juda yaqin. Bolalar ishini analiz qilishda diqqatni predmet proporsiyasi, konstruksiyasi, qismlarining bog‘liqligi, rang va kompozitsion tuzilishiga tortish lozim. Shunday qilib boshlang‘ich sinflarda ta’lim-tarbiya masalalarining muvaffaqiyatli hal etilishi, bolalar maktabgacha ta’lim tashkilotda olib boriladigan tasvirlash ta`limiy faoliyatlari bilan uzviy ravishda olib boriladi. Bolalarni maktabga tayyorlash maktabgacha ta’lim tashkilotlarida amalga oshiriladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari katta guruhdagi kuzatishlar bo‘yicha rasm chizishga katta e’tibor beriladi, chunki bu narsa bolalarni naturaga qarab rasm chizishga tayyorlashda bosqich hisoblanadi. Bu narsa bolalarda ko‘rish xotirasini rivojlantiradi, ba’zida predmet bolalarda natura sifatida to‘g‘ri tasvirlashga yordam beradi. Bolalar guruhdagi olib boriladigan tasviriy faoliyat ta`limiy faoliyatlarida, qalamdan, mo‘yqalamdan erkin foydalanishga o‘z xarakterini va qo‘l kuchini idora etishga o‘rganadilar. Bu malakani egallash, bolalarda qo‘lini yengil, erkin bir tekisdagi harakat qilish xususiyatlarini rivojlantiradi. Bolalar turli shakldagi, kattalikdagi, turli proporsiyadagi predmetlarni chizish jarayonida predmetning ish xususiyatiga qarab yo‘nalishni saqlash zarurligiga, harakatini, predmetning uzunligiga mos ravishda harakatlanishga o‘rganadilar. Bolalar maktabgacha ta’lim tashkilotida olib boriladigan tasviriy faoliyat materialdan toza va tartibli foydalanishga o‘rganadilar ularni toza saqlashga faqat zarur materiallardan foydalanishga, ularni ishlatish yo‘llarini rejalashtirishga o‘rganadilar. Bu ta`limiy faoliyat bolalarda diqqatni, ko‘rish xotirasini rivojlantiradi. Bolalar maktabgacha ta’lim tashkilotining tayyorlov guruhida naturaga qarab rasm chizish yoki tasvirlashga nisbatan talablar oshadi va bu talablar maktab talabiga yaqinlashadi. Bolalar naturani analiz qilishga butun umumiy formani xomaki qog‘ozga tushirib olishga, rasmni naturaga solishtirishga, xato va kamchiliklarini to‘g‘rilashga, naturaga o‘xshatishga urinadilar. Naturaga qarab tasvirlashda ishning ketma-ketligini ko‘rsatib, bolalar maktabgacha ta’lim tashkilotining tayyorlov va katta guruhida o‘rganishning boshlang‘ich bosqichidagina amalga oshiriladi. Ko‘rsatishda doimo foydalanish, bolalarni rasmni mehanik ravishda ishlashga odatlantirib qo‘yadi. Bolalar naturaga qarab tasvirlash bularning barchasi bolalarni barcha darslarda, ayniqsa, mehnat darslarida o‘quv faoliyatining muvaffaqiyatli bo‘lishiga ta’sir etadi. Bolalarni tasviriy faoliyat ta`limiy faoliyatlari geometrik shakllarni topa olish yoki ko‘ra olishga, ularni terminlar bilan atashga, kengligi kattaligi,

o‘zunligi, balandligini, qismlarning bir biriga nisbatan fazoviy joylashishini bilan tanishishni bolalarni maktabni 1-sinfda elementar matematik tushunchalarini puxta egallashlariga yordam beradi. Bolalar maktabgacha ta’lim tashkilotida kerakli materiallardan qurish-yasash bolalarda ko‘z bilan chamalashni shakllantiradi va bolalarni maktabdagi texnik darslarni egallashga yoki o‘zlashtirishga yordam beradi. Bolalar maktabgacha ta’lim tashkilotining katta guruhidagi naturaga qarab rasm chizish mashg‘ulotlarda mantiqiy fikr yuritishga, kuzatishga asosiy ajratib ko‘rishga predmetni fazoviy xususiyatlarini analiz qilishga o‘zlari mustaqil ravishda tasvirlash vositalarini tanlashga o‘rganadilar. Bularning hammasi esa maktabda o‘qish protsessida zarurdir. Shunday qilib, tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarida bolalardagi badiiy did va ijodiy qobiliyatlar o‘sadi va bu orqali maktabda o‘qishga tayyorlanib boriladi .

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maxsus pedagogika (darslik). R.M.Ro‘latova, L.Sh.Nurmuxammedova, D.B.Yakubjanova, Z.N.Mamarajabova, Sh.M.Amirsaidova, A.D.Sultonova. - T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti. 2014. - 520 b
2. Maxsus psixologiya L.R.Muminova, Z.N.Mamarajabova, D.B.Yakubjanova, Sh.M.Amirsaidova - T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti. 2014. - 520 b
3. Prof.Dr.Zulfiya Mamarajabova Effective methods of speech development of disabled students in the process of literary education // current research journal of pedagogics 2(10): 43-48, October 2021 DOI: https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-02-10-09 ISSN 2767-3278 2021 Master Journals Accepted 26 th October, 2021 & Published 31Th
4. Prof.Dr.Zulfiya Mamarajabova Pedagogical factors of the development of speech in children with hearing impairment in the process of literary education// Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 4, April 2021 Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492.-1917-1922
5. Muhammadjonova, Dilafruz. "Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalardning sezgi va idrok xususiyatlarning o‘ziga xosligi." Science promotion (2023).
6. Muhammadjonova, Dilafruz. "ISSUES OF EFFECTIVE ORGANIZATION OF TEACHING WEAK HEARING CHILDREN TO WRITE." Science promotion (2023).
7. Muhammadjonova, Dilafruz. "SPEECH DEVELOPMENT OF DEAF CHILDREN." GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ) (2023).

BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA IJTIMOIY-KREATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING INTEGRATIV MODELI

MAHMUDOVA SUMBULA ABDUMALIKOVNA
Farg‘ona davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo‘lajak pedagoglarda ijtimoiy-kreativ kompetentlikni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, ijtimoiy-kreativ kompetentlikni rivojlantirishning kognitiv-metodik tizimi hamda islohotlar sharoitida bo‘lajak pedagoglarda ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini va kreativ kompetentsiyani rivojlantirish o`rganilgan. Shuningdek, bo‘lajak pedagoglarda ijtimoiy-kreativ kompetentlikni rivojlantirishning integrativ modeli tahlil qilingan.

Аннотация: В статье изучены теоретико-методологические основы развития социально-творческой компетентности будущих педагогов, познавательно-методическая система развития социально-творческой компетентности и развития навыков социальной деятельности и творческой компетентности у будущих педагогов в условиях реформ. Также на примере педагогических наук была проанализирована интегративная методология развития социально-творческой компетентности.

Abstract: In this article, theoretical-methodological foundations of social-creative competence development in future pedagogues, cognitive-methodical system of social-creative competence development and development of social activity skills and creative competence in future pedagogues in the conditions of reforms are studied. Also, the integrative methodology of development of socio-creative competence was analyzed on the example of Pedagogical sciences.

Kalit so‘zlar: pedagog, ijtimoiy-kreativ, kompetentlik, kognitiv-metodik, ijtimoiy faollik, ko‘nikma, malaka, kompetentsiya, integrativ yondashuv, rivojlantirish, pedagogik model, reproduktiv, funksional.

Ключевые слова: педагогический, социально-творческий, компетентность, познавательно-методическая, социальная деятельность, умение, квалификация, компетентность, интегративный подход, развитие, педагогическая модель, репродуктивный, функциональный.

Key words: pedagogic, social-creative, competence, cognitive-methodical, social activity, skill, qualification, competence, integrative approach, development, pedagogical model, reproductive, functional.

KIRISH. Zamonaviy sharoitda modellashtirishga eng umumlashgan yondashuv tizimshunoslikni rivojlantirish va ularni modellar metodikasi bilan integratsiyalash bilan bog‘liq. Bu assotsiatsiya natijasida modelli bilishning maxsus sohasi - tizimni modellashtirish shakllandi. Nazariy jihatdan bu bilim sohasi ilmiy tadqiqotlarida ishlab chiqilgan tizim yondashuvi va universal modellashtirish parametrlarining umumiy metodologik qoidalariga asoslanadi. O‘qitish metodlarini tanlash va amaliy jarayonda qo‘llash ta’lim jarayonida qo‘yiladigan talablarga muvofiq keladigan kompetensiyalarning takomillashuvini talab etadi. Texnologik yondashuv ta’limni texnologiyalashtirish va uning natijasi sifatini baholash uchun ham ahamiyatli sanaladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. O‘zbekistonda bo‘lajak pedagoglarda ijtimoiy faollikni rivojlantirish masalalari M.Raxmanova, M.Quronov, X.Tojiboyeva, G.J.Tulenova, Q.Quranboyev; ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish borasida N.Abdumuratova, D.Nafasovlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa, ta’lim oluvchilarning kreativ ishlashga o‘rgatish, ularda turli kompetensiyalarni o‘stipish jihatlari N.Azizxo‘jayeva, A.Aripdjanova, G.Ibragimova, N.Muslimov, O‘.Tolipov,

F.Exsonovalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida, kreativ o‘qitish muammoalari M.Kadirova, Sh.Pozilova, A.Xalikov, Sh.Sharipov tomonidan tadqiq etilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Tadqiqot jarayonida talabalarda ijtimoiy-kreativ kompetensiyani rivojlantirish uchun quyida keltirilgan tamoyillar metodologik tamoyil sifatida belgilandi: ijodiy ta’lim, emotsionallik, rivojlantiruvchi, natijaviylik.

O‘quv jarayonida professor-o‘qituvchi tomonidan tashkil etiladigan mashg‘ulotning sifati uning natijasini belgilaydi, shu ma’noda ta’lim ijodiylik va betakrorlikka ega bo‘lishi maqsadga muvofiq. Original darajada tashkil etilgan dars talabalarda fanga nisbatan emotsiyani yuzaga keltiradi, bu esa talabada ijtimoiy-kreativ kompetensiyani rivojlantirishga asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi va kutilgan natijaga erishish imkoniyati yuzaga keladi.

Oliy ta’lim sharoitida bo‘lajak pedagoglarga “Kreativ pedagogika” va “Ijtimoiy pedagogika” fanlarini ijtimoiy faollik va kreativlikni rivojlantirishga yo‘naltirib o‘qitishda belgilangan maqsadga erishish uchun pedagogik shart-sharoitlar, ya’niki ta’lim jarayonida foydalaniladigan innovatsion metod va vositalar integratsiyasi ham muhim omil sanaladi.

Bo‘lajak pedagoglarning ijtimoiy falligi va kreativligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘qitish faoliyatini tashkil etish va uni shakllantirish bosqichlari.

1. “Kreativ pedagogika” va “Ijtimoiy pedagogika” fanlarini ijtimoiy faollik va kreativlikka yo‘naltirib o‘qitish tizimining tayyor metodik tavsiyalari aniq qilib belgilanadi va bugungi jamiyat talablari asosida tayyor metodik tavsiyalar boyitiladi, amaliy faoliyatda qo‘llaniladi.

2. Ijtimoiy faollik va kreativlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’limni amalga oshirish mazmuni, innovatsion metodlar va vositalari aniqlanadi, takomillashtiriladi, zarurat bo‘lsa qayta ishlab chiqiladi.

3. “Kreativ pedagogika” va “Ijtimoiy pedagogika” fanlarining professor-o‘qituvchilari tomonidan talabalarning o‘ziga xos sifatlarini inobatga olgan holda ijtimoiylashuv va kreativlikka yo‘naltirilgan o‘qitish va tarbiyalashning o‘ziga xos metodikasi ishlab chiqiladi.

4. Natijada ijtimoiy-kreativ kompetensiyasi rivojlangan pedagog yetishib chiqadi.

Ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, ta’lim mazmunini yangilash jarayonida hamda har sohada rivojlanish sodir bo‘lib turgan bugungi jamiyat uchun shu o‘zgarishlarga tayyor mutaxassislar kerak. Bunday mutaxassislar esa oliy ta’lim jarayonida tayyorlanadi. Ta’lim jarayoni shunday murakkab jarayonki, bunda pedagogning mahorati, kasbiy kompetentligi, professionalligi eng muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi vazifalar to‘g‘ri va samarali tashkil etilganda modeldan kutilgan “Natija”ga erishiladi, ya’ni ijtimoiy-kreativ kompetensiyasi rivojlangan mutaxassis shakllantiriladi.

Talabalarda “Kreativ pedagogika” va “Ijtimoiy pedagogika” fanlarini o‘qitish jarayonida ijtimoiy-kreativ kompetensiyani rivojlantirish modeli quyidagi talablarga javob beradi:

- ushbu model o‘rganilayotgan majmuaviy jarayonning o‘zaro aloqa va bog‘liqlikda bo‘lgan barcha elementlarning birligi va tanlangan fanni o‘qitishda bo‘lajak pedagoglarning ijtimoiy-kreativ kompetensiyasini rivojlantirish jarayoni faoliyatini ta’minlaydi;

- “Kreativ pedagogika” va “Ijtimoiy pedagogika” fanlarini o‘qitishda ijtimoiy-kreativ kompetensiyani rivojlantirish modeli rivojlanayotgan tizim hisoblanadi. Model axborotlarning to‘planishi bo‘yicha amaliyot ehtiyoji o‘zgarishi, raqamli muhit talablariga javob beruvchi kadrlarga zamonaviy ijtimoiy talablarning shakllanish tuzilmasi, shaxsiy parametrlar moslashuvchanligi va o‘suvchanligini ta’minlaydi;

- modelning moslashuvchanligi, biror bir ilmiy yo‘nalishda manfaatli natijaga erishishi

mumkin bo‘lgan o‘zgarish hamda yangiliklarni inobatga olish imkonini beradi. Bu ijtimoiy-kreativ kompetensiyani rivojlantirish jarayonining bo‘lajak pedagoglar faoliyatidagi o‘zgarishlarga o‘z vaqtida reaksiya berishida aks etishi mumkin;

- modelning o‘suvchanligi, ya’ni uning obyekt va o‘quv jarayoni haqidagi yangi axborot bilan to‘ldirish, mavjud bo‘lgan elementlarni qo‘shish, moslash yoki o‘zlashtirish. Bu ishlab chiqilgan modelning “komponent”li tuzilishga ega bo‘lganligi uchun ham komponetlar sonini kengaytirish mumkin bo‘ladi.

Bo‘lajak pedagoglarda ijtimoiy-kreativ kompetensiyani rivojlantirish bo‘yicha modellashtirishni barcha bosqichlarda qo‘llash (professional yo‘naltirilganlik, ta’lim, fan, kasb tanlash va sertifikatlash, konsalting xizmati va hokazo) hamda pedagogik faoliyatda o‘zgarishlar dinamikasi uning uzluksiz kasbiy rivojlanishining barcha bosqichlarida aks ettiriladi (kasbiy moslashish, kasbiy mahorat va kasbiy ijodkorlik). Har bir bosqichda pedagogik faoliyatning tarkibiy qismlari aniqlanadi (strategik maqsadlar va motivlar asosida boshqariladigan aniq faoliyat turlari, taktik maqsadlarga yo‘naltirilgan kasbiy harakatlar, harakatlarni aniq sharoitlarda bajarish hamda ularning samaradorligini baholash yo‘llari va boshqalar), ijtimoiy soha pedagogining professional funksiyalarini aniqlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi (motivatsiya, maqsadli va tezkor) va rivojlantirishga olib keladi.

Bo‘lajak pedagoglarda ijtimoiy-kreativ kompetensiyani rivojlantirish har bir o‘quv kursida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Pedagog maqomini ro‘yobga chiqarish bosqichida (birinchi kurs) shaxsning yangi



ijtimoiy roli, kasbning umumiy ilmiy asoslarini o‘zlashtirish bilan bog‘liq yaxlit rivojlanishi kuzatiladi. Shaxsning boshqalar ta’siriga moslashuvchanligi bilan ajralib turadi. Bu davrda talabalar odatda o‘z rollarini farqlamaydilar. Talabalar jamoa hayotining o‘ziga xos shakllari bilan tanishadilar. Bu bosqichda talabalar yangi ijtimoiy aloqalarni o‘rnatadilar, turli sharoitlarga moslashadilar.

Kasbiy o‘z-o‘zini bilish bosqichida (ikkinchi kurs) talabalar shaxsining ixtisoslashtirilgan rivojlanishi davom etadi, ularning madaniy talab va ehtiyojlari shakllanadi. Ular ishonch va mustaqillikka erishadi, nafaqat ta’lim va tarbiyaning barcha shakllariga kiritiladi, balki jamoat tashkilotlarida ham faol ishtirok etadi. Bu davrda asosan umumkasbiy fanlarga e’tibor ortadi.

Kasbiy o‘z-o‘zini aniqlash bosqichida (uchinchi kurs) talabalarning ixtisoslik o‘quv fanlariga bo‘lgan diqqati mustahkamlanib, ularning kasbiy faoliyat motivlari

mustahkamlanadi. Bu bosqichda ilmiy izlanishga qiziqish ortadi va tanlangan kasbning xususiyatlari o‘rganiladi. Shu bilan birga, talabalarning ijtimoiy faolligi rivojlanadi va o‘z-o‘zini tashkil etish darajasi ortadi.

Kasbiy tayyorlik bosqichi (to‘rtinchi kurs) pedagogik faoliyatga bo‘lgan munosabat bilan bog‘liq bo‘lib, mutaxassis ishining usul va texnologiyalarini o‘zlashtirishga undaydi. Bu bosqichda talaba pedagogik tajribani egallash uchun amaliyot joyini tanlashga ko‘proq ongli ravishda yondashadi.

Shunday qilib, ishlab chiqilgan metodik model bo‘lajak pedagoglarda ijtimoiy-kreativ kompetensiyani rivojlantirishda vazifalarni rejalashtirish va ta’lim dasturi maqsadlariga erishish strategiyasini belgilaydi.

XULOSA. Xulosa qilganda, tadqiqot doirasida yaratilgan bo‘lajak pedagoglarning ijtimoiy-kreativ kompetensiyani rivojlantirish modeli yaxlit ochiq tashkil etilgan bo‘lib, bo‘lajak pedagoglarda ijtimoiy-kreativ kompetensiyani rivojlantirish tizimini maqsadga yo‘naltirish, belgilangan maqsadning natijaga mosligini aniqlash imkonini beradi. Modelning amaliyotga tatbiqi bo‘lajak pedagoglarda ijtimoiy-kreativ kompetensiyani rivojlantirish metodikasini takomillashtirish uchun asos bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Авазбоев А.И. Ўқув предметлари мазмунини интеграциялаш асосида меҳнат ва касб таълими ўқитувчиларини тайёрлашни такомиллаштириш. Ном. дисс. 13.00.02. п.ф.н. Тошкент, 2001.-Б. 12.
2. Аксютина, З. А. Концепция компетентностной подготовки к социальному воспитанию в вузе / З. А. Аксютина // Сибирский педагогический журнал № 3. -Новосибирск, 2011.-С. 130.
3. Алимов С.Ш. Формирование социокультурной компетенции учителей общеобразовательных школ республики Таджикистан. Дисс. …канд. пед. наук. Душанбе, 2009.
4. Баркунова О.В. Формирование профессиональной компетентности социального педагога в процессе педагогической практики: Автореф. … дисс. канд. пед наук. Шуя,2010.
5. Варлакова Ю.Р. Развитие креативности будущих бакалавров педагогического образования в вузе: автореф. дисс. канд. пед. наук: –Красноярск, 2013. – 17 с.
6. Гончаров С.В. Социальная компетентность личности: сущность, структура, критерии и значение// Образование и наука. 2004. № 2 (26). С. 3 – 18
7. Ходжаев Б.Х. Умумтаълим мактаби ўқувчиларида тарихий тафаккурни модернизациялашган дидактик таъминот воситасида ривожлантириш: пед. фанл. доктори ...дисс. –Т.: 2016. – Б.76-77.
8. Риске, И.Э. Формирование социокультурной компетенции у учащихся старшей ступени обучения на материале англоязычной поэзии [Текст]: дис… канд. пед. наук: 13.00.02. – С-Пб.: РГПУ, 2000. – 259 с., с. 119.

BILOGIYANI O‘QITISGDA INDIVIDUAL TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASINI SHAKLLANTIRISH

ASQAROVA M.R.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Biologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mamlakatimizda mustaqillikka erishilgan dastlabki kunlardan boshlab ta’lim tizimiga katta e’tibor qaratilmoqda. O‘quvchilarga biologik ta’lim berishning zamonaviy innovatsion uslublarini joriy etish biologik bilimlar o‘z o‘rniga ega ekanligi namoyon bo‘lmoqda, bu esa iqtisodiyotning barcha sohalarini rivojlantirishda biologik innovatsiyalarning rolini kuchaytiradi va amaliy ahamiyatini ko‘rsatib beradi. Ta’lim tizimida kutilayotgan yangi o‘zgarishlar uzluksiz ta’lim tizimlarida biologik bilimlar o‘quvchi-yoshlarda ijodkorlik qobiliyati va individual ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularda oliy ta’lim bosqichida zarur bo‘ladigan ko‘nikmalarni va ilmiy dunyoqarashlarni shakllantirishda xizmat qiladi.

Абстрактный. С первых дней независимости в нашей стране большое внимание уделялось системе образования. Внедрение современных инновационных методов биологического образования студентов показывает, что биологические знания имеют свое место, что усиливает роль биологических инноваций в развитии всех отраслей экономики и показывает их практическую значимость. Ожидаемые новые изменения в системе образования, биологические знания в системах непрерывного образования будут служить развитию творческих способностей и индивидуальных способностей студентов, формированию тех навыков и научного мировоззрения, которые будут необходимы им на этапе высшего образования.

Abstract. From the first days of independence in our country, much attention was paid to the education system. The introduction of modern innovative methods of biological education for students shows that biological knowledge has its place, which strengthens the role of biological innovations in the development of all sectors of the economy and shows their practical significance. The expected new changes in the education system, biological knowledge in continuing education systems will serve to develop the creative abilities and individual abilities of students, the formation of those skills and scientific worldview that they will need at the stage of higher education.

Individual ta'lim - bu innovatsion o'qitish usuli bo'lib, bunda har bir o'quvchi uchun maxsus ishlab chiqilgan o'quv dasturi bo'yicha dars mashg'ulotlarida ishtirok etadi. Dars davomida ular sinfdoshlari bilan birga dars jarayonida ishtirok etadi, lekin kun davomida o'z vazifalarini bajarish uchun asosan yakkaxon ishlaydilar. Har bir darsda o'qituvchi dars bermaydi, balki har bir o'quvchi shaxsiy rivojlanishi uchun ko'rsatmalarni taklif qiladi. Talabalar esa turli vazifalarni va har bir darsda shaxsiylashtirilgan o'quv dasturlarini bajaradilar.

Material va metodika. Talabalarga individual ta’lim texnologiyalaridan foydalanish metodikasini qo‘llashda o‘zbek va chet el oimlari tomonidan yozilgan maqola va tezislar, o‘quv qo‘llanmalardan foydalanildi.

Asosiy qism. O‘qitishni individuallashtirish texnologiyasining quyidagi xususiyatlari mavjud:

1.O‘qituvchi o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini tashkil etish, o‘qitish mazmuni, vositalari, metodlari va uslublarini tanlashda ularning shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlarini hisobga olishi;

2.Individual o‘qitishni tashkil etishning o‘quv-metodik, pedagogik - psixologik, tashkiliy va boshqarish yo‘llarini belgilashi lozim[1].

Shunday qilib, o‘qitishni individuallashtirish texnologiyasi deyilganda, o‘qitishning individual shakli va yondashuvi ustuvor bo‘ladigan texnologiya tushuniladi. Mazkur texnologiya yaxlit pedagogik jarayonga singib ketuvchi texnologiya bo‘lib, uning ustuvorligi o‘quvchilarga shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlarini hisobga olgan holda individual yondashuv sanaladi. Biologiyani o‘qitishda individuallash texnologiyasidan dars, darsdan va sinfdan tashqari ishlar, ekskursiyalarda foydalanish tavsiya etiladi. O‘qituvchi o‘quvchilar bilan individual ishlaganda ulaming har bir harakati, bilimlami o‘zlashtirish borasida qo‘ygan har bir qadami, o‘quv faoliyatidagi yutuq, kamchiliklar va yetishmovchiliklami aniqlash, ularga barham berish choralarini qo‘llash, yutuqlar uchun rag‘batlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu o‘quvchilarni doimo o‘zgarib turadigan o‘qitish jarayoniga moslashishi, pirovard natijada o‘z imkoniyatlari darajasida o‘quv materialini kam vaqt sarflab o‘zlashtirishi, o‘ziga qulay metod va uslublardan foydalanib ko‘zlangan maqsadga erishishiga yordam beradi. O‘qitishni individuallashtirish texnologiyasi individual yondashishni talab etadi. Individual yondashuv - metodikaning tamoyillaridan biri bo‘lib, unda o‘qituvchi o‘quvchilaming shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlarini hisobga olgan holda, individual model asosida o‘quv faoliyatini tashkil etadi va ular bilan muloqotda yuksak madaniyatni namoyon qiladi, hamkorlikka kirishadi[2].

Individual ta’limngning asosiy afzalligi shundaki, u to‘liq moslashish imkonini beradi, bolaning o‘quv faoliyatining mazmuni, usullari va sur'atini uning xususiyatlariga ko‘ra, uning har birini kuzatib borish, muayyan muammolarni hal qilishda harakat qilish imkonini beradi[3].

Ta'limni individuallashtirish - bu:

o‘quv jarayonini tashkil etish, unda usullar, uslublar, o‘rganish sur’ati tanlanadi talabalarning individual xususiyatlari bilan belgilanadi;

individual yondashuvni ta’minlovchi turli o‘quv, uslubiy, psixologik, pedagogik va tashkiliy-boshqaruv faoliyati.

Individuallashtirilgan ta'lim texnologiyasi - bu o‘quv jarayonini shunday tashkil etishki bunda individual yondashuv va o‘qitishning individual shakli ustuvor hisoblanadi.

Zamonaviy pedagogik amaliyot va nazariyada eng yorqin misollar

Ta'limni sinf ichidagi individuallashtirish texnologiyalari:

Inge Unt tomonidan taklif qilingan individual ta’lim texnologiyasiga ko‘ra zamonaviy sharoitda ta'limni individuallashtirishning asosiy shakli talabaning maktabda va uyda mustaqil ishi hisoblanadi. Mustaqil ish uchun individual o‘quv topshiriqlari, ish daftarlari mavjud o‘quv adabiyotlari individual mustaqil ish uchun ko‘rsatmalarga moslashtiriladi.

A.S. Granitskayaning moslashuvchan ta’lim tizimga ko‘ra sinf - dars tizimi doirasida ishni tashkil qilish mumkin, bunda sinf, unda o‘qituvchi vaqtning 60-80 foizini individual ishlashga ajratishi mumkin.

A.S. Granitskaya takilf qilgan dars tuzilmasi: birinchi qism - hammani o‘rgatish qismi.

ikkinchidan - ikkita parallel jarayon: talabalarning mustaqil ishi va individual ish

(individual talabalar bilan o'qituvchilar) [4].

Dalton rejasi. 1919 yilda AQSh Dalton shahrida E. Parkherst sinf xonasini almashtirishga harakat qildi. O‘qituvchi bilan birgalikda ishlab chiqilgan rejaga asosan har bir talaba bilan individual ishlash tizimi, har bir talaba tomonidan amalga oshiriladi. Dalton rejasi natijalariga ko‘ra: talabalarga o‘qishga kirish imkoniyati berildi, har bir kishi maktab dasturlarini o‘z tezligida o‘rgandi[5]. Kunning birinchi yarmida hech qanday jadvalsiz ular

ish qo‘llanmalari asosida mustaqil ishlaydilar, ikkinchi yarmida - darslar har qanday savol mavzunini muhokama qilish uchun to‘planadi va birgalikda ishlaydilar.

Darsda ishni tashkil etishning individual shakli

Darsni tashkil etishning individual shakli darsdagi ish shaklidir. Har bir talaba mustaqil bajarish uchun topshiriq oladi, ushbu topshiriqlar maxsus ta’lim va ta’lim imkoniyatlariga muvofiq tanlanadi. Bunday vazifalar darslik, boshqa o‘quv va ilmiy adabiyotlar bilan ishlashni o‘z ichiga olishi mumkin.Turli manbalardan foydalanish (ma’lumotnomalar, lug‘atlar, ensiklopediyalar va boshqalar)talab etiladi..Xulosa topshiriqlar, misollar, bayonlar, insholar, referatlar, hisobotlar yozish va barcha turlarini amalga oshirish kuzatishlar va boshqalar orqali chiqariladi.

Individual ta’lim uchun yangi texnologiyalar

Individual ta’limni amalga oshirishga imkon beradigan xilma-xil texnologiyalardan eng qiziqarlilari: internet texnologiyalari, hamkorlikda o‘rganish, loyiha usuli va ko‘p yillar davomida turli mamlakatlarda o‘z samaradorligini isbotlagan "Talaba portfeli“ metodidir[4]. Bu texnologiyalarning barchasi tabiiy ravishda bir-biriga bog‘langan va bir-biriga bog‘liq va shu ma’noda muayyan didaktik tizimni tashkil etadi.

Individual ta’limda internet texnologiyalari



1-rasm.Internet tarmog‘i.

Ta’lim sohasida integratsiyaga intilish eng aniq namoyon bo‘lganlardan biri sifatida tendentsiyalari yagona global ta’lim makoniga kirish zarurligini taqozo etadi. Hozirda ta’lim olish kabi imkoniyatlar mavjud masofaviy ta’lim, o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi muloqot nafaqat bir maktab, tuman, balki mamlakat va dunyoning boshqa mintaqalarini ham qamrab olishi mumkin. Zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida talaba uydan chiqmasdan nafaqat to‘liq vaqtda, balki masofadan turib ham ta’lim olish imkoniyati mavjud. Global tarmoq Internet dunyoning ilmiy markazlari, kutubxonalaridagi ma’lumotlarga kirish imkoniyatini ochib beradi, bu esa haqiqatni yaratadi o‘z-o‘zini tarbiyalash, dunyoqarashini kengaytirish va malakasini oshirish uchun sharoitlar[5].

Loyiha metodi

Rossiyada 20-yillarda ko‘plab maktab va universitetlarda "loyiha usuli" samarali metod sifatida ishlatilgan. Loyiha usuli ta’lim jarayonini individuallashtirishga imkon beradigan, bolaga fikrini erkin ifoda etish imkoniyatini beradigan usul bo‘lib, ularning faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish va nazorat qilishda erkinlik tamoyillariga asoslanadi. Ta’limni individuallashtirish texnologiyalari barchani qamrab oluvchi dinamik tizimlarni ifodalaydi. Masalan:”O’simlik- yaxlit organizm”, “Organizm va organlar sistemasi” va hakozo mavzularda ushbu metoddan foydalanish yaxshi samara beradi.

"Talaba portfeli“- texnologiyasi

Ushbu texnologiyaning g‘oyasi dastlab o‘quvchilarning aks ettirish qobiliyatini, ya’ni o‘zini o‘zi qadrlashni shakllantirish va rivojlantirishdir. "Talaba portfeli" ning tuzilishi va uning mazmuni o‘qituvchi tomonidan ishlab chiqiladi. O‘qituvchi talabalarga papkada ma’lum bir mavzu bo’yicha ishlarini tanlash vazifasini beradi, so‘ngra ularning "yutuqlari" ni baholaydi[4]. O‘z-o‘zini ob’ektiv baholash, o‘zaro baholash, ya’ni boshqa odamlarning harakatlarini baholash qobiliyatini ham o‘rgatish kerak. “Talaba portfeli” ana shunday

texnologiyadir. O‘qituvchi tomonidan oldindan tekshirilgan va baholanmagan har bir ish talabaning o‘zi tomonidan sharhlanadi. Tanlangan asarlarni sharhlar ekan, talaba o‘z ishlari, yutuq va qiyinchiliklari haqida fikr yuritadi, bu qiyinchiliklarning sabablari haqida fikr yuritadi. Har bir talaba o‘zining "talaba portfelini" himoya qilishga tayyorlanadi. Mutaxassislar "talaba portfeli" mazmuni va muallifning barcha sharhlari bilan tanishadilar. Ular (har bir ekspert alohida) o‘z fikrini, sharhini tuzadilar va belgilangan vaqtda butun sinf va o‘qituvchi ishtirokida “talaba portfeli” himoya qilinadi.

"Kouching" metodikasidan foydalanish

Individual ta’limda "Kouching" metodikasidan foydalanish yaxshi samara beradi. "Kouching" metodikasi maqsadni va unga erishishning optimal yo‘llarini aniqlashda, o‘quvchining mustaqilligi va javobgarligini oshirishda o‘z faoliyatidan qoniqa olishda, samarali hamkorlikning yangi yo‘llarini topishda, qiyin holatlarda muhim yechimni tez topishda, individual maqsadlarni ta’lim muassasasi maqsadlari bilan moslashtirishda va boshqalarga yordam beradi. Kouching - "Mashq qildirmoq" so‘zini anglatadi. Ushbu metoddan foydalanish o‘quvchilar o‘z maqsadlariga juda tez, eng samarali yo‘l va qoniqish olish bilan erishadi[3]. Kouchingning afzalliklari shundaki, u o‘quv faoliyati samaradorligini yaxshilaydi, o‘quvchilarni har tomonlama rivojlantiradi hamda ularni eng yaxshi yo‘llar va metodlar bilan o‘qitadi. Kouching tez o‘qitishni nazarda tutadi, bu jarayon o‘z navbatida: quvonch va qoniqish olib keladi; jamoada o‘zaro munosabat, o‘qishda muhit yaxshilanadi; o‘qituvchida bo‘sh vaqti ko‘proq va o‘quvchilarning oldin aniqlanmagan iqtidorini ochishga imkoni bo‘ladi.

NATIJALAR

Individual ta’lim o‘quvchining o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirishga, bilishga bo‘lgan qiziqishi va ishtiyoqini oshirishga, olgan bilimlarni kundalik hayotda qo‘llay olish ko‘nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi va u o‘quvchiga qulay bo‘lgan ta’lim muhiti va ta’lim jarayonini tashkil etishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, biologiyada o‘qitishning samaradorligi o‘qituvchining individual ta’lim texnologiyalarni qay darajada samarali qo’llay olishiga va o‘qitishda o‘quvchilarning qiziqishlari va ehtiyojlarini e’tiborga olgan holda tashkil etilishiga bog‘liq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Фозилов Ж. Ўзбекистонда мустақиллик шароитида мактабдан ташқари таълим тизимини бошқа1. A.T.G'ofurov ,Tolipova J. umumiy biologiyani o'qitishning norasmiy usul va shakllari,Toshkent 1990 y.
2.Indiaminov N. va b. Ta’lim samaradorligini oshirishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Ta'lim texnologiyalari. 2014(8).
3. Sherov D. “Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarining ilmiy-nazariy asosi”,Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti o'qituvchisi, d.sherov@cspi.uz
4. Соловьёв Д,П. , Л.А. Илюхина. “Обучение и развитие персонала” : учеб. пособие. — Самара : Изд-во Самар. гос. экон. ун-та, 2019. - 204 с.
5. Лоуренс Хейвуд, “Индивидуальное обучение – что это такое и стоит ли оно того? (5 шагов)” публичные события, январь 11 2023. https://ahaslides.com/ru/blog/individualised-learning/
6. Asqarova M. R.”Talabalarda taqqoslash usuli yordamida ekologik dunyoqarashni shakllantirish metodikasi.” "Экономика и социум" №12(115) 2023 www.iupr.ru
6. M.Asqarova “Ekologik ta'lim tarbiyani olib borilishi: Singapur tajribasi” european jornal of interdisciplinary reseearch and Development 9 2022 y.
7. M.Asqarova.”Wonderful Insects” Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical DevelopmentsPCJPD: Volume 2 Issue 4, Apri 2024 106- 112.

JISMONIY MADANIYATNING PEDAGOGIK FUNKSIYALARINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA SPORT TURIZMINING O`ZIGA XOS JIHATLARI

NAZAROV ANVARJON TURG`UNBOYEVICH
University of Business and Science dotsenti v.b., PhD

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo‘lajak jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarini sport turizmiga doir bilimlarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari hamda bo‘lajak jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarining sport turizmiga doir bilimlarini rivojlantirish tizimi o`rganilgan. Shuningdek, jismoniy madaniyatning pedagogik funktsiyalarini samarali tashkil etishda sport turizmining o`ziga xos jihatlari tahlil qilingan.

Аннотация: В данной статье изучены теоретико-методологические основы формирования знаний будущих учителей физкультуры о туризме и система формирования знаний будущих учителей физкультуры о спортивном туризме. Также анализируются концептуальные основы понятий, связанных со спортивным туризмом.

Abstract: In this article, the theoretical-methodological foundations of developing the knowledge of future physical education teachers about tourism and the system of developing the knowledge of future physical education teachers about sports tourism have been studied. Also, the conceptual bases of concepts related to sports tourism are analyzed.

Kalit so‘zlar: jismoniy tarbiya, sport, turizm, sport turizmi, kasbiy faoliyat, tayyorlash, komponent, empirik, pedagogik xususiyat, metodologiya.

Ключевые слова: физическое воспитание, спорт, туризм, спортивный туризм, профессиональная деятельность, подготовка, компонент, эмпирическая, педагогическая особенность, методология.

Key words: physical education, sport, tourism, sports tourism, professional activity, training, component, empirical, pedagogical feature, methodology.

KIRISH. Jismoniy madaniyat - tayanch, ko‘p komponentli quyi tizim sifatida qaraladi. Jismoniy madaniyat qisman sport va turizmning quyi tizimlarini o‘z ichiga oladi, chunki ular jismoniy madaniyatga xos funktsiyalarga ega. Jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish turizmi umumiy jismoniy madaniyat asoslarini nazariy ishlanmalarida faol turizm uning fon turlariga, xususan, rekreatsion jismoniy madaniyatga taalluqlidir. Shu bilan birga, jismoniy rekreatsiya jismoniy madaniyatning bir turi sifatida qaraladi: insonlarning faol dam olishlari, ushbu jarayondan zavqlanishlari, ko‘ngil ochishlari, bir faoliyat turidan boshqasiga o‘tishlari, oddiy mehnat, maishiy, sport, harbiy faoliyat turlaridan chalg‘ishlari uchun jismoniy mashqlar, shuningdek, sportning soddalashtirilgan shakllaridan foydalanish hisoblanadi. Jismoniy rekreatsiya jismoniy madaniyatning ommaviy shakllarining asosiy mazmuni bo‘lib, rekreatsion faoliyatdir. Rekreatsion jismoniy madaniyat vositalari, shu jumladan jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish turizmi faol dam olishda keng qo‘llaniladi va zamonaviy insonning sog‘lom turmush tarzining asosi hisoblanadi. Jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish turizmida birlashtirilgan va rekreatsion jismoniy madaniyatga tegishli bo‘lgan faol turizmning ko‘plab turlari mavjud.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining kasbiy mahoratini rivojlantirish, sportchilarda ma’naviy qadriyatlarni shakllantirish ishlarini

samarali tashkil qilishga doir ko`plab tadqiqotlar olib borilgan Jumladan, tadqiqotchilar A.N.Abdiyev, R.S.Salomov, R.D.Xalmuxamedovlar jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining jismonan, aqlan rivojlanishida texnik, taktik, aqliy, funksional jihatdan tayyorgarlik jihatlarini; N.N.To‘xtaboyev, A.N.Shopulatov, S.S.Tajibayev, F.Kerimov, R.Abdumalikov, A.Muzaffarov, A.Mirzayev, A.Xudoyorovlar harakatli o‘yinlardan foydalangan holda sport mutaxassislarini tayyorgarligini oshirish bo`yicha tadqiqotlar olib borishgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Rekreatsion turizm maqsadli funksiyaga ega - turizm orqali insonning jismoniy va aqliy kuchini tiklash, faol dam olish va reabilitatsiya rejimida qo‘llaniladi, shuning uchun u ko‘pincha sog‘lomlashtiruvchi deb ataladi va jismoniy faoliyatning fon turi deb hisoblanadi.

Sarguzashtli turizm jahon sayyohlik tashkiloti tomonidan keng tushuncha (adventuretourism) sifatida ta’riflangan bo‘lib, u ham ekoturizmni, ham sport turizmi elementlarini o‘z ichiga oladi. Sarguzasht turizmining o‘ziga xos xususiyatlari sarguzasht tushunchasini hayotdagi kutilmagan voqea-hodisa degan ta’rifidan aniq ko‘rinadi. Masalan, “Turizm ensiklopediyasi”da sarguzasht sayohati - bu kutilmagan hodisalar ehtimoli bor qiyin marshrutni bosib o‘tish, sarguzashtga bo‘lgan ishtiyoqni qondirish, o‘zini kuchli shaxs sifatida namoyish etish maqsadida tashkil etilgan turistik sayohat deb ta’riflangan. Sarguzashtli sayohatlarda faqat yetarlicha tayyorgarlikka ega va yaxshi jihozlangan tajribali sayyohlar ishtirok etishi mumkin . Sarguzashtli sayohatlarni tashkil qilishda ishtirokchilar xavfsizligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratiladi.

Ekologik turizm tabiatni muhofaza qilish va madaniy-tarixiy meros nuqtai nazaridan ham, turistik hududlarning iqtisodiy rivojlanishi nuqtai nazaridan ham turistlarning atrof-muhit, mahalliy aholi va turizm industriyasi bilan o‘zaro munosabatlarining o‘ziga xos xususiyatlariga ega. Ekoturizm - ommaviy turizmning atrof-muhitga salbiy ta’sirini minimallashtirish, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni moliyalashtirish va mahalliy aholi uchun daromad manbalarini yaratish uchun ongli ravishda harakat qiladigan faol turizm shakllari hisoblanadi. Jahon amaliyotida ekoturizm alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda (qo‘riqxonalar, milliy va hududiy tabiat bog‘lari, qo‘riqxonalar va boshqalar) rivojlanadi.

Kasbiy-amaliy turizm maqsadli funktsiyasi - turizm orqali kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni oshirish, o‘zining ta’lim va kasbiy-amaliy maqsadlariga erishish uchun sport turizmining texnika va texnologiyalaridan foydalanadi.

Reabilitatsiya turizmi maqsadli funktsiyasi - turizm yordamida ma’lum kasalliklarni davolash mumkin. Shu bilan birga, turistlarning turli xil yashash joylarining iqlim sharoiti, shifobaxsh buloqlar, yurish paytida ma’lum jismoniy mashqlar bajarish va boshqalar qo‘llaniladi .

Adaptiv turizm, uning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u nogironlar yoki ma’lum nogironligi bo‘lgan shaxslar tomonidan ularning motivatsiyasi va jismoniy imkoniyatlarini hisobga olgan holda maxsus ishlab chiqilgan dasturlarga muvofiq sport-ko‘ngilochar va boshqa poxod va sayohatlarni amalga oshirishi mumkin.

Sport-sog‘lomlashtirish turizmi jismoniy madaniyatning turli tarkibiy qismlari bilan o‘zaro bog‘liqdir. Bazaviy jismoniy madaniyatda jismoniy tarbiya va sog‘lomlashtirish turizmi yoshlar turizmi, professional va amaliy jismoniy

Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyat tushunchalarini rivojlanish markazlar faoliyatlarida takomillashtirishning amaliyotdagi holatini tahlili quyidagicha xulosa qilish imkonini berdi. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturida o‘quv-tarbiyaviy faoliyat guruhning kun tartibiga tayanadi va unda pedagog-tarbiyachi tomonidan rejalashtirilgan kundalik harakatlar aks ettiriladi[8]. Bolalar o‘yinlari, bo‘sh vaqt va o‘quv-tarbiyaviy faoliyat turlari navbatma-navbat amalga oshiriladi. Guruhda tashkil etilgan rivojlantiruvchi muhitning asosiy mazmuni madaniy-tarixiy qadriyatlar, milliy va vatanparvarlik burchaklari, milliy va mintaqaviy an’analar, tabiat, iqlimdan kelib chiquvchi xususiyatlarga boy bo‘lishi, bolada birlamchi dunyoqarash asoslarini shakllantirishi, bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuviga yordam berishi lozimligi bilan belgilangan[9].

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining kundalik faoliyati, ya’ni kun davomidagi bajaradigan ishlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, bolalarga milliy qadriyatning qaysi usul va uslublar bilan singdirib borilayotganligini ko‘ramiz.

Ertalabki soatlar: Tarbiyachi tomonidan har bir bolani kulib kutib olish, unga iliq munosabatda bo‘lish, do‘stlari bilan birgalikda o‘yinga chorlash, turli mavzulardagi suhbatlar olib boriladiki, ular asosida bolalarda tevarak atrofdagi insonlar, predmetlar, tabiat xodisalariga, yashayotgan hududiga, uning tabiatiga bo‘lgan mehrlari kuchaytiriladi.

Frontal mashg‘ulotlarda: “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturida mashg‘ulot soatlari berilgan bo‘lsada, har bir soatga aynan alohida mavzular berilmagan. Frontal, ya’ni umumiy guruh bilan ishlash jarayonida mavzular rivojlanish markazlari uchun berilgan hafta mavzularidan kelib chiqib olinadi.

Mavzularni tanlash tarbiyachilarning o‘zlariga, ijodiy yondoshishga qoldirilgan. Bu bilan har bir maktabgacha ta’lim tashkiloti o‘zining ishchi dasturini yaratishi belgilangan. Ishchi dasturlarni yaratishga qo‘yilgan talblarning biri bu – o‘z hududidagi milliy qadriyatlar, milliy boyliklar, tarixiy obidalar, buyuk insonlar bilan tanishtirishdir. Demak, frontal mashg‘ulotlarga olinadigan mavzular ham bolalarda milliy qadriyat tushunchalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan.

Rivojlanish markazlari: ushbu markazlarda berilgan 9 ta oy mavzusini tahlil qilar ekanmiz, har bir oyda milliylikka, milliy tarbiya berishga chaqiruvchi turli mavzular borligini ko‘ramiz. Bu mavzularni sentabr oyida rejalashtirilgan “O‘zbekiston – mening Vatanim” oylik mavzuli rejaning birinchi haftasiga belgilangan “Mening shahrim – mening mahallam” mavzusini o‘rgatishda “Loyihalashtirish texnologiyasi” asosida lego jamlamalaridan osmono‘par minoralarni qurish, tarixiy minoralar va ularni yaratilish texnologiyalari haqidagi tushunchalar takomillashadi.

“3D sayohat texnalogiyasi” yordamida Vatanimizning qadimiy shaharlariga sayohat uyushtirish, Samarqand, Buxoro,

8 Государственная учебная программа для дошкольных образовательных организаций Республики Узбекистан “Ilk qadam” – 2022. – С. 19-103.

9 Нишанова З.Т., Алимбаева Sh., Атабаева N.B., Байкунусова Г.Ю. // Shaxs tarbiyasida milliy xususiyatlarni rivojlantirishning uslubiy jihatlari. T. 2019. С. 38-64.

Xiva kabi shaharlar haqidagi yangi bilimlar beriladi, inson tug‘ilib o‘sgan joy uning Vatani ekanligi, “Vatan ostonadan boshlanadi” degan hikmatli iboraning mazmun-mohiyati, har bir inson Vatanini sevishi, ardoqlashi, himoya qilishi zarur ekanligi tushuntirib boriladi.

Oktabr oyida “Kuz bo‘yoqlari” mavzusi berilgan bo‘lib, oyning uchinchi haftasiga berilgan “Non rizq-ro‘zimiz” kichik mavzusini “AKT texnalogiyasi” orqali “Boshoqdan nongacha” video lavhani namoyish qilinadi. Bunda:

- nonning, ulug‘ ne‘mat ekanligi, inson mehnatining qadrliligi, ko‘plab insonlarning mehnati evaziga dasturxonga keltirilgan nonni hurmat qilish;

- non haqidagi maqol, rivoyat hamda multfilmlar asosida bolalarda nonning qadri haqidagi tushunchalari kengayadi, non tayorlash jarayoni, non mahsulotlari turlari, shuningdek, bugungi kunda dunyoning ayrim mamlakatlarida odamlar hatto to‘yib non yeya olmayotganligini, shuning uchun ham nonni asrab-avaylash zarurligi uqtiriladi.

Noyabr oyining to‘rtinchi haftasiga rejalashtirilgan “Bizning xayrli (ezgu) ishlarimiz” mavzusini “SWOT-texnologiyasi” yordamida tahlil qilish natijasida xayrli ish va ezgulik tushunchalarining mazmuni, yaxshini yomondan farqlash, har qanday yaxshilik albatta yaxshilik bilan mukofatlanishi yetkaziladi. (Oltin tarvuz misolida)

Dekabr oyida “Sog‘ tanda – sog‘lom aql” mavzusini “O‘yin texnalogiyasi” asosida “Besh tosh”, “Tortishmachoq”, “Bekinmachoq”, ”Sumalak”, “Chillak” kabi milliy harakati o‘yinlar orqali ularda milliy o‘yinlarga qiziqish uyg‘otiladi. milliy harakatli o‘yinlarni tashkil etish orqali tarbiyalanuvchilarda inson salomatligining ahamiyati, jismoniy rivojlanishning muhimligi singdiriladi. Yangi yil archa bayram tadbirlarini tashkil etilishi, bolalarda dunyo mamlakatlarida qorboboning turlicha nomlanishi (США – Santa-Klaus, Россия– Deda-Moroz, Казахстан – Ayaz ata, Румыния – Мош Джарилэ, Голландия – Синте-Клаас, Вайнахтсман – Германия, Пер Ноэл – Франция, Фазер Кристмас – Великобритании) to‘g‘risidagi tasavvurlarni hosil qiladi.

Yanvar oyida Vatan himoyachilari kunini nishonlashda “Meeting metodi” orqali bolalarda vatanparvarlik, vatan hududini himoya qilish, o‘z armiyasi bilan fahrlanish hissi tarbiyalanadi. Harbiy kiyimlar va harbiy unvonlar haqida tushunchalar beriladi, mardlik, jasurlik tuyg‘ulari shaklantiriladi.

Bolalarga “Xushmuomalalik alifbosi” mavzusini yetkazishda “Nima yaxshi-yu, nima yomon”, “Yaxshi xulq”, “Sehrli so‘z”, “Mehr ulash”, “Ezgulik guli” ta’limiy o‘yinlari vositasida kattalarga hurmat, kichiklarga izzatda bo‘lish xususiyatlari uyg‘otiladi. Bolalar xushmuomalalikga o‘rgatiladi, ijobiy va salbiy odatlar, yaxshilik va yomonlik tushunchalarining nazmuni singdiriladi.

Fevral oyida “Dunyo mamlakatlari” mavzusida “3D sayohat” texnalogiyasi yordamida bolalar qo‘shni mamlakatlarga vertual sayohatga chiqib, nafaqat o‘zi yashab turgan mamalakat haqida, balki dunyo mamlakatlari to‘g‘risida ham ma‘lumotlar oladilar, boshqa turli mamlakatlarning turmush tarzi, madaniyati, ma’naviyati haqida tushunchalarga ega bo‘ladilar.

“Ko‘rgazmalilik metodi” orqali “O‘zbekistonning buyuk arboblari” mavzisidagi tadbirlar bolalarga ajdodlarimiz

orasidan yetishib chiqqan buyuk siymolar tanishtiriladi, hamda ajdodlarimizning hayoti va ularning faoliyati haqida tushunchaga ega bo‘ladilar.

“Xotin-qizlar kuni” butun dunyoda ayollarga e’zoz ko‘rsatish kuni sifatida e’tirof qilinadi. MTTda shu sanaga bag‘ishlangan bayram kechalarida, “ART texnalogiyasi” yordamida “Onalar portreti”ni tasvirlash, bolalarda onalarga ehtirom, opa-singillarga hurmat kabi xislatlarni tarbiyalaydi. Har bir bola o‘z onasi siymosida o‘zbek ayollarini timsolini kash etadilar. Ona mehri, ayol, sha’ni haqida tushunchalari boyitiladi.

“Navro‘z” qadimdan Sharq mamlakatlarida yilning almashinuvi, yosharish va yangilanish bayrami sifatida nishonlangan. Mart oyida tashkil qilinadigan tadbirlar ham bolalarga ajdodlarimizdan meros bo‘lib qolgan milliy an’ana, udumlar, urf-odatlarni asrab-avaylashni, ularga amal qilishni o‘rgatiladi.

“Milliy bayram sayli” davomida milliy xalq o‘yinlari, musobaqalari, milliy taomlar, milliy qo‘shiq va raqslar vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy ruh tarbiyalanadi.

Aprel oyida “Experience” texnologiyasi yordamida “Koinot sirlari”, “Yer sayyorasi kuni”, “Tabiatni asrab avaylaylik” ruknlarida tashkil qilinadigan turli tajribalar o‘tkazish, viktorina, o‘yin, va suhbatlar tashkil qilish, ona tabiat ne’matlarini sevish, asrab-avaylash, ulardan oqilona foydalanish kabi xususiyatlar shakllantiriladi. Bolalarda tabiatni asrash, unga ehtiyotkorona munosabtda bo‘lish, kundalik ob-havoni o‘rganish, turli tabiat xodisalari haqidagi tushunchalar kengaytiriladi.

May oyida “Xotira va qadrlash kuni” mavzusida mahalladagi qariyalar, mehnat va urush veteranlari bilan uchrashuvlar tashkil qilish orqali ularning bosib o‘tgan yo‘llari va vatanimizning mustaqillikka erishishdagi mashaqqatlari, o‘z milliy mafkurasini yo‘qotmaganligi haqida bilimlarga ega bo‘ladi.

“Meeting metodi” orqali bolalarga milliy qadriyat tuyg‘ulari singdirib borilib, shunday farovon kunlarga yetib kelishimizga o‘z hissalarini qo‘shgan milliy qahramonlar (Avloniy, Qodiriy, Cho‘lpon, Ismoilbey Gaspirali, M. Behbudiy, Munavvarqori, Fitrat), shuningdek, insoniyat boshiga unutilmas kulfatlar solgan ikkinchi jahon urushida matonat ko‘rsatgan milliy va qardosh xalqlar qahramonlari (Sobir Rahimov, Qo‘chqor Turdiyev, Muqaddam Ashrapova) haqida ma‘lumotlar beriladi.

Xususan, qadriyatlar bilan bog‘liq muammolar jadidlarning diqqat markazida turgan, ular sharqona qadriyatlarning tahlili borasida ham qimmatli fikrlarni bayon qilganlar. Bu borada Abdulla Avloniy (1878-1937) alohida o‘rin tutadi. Uning «Turkiy guliston yohud ahloq» kitobida o‘ziga xos ma’naviy qadriyatlar tizimi ta’riflab berilgan. Asarda fatonat, nazofat, g‘ayrat, riyozat, shijoat, qanoat, ilm, sabr, intizom, miqyosi nafs, vijdon, vatanni sevmoq, haqqoniyat, nazari ibrat, iffat, hayo, idrok, zako, lafz, iqtisod, viqor, itoat, sadoqat, adolat, muhabbat, avf kabi qadriyatlar – “«xusni xulqlar” degan umumiy nom ostida tahlil qilinadi. «Yomon xulqlar»ga esa g‘azab, jaholat, razolat, adovat, hasosat, g‘iybat, haqorat, hasad, zulm kabi xususiyatlar misol bo‘ladi. Agar ushbu asarda tilga olingan qadriyat nomlariga diqqat qilinsa, o‘sha davrda yurtimizda ma’naviy tushunchalarning ko‘lami qanchalik keng bo‘lganligini, tilimizning naqadar boyligini kuzatish mumkin.

Rivojlanish markazlar faoliyatlarida

maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarda milliy qadriyat tushunchalarini tarbiyalashda pedagog-tarbiyachilar quyidagilarni maqsad qilib olishlari lozim, bunda:

1.O‘rganilayotgan mavzudagi milliy qahramonlarning vatanparvarligini namuna sifatida ko‘rsata olishni; (To‘maris, Shiroq, Amir Temur kabilar);

2. Mashhur allomalarning milliy qadriyat haqidagi fikr-mulohazalaridan samarali foydalana olishni;

3. E’tiqodsiz insonlarning hatti-harakati tufayli sodir bo‘lgan nohush voqealarning xalqimiz boshiga solgan musibatlari to‘g‘risida to‘laqonli ma’lumotlar berish orqali bolalarda mustahkam e’tiqodni vujudga kelishini ta’minlash.

Tarbiyalanuvchilarda milliy qadriyatga oid tushunchalarni egallashlariga ta’sir ko‘rsatadigan rivojlanish markazlaridagi faoliyatlar, mashg‘ulotlar, o‘yinlar, erkin mustaqil faoliyat; sayr va ekskursiyalar, tarbiyaviy va shaxslararo munosabatlar jarayoning o‘zaro aloqadorligi mazkur tashkiliy komponentlarning bog‘liqligi va birligi pedagogik jarayonning integrativ xususiyatga egaligini ifodalaydi. Shu bois, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish, aniqroq aytganda, ta’lim-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayoni mashg‘ulot, tadbir va kun davomidagi faoliyatlarni tashkil etishda noan’anaviy metodlardan foydalanish mavzuni bola ongiga qiziqarli hamda tushunarli darajada yetkazib berish maqsadida “Davlat ramzlari”, “Qo‘shni mamalakatlar”, “O‘zbekiston armiyasi”, “O‘zbekistonning tarixiy obidalari”, “Milliy urf-odatlar”, “O‘zbekistonning boyliklari”, “Milliy taomlar”, “Milliy hunarmandchilik”, “O‘zbekiston sporti”, “O‘zbekistonda mashinasozlik”, “O‘zbekistonning tarixiy shaharlari”, “O‘zbekistonning viloyatlari”, “Toshkent poytaxt shahar”, “O‘zbekistonning diqqatga sazovor joylari”, “Milliy kiyimlar”, “O‘zbekistonda san’at turlari”, “O‘zbekistonining hayvonot olami”, “O‘zbekistonning o‘simliklar dunyosi” kabi mavzularda ko‘rgazmali qurollar va mavzuni mustahkamlovchi ta’limiy o‘yinlar yaratish maqsadga muvofiqdir[10].

Rivojlanish markazlardagi faoliyatlar maktabga tayyorlov yoshdagi bolalarini milliy qadriyatlarni o‘rganish orqali ularda milliy qadriyat tushunchalarini shakllantirishga ko‘mak beradi. O‘tkazilayotgan tadbirlar tufayli bolalar yod olayotgan she’r, ashula, maqol, topishmoq va uyushtirilgan sayohatlar maktabga tayyorlov yoshdagi bolalarda milliy qadriyat tushunchalarini shakllantirish bilan birga milliy qadriyatlarga nisbatan milliy g‘urur, iftixor tuyg‘usini tarbiyalaydi, o‘zlariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi va burch tuyg‘usini hosil qiladi, bolalarning intellektual qobiliyatlarini yuzaga chiqarishga imkon beradi.

Xulosa va tavsiyalar. O‘quv dasturida belgilangan beshta “Rivojlanish markazlari”da olib boriladigan ta‘lim-tarbiya jarayonida bolalarga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish orqali maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchilarini ma’naviy barkamol avlod vakillari sifatida tarbiyalash va shakllantirishda qadr va qadrlash tuyg‘usi, qadryatlar tushinchasi, ularning mohiyati, mazmuni, namoyon bo‘lish shakillari to‘g‘risidagi

10 Қодиров А., Куронов М. ва бошқ. Бола маънавияти. Узлуксиз маънавий тарбия трилогияси // II қисм. 3-7 ёшли болаларни маънавий тарбиялаш бўйича қўлланма. – 2018. – Б. 176-268.

bilimlarning majmuasi bo‘lgan zamonaviy qadriyatshunoslikning asoslarini o‘rgatish nihoyatda muhim. Dasturda belgilangandek, bolaning kompetensiyalari bola rivojining quyidagi sohalarida belgilanadi:

- jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi
- ijtimoiy-hissiy rivojlanish
- nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari
- bilish jarayonining rivojlanishi
- ijodiy rivojlanish.

Ana shu sababdan ham umuninsoniyatning qadrlash me’yorlari borasida to‘plangan yutuqlarini umumlashtirilgan bilim sohalari imkoniyatidan foydalanish ta’lim-tarbiya samaradorligining asosiy mezonlaridan biridir.

Mavzu yuzasidan mavjud manbalarni tahlil qilish, o‘tkazilgan tajribalar asosida olingan xulosalardan kelib chiqib quyidagi tavsiyalarni taqdim qilamiz.

- maktabgacha yoshdagi bolalarga milliy qadriyatlar asosida ta‘lim-tarbiya berish samaradorligini oshirish uchun maktabgacha ta‘lim tashkilotlari pedagoglariga mo‘ljallangan metodik adabiyotlarni ishlab chiqish;

- maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashda ularning ma’naviy-axloqiy tushunchalarni egallashga bo’lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, ma’naviy-axloqiy ongni qaror toptirishga qaratilgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar ko‘lamini kengaytirish

- maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlar asosida ijobiy mazmundagi ma’naviy-axloqiy sifatlar (vatanparvarlik, mehnatsevarlik, go’zallikni his qilish, rostgo’ylik, ozodalik, o’zaro do’stlik, ahillik , shirinso‘zlik, saxiylik, jasurlik va hakozolar)ni qaror toptirishda turli xorijiy tajribalardan samarali foydalanish.

- maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga milliy qadriyatlar asosida ta’lim-tarbiya berish samaradorligini oshirishga to‘sqinlik qiladigan pedagogik muammolarni hal qilishga qaratilgan tadqiqot ishlari ko‘lamini kengaytirish

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Постановление Президента Республики Узбекистан Мирзиёева Ш.М. от 29 декабря 2016 г. № ПП-2707, “О мерах по дальнейшему совершенствованию системы дошкольного образования в 2017-2021 гг” – 2016 – С. 1-3.
2. Закон Республики Узбекистан от 8 мая 2019 года № ПП-4312, ”Об утверждении концепции развития системы дошкольного образования Республики Узбекистан до 2030 года”. – 2019. – С. 145-178.
3. Закон Республики Узбекистан от 16 декабря 2019 года № ЗРУ -595, ”О дошкольном образовании и воспитании“.– 2019. – С.9-19.
4. Закон Республики Узбекистан от 23 сентября 2020 года № ЗРУ-637 “Об образовании” – 2020 – С. 3-4.
5. Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60, “О стратегии развития нового Узбекистана на 2022 — 2026 годы”.– 2022. – С. 145-178.
6. Gaynazarova, G. A., & qizi Gulomiddinova, A. K. (2024, March). MILLIY XALQ O ‘YINLARINING BOLALAR HAYOTIDA TUTGAN O ‘RNI. In Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies (Vol. 3, No. 3, pp. 54-58).
7. Gaynazarova, G. A., & qizi Gulomiddinova, A. K. (2024, March). MILLIY XALQ O ‘YINLARINING BOLALAR HAYOTIDA TUTGAN O ‘RNI. In Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies (Vol. 3, No. 3, pp. 54-58).
8. Gaynazarova, G. A., & o‘g‘li Pozilov, H. I. (2024, March). TARBIYA–ZIROATGOH, HOSILI–BILIM JADID PEDAGOGIKASIDA “TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ” ASARI. In Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies (Vol. 3, No. 3, pp. 133-138).
9. Намазбаева, Л. З. (2024, March). INTRODUCTION OF NATIONAL VALUES IN THE PROCESS OF UPBRINGING AND EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN. In Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities (Vol. 3, No. 4, pp. 129-132).
10. Государственная учебная программа для дошкольных образовательных организаций Республики Узбекистан “Ilk qadam” – 2022. – С. 19-103.
11. Нишанова З.Т., Алимбаева Sh., Атабаева N.B., Байкунусова Г.Ю. // Shaxs tarbiyasida milliy xususiyatlarni rivojlantirishning uslubiy jihatlari. Т. 2019. С. 38-64.
12. Қодиров А., Қуронов М. ва бошқ. Бола маънавияти. Узлуксиз маънавий тарбия трилогияси // II қисм. 3-7 ёшли болаларни маънавий тарбиялаш бўйича қўлланма. – 2018. – Б. 176-268.

INTEGRATSION YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH SAMARDORLIGI

KAMALOVA GAVHAR AKBAROVNA
Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lim fakulteti "Maktabgacha ta'lim texnologiyasi kaferdasi" o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada bo'lajak mutaxassislarni integrativ yondashuv asosida kasbiy kompetentligini rivojlantirish, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish samardorligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: mutaxassis, integratsiya, malaka, pedagogik kuzatuv, raqobat,innovatsiya.

Аннотация: В данной статье освещается эффективность формирования профессиональной компетентности, действенная организация педагогической деятельности на основе интегративного подхода к будущим специалистам.

Ключевые слова: специалист, интеграция, квалификация, педагогическое наблюдение, конкуренция, инновация.

Annotation: This article highlights the effectiveness of the formation of professional competence, the effective organization of pedagogical activity based on an integrative approach to future specialists.

Keywords: specialist, integration, qualification, pedagogical supervision, competition, innovation.

Ma'lumki, bo'lajak mutaxassislarni integrativ yondashuv asosida kasbiy kompetentligini rivojlantirishda, birinchi navbatda shu sohaga doir maxsus bilimga ega bo'lishlari kerak. Lekin bu bilim, talabalar uchun yetarli emas albatta, chunki sohada kuchli raqobat mavjud bo'lish mumkin. Shuning uchun talabalar pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish va olib borish uchun kerakli bilim, ko'nikma hamda malakalarni egallashlari kerak bo'ladi. Biz tomonimizdan o'tkazilgan tadqiqot jarayonida muammoning amaldagi holatini o'rganish, ma'lumotlarni tahlil etish, belgilangan xulosalar asosida umumiy holatga baho berishga yo'naltirilgan amaliy faoliyat muhim hisoblandi.

Tajriba-sinov ishlarini tashkil etishda asosiy e'tibor quyidagilarga qaratildi:

1. Amaliy faoliyat jarayonida pedagogik kuzatuv ishini tashkil etish;

2. Tadqiq etilayotgan muammoning nazariy va amaliy jihatdan o'rganilganlik holatini aniqlash maqsadida suhbatlar tashkil etish;

3. Anketa va test so'rovnomalarini o'tkazish;

4. Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishda auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar mazmunini tashkil etuvchi omillarni aniqlash;

5. Muammoga doir manbalarni o'rganish;

6. Bo'lajak tarbiyachilar o'rtasida o'tkazilgan anketa va so'rovnomalar natijasida tadqiqot faoliyatini yanada boyitish;

7. Bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishning metod va vositalarini aniqlash.

Tadqiqot jarayonida qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun o'quv jarayonida tajribali tarbiyachilarning fikr-mulohazalaridan foydalanildi.

Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish bo'yicha tajriba-sinov ishi uchta asosiy: tayorgarlik-

ta’kidlovchi, rivojlantiruvchi va yakuniy bosqichni o‘z ichiga oldi.

Tayyorgarlik-ta’kidlovchi (2022-o‘quv yili) bosqichda integrativ yondashuv asosida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentlik darajasini tadqiq etish uchun tezkor kirish tashxis uslublari (suhbat, so‘rov o‘tkazish,testlar, elektron diagnostik baholash usuli) qo‘llanildi.

Rivojlantiruvchi (2023-o‘quv yili) bosqichida integrativ yondashuv asosida bo‘lajak mutaxassislarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga asoslangan dasturlar ishlab chiqildi. Mazkur dasturni amalga oshirish uchun talabalarni amaliy faoliyatga jalb qilish nazarda tutildi.

Yakunlovchi (2024-o‘quv yili) hisoblangan umumlashtiruvchi bosqichda kasbiy kompetentlikning ko‘rsatkichlarini qayta o‘lchash hamda ularni “Dastlabki kirish tashxis”da olingan ko‘rsatkichlar bilan qiyoslash amalga oshirildi. Ushbu bosqichda tadqiqot natijalarini matematik-statistik usullardan foydalangan holda qayta ishlash, tahlil qilish, umumlashtirish amalga oshirildi. Kurslar tavsiflandi va eksperimental ish natijalari muhokama qilindi.

Amaliy faoliyat samarasini ta’minlash maqsadida dastlabki, asoslovchi tajriba ishlari muayyan loyiha asosida olib borildi.

Nazariy asosi hisoblangan loyihaning mazmun va mohiyati:

Tashkiliy tayyorgarlik bosqichi:

- dastlab, tajriba-sinov ishlarini amalga oshiruvchi omillar aniqlandi;

- tajriba-sinov ishlarini yo‘lga qo‘yish uchun tajriba maydonlari tanlab olindi;

- tajriba-sinov ishlarining sub’ekti sifatida oliy ta’lim muassasalarining maktabgacha ta’lim yo‘nalishlari talabalari aniqlandi. Ular tasodifiy tanlov asosida tajriba va nazorat guruhiga ajratildi;

- tanlangan ob’ektlarda muammo yuzasidan tashkil etiladigan sinov ishlarining izchil va uzviyligini ta’minlovchi mas’ul shaxslar (ijodiy guruh) belgilandi;

- tajriba-sinov uchun dastlabki metodik ishlanmalar tayyorlanib, kasbiy kompetentlikni takomillashtirish imkoniyatlari nazariy jihatdan tahlil etildi;

- integrativ yondashuv asosida bo‘lajak mutaxassislarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda auditoriyadan tashqari mashg’ulotlarning ahamiyati va kasbiy kompetentlikning rivojlangalik darajalari diagnostik baholash dasturi, sotsiologik so‘rovlar, (metodika, anketa, test, suhbat, anketa, test, metodika) orqali aniqlandi.

Tadqiqotni amalga oshirishda empirik va nazariy tahlil asosida ish ko‘rildi.

Jumladan, empirik tadqiqot jarayonida:

- Bo‘lajak tarbiyachilar va tajribali tarbiyachilar faoliyatining o‘zaro aloqasi yuzaga keltirildi;

- Bo‘lajak tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda tadqiqot maqsadi tomon yo‘naltirildi;

- olingan natijalar asosida muayyan tavsiyalar ishlab chiqildi.

Mazkur ish tartibi talabalar bilan auditoriya mashg’ulotlari jarayonida amalga oshirildi. Shu asosda, kasbiy kompetentlikning o‘sish ko‘rsatkichlarini belgilandi. Ularning rivojlanganlik darajasini baholash uslubi ishlab chiqildi.

Kompetentlik mohiyatiga nisbatan mavjud ilmiy-nazariy qarashlarga ko‘ra, bo‘lajak tarbiyachilarning integrativ yondashuv asosida kasbiy kompetentligini asosiy komponenti rivojlanganlik ko‘rsatkichlari sifatida quyidagilarni tavsiya qilindi:

1) kompetentlikni namoyon etishga tayyor ekanlik, ya’ni motivatsiyaga oid jihati;

2) kompetentlik mazmuniga oid bilimlarning egallanganligi, ya’ni kognitiv jihat;

3) turli odatiy va noodatiy holatlarda

kompetentlikni namoyon qilishi, ya’ni amaliy jihati;

4) kasbiy faoliyatda o‘zini o‘zi baholash usullarini bilishi, refleksiv jihat.

Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda motivatsion komponent yetarli darajada faollikni ta’minlash uchun zarur hisoblanadi. Bunda motivlarning hususiyatlarini hisobga olish, bo‘lajak tarbiyachilarning o‘z pedagogik faoliyatiga nisbatan ijobiy ehtiyoj va kasbidan qoniqish xosil qilish darajasini aniqlash, ularda o‘z-o‘zini uzluksiz kasbiy rivojlantirishga oid motivlarni shakllantirish, kasbiy o‘sishga nisbatan munosabatini yaxshilash, o‘z-o‘zini ob’ektiv baholash ko‘nikmalarini ta’minlovchi refleksiv yondashuvni tashkil etish muhim hisoblanadi.

Shu bilan birga, mazkur komponent kasbiy ahamiyatga molik motivlarning dolzarbligini aks ettirib, shaxsning kasbiy yo‘nalishidagi o‘z-o‘zini takomillashtirishga bo‘lgan uzluksiz ehtiyoj darajasini ifodalaydi.

Shu bilan birga, kasbiy faoliyatga bo‘lgan motivatsiyani aniqlash, pedagogik faoliyatda kasbiy o‘sishga intilish, o‘z kasbiy sohasidagi kompetentsiyalarni mustaqil rivojlantirish, o‘z-o‘zini namoyon qilishga bo‘lgan motivatsiya yetakchi o‘rinni egallaydi.

Tadqiqot jarayonida bo‘lajak tarbiyachi kompetentligining kognitiv komponenti bo‘yicha tayyorgarlik holatini aniqlash uchun savolnoma, kasbiy bilimga bo‘lgan qobiliyatini baholash uchun testlar o‘tkazildi. Pedagogning kasbiy kompetentligidagi kognitiv komponentni aniqlash uchun o‘tkazilgan so‘rovnamada 53% ishtirokchida kasbiy kompetentsiyaning kognitiv tarkibiy qismining yuqori darajada shakllanganligi, 21% o‘rtacha daraja, 26% respondentda esa o‘rganilayotgan komponentning o‘rtacha darajadan past darajadagi shakllanganligini ko‘rsatdi.

“Bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari” mavzusida savolnoma orqali bo‘lajak tarbiyachilarning o‘z-o‘zini anglash va o‘zini shaxsiy faoliyatini baholash ko‘nikmalari rivojlanganlik darajalari aniqlandi.

Faoliyat sifatida u o‘zida uzluksizlik (zaruratgako‘ratakrorlanuvchi)motivatsiyalar sikli, loyihalarni amalga oshirish va o‘z-o‘zini baholash, kasbiy-professional faoliyat natijalarini namoyon etadi. O‘z-o‘zini tashkil etish strukturasida, qiyinchiliklarning haqiqiy sharoitlari sabablarini tanqidiy qayta loyihalashni, shuningdek, ularni bartaraf etishning mumkin bo‘lgan yo‘llarini qadriyatli-maqsadli va kontseptual baholash yo‘llarini ta’minlovchi refleksiv komponent asosiy bo‘lib hisoblanadi.

Shuningdek, integrativ yondashuv asosida bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetenentligini aniqlash va ularni rivojlantirish, o‘z-o‘zini tahlil etish va baholash imkoniyati aniqlandi (1-jadvalga qarang).

Ushbu jadvalda o‘zini-o‘zi baholash oson kechdi. Erishilgan yutuqlar soni o‘zini-o‘zi rivojlantirish vazifalariga nisbatan ko‘p (1 dan katta) bo‘lsa, u holda bo‘lajak talabalarda yuqori darajada kasbiy kompetentlilikni namoyon etadi. Agar, yutuqlar va belgilangan o‘zini o‘zi rivojlantirish vazifalari o‘zaro (1 ga) teng bo‘lsa, natijada u o‘zida o‘rta darajadagi kasbiy kompetenlikni ifodalaydi. Keltirilgan yutuqlar hajmi belgilangan rivojlantirish vazifalaridan kam (1 dan kichik yoki 0 ga teng) bo‘lsa, bo‘lajak mutaxassislarda kasbiy kompetentlik darajasi past hisoblanadi. Bu esa bo‘lajak tarbyachilardan o‘z kasbiy kompetentliligini rivojlantirishga jiddiy e’tibor berishini talab qiladi.

Shunday qilib, dastlabki ko‘rsatkichlardan shu narsa namoyon bo‘ldiki, integrativ yondashuv asosida bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun

1-jadval

Bo‘lajak tarbiyachilarning o‘z-o‘zini baholashi

№	Mavjud yutuqlar	O‘z-o‘zini rivojlantirish vazifalari	Kutilayotgan natija
1.	Fani bo’yicha nazariy bilimga ega	Mavjud nazariy bilimlarni bolalarga yetkazish metodikasi	Bo‘lajak tarbiyachilarda fanga oid kompetentsiyani shakllantirish ko‘rsatkichi
2.	AKT bilan ishlay oladi	Multimedia, dasturlar yarata olishi	Bo‘lajak tarbiyachilarda AKT savodxonligi kompetentsiyani shakllantirish ko‘rsatkichi
3.	Bolalar bilan muloqotga kirisha olishi	Tarbiyasi og’ir bolalar bilan ishlash metodikasi	Bo‘lajak tarbiyachilarda kommunikativ kompetentsiyani shakllantirish ko‘rsatkichi
4.	Me’yoriy xujjatlar bilan ishlay oladi	Prezident qaror va farmonlari, huquqiy me’yoriy xujjatlar bilan ishlash	Bo‘lajak tarbiyachilarda ijtimoiy savodxonlik kompetentsiyani shakllantirish ko‘rsatkichi

yetarli darajada ijtimoiy va kasbiy ko‘nikmalar mavjud emas. Bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, shart-sharoitlarni doimiy ravishda takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Tajriba-sinov ishining tayorgarlik-ta’kidlovchi bosqichida olingan test, anketa, savolnoma, metodika va boshqa usullar orqali bo‘lajak tarbiyachilarning integrativ yondashuv asosida kasbiy kompetentligini rivojlanganlik darajalari aniqlab olindi. Maqsadga asoslanib, bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun innovatsion texnologiyalar ishlab chiqildi.

Ishlab chiqilgan texnologiyalar bo‘lajak tarbiyachilarning individual-psixologik xususiyatlari, kasbiy tayyorgarliklari asosida yaratildi. Mazkur texnologiyalar bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy motivatsiya, o‘z-o‘zini anglash va o‘z ustida ishlash, kasbiy o‘sishga intilish va faoliyat mobaynida yuksalish, o‘z-o‘zini tahlil qilish va baholash kabi pedagogik xususiyatlar namoyon bo‘lishiga yordam beradi.

Pedagogik eksperimentning birinchi davrida 2022-o‘quv yilida o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida nazorat va eksperiment guruhlarida bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlanganlik ko‘rsatkichi qoniqarli darajada emasligi aniqlandi. Pedagogik eksperimentning birinchi davrida o‘tkazilgan test natijalari qoniqarsiz natijalar ko‘rsatdi.

Tajriba–sinovning ikkinchi shakllantiruvchi bosqichida 2022-o‘quv yilida

tadqiqot davomida yaratilgan innovatsion metodlarning murakkablik darajasi nisbatan yuqori bo‘lgan stretegiyalardan foydalanildi.

Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda seminar-trening, mahorat darsi, davra suhbati, mustaqil ta’lim, vebinar, onlayn muloqot, kursdan keyingi faoliyatni olib borish kabi auditoriya mashg’ulotlarida innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etilib, o‘rganilgan materiallar kursdan keyingi faoliyatlarida qo’llashlari uchun asos bo‘ldi.

Pedagogik eksperimentning uchinchi bosqichi 2023-o‘quv yilida tajriba-sinov jarayonida ta’lim natijalarini muntazam tekshirib ko‘rish bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyoj hissini kuchaytirdi.

Tajriba-sinov jarayonida tanlangan muammolarni yanada chuqurroq o‘rganib chiqish uchun tadqiqot metodlaridan biri bo’lgan sinov usulini qo‘llandi va uni quyidagi vazifalarni hal etishga qaratildi:

1. Ishchi tahminlarning to‘g’riligini tekshirish.

2. Taklif etilayotgan tavsiyalarning samaradorligini, ularni bo‘lajak mutaxassislarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishni amaliyotga joriy etish orqali aniqlandi.

3. Kasbiy kompetentligini rivojlantirishning tizimli-funktsional modelini amaliyotga joriy etish orqali diagnostika tahlillash.

4. Yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan kamchiliklarni aniqlash va ularni o’z vaqtida bartaraf etish usullarini topish.

5. Kasbiy kompetentlikni tavsiflash darajasi va mezonlarining samaradorligini aniqlash.

Belgilangan vazifalar asosida bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun olib borilgan tadqiqot ishi tahlil etildi. Pedagogik eksperimentning uchinchi bosqichida ishlab chiqilgan anketa, savollar, elektron diagnostik baholash dasturi, metodikalar, onlayn test ishlarini va ularni to‘g’ri tashkil etish, uslubiyotini tartibga solish bilan yakunlandi.

Tajriba va sinov guruh ishtirokchilarida kasbiy kompetentlikni rivojlanganlik darajalarini qiyoslash maqsadida sinov natijalari bir necha marta takror tekshirilib, ko‘rsatkichlar aniqlandi.

Demak, har bir pedagog oldida pedagogik faoliyatning demokratik usulini rivojlantirish vazifasi turadi. Kompetentlikning taqdim etilgan tizimi bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishni ta’minlaydi hamda uni yuqori darajada namoyon bo‘lishiga asos bo‘ladi. Faoliyatning taklif etilgan shakl va ko’rinishlari an’anaviylaridan keskin ajralib turadi. Bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy rivojlanishi va o‘z ustida ishlashiga bo‘lgan rag’batni kuchaytiradi, kasbiy kompetentlilikni rivojlantirishning sifat hamda ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada oshishiga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Қаландарова З. “Мактабгача таълим ёшидаги болаларда математик тасаввурларни шакллантиришнинг замонавий методикаси ва амалиёти”. Ўқув қўлланма. – Нукус:- 2018. -138 б.
2. Қодирова Ф., Тошпўлатова Ш., Аъзамова М. Мактабгача педагогика ўқув қўлланма. «Маънавият», Т.:- 2013.- 160 б.
3. Қодирова З.С. “Бўлажак тарбиячиларни касбий фаолиятга тайёрлаш технологиясини такомиллаштириш” пед.фан бўйича фалсафа доктори(PhD) дисс. афтореферати. Н.:-2020. -130 б.

BOSHLANG‘ICHSINF O‘QUVCHILARIDALINGVISTIK KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING MAVJUD HOLATI

TO‘RABEKOVA AZIZA MIRZABEK QIZI
Toshkent davlat pedagogika universiteti 2-bosqich tayanch doktaranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida bolalar adabiyoti orqali lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari keltirilgan. Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarining bolalar adabiyotini puxta o’rganishlari masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, mazkur maqolada lingvistik kompetensiya tilni o‘zlashtirish bilan chambarchas bog‘liq ekanligi va diskursga kiritilgan matnlar so‘zlovchida matnning mantiqiy va semantik tuzilishini tushunish ko‘nikma va malakalarni shakllantirish imkonini berishi haqida fikrlar ketiriladi. Maqolaning saviyasi shu mavzuda xorijlik va mahalliy olimlarning tadqiqot ishlari ham yoritilgani bilan belgilanadi.

Kalit so‘zlar: boshlang’ich ta’lim, kompetentsiya, lingistika, morfologiya, o’qituvchi, o’quvchi, ta’lim, tarbiya, estetik zavq, nutq, savodxonlik.

Annotation: This article presents the scientific and theoretical foundations of the formation of linguistic competences in primary school students through children's literature. Particular attention is paid to the issues of future elementary school teachers' thorough study of children's literature. Also, in this article, it is argued that linguistic competence is closely related to language acquisition and that the texts included in the discourse allow the speaker to understand the logical and semantic structure of the text and to form skills and competencies. The level of the article is determined by the fact that the research works of foreign and local scientists on this topic are covered.

Keywords: primary education, competence, linguistics, morphology, teacher, student, education, upbringing, aesthetic pleasure, speech, literacy.

Аннотация: В данной статье представлены научно-теоретические основы формирования языковых компетенций у младших школьников посредством детской литературы. Особое внимание уделено вопросам тщательного изучения детской литературы будущими учителями начальных классов. Также в данной статье утверждается, что языковая компетенция тесно связана с овладением языком и что включенные в дискурс тексты позволяют говорящему понять логическую и смысловую структуру текста и сформировать навыки и компетенции. Уровень статьи определяется тем, что освещены исследовательские работы зарубежных и отечественных ученых по данной теме.

Ключевые слова: начальное образование, компетентность, языкознание, морфология, учитель, ученик, образование, воспитание, эстетическое удовольствие, речь, грамотность**.**

KIRISH.

Yutimizda har bir sohada bo‘lganidek, ta’lim sohasida ham bir qancha o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ta’lim tizimini tubdan isloh qilish va jahonning rivojlangan mamlakatlari ta’lim tizimidan andoza olgan holda milliy mintalitetimizga xos bo‘lgan yangicha o‘qitish tizimi joriy qilinmoqda. Mazkur jarayonda AQSh, Buyuk Britaniya, Finlandiya, Koreya va Yaponiya kabi ta’lim sohasida bir qancha yutuqlarga ega bo‘lgan mamlakatlarning o‘qitish tizimi, darslik va o‘quv qo‘llanmalaridan namunalar olgan holda xorijlik olimlar bilan hamkorlikda yangi avlod darsliklarining yaratilishi hamda ularning maktab amaliyotiga tadbiq etilishi fikrimiz isbotidir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2023 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmonida “O‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyilini bosqichma-

bosqich tadbiq etish; xalq ta’limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish” [20] vazifalari bu borada samarali va zamonaviy yondashuvlarni taqozo etadi.

Adabiyotlar tahlili. Olima G.Yusupovaning “Bo‘lajak pedagoglarning lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishda aralash ta’limdan foydalanish metodikasi” nomli tadqiqoti natijasida bo‘lajak pedagoglarning lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishda aralash ta’limdan foydalanishning tanishuv, ijodiy qism, baholash bosqichlari, o‘zbek tilini bilish darajasini xalqaro mezonlar asosida baholash texnologiyalari aniqlashtirilganligini ko‘rishimiz mumkin [17]. Mazkur tadqiqotda ta’lim jarayonida o‘quvchilarning o‘zbek tilini bilish darajasini xalqaro mezonlar asosida baholash texnologiyalari bo‘yicha asoslab berilganligi ishning yutug‘i hisoblanadi.

K.Qosimova boshchiligida yozilgan “Ona tili o‘qitish metodikasi” nomli darslikda[16] boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida lingvistik bilimlar qay tartibda o‘rgatib borilishi va bilim berish tizimida nimalarga alohida e’tibor berish zarurligi haqida nazariy bilimlar berib borilgan. Shu bilan birga o‘qituvchilar oldiga amaliy vazifalar belgilab berilgan. Darslikdagi e’tiborimizni tortgan alohida jihat esa o‘quvchilarining bog‘lanishli nutqini o‘stirish metodikasi alohida bo‘lim sifatida berilgan bo‘lib, nutq o‘stirishning metodik shartlari, aspektlari, yo‘nalish va so‘z, gap va bog‘lanishli nutq ustida ishlash metodikasi batafsil yoritilgan.

T.Ziyodovaning “Matn yaratish texnologiyasi” ”[18] nomli monografiyasida ona tili ta’limi jarayonida kommunikativ savodxonlikni ta’minlash, o‘quvchida mustaqil fikrlash, fikrini to‘g‘ri, ravon ifodalash, egallagan ko‘nikmalarini matn yaratish amaliyotida izchil foydalanishning zamonaviy texnologiyasi masalalariga urg‘u berilgan.

Respublikamiz olimalaridan biri G.Yusupovaning “Bo‘lajak pedagoglarning lingvitik kompetensiyalarini shakllantirishda aralash ta’limdan foydalanish metodikasi” nomli ilmiy tadqiqot ishida bo‘lajak pedagoglarning lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishda aralash ta’limdan foydalanishning bir qancha turlari aniqlashtirilgan. Jumladan, tanishuv, ijodiy qism, baholash bosqichlari, o‘zbek tilining bilish darajasini xalqaro mezonlar asosida baholash texnologiyalari tadqiqot davomida aniqlashtirilgan[17]. Biroq tadqiqotda aralash ta’limdan foydalanish metodikasi tushunchasiga alohida to‘xtalinmagan bo‘lsa ham, ta’lim berish jaryonida o‘quvchilarning o‘zbek tilini bilish darajasini xalqaro mezonlar asosida baholash texnologiyalari yuzasidan asoslab tushuntirib berilgan.

Ona tili fanidan olingan nazariy bilimlarni mashqlar bajarish orqali mustahkamlash T.G‘aniyevaning ilmiy tadqiqot ishida keng tahlil qilingan[39].

O‘quvchilar nutqini sinonimlar bilan boyitish O.Oxunjonovaning ilmiy tadqiqot ishida muammosi sifatida olingan bo‘lib, tadqiqotda matn yaratishning nutq o‘stirish bilan bog‘liq jihatlariga e’tibor berilgan[15].

A.Shukin, E.Azimovlarning “Metodik atamalar va tushunchalar lug‘ati”da lingvistik kompetensiyaga shunday ta’rif beriladi[22]: “Lingvistik kompetensiya – o‘rganilayotgan tilni uning sathlari: fonetika, leksika, so‘z tarkibi, so‘z yasalishi, morfologiya, soda va qo‘shma gap sintaksisi, matn uslubi asoslari bo‘yicha egallash demakdir. Agar o‘quvchi o‘rganilayotgan til tizimi haqida tasavvurga ega bo‘lsa va amalda undan foydalana olsa, lingvistik kompetensiyaga ega deyish mumkin.”

Yuqoridagi fikrdan kelib chiqib, mazkur til sathlari haqidagi dastlabki nazariy bilim, tushuncha va ko‘nikmalar dastlab

boshlang‘ich sinflarda o‘rgatiladi va aynan mana shuning uchun ham ilmiy tadqiqot ishimizda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishda bolalar adabiyotidan foydalanish pedagogik muammolardan biri sifati ta’kidlanmoqda. Shu o‘rinda xorijlik olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari bilan tanishib chiqish jarayonida fransuz tilshunos olimi R.Bartning matn tushunchasiga bergan ta’rifi e’tiborimizni tortdi. Olim mazkur tushunchani quyidagicha ta’eiflaydi: “Ichki bog‘lanishdan iborat bo‘lgan, muloqot maqsadida mazmunan o‘zaro birikkan gaplardan tashkil topgan nutqning har qanday parchasini, bo‘lagini matn deb atash maqsadga muvofiq”. Tilshunos olimning “Matn lingvistikasi” nomli tadqiqot ishida matnning bir necha kompetentli turlari sanab o‘tilgan. E’tiborli jihati R.Bart kichik bir gapdan iborat matnni emas, balki o‘zaro birikib kelgan bir necha gapdan tashkil topgan nutqning har qanday parchasi – katta matnga diqqatini qaratganligidir[22].

Tahlil va natija. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonida nutq madaniyati, o‘rganilgan mavzularni nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish talab etiladi. O‘quvchilar ijtimoiy munosabatlarga kirishishda o‘g‘zaki nutqdan ko‘proq foydalanishlarini inobatga olib shuni ayta olamizki, inson nutqiy faoliyatida so‘zga emas, balki so‘zning ma’nosiga e’tibor bergan holda o‘z fikrini aniq ifodalash uchun kerakli so‘zni tanlaydi va shu orqali nutqiy ko‘nikmasini shakllantirib boradi.

Ta’limning barcha bosqichlarida ona tilini o‘qitishning asosiy maqsadidan kelib chiqib, mustaqil fikrlaydigan, nutq va muloqot madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni, ya’ni kompetentli shaxsni tarbiyalashdan iborat bo‘ladi. Shundan kelib chiqib, til tizimini o‘zlashtirish jarayonida o‘quvchilarda fanning o‘ziga xosligi mazmunidan kelib chiqqan holda kompetensiyalarni egallashi belgilangan[14].

Umumta’lim maktablarida ham ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan ishlar amalga oshirilmoqda va tubdan o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Hozirda har bir sinfga mo‘ljallangan fan dasturlari qayta tayyorlanib, yurtboshimiz tomonidan xalq ta’limi sohasi mutasaddi xodimlari oldiga amaldagi Davlat ta’lim standartlari o‘rniga Milliy o‘quv dastur ishlab chiqilishi masalasi belgilab berildi. “Bolalarning tahliliy va kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun ularga sermazmun va tushunarli darsliklar yaratish zarur. Bu borada kelgusi o‘quv yilida boshlang‘ich sinflarda davlat ta’lim standarti o‘rniga, ilg‘or xorijiy tajriba asosida, bolaga ortiqcha yuklama bermaydigan “Milliy o‘quv dasturi” joriy etiladi,” - deya ta’kidladi yurtboshimiz 2020-yil Oliy Majlisga Murojaatnomasida [19].

Ona tili boshlang’ich sinflarda asosiy o’quv predmetlaridan biridir. Kichik yoshdagi o’quvchilar tildan muhim tushinchalar tizimini o’zlashtiradilar, o’qish, nutqqa oid bilim, ko’nikma va malakarni egallaydilar. Ushbu o’quv uslubiy majmua O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun talablaridan kelib chiqqan holda tuzilgan.

Ona tili o’qitish metodikasi fani pedagogik fandir, bu fanni chuqur bilish o’qutuvchi tayyorlashda zaruriy shartdir. Hozirgi zamon o’qituvchisi har tamonlama bilimli, boshlang’ich sinflarda ona tili fanidan olib borilgan ishlar, ona tili o’qitishning nazariy asoslari va ta’lim prinsiplarini o’zlashtirish, o’quv ishlarining asosiy usullarini bilishi va uni ish tajribasida tadbiq qila olish ko’nikmalariga ega bo’lishi lozim.

Ta’lim shunday jarayonki, uning mahsuli yillar o‘tib bilinadi. Shuning uchun ham bir qancha olimlar jamoasi tomonidan ishlab chiqilib amaliyotga joriy qilingan yangi avlod


darsliklari Xalq ta’limi sohasida tajriba-sinov ishlaridan o‘tkazildi. Jumladan, Respublika ta’lim markazi tomonidan I.Azimova, K.Mavlonova, S.Qur’onov va Sh.Tursun kabi Respublikamiz olimlar muallifligida Ona tili va o‘qish savodxonligi darsligi umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlari va milliy o‘quv dasturi asosida ishlab chiqilgan edi [10, 11, 12, 13]. 2021-2022-o‘quv yillarida respublikamiz umumta’lim maktablarida mazkur darsliklardan foydalanildi. Respublika ta’lim markazi tomonidan ishlab chiqilgan mazkur darsliklar o‘quvchilarda 4 ko‘nikmani shakllantirish va rivojlantirishga qaratilganligi bilan amalda ishlatilgan darsliklardan farq qiladi.

. Iroda Azimova boshchiligidagi ishlab chiqilgan mazkur darslik avvalgi “Ona tili” va “O‘qish” darsliklaridan tubdan farq qiladi. Avvalo, fan va darslik nomi, mazmuni yangicha ko‘rinishdaligi bilan e’tiborni ortadi. “Ona tili” va “O‘qish” fanlari o‘zaro birikib “Ona tili va o‘qish savodxonligi” fanini tashkil etishdi. Bu yangi fan yuzasidan esa “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligi yaratildi. Darslik mazmuni ham avvalgisidan tubdan farq qiladi. Avvalgi “Ona tili” darsligida tilni o‘qitishga doir bilimlar qoidalar shaklida berilib uni mustahkamlash uchun esa mashqlardan foydalanilib, mashqlarda alohida gaplar tanlab olingan holatda berilgan bo‘lsa, mazkur darslikda o‘quvchi tilga oid bilimlarini konteks ichida mustahkamlashiga e’tibor berilgan. Matnlar esa turli xil mavzularda, ya’ni o‘quvchi uchun qiziqarli, kundalik hayotda uchraydigan ma’lumotlar va badiiy asarlardan tanlab olingan. Mualliflar darslikda qoidalardan maksimal darajada voz kechishga harakat qilgan. Darslik bilan tanishish jarayonida uyga vazifalar berilmaganligini kuzatish mumkin. Lekin bu o‘quvchiga uyda bajarib kelish uchun vazifa berilmasin degan emas, albatta. Bundan ko‘rinadiki, ushbu darslik bilan ishlash jarayonida o‘qituvchi ham o‘z ustida ishlashi va o‘quvchilariga qo‘shimcha topshiriqlar berishni bilishi, shu bilan birga dars jarayonida qoidalar berilmagan holatda ham amaliyotda qo‘llanilishiga doir ba’zi bir qoidalarni tushuntirish orqali o‘quvchi bilimini boyitishi lozim. Bu esa har bir o‘qituvchining mahorati va bilimiga, tajribasiga bog‘liq jarayon hisoblanadi.

Yangi darslik asosida o‘quvchilarning tinglab tushunish, o‘qib tushunish va nutqiy kompetensiyalari kutilganidek yaxshi natija berdi, ammo ularning yozma savodxonligi va lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari biroz susaydi. Bunday muammolar maktab darsliklarining muqobil variantlarining yaratilishiga turtki bo‘ldi deb ayta olamiz. Endilikda maktab darsliklarining muqobil variantlari yaratilishi boshlandi. Bu darsliklar milliy o‘quv dasturi malaka talablarini bajargan holatda ishlab chiqilishi va amaliyota qay biridan foydalanishni maktab pedagogik kengashi tomonidan hal qilinishi aytib o‘tildi. Shunday darsliklardan biri G.Mamatova, D.Baynazarova, O.G‘oziyeva va boshqalar tomonidan “O‘zbekiston barkamol avlod uchun ta’lim dasturi” asosida ishlab chiqilib, 2022-2023-o‘quv yilida Sirdaryo va Namangan viloyatlarida tajriba-sinovdan o‘tkazildi ham. Biroq 08.10.2022 yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Sirdaryo viloyatiga tashrifi davomida jurnalistlar bilan muloqotida ta’kidlashicha, ta’lim sohasida qilinishi kerak bo‘lgan ishlar ko‘p: “Darsliklar masalasida ham ancha muammo borligi uning ichiga kirgach bilindi. Ularning saviyasi haqida katta muhokamalar bo‘ldi. Finlandiya standarti bilan 1-4-sinflar uchun darsliklar qiladigan bo‘ldik. Finlandiya xalq ta’limi Yevropa miqyosida, umuman, dunyoda raqobatbardosh hisoblanadi” [9].

Respublikamiz xalq ta’limi sohasida bir qancha o‘zgarishlar va yangicha yondashuvlar asosida tuzilgan darsliklarni tadbiq etish jarayonida G.Mamatova, D.Baynazarova, O.G‘oziyeva va boshqalar tomonidan “O‘zbekiston barkamol avlod uchun ta’lim dasturi” asosida ishlab chiqilgan “Ona tili va o‘qish savoxonligi” darsligi 2022-2023-o‘quv yilida Sirdaryo va Namangan viloyatlarida tajriba-sinovdan o‘tkazilganligini alohida ta’kidlash joiz[1,2,3,4]. Mazkur darsliklarning o‘qituvchilar uchun qo‘llanmasida har bir mavzu yuzasidan o‘qituvchilar dars o‘tish jarayonida nimalarga e’tibor berishi va dars loyihasini qanday rejalashtirishi joizligi belgilab berilganligi bilan avvalgilaridan farq qiladi[5, 6, 7, 8]. Shu bilan birga tajriba-sinov davrida mazkur darslik o‘quvchilar va o‘qituvchilar uchun qiziqarli va foydali bo‘ldi deya olamiz. Darslik mavzulari qiziqarli va ilmiy izchillikda berilgan. Undagi nazariy ma’lumotlar o‘quvchilar yosh xususiyatidan kelib chiqqan holda soddadan murakkabga qarab tamoyili asosida tuzilgan va dars jarayonida amaliyotda taqbiq etilgan. 1 soatlik dars jarayonida o‘quvchi tilga oid bilimlarni kundalik hayotda kerak bo‘ladigan mavzular va badiiy asarlar asosida egallashiga e’tibor berilganligi mazkur darslikning yutug‘i hisoblanadi. Har bir dars jarayonida lug‘at ustida ishlashga alohida e’tibor berilgan va o‘quvchilarni fikrlashga undovchi savollar bilan boyitilganligi ham darslikning avvalgilaridan farqli jihatini namoyon qiladi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Tanlab olingan mavzular va materiallar orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qib tushunish, tinglab tushunish, yoma va og‘zaki nutqi, shu bilan birga lingvistik bilimlari shakllanib borishiga alohida e’tibor berilgan. Topshiriqlar mazmuniga e’tibor qaratsak, ularda o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga va o‘z shaxsiy fikrlarini bildirishlariga zamin yaratilganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchda ma’lum bir mavzu yuzasidan fikr yuritish va uni tinglovchiga yetkaza bilish ko‘nikmasini shakllantiradi. Darslikda “BBB’, “Tushunchalar tahlili”, “Klaster”, “Besh barmoq usuli”, “Ven diagrammasi” kabi metodlar asosida topshiriqlar tayyorlanganligi ham darslikning saviyasini ko‘taradi, albatta. Dastlabki darslikdan farqlio‘laroq, mazkur darslikda tilshunoslikka oid qoidalar va ularni mustahkamlovchi mashqlar ham berilganligini alohida ta’kidlash joiz. Bunday qoida va mashqlar o‘z navbatida o‘quvchilarda lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ta’lim-tarbiya timini yanada rivojlantirish va soha vakillari uchun yanada qulayliklar ishlab chiqish hamda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning Finlandiya standartlari asosida yangi darsliklar ishlab chiqish topshiriqlarining bajarilishi sifatida “4K” modeli asosida yangi darsliklar 2023-2024-o‘quv yilida umumta’lim maktablariga topshirildi. Shu o‘rinda “4K” modeli tushunchasiga izoh berib o‘tishni joiz deb topdik. Xalq ta’limi tizimini 2023-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida umumta’lim maktablarida o‘qitish metodikasini takomillashtirish vazifasi belgilab berilgan. Mazkur vazifalarning bajarilishida xalq ta’limi tizimida foydalanish uchun tayyorlangan 1-4-sinf darsliklari zamonaviy yondashuv hisoblangan “4K” modeli asosida tayyorlandi. Boshlang‘ich ta’lim ona tili va o‘qish darslarida asosan o‘quvchilarning imloviy savodxonligi va chiroyli yozuviga e’tibor berilgan. Yangi tajriba esa o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashi, o‘z fikrini erkin bayon eta olishiga ko‘proq ahamiyat berilganligi bilan avvalgisidan farq qiladi. Mazkur metodologiya o‘quvchilarninghar tomonlama rivojlanishi uchun qaratilgan 4 asosiy kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi.



Yangi innovatsion yondashuvni mamlakatimiz maktablarida joriy etishdan oldin xorijiy tajribalarga murojaat qilingani esa darsliklarning zamon talablariga mos kelishi uchun zamin yatdi. Singapur, Xitoy, Finlandiya, Buyuk Britaniya, Estoniya kabi ta’lim tizimi ilg‘or mamlakatlari o‘quvchilarida 4K tamoyilini o‘z ichiga olgan ko‘nikmalarni rivojlantirishga e’tibor berilgan. Shu bilan birga PISA va PIRLS kabi xalqaro reytinglarda yuqori natijalarni qayd etgan mamlakatlar ta’lim sohasida “4K” modeliga urg‘u berilganligini ham alohida qayd etishni joiz deb bildik. Sababi darsliklarni ishlab chiqish jarayonida PISA, PIRLS, TIMSS, EGMA, EGRA kabi xalqaro dasturlar tomonidan o‘quvchilarning natijalarini baholashda qo‘llanilgan topshiriqlar o‘rganilib chiqilgan va asos qilib olingan.

Mazkur o‘quv-metodik kompleks faol o‘quv jarayoni uchun darsliklar, mashq daftarlari, o‘qituvchilar uchun uslubiy qo‘llanmalar bilan birga taqdim etilishi bilan birga “Esudy” elektron ta’lim platformasi ham ushbu tizimga uyg‘un tarzda yaratilganligi o‘qituvchilar jamoasi uchun qulayliklar yaratadi. “Estudy” elektron ta’lim platformasi matematika, tabiatshunoslik, informatika kabi fanlardan o‘quv materiallari va o‘quvchilar bilimini mustahkamlash uchun 300dan ortiq intellektni rivojlantiruvchi o‘yinli topshiriqlarni qamrab olingan. Ushbu darsliklar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur bo‘lgan hayotiy ko‘nikmalarni ham o‘rgatadi.

Xulosa va tavsiyalar. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib quyidagi xulosalarga keldik:

1. Ona tilini o‘qitishda samarali natijalarga erishish boshlang‘ich ta’limdan boshlanib, bunda asosiy e’tibor o‘quvchining tilga oid bilimlarini amaliy qo‘llay olishiga qaratilibgina qolmay, kichik yoshdanoq o‘quvchilarni mantiqiy, tanqidiy, izchil va ravon fikrlashlariga ham ahamiyat briladi.

2. Boshlang‘ich sinf ona ili va o‘qish fanlari o‘quvchilarda lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishda asosiy 4 ko‘nikmani shakllantirishni ham nazarda tutadi: nutqiy kompetensiya (og‘zaki nutq, yozma nutq, anglash (o‘qish va tushunish, tinglab tushunish)) va lingvistik kompetensiya.

3. Ta’limning an’anaviy va noan’anaviy shakllarida interfaol ta’limning uyg‘unligi

o‘quvchilarda bilim olishga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi. o‘quv materiallarini puxta o‘zlashtirilishi uchun qulay sharoit yaratib berish, o‘quvchilarning mustaqil, ijodiy, tanqidiy va mantiqiy fikrlarini nutq madaniyatiga rioya qilgan holda bayon eta olishini ta’minlash bugungi kun ta’lim tizimi oldida turgan vazifalardan hisoblanadi. Shu sababli ona tili ta’limida o‘quvchilarning grammatik bilimlarni egallashlarigagina emas, balki tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish kabi nutqiy kompetensiyalarni ham shakllantirishga dars jarayonida alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq.

4. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida xalqaro tajribalarga tayangan holda milliy o‘quv dasturi talablarini bajarish va zamonaviy hamda samarali o‘qitish metod va vositalaridan unumli foydalanish dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G.Mamatova, D.Baynazarova, O.G‘oziyeva va boshqalar tomonidan “O‘zbekiston barkamol avlod uchun ta’lim dasturi” asosida ishlab chiqilgan “Ona tili va o‘qish savoxonligi” 1-sinf
2. G.Mamatova, D.Baynazarova, O.G‘oziyeva va boshqalar tomonidan “O‘zbekiston barkamol avlod uchun ta’lim dasturi” asosida ishlab chiqilgan “Ona tili va o‘qish savoxonligi” 2-sinf
3. G.Mamatova, D.Baynazarova, O.G‘oziyeva va boshqalar tomonidan “O‘zbekiston barkamol avlod uchun ta’lim dasturi” asosida ishlab chiqilgan “Ona tili va o‘qish savoxonligi” 3-sinf
4. G.Mamatova, D.Baynazarova, O.G‘oziyeva va boshqalar tomonidan “O‘zbekiston barkamol avlod uchun ta’lim dasturi” asosida ishlab chiqilgan “Ona tili va o‘qish savoxonligi” 4-sinf
5. G.Mamatova, D.Baynazarova, O.G‘oziyeva va boshqalar tomonidan “O‘zbekiston barkamol avlod uchun ta’lim dasturi” asosida ishlab chiqilgan “Ona tili va o‘qish savoxonligi” 1-sinf O‘qituvchi qo‘llanmasi
6. G.Mamatova, D.Baynazarova, O.G‘oziyeva va boshqalar tomonidan “O‘zbekiston barkamol avlod uchun ta’lim dasturi” asosida ishlab chiqilgan “Ona tili va o‘qish savoxonligi” 2-sinf O‘qituvchi qo‘llanmasi
7. G.Mamatova, D.Baynazarova, O.G‘oziyeva va boshqalar tomonidan “O‘zbekiston barkamol avlod uchun ta’lim dasturi” asosida ishlab chiqilgan “Ona tili va o‘qish savoxonligi” 3-sinf O‘qituvchi qo‘llanmasi
8. G.Mamatova, D.Baynazarova, O.G‘oziyeva va boshqalar tomonidan “O‘zbekiston barkamol avlod uchun ta’lim dasturi” asosida ishlab chiqilgan “Ona tili va o‘qish savoxonligi” 4-sinf O‘qituvchi qo‘llanmasi
9. https://kun.uz/news/2022/10/08/prezident-boshlangich-sinflar-uchun-darslik-finlandiya-standarti-boyicha-tayyorlanishini-aytdi?q=%2Fuz%2Fnews%2F2022%2F10%2F08%2Fprezident-boshlangich-sinflar-uchun-darslik-finlandiya-standarti-boyicha-tayyorlanishini-aytdi
10. I.Azimova, K.Mavlonova, S.Qur’onov va Sh.Tursun kabi Respublikamiz olimlar muallifligida Ona tili va o‘qish savodxonligi 1-sinf
11. I.Azimova, K.Mavlonova, S.Qur’onov va Sh.Tursun kabi Respublikamiz olimlar muallifligida Ona tili va o‘qish savodxonligi 2-sinf
12. I.Azimova, K.Mavlonova, S.Qur’onov va Sh.Tursun kabi Respublikamiz olimlar muallifligida Ona tili va o‘qish savodxonligi 3-sinf
13. I.Azimova, K.Mavlonova, S.Qur’onov va Sh.Tursun kabi Respublikamiz olimlar muallifligida Ona tili va o‘qish savodxonligi 4-sinf
14. Masharipova U. Innovatsion ta’lim sharoitida boshlang’ich sinf o’quvchilarning nutq madaniyatini shakllantirish metodikasi: Ped.fan.bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi – Toshkent, 2017.
15. Oxunjonova O. Ta’lim bosqichlarida sinonimlar mavzusini o’qitish metodikasi: ped.fan.nom.diss. – Toshkent, 2009.
16. Qosimova K., Matchonov S., G’ulomova X., Yo’ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o’qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009.
17. Yusupova G. Bo’lajak pedagoglarning lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishda aralash ta’limdan foydalanish metodikasi. Ped.fan.bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi – Urganch, 2020.
18. Ziyodova T.U. Matn yaratish texnologiyasi. . – Toshkent: Gan, 2007.
19. O‘zbekiston respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil Oliy Majlisga Murojaatnomasi
20. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O’zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF-5712-son Farmoni// Xalq so’zi. – Toshkent, 2019-yil 30-aprel. № 88 (7318).
21. G’aniyev T.T. Ona tilidan mashq bajarish jarayonida o’quvchilarning bilish faolligini oshirish. Ped.fanl. nomz.ilm.daraj.olish uchun yozilgan diss. – T,. 1991.
22. Барт Р. Лингвистика текста // Новое в зарубежной лингвистике. Выпуск УШ. Лингвистика текста. – Москва: Прогресс, 1978. – С. 443.

ALOHIDA TA’LIM EHTIYOJI BO‘LGAN O‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA DOIR MEHNAT TARBIYASI MASALALARI

PARIDA PULATOVA
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Maxsus pedagogika va inklyuziv ta’lim fakulteti Oligofrenopedagogika kafedrasi professori, p.f.n.

Annotatsiya. Maqolada alohida yordamga muxtoj o‘quvchilar bilan olib boriladigan ishlar samaradorligini oshirish mexanizmlari, kasb-hunarga o’qitish va tayyorlash shakllari, ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchilari mehnat tarbiyasi va kasbga yo‘naltirish ishlari, kasbga oid mehnat ko‘nikmalarini tarkib toptirish yo‘llari, tadqiqotchilar, mutafakkir olimlarning bolalarning kasb egallashi va mehnat qilishi yuzasidan chiqargan xulosalari asosida maxsus maktablarda qilinishi kerak bo’lgan ishlar yoritib berilgan.

Tayanch so‘zlar: Mehnat tarbiyasi, mehnat malakasi, ijtimoiy rivojlanish, kasb-hunar, kasbga yo‘naltirish, kasbga oid, mehnatga ongli munosabat, o‘quvchilarni kasbga yo‘llash.

Аннотация. В статье рассмотрены механизмы повышения эффективности работы с учащимися, нуждающимися в специальной поддержке, формы профессионального образования и обучения, профессиональное образование и профориентация учащихся профильных школ, пути развития профессиональных навыков, работа, проводимая в специальных школах. выделено на основе выводов, сделанных исследователями, мыслителями и учёными относительно занятий и труда детей.

Ключевые слова: Трудовое воспитание, трудовые навыки, социальное развитие, профессия, профориентация, карьерное, сознательное отношение к труду, ориентация студентов на профессию.


Annotation. In the article, mechanisms for improving the efficiency of work with students in need of special support, forms of vocational education and training, vocational education and career orientation of specialized school students, ways to develop vocational skills , the work to be done in special schools is highlighted based on the conclusions made by researchers, thinkers and scientists regarding the occupation and work of children.

Key words: Labor education, labor skills, social development, profession, career orientation, career-related, conscious attitude to work, guidance of students to the profession.

Sharq mutafakkirlari o‘z davrida farzandalr tarbiyasida mexnat tarbiyasi, ularni kasb-hunarga o‘rgatish qanchalik muhim ekanligini o‘zlarining pedagogik g‘oya va qarashlarida bayon etganlar (“Avesto”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri”) [4] Ixtisoslashtirilgan maktabda mehnat tarbiyasining maqsad vazifalari o‘quvchilarga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdan iboratdir. Ixtisoslashtirlgan maktabda mehnat tarbiyasi o‘quvchilarni kasb hunarga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni bo‘lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Mehnat tarbiyasini shunday tashkil etish kerakki, inson mehnat jarayoni va uning natijasidan qanoatlanishini tarkib toptirishga ko‘maklashsin. Mehnat tarbiyasining provard maqsadi shaxs xarakterining asosiy xislati sifatida

uning mehnatga bo‘lgan ehtiyojini shakllantirishdir. Ixtisoslashtirilgan maktablardagi mehnat tarbiyasi nuqsonli bolalarni mehnat faoliyatida tarbiyalash majmuasidir, deb ta’kidlanadi defektologik lug‘otda. Hozirgi davrda mehnat tarbiyasi boshqa tarbiya turlaridan har taraflama ustunligi bilan ajralib turadi. Ixtisoslashtirilgan maktablardagi mehnat esa alohida tashkil etilishi lozim. Chunki mehnat faoliyatida intellektual kamchiligi bo‘lgan o‘quvchilardagi psixofizik yetishmovchiliklar mehnat orqali ko‘proq tuzatiladi va bartaraf etiladi.

Mehnat jarayonlari yordamchi maktab o‘quvchilarini atroflicha korreksion rivojlantirish va hayotga, mehnatga tayyorlashning asosidir. [2] U ixtisoslashtirilgan maktab vazifalari alohida yordamga muhtoj o‘quvchilarni mehnat malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirish, mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash, ularda jamoada mehnat qilishga qiziqish xislarini tarkib toptirish va va hulq meyorlarini meyorlarini shakllantirishdan iboratdir.Ixtisoslashtirilgan maktablarda mehnat tarbiyasi turli faoliyatlarda:



-o‘quv mashg‘ulotlarda;

-maishiy va ijtimoiy foydali mehnatda;

-mehnat ta’limi asosida amalga oshiriladi.

Bu mehnat turining barchasi bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib,har biri o‘ziga hos xususiyatlarga ega.O‘quv mehnatda o‘quvchilar mehnatga kerak bo‘ladigan bilimlarni egallasalar, maishiy mehnatda esa oddiy,sodda, o‘zlarining imkoniyatlariga mos keladigan mehnat turlari bilan tanishadilar.

Ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchilarini kasb-hunarga tayyorlashda ijtimoiy foydali mehnat katta ahamiyatga ega. ularga o‘z-o‘ziga xizmat qilish, turli kechalar tashkil etish va o‘tkazish,ko‘rgazmalar, ko‘rgazmalar tashkil etish, maktabni obodonlashtirish ishlari, hosilni yig‘ishtirib olish, to‘garak ishlari va boshqa qator mehnat turlari kiradi. Bu mehnat turlari mazmunining turli-tumanligi alohida yordamga muhtoj o’quvcchilarda mehnatga doir keng xajmda bilimlar egallashlariga imkoniyat yaratadi. [3] Ixtisoslashtirilgan maktablardagi mehnat tarbiyasi, ishlab

chiqarish mehnatlarida samarali natijalar beradi. Mehnatning qimmatli ahamiyati shundaki, mehnat orqali alohida yordamga muhtoj o‘quvchilar turli fanlarga oid nazariy bilimlar olish bilan birga, ularda shaxsiy sifatlar intizomlilik, ma’suliyatlilik,sabr-qanoatlilik,mehnatsevarlilik, chaqqonlik kabi sifatlar shakllanib borishi asosida, mehnat davolash vazifasini ham o‘taydi. Barcha hatti-harakatlar oqibatida fiziologik jarayonlar yaxshilanib boradi. Ularning ruhiyatiga ijobiy korreksion ta’sir etadi. O‘quvchilarning irodaviy sifatlarini ham shakllantiradi. Ular faoliyatiga tashkiliy ma’no beradi, asosiysi, mehnat tufayli aqli zaif bolalar o‘z kasalliklariga oid fikrlardan chalg‘iydilar.Lekin bunda mehnat topshiriqlari bolalar kasalligi darajachiga, imkoniyatigv, yoshiga, hususiyatlariga qarabberilishi kerak,shundagina u samarali natijalarga olib keladi.Pirovard natijada ixtisoslashtirilgan maktablarni, ma’lum kasb-hunarga tayyorlashda zamin bo‘lib hizmat qiladi.

O‘quvchilarning ijtimoiy rivojlanishini ta’minlashda mehnat tarbiyasi muhim shartlardan biri bo‘lib hisoblanadi. Uning amalga oshirilishi davlat tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy va iqtisodiy siyosat mazmuni bilan belgilanadi.

O‘zbekistonda, bozor iqtisodiyoti munosabatlarini shakllantirishning asosiy tamoyillari jamiyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlarning asosi sanaladi.

Hozirgi davrda texnika va texnologiyalar rivojlanishini yuksak bosqichga ko‘tarish uchun ishlab chiqarishni keng ko‘lamda kompyuterlashtirish, iste’mol mahsulotlarini jahon standartlari darajasida ishlab chiqishni yo‘lga qo‘yish talab etilmoqda.

Bularning barchasi yuksak intellektual va jismoniy kamolotga ega bo‘lish, ishlab chiqarish jarayonlarining ilmiy-texnikaviy va iqtisodiy asoslaridan to‘laqonli xabardor bo‘lish, mehnatga ongli, ijodiy munosabatda bo‘ladigan yoshlarni tarbiyalashni taqozo etadi. Bu esa, o‘z navbatida, ta’lim muassasalarida mehnat ta’limi va tarbiyasini, kasb-hunarga tayyorlashni tashkil etishga nisbatan ulkan talablarni qo‘yadi.

Mehnat tarbiyasining maqsadi o‘quvchilarda mehnatga, kasb-korga ongli munosabatni shakllantirishdir. Mazkur maqsadga erishish yo‘lida quyidagi vazifalarni ijobiy hal etish maqsadga muvofiq:

- yosh avlodda mehnat qilish istagini qaror toptirish va ularni zamonaviy ishlab chiqarishning turli sohalariга faoliyat yuritishga oid kasb-hunarga tayyorlash;
- o‘quvchilarda umumjamiyat manfaati yo‘lida mehnat qilish ehtiyojini, kasb-korga qiziqish hosil qilish;
- ularning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish;
- o‘quvchilarning kasb-hunartga mavjud bilimlarini uzluksiz ravishda takomillashtirib borishlari uchun zarur shart-sharoitni yaratish;
- ularda kasbga oid mehnat ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish;
- o‘quvchilar faoliyatida yuqori madaniyat, maqsadga intilish, tashkilotchilik, mehnat intizomi, tadbirkorlik, tejamkorlik, ishni sifatli bajarish, moddiy boyliklarga mehnat qurollariga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, hayotiy faoliyat kasb-hunar yo‘nalishini belgilash malakalarini shakllantirish;
- o‘quvchilarda davlat iqtisodiy siyosati mazmuniga tayangan holda ular

yashab turgan hududlar ishlab chiqarish xususiyatlariga muvofiq kasblarni egallashga bo‘lgan qiziqishni oshirish;

- o‘quvchilarni kasbga yo‘llash, ularni mehnat faoliyatining barcha turlari, shuningdek, ular yashayotgan hududda ehtiyoj mavjud bo‘lgan mutaxassisliklar bilan tanishtirish.

Mazkur vazifalar tizimida o‘quvchilarni mehnatga psixologik va amaliy jihatdan tayyorlash ularning qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash orqali amalga oshiriladi.

Mehnat tarbiyasi o‘quvchilarning aqliy, ma’naviy-axloqiy, jismoniy va estetik tarbiyasi bilan o‘zaro bog‘liq holda yaxlit tizimda amalga oshiriladi. Chunonchi:

1. Aqliy tarbiya o‘quvchilar mehnat tarbiyasi, ularni kasbga tayyorlashning asosi sanaladi. Zero, mehnat – nazariy va amaliy bilimlarni egallashga yordam beradi, bilim esa o‘z navbatida shaxsni mehnatga tayyorlashni takomillashtiradi. Mehnat tarbiyasining samaradorligi o‘quvchilarni mehnat faoliyatiga tayyorlash jarayonida har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalash vazifasi bilan belgilanadi.

2. Kasb-hunarga doir мehnat tarbiyasi axloqiy tarbiyaning asosiy vositasi hisoblanadi. Chunki mehnat faoliyati yordamida o‘quvchida mehnatsevarlik, intizomlilik, irodalilik, tashabbuskorlik, mustaqil harakat qilish kabi axloqiy xislatlar ham shakllanadi.

3. Kasb-hunarga doir мehnat tarbiyasi estetik tarbiya bilan mustahkam aloqada olib boriladi. Mehnat tarbiyasi mazmuniga estetik elementlarni singdirish asosida uni amalga oshirish o‘quvchilar mehnat tarbiyasida katta ahamiyat kasb etadi. Mehnatda go‘zallik va o‘z mehnatidan zavqlanish uning yanada samarali kechishiga yordam beradi.

4. «Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» rivolasida milliy istiqlol mafkurasining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari haqida fikr yuritilar ekan: «Milliy istiqlol mafkurasi o‘z mohiyatiga ko‘ra, har bir fuqaroning munosib turmush darajasini ta’minlaydigan farovon hayot kechirishga chorlaydi. Har bir insonni, u qaysi shakldagi mulkchilik asosida mehnat faoliyati bilan shug‘ullanmasin, shaxsiy manfaatlarini xalq va vatan manfaati bilan o‘zaro uyg‘unlashtirib yashashga undaydi. ... Har bir fuqaroning farovonligi – butun jamiyatning farovonligidir, g‘oyasini ilgari suradi”, [5] - deb ta’kidlanishi ham bejiz ems.

Yuqoridagilarga asoslanib, o‘quvchilarning kasb-hunarga doir mehnat tarbiyasida quyidagi mezonlarni asos qilib olish maqsadga muvoifq. Bular:

- o‘quvchilar tomonidan mehnatning ijtimoiy ahamiyatini tushunilishi;
- ularning ixtiyoriy ravishda mehnat qilishlari;
- ularda mehnat qilmay hayot kechiruvchilarga nisbatan nafrat uyg‘otish;
- o‘quvchilarda mehnat va mehnat ahliga hurmat tuyg‘ularini qaror toptirish;
- ularda mehnatda javobgarlikni his etish tuyg‘usini tarbiyalash;
- ularning mehnatga ongli munosabatda bo‘lishlariga erishish;
- mehnatda ijodkorlikni qo‘llab-quvvatlash;
- o‘quvchilarda jamiyat va umumxalq mulkini ko‘z qorachig‘iday asrash tuyg‘ularini shakllantirish;
- mehnatda do‘stlik, o‘rtoqlik va hamkorlikka erishish;
- o‘quvchilarning mehnatni go‘zallik manbai sifatida tushunishlariga erishish va

boshqalar.

Yuqoridagi mezonlar asosida o‘quvchilarni bo‘lg‘usi kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini barcha ta’lim-tarbiya ishlarini mustahkam aloqada, hozirgi zamon talablariga mos holda olib borish taqozo etiladi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, aqli zaif o’quvchilar vaqtini shunday tashkil etish kerakki, ular miyasi fikrlashsiz, qo’li ishsiz qolmasin, aks holda qator nohush holatlar, ko’ngilsiz voqealar xuddi shu bekorchi vaqtda yuz beradi.

Bu borada mutafakkirlardan Az-Zamaxshariy shunday deydi: “Mehnat odamni uch balodan asraydi: qashshoqlikdan, o’g’rilikdan, bezorilikdan”. Albatta bolani qo’lida hunari bo’lsa och qolsa hunarini ishga solidi va mehnati bilan o’z extiyojlarini qondiradi, qashshoq bo’lib qolmaydi. O’g’rilikka qo’l urmaydi, mehnat bilan band bo’lgach, bekor yurib bezori bo’lmaydi. Bu aytilgan xikmatli so’zlar olam-olam ma’no bo’lib, aynan ixtisoslashtirilgan maktabda mehnat ta’limini takomilashtirish kerakligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Айтметова С.Ш. Ёрдамчи мактаб ўқувчиларининг психик ривожланиш хусусиятлари.
2. Дульнев Г.М.Трудовое обучение во вспомогательной школе.- М.: “Учитель”-1985.
3. Pulatova P.M.-Oligofrenopedagogika.- T.: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti.-2023.
4. Маънавият юлдузлари.-Т.:,-“ФАН”-2000.
5. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent, O‘zbekiston, 2000.

ELEKTRON PORTFOLIO TIZIMI TALABALARDA METAKOGNITIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA

RASULOV ERKIN MADRAIMOVICH
Qo‘qon davlat pedagogika instituti, tayanch doktoranti

Annotatsiya: Elektron portfolio tizimi talabalarda metakognitiv fikrlashni rivojlantirish uchun kuchli vositadir. Ushbu maqola talabalarda metakognitiv fikrlashni kuchaytirish vositasi sifatida elektron portfolio tizimlaridan foydalanishni o‘rganadi, hamda ta’lim natijalariga ta’sir qiluvchi yondashuvlar bo‘yicha qimmatli adabiyotlar o‘rganilgan va tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Elektron portfolio, metakognitiv fikrlash, ta’lim texnologiyasi, shaxsiy rivojlanish, texnologiyani takomillashtirish.

Аннотация: Система электронного портфолио является мощным инструментом развития метакогнитивного мышления студентов. В этой статье рассматривается использование систем электронного портфолио как средства улучшения метакогнитивного мышления у студентов, а также рассматривается и анализируется ценная литература о подходах, влияющих на результаты обучения.

Ключевые слова: Электронное портфолио, метакогнитивное мышление, образовательные технологии, личностное развитие, совершенствование технологий.

Annotation: The electronic portfolio system is a powerful tool for developing metacognitive thinking in students. This paper examines the use of e-portfolio systems as a means of enhancing metacognitive thinking in students, and reviews and analyzes the valuable literature on approaches that influence learning outcomes.

Keywords: Electronic portfolio, metacognitive thinking, educational technology, personal development, technology improvement.

KIRISH. Tez rivojlanayotgan raqamli texnologiyalar ta’limning turli jihatlarini o‘zgartirdi va elektron portfolio tizimlarining integratsiyasi talabalarda metakognitiv fikrlashni rivojlantirishning istiqbolli yondashuvi sifatida paydo bo‘ldi. Metakognitiv, ya’ni mustaqil ta’lim jarayonlari va strategiyalari haqida fikr yuritish qobiliyati talabalarga o‘z-o‘zini boshqaradigan, umrbod ta’lim oluvchilar (lifelong learners) bo‘lish imkonini beradigan muhim mahoratdir.

Ushbu maqola zamonaviy ta’lim tizimida metakognitiv fikrlashni rivojlantirishda elektron portfolio tizimlarining imkoniyatlarini tahlil qiladi va o‘rganadi. Talabalarga o‘z ta’lim yo‘nalishlarini hujjatlashtirish uchun dinamik va qulay platformani taqdim etish orqali ushbu tizimlar ularni o‘z-o‘zini aks ettirish, maqsad qo‘yish va yutuqlarini baholashda faol ishtirok etishga undaydi. Elektron portfoliolarning raqamli tabiati multimedia resurslarini uzluksiz integratsiya qilish imkonini beradi, bu esa o‘rganish tajribasining aniqligi va boyligini yanada oshiradi.

Empirik tadqiqotlar va amaliy tadqiqotlar ob’ektivi orqali ushbu maqola elektron portfolio tizimlari metakognitiv rivojlanishni rag‘batlantirishning o‘ziga xos usullarini o‘rganadi. U talabalarning o‘z bilimlarini nazorat qilish, kuzatish, tartibga solish va yaxshilash qobiliyatini rivojlantirishda ushbu vositalarning samaradorligini optimallashtiradigan dizayn tamoyillari va amalga oshirish strategiyalarini o‘rganadi. Natijada, ushbu maqola XXI asr talaba muvaffaqiyati uchun zarur bo‘lgan metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirishda texnologiya kuchidan foydalanishga intilayotgan o‘qituvchilar, o‘qituvchi

dizaynerlari va siyosatchilar uchun qimmatli tushunchalarni taqdim etishga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrdagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 824-son qarori 1-ilovasi “Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 6-bob “Baholash, baholarni konvertatsiya qilish” 31-bandida “Baholash usullari fan yoki modul doirasidagi talabaning yutuqlarini aks ettiruvchi va tasdiqlovchi yozma, og‘zaki, amaliy ish, loyiha, portfolio va nazoratlar kabi turlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Baholash mezoni ta’lim olish natijasiga erishilganligini aks ettirishi shart” deb qayd etilgan.[1] Ushbu qaror ijrosini ta’minlash yuzasidan respublikamiz oliy ta’lim muassasalarida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Baholash usullari tarkibida talaba portfoliosi bo‘lishi bugungi axborot texnologiyalari rivojlangan davrda muhim ahamiyat kasb etadi. Talaba portfoliosini yaratish va undan unumli foydalanish hozirgi kundagi dolzarb va muammoli masala bo‘lib kelmoqda.[2]

Metakognitiv fikrlash insonning o‘z kognitiv jarayonlarini anglash va tushunishni o‘z ichiga oladi. Bu o‘z fikrlashi haqida o‘ylash, o‘rganish va muammolarni hal qilish strategiyalarini rejalashtirish, nazorat qilish va baholash qobiliyatidir. Metakognitiv fikrlashning rivojlanishi erta bolalikdan boshlanadi, chunki bolalar o‘zlarining ruhiy holatlari va o‘rganish va muammolarni hal qilish uchun foydalanadigan strategiyalardan xabardor bo‘lishni boshlaydilar. Bolalar o‘sib ulg‘aygan sari, ularning metakognitiv qobiliyatlari yanada murakkablashadi, bu ularga o‘z ta’limini yaxshiroq tartibga solish, maqsadlarni belgilash va strategiyalarini turli vaziyatlarga moslashtirish imkonini beradi. Metakognitiv fikrlashni rivojlantirish akademik muvaffaqiyat uchun juda muhimdir, chunki u odamlarga o‘zini o‘zi boshqarish va samarali o‘rganish imkonini beradi.[3]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Elektron portfolio tizimlari (EPT) ta’lim sohasida katta e’tibor va qiziqishga sazovor bo‘lmoqda, chunki u talabalarning metakognitiv tafakkurini rivojlantirishga kompleks yondashuvni taklif qiladi. Ko‘pgina tadqiqotlar elektron portfolio tizimlari talabalarning metakognitiv fikrlashini rivojlantirishdagi imkoniyatlarini o‘rganib chiqdi. Tadqiqotlar doimiy ravishda e-portfolio ushbu ko‘nikmalarni rivojlantirishi hamda bilim va muvaffaqiyatlarini aks ettiruvchi muhit bo‘lib xizmat qilishini ko‘rsatadi. Barrett fikriga ko‘ra, EPT uzluksiz o‘z-o‘zini baholash va maqsadlarni belgilash, metakognitiv fikrlashning muhim tarkibiy qismlarini osonlashtiradi.[4] Bundan tashqari, Boshqalarning tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, EPT talabalarga o‘z ta’lim tajribalarini tizimli ravishda hujjatlashtirish va aks ettirish imkonini beradi, bu esa chuqurroq kognitiv faollik va o‘z-o‘zini tartibga solishga yordam beradi.

Butler va Philippa kabi olimlar elektron portfoliolar talabalarga o‘quv jarayonida faol ishtirok etish, ularning yutuqlarini jamlash va o‘z bilimlarini o‘sishi haqida fikr yuritish imkoniyatini qanday taqdim etishini ta’kidlaydi.[5] Ushbu reflektiv jarayonlar metakognitiv fikrlashni rivojlantirish uchun asos hisoblanadi, chunki u talabalarni o‘z o‘rganishlarini kuzatishga, kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga va takomillashtirish yo‘llarini amalga oshirishga undaydi.


Bundan tashqari, Nafari va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar elektron portfoliolarning moslashuvchanligi va multimedia imkoniyatlari talabalarga o‘z ta’limini turli formatlarda namoyish qilish imkonini beradi, ular o‘z ishlarini tashkil etish va taqdimoti yo‘nalishida metakognitiv qobiliyatlarini yanada oshiradi.[6] Elektron portfolio tizimida o‘z ishini tashkil qilish, maqsadlarni belgilash va fikr-mulohazalarni olish orqali talabalar o‘zlarining ta’lim jarayonlarini chuqurroq tushunishadi.

Umuman olganda, adabiyotlar talabalarda metakognitiv fikrlashni rivojlantirish, ularni o‘z-o‘zini boshqarish va mantiqiy fikrlatdigan talabalar bo‘lishi uchun vositalar va strategiyalar bilan ta’minlashda elektron portfolio tizimlarining muhim salohiyatiga urg‘u beradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, elektron portfoliolardan foydalanish talabalarning metakognitiv ongini va o‘z-o‘zini tartibga soluvchi ta’limni kuchaytiradi.[7] O‘qituvchilar va tengdoshlarning fikr-mulohazalari o‘quvchilarning metakognitiv rivojlanishini yanada qo‘llab-quvvatlaydi. Elektron portfolio tizimi talabalarda metakognitiv fikrlashni rivojlantirish uchun kuchli vositadir. Elektron portfolio, shuningdek, e-portfolio deb ham ataladi, bu talabaning ishi, mulohazalari va o‘rganish tajribasining raqamli to‘plami bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan ularning o‘sishi va rivojlanishini namoyish qilish uchun foydalanish mumkin.

Elektron portfolioni yaratish va qo‘llab-quvvatlash jarayoni talabalarni metakognitiv fikrlashni bir necha usul bilan jalb qilishga undaydi:

1. Mulohaza. Elektron portfolioni yaratish



talabalardan o‘z bilimlari, kuchli tomonlari, zaif tomonlari va maqsadlari haqida fikr yuritishlarini talab qiladi. Ushbu holat ularga o‘zlarining fikrlash jarayonlari haqida ko‘proq xabardor bo‘lishga va yaxshilash kerak bo‘lgan yo‘nalishlarni aniqlashga yordam beradi.

2. O‘z-o‘zini baholash. Elektron portfoliolar talabalarga o‘z yutuqlarini kuzatish va vaqt o‘tishi bilan o‘z o‘rganishlarini baholash imkonini beradi.[8] Talabalar o‘zlarining hozirgi ishlarini oldingi ishlari bilan taqqoslab, ularning o‘sishini baholashlari va o‘z kuchlarini yo‘naltirishlari kerak bo‘lgan sohalarni aniqlashlari mumkin.

3. Maqsadlarni belgilash: Elektron portfolio tizimi talabalar uchun o‘quv maqsadlarini belgilash va ularga erishish strategiyalarini ishlab chiqish uchun platforma vazifasini o‘taydi. Talabalar ushbu maqsadlar sari ishlayotganda, ularning rivojlanishini kuzatish va kerak bo‘lganda tuzatishlar kiritish uchun metakognitiv fikrlash bilan shug‘ullanib ilmiy salohiyatlari mustahkamlamnadi.

4. Fikr-mulohaza va hamkorlik: Elektron portfoliolar ko‘pincha o‘qituvchilar, hamkasblar va boshqa manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalari uchun imkoniyatlarni o‘z ichiga oladi. Bu fikr-mulohazalar talabalarga fikrlashning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga va samaraliroq ta’lim strategiyalarini ishlab chiqishga yordam beradi.[9]

Biroq, elektron portfellarni samarali amalga oshirish texnologik, o‘quv jarayoni va affektiv jihatlarni diqqat bilan ko‘rib chiqishni

talab qiladi. O‘qituvchilar o‘quvchilarning mazmunli mulohaza yuritishlari va o‘z-o‘zini baholashlarini ta’minlash uchun aniq ko‘rsatmalar, yordam va fikr-mulohazalarni taqdim etishlari kerak. Bundan tashqari, elektron portfolio tizimi foydalanuvchilarga qulay va talabalar va o‘qituvchilar uchun ochiq bo‘lishi kerak.[10]

Elektron portfolio tizimini o‘quv jarayoniga integratsiyalash orqali o‘qituvchilar metakognitiv fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi, talabalarning o‘zini o‘zi anglashi, o‘zini o‘zi tartibga soluvchi va zamonaviy talablariga javob beradigan talabalar bo‘lish imkoniyatini beradi.

XULOSA. Xulosa qilib aytish mumkinki, elektron portfolio tizimini joriy etish talabalarda metakognitiv fikrlashni rivojlantirishga sezilarli hissa qo‘shadi. Hujjatlashtirish va o‘z bilim tajribalarini namoyish etish jarayonida faol ishtirok etish orqali talabalar o‘zlarida bo‘layotgan kognitiv jarayonlaridan xabardor bo‘lishadi.[11] Bu yuqori aniqlik o‘z-o‘zini tanqidiy baholash va strategik rejalashtirishni, metakognitsiyaning muhim tarkibiy qismlarini rivojlantiradi. Elektron portfolio tizimi nafaqat davomiy mulohaza yuritishni osonlashtiradi, balki talabalar uchun ularning bilim olish taraqqiyotini kuzatish va kelajakdagi o‘quv va karyera maqsadlarini belgilash uchun muhim platformani ham taqdim etadi. Bundan tashqari, tizimning raqamli makonidan foydalanish imkoniyatini oshiradi va o‘qituvchilardan dinamik, takroriy fikr-mulohazalarni olish imkonini beradi, bu esa metakognitiv ko‘nikmalarni yanada mustahkamlaydi. Umuman olganda, elektron portfolio tizimlarini qabul qilish ta’lim amaliyotini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanib, talabalarni nafaqat ilmiy yutuqlarga, balki o‘zini-o‘zi boshqarish va metakognitiv fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan kadrlar tayyorlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 824-sonli Qarori / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2020-y., 09/20/824/1689-son.
2. Rasulov, Erkin. "TALABA PORTFOLIOSINI YARATISH TEXNOLOGIYASI." Scienceweb academic papers collection (2022).
3. Ku, Kelly YL, and Irene T. Ho. "Metacognitive strategies that enhance critical thinking." Metacognition and learning 5 (2010): 251-267.
4. Barrett, Helen C. "Balancing the two faces of ePortfolios." Educação, Formação e Tecnologias 3.01 (2010): 06-14.
5. Butler, Philippa. "E-portfolios, pedagogy and implementation in higher education: Considerations from the literature." The EPortfolio Paradigm: Informing, Educating, Assessing, and Managing With ePortfolio, Informing Science Press, Santa Rosa, CA (2010): 109-139.
6. Nafari, Fatemeh Nafarzadeh, Mehrshad Ahmadian, and Ebrahim Fakhri. "Developing Teacher Education Performance Assessment through Teaching E-portfolios and Pre-service/In-service EFL Teachers' Self-reflection." EDUCATION 16.4 (2021): 10-24.
7. Serhat AltД±ok, Zeynep BaEџer, Erman YГjkseltГjrk, Enhancing metacognitive awareness of undergraduates through using an e-educational video environment, Computers & Education, Volume 139, 2019, Pages 129-145, ISSN 0360-1315, https://doi.org/10.1016/j.compedu.2019.05.010.
8. Rasulov, Erkin Madraimovich. "ELEKTRON PORTFOLIO TALABANING KASBIY VA IJODIY FAOLIYATLARINI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA." Innovative Development in Educational Activities 2.13 (2023): 41-46.
9. Ayaz, Mahmut, and Bilge Gök. "The effect of e-portfolio application on reflective thinking and learning motivation of primary school teacher candidates." Current Psychology 42.35 (2023): 31646-31662.
10. RASULOV, ERKIN MADRAIMOVICH. "The role of independent education in improving the quality of higher education." THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука 5 (2022): 390-392.
11. Rasulov, Erkin. "JAHON OLIY TA’LIM TIZIMIDA ELEKTRON PORTFOLIONING DOLZARB AHAMIYATI." Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi 10 (2023): 424-430.
12. Khushnazarova, M. N., and E. M. Rasulov. "EFFECTIVE ASPECTS OF APPLYING METACOGNITIVE METHODS TO UNIVERSITY STUDENTS." (2023).
13. qizi Rasulova, Dilafruzxon Sharobiddin. "INGLIZ TILINI O‘RGANISH MOTIVATSIYASINI OSHIRISHDAGI INTERFAOL TA’LIM USULLARINING AHAMIYATI." Innovative Development in Educational Activities 2.15 (2023): 76-81.
14. Расулов, Эркин, and Мамура Хушназарова. "Talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda talaba portfoliosini muhim o ‘rni." Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире 1.4 (2022).

BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING IJTIMOIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMI

XALILOVA DILNOZA FURKATOVNA
TDPU o’qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti bo‘lajak tarbiyachilarining ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik mexanizmi ochib berilgan.
Kalit so‘zlar: Tarbiyachi, ta'lim, ijtimoiy kompetensiya, pedagog, malaka, ijtimoiylashuv.
Аннотация: В данной статье раскрывается педагогический механизм развития социальной компетентности будущих воспитателей дошкольных образовательных учреждений.
Ключевые слова: Педагог, образование, социальная компетентность, педагог, компетентность, социализация.
Abstract: This article reveals the pedagogical mechanism for the development of social competence of future teachers of preschool educational institutions.
Key words: Teacher, education, social competence, teacher, competence, socialization.

Kirish. Bo‘lajak tarbiyachining ijtimoiy kompetensiyasining asosiy elementi uning tarbiyalanuvchilar, hamkasblar va ota-onalar bilan o‘zaro munosabatlarga kirisha olishidir. Ijtimoiy faoliyatning muvaffaqiyati bo‘lajak tarbiyachida faollik, moslashuvchanlik, o‘zini-o‘zi boshqarish va xulq-atvor mexanizmlari qanchalik shakllanganiga va ijtimoiy munosabatlar ta’lim jarayonida kasbiy munosabatlarni qanchalik aks ettirishiga bog‘liqdir.

Tadqiqotning vazifasi bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy faoliyatda ijtimoiy va kasbiy kompetensiyasini shakllantirish bo‘yicha ishlar tizimini aniqlash edi. Vazifalar belgilangan maqsadlarga muvofiq shakllantirildi va bo‘lajak tarbiyachilarning murakkab ijtimoiy ko‘nikmalarini va o‘zaro munosabatlarni rivojlantirishni o‘z ichiga oldi. Ijtimoiy vaziyatlarda xulq-atvorning moslashuvchanligi, ijtimoiy o‘zaro munosabatlardagi maqsadlarga erishish qobiliyati, ijtimoiy va kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan fazilatlar va ularning integratsiyasi jamiyatda tez va etarli darajada moslashishga imkon beradi.

Maqsad va vazifalar tizimi bo‘lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetentsiyasini rivojlantirish bo‘yicha ishlarni tizimli ravishda amalga oshirish imkonini berdi.


Eksperimental guruhlarda bo‘lajak tarbiyachilar uchun tadqiqot dasturiga muvofiq, ijtimoiy va kasbiy kompetensiyani rivojlantirish bo‘yicha ishlar tizimi ishlab chiqildi. Bular bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy faoliyati bo‘yicha ijtimoiy kompetensiyasini shakllantirishning bosqichma-bosqich tashkiliy-metodik asoslaridir.

Umuman olganda ta’lim tizimida quyidagi 6 ta asosiy kompetensiya o‘rganiladi. Bular: ijtimoiy, kommunikativ, ijtimoiy axborot, kognitiv - shaxsiy deb ham ataladi, madaniyatlararo, jumladan, millatlararo va maxsus [1].

Umuman olganda ta’lim tizimida quyidagi 6 ta asosiy kompetensiya o‘rganiladi. Bular: ijtimoiy

Ijtimoiy kompetensiya- yangi yechimlarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirish, oqibatlar uchun javobgarlik, jamoa bilan shaxsiy manfaatlarning mutanosibligi, ota-onalar va jamoada sog'lom muloqotni tashkil etishdir;

Kommunikativ kompetensiya- bu muloqot qobiliyatlari, bilim, ko‘nikma malakalar, hamkorlik aloqalari sohasida hissiy va ijtimoiy



1-rasm. Kompetensiya turlari

tajribani o‘z ichiga olgan shaxsning umumiy kommunikativ xususiyatidir;

Ijtimoiy axborot- bu ijtimoiy ma'lumotlarni tanqidiy aql-idrok prizmasi orqali tahlil qilish va idrok etish, turli vaziyatlarda axborot texnologiyalariga ega bo‘lish va foydalanishdir;

Kognitiv- shaxsiy kompetensiya- ma'naviy o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyoj va bu ehtiyojni amalga oshirish, o‘z-o‘zini tarbiyalash, takomillashtirish, shaxsiy o‘sishdir.

Madaniyatlararo, jumladan, millatlararo - kompetentsiya madaniyatlarni, shu jumladan o'zingizning madaniyatingizni ham tushunish va bu tushunchadan boshqa madaniyat vakillari bilan muvaffaqiyatli muloqot qilish uchun foydalanish qobiliyatini anglatadi. Madaniyatlararo kompetentsiya imo-ishoralar va suhbatdoshlar orasidagi masofa madaniyatdan madaniyatga qanday farq qilishini tushunishni o'z ichiga olishi mumkin

Maxsus- kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyat natijalarini real baholash, bilim, ko‘nikma va malakani izchil rivojlantirib borish bo‘lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik yotadi. Bu kasbiy sohada etarli kompetentsiya uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni, ushbu faoliyatda mustaqillikni va o‘z harakatlarini adekvat baholashni o‘z ichiga oladi.

Kompetentlikning strukturasi quyidagi elementlardan iborat[1]:



2-rasm. Kompetentlik elementlari

Maqsad. Kasbga yo‘naltirish bo‘yicha har qanday loyiha yoshlarda mehnatga ongli va ijobiy munosabatni shakllantirish shaklida o‘z oldiga maqsadlar qo‘yadi. Professional o‘zini-o‘zi belgilash, erkin, lekin ongli tanlovdir. Bu juda ishonchli dalillarga asoslanishi mumkin - bularning barchasi kasbga yo‘naltirish ishining dastlabki maqsadlaridir.

Motivatsion. O‘z kasbiga qiziqish va yoqtirish, ushbu faoliyat bilan bog'liq har bir yuzaga keladigan vazifani to‘g’ri qaror qabul qilish orqali hal qila olish.

Orientatsiya. Bu kasbiy faoliyatni ta’minlovchi, qolaversa, qo‘yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish uchun zarur bo‘lgan muhim shartlardan biridir.

Funktsional. O‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma, faoliyat usullariga nafaqat ega bo‘lish, balki amalda foydalanish qobiliyatining mavjudligi. Murakkab xulosalar va qarorlardan qo‘rqmaslik, noan'anaviy usullarni tanlash.

Boshqarish. Faoliyat jarayonida qaror va xulosalarni chiqara olish. Oldinga intilish - ya'ni g'oyalarni takomillashtirish, to‘g'ri, samarali yo‘l va usullarni mustahkamlash, maqsad sari harakatlanish tushuniladi.

Baholovchi. Tahlil qiladi, baholaydi, nazorat qiladi hamda bilim, ko‘nikma yoki tanlangan harakat usuli zarurligi va samaradorligini baholay oladi.

L.A.Petrovskiyning so‘zlariga ko‘ra, "faol ijtimoiy-psixologik trening", "faol ijtimoiy trening", "laboratoriya mashg‘ulotlari", "intensiv muloqot guruhlari", "ochiq muloqot guruhlari", "idrokga yo‘naltirilgan trening", "sezuvchanlik treningi" atamalari ijtimoiy so‘zlarga tengdir. Pedagogik tayyorgarlik maqsadi kompetensiyani rivojlantirish, uning kommunikativ, interaktiv va pertseptiv komponentlarini rivojlantirishga yordam beradi [4].

Trening bu vaziyatlarni tushinish, uni turli tomonlarga burish, hamma narsani tartibga solish va qiyinchiliklarni hal qilish imkoniyatidir. Trening kerakli o‘zgarishlar uchun manba bo‘ladigan kuchlarni beradi, bu kelajakdagi faoliyat uchun kuchli poydevor qo‘yish imkonini beradi. Hamda bevosita ishlash va shaxslararo o‘zaro ta’sirda paydo bo‘ladigan tajribani anglash orqali o‘rganishning maxsus turi tushuniladi.

Ko‘pgina tadqiqotchilarning fikricha, o‘qitishda o‘yin usullaridan foydalanish juda samarali. Guruh ishining birinchi bosqichida o‘yinlar "psixologik himoya" ni og'riqsiz olib tashlash sharti sifatida ishtirokchilar o‘rtasida qattiqlik va taranglikni bartaraf etish usuli sifatida foydalidir [2]. Ko‘pincha o‘yinlar diagnostika va o‘z-o‘zini diagnostika qilish vositasiga aylanadi, bu sizga muloqotda qiyinchiliklar va jiddiy muammolar mavjudligini bemalol, yumshoq, osongina aniqlash imkonini beradi. O‘yin tufayli o‘quv jarayoni faollashadi, yangi xulq-atvor ko‘nikmalari mustahkamlanadi, boshqa odamlar bilan optimal o‘zaro munosabatlarning ilgari erishib bo‘lmaydigan usullari o‘zlashtiriladi, og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan muloqot qobiliyatlari o‘rgatiladi va mustahkamlanadi. Oxir oqibat, o‘yin, ehtimol, boshqa usullardan ko‘ra insonning o‘zini ochib berish, ijodiy salohiyatini ochish, samimiylik va ochiqlikni namoyon qilish uchun sharoit yaratishda samaralidir, chunki u inson va uning bolaligi o‘rtasidagi psixologik aloqani shakllantiradi. Mashg‘ulot ishida o‘yin usullarining imkoniyatlari haqiqatan ham cheksizdir, shuning uchun tadqiqotchilarning o‘yinlarga qiziqishi katta.

Bizning fikrimizcha, bo‘lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyasini shakllantirish uchun eng samarali usullar quyidagilar hisoblanadi:

- Ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirish uchun treninglar;
- Volontyorlik faoliyati;
- Samarali muloqot mashg‘ulotlari;
- Innovasion texnologiyalar.

Bo‘lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishda treninglar, volontyorlik faoliyati, muloqot mashg’ulotlari va innovatsion texnologiyalardan foydalanish samarali natijaga erishishda muhim sanaladi.

Shulardan “Debate” (debat), “Case stady” (keys stadi) kabi texnologiyalar ajoyib imkoniyat hisoblanib, ularni darsdan tashqari vaqtlarda tashkil etsa bo‘ladi. Ushbu texnologiya o‘z hatti-harakatlarini kichik guruhda muvofiqlashtirish ko‘nikmasi bilan, berilgan vazifalarni mustaqil yechish uchun turli xil muammolarni keng bilimlar doirasini jalb etishni talab etadi. Debat (munozara) bu - zamonaviy pedagogik texnologiya bo‘lib, muayyan qoidalar asosida olib boriladigan muhokamaning maxsus shaklidir. Shu bilan birga, munozara maqsadli va tartibli, tuzilgan fikr, mulohazalar va fikrlar almashinuvidir [3].

Xulosa. Shunday qilib, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonini tashkil etish va ta'lim sifatini doimiy nazorat qilish ijtimoiy kompetentsiya darajasini oshirishga yordam beradi. Sifat ko'rsatkichi bo'lajak tarbiyachining ijtimoiy kompetentsiyaga ega bo'lgan o'zlashtirish darajasidir. Xulosa qilib aytganda ijtimoy kompetentlik – olingan bilimlarga asoslangan holda ijtimoiy munosabatlarda to‘g‘ri harakat qila olishlik demakdir. Kompetentlik – ijtimoiy amaliyot ko‘rinishidagi bilim va ko‘nikmalarning mavjudligi bo‘lib, u ta’lim jarayoni natijalariga ijtimoiy-madaniy talablar va jamiyat tomonidan talablar qo‘yiladigan hollarda namoyon bo‘ladi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Зимняя И. А. Ключевые копметенции - новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня №5, 2003.
2. Xalilova D. F. Talabalarda ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishga oid kasbiy kompetentlilikni takomillashtirish. Mug‘allim hom uzliksiz bilimlendirio‘ 2022. № 6/1-1.
3. Egamberdieva N. Madaniy-insonparvarlik yondashuv asosida talabalarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish nazariyasi va amaliyoti (Pedagogika oliy ta’lim muassasalari misolida): Dis..ped.fan.dok.– Toshkent, 2010. – 85-151 b.
4. Sh.A.Sadikova. Maktabgacha talim tashkilotlari bolalarini ijtimoiy moslashuvi
(Pedagogika oliy ta’lim muassasalarining “Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishi misolida) MONOGRAFIYA, 2021 y.

MAFKURAVIY TARG‘IBOTNI IJTIMOIY-PEDAGOGIK TAHLILI

AZAMAT KAMALOV,
TDPU Ta’lim menejmenti kafedrasi dotsent v.b, p.f.f.d . (PhD)

Annotatsiya. Maqolada mafkuraviy targ‘ibotni ijtimoiy-pedagogik tahlili haqida so‘z boradi. Maqola mazmunini ochib berish maqsadida xorijiy davlatlarning tajribalari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: targ‘ibot, ijtimoiy pedagogika, jamiyat, islohotlar, ijtimoiy pedagog, ijtimoiy xodim

Абстракт. В статье говорится о социально-педагогическом анализе идеологической пропаганды. В целях раскрытия содержания статьи обсуждается опыт зарубежных стран.

Ключевые слова: пропаганда, социальная педагогика, общество, реформы, социальный педагог, социальный работник.

Abstract. The article talks about the socio-pedagogical analysis of ideological propaganda. In order to reveal the content of the article, the experiences of foreign countries are discussed.

Key words: propaganda, social pedagogy, society, reforms, social pedagogue, social worker

Ijtimoiy pedagogika fani nafaqat o‘quv yurtlaridagi, balki butun jamiyatdagi tarbiyaviy voqelikni sharhlovchi, o‘zgartiruvchi va bashorat qiluvchi imkoniyatlarga ega. Milliy istiqlol g‘oyalarini xalqimiz ongiga va qalbiga singdirish zarurati mustaqil O‘zbekiston pedagogika fanidan ana shunday mas’uliyatli vazifaning ijrosini kutmoqda. Ya’ni u milliy istiqlol qo‘lga kiritilgan davrdagi mafkuraviy jarayonlarni ijtimoiy-pedagogik sharhlab, uni yanada takomillashtirishga xizmat qilmog‘i kerak. Bu yo‘nalishda salmoqli yutuqlarga erishmoq uchun ijtimoiy pedagogika taraqqiyoti tarzlarini qiyosiy o‘rganib, qonuniyatlarini aniqlab olmoq kerak bo‘ladi.

Ijtimoiy-gumanitar pedagogika fanlarining rivojlanishi ikki tarzda kechadi: birinchisi – tadrijiy(evolyusion) rivojlanish; ikkinchisi esa – islohotlardir. Tadrijiy rivojlanish tarzida ijtimoiy gumanitar fanlarda shu vaqtgacha iste’fodada bo‘lgan asoslar jiddiy o‘zgarmaydi. Ularning konseptual apparati takomillashtiriladi, xolos.

Lekin jamiyat hayotida jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy islohotlar boshlanar ekan, ijtimoiy-gumanitar fanlar, demak, pedagogika fanida yangi taraqqiyot bosqichi boshlanadi. Masalan, milliy istiqlolning ijtimoiy buyurtmasi – butun O‘zbekiston xalqida mustahkam mafkuraviy immunitet, vatanparvarlikni, millatlararo totuvlikni, diniy bag‘rikenglikni shakllantirishni talab qilib turibdi. Shu sababli pedagogikaning ilgari e’tibor berilmay kelingan tarmog‘i – ijtimoiy-pedagogikaning ahamiyati tobora oshib borishi tabiiydir. Ijtimoiy-pedagogika rivojlanishining yangi, sifat o‘zgarish nafaqat O‘zbekistonda, balki MDH mamlakatlarida ham kuzatilmoqda. Shu sababli pedagogika fanining ushbu tarmog‘ini rivojlanish tarixiga bir oz to‘xtalib o‘tish lozim bo‘ldi.

“Ijtimoiy pedagogika” tushunchasi o‘zining boy tarixiga ega. Bu tushuncha dastlab K.Magor tomonidan “ijtimoiy pedagogika bu – tarbiyaning ijtimoiy tomoni” sifatida talqin qilingan bo‘lsa; A.Disterveg tomonidan esa “ijtimoiy pedagogika bu – biror ijtimoiy vaziyatlarda ko‘rsatiluvchi pedagogik yordam”[1]; G. Boymer tomonidan esa “ijtimoiy pedagogika bu – oila va maktabdan keyin amalga oshiriladigan tarbiya” shaklida ta’rif berilgan[3].

Germaniyada “ijtimoiy pedagog” va “ijtimoiy xodim” tushunchalari 1908 yildan boshlab, sinonim sifatida qo‘llanilib kelinmoqda. Ijtimoiy pedagogning funksiyalari

sirasiga jamoat joylarida, davlat va nodavlat tashkilotlari doirasida tarbiyaviy axborot tarqatish, maslahatlar berish, ma'naviy-ma'rifiy yordam ko'rsatish, va boshqalar kirgan. Bu yo'nalish Rossiyada 30-yillargacha T.S.Shaskiy va boshqalar tomonidan ko'tarilgan bo'lsada, 1991 yildan keyin o'zining yangi bosqichiga ko'tarildi. Rossiya Oliy va xalq ta'limi vazirliklari oliy o'quv yurtlari talabalari, ijtimoiy xodimlar uchun "Ijtimoiy pedagogika" rukni ostida qator ma'ruzalar matnlari va boshqa risolalarni nashrdan chiqardi[4]. Ularda pedagogika tushunchasining "ijtimoiy" aniqlovchisi bilan to'ldirilishi orqali pedagogikaning jamiyat ma'naviy-ma'rifiy hayotida tutgan o'rni, yangi roli va vazifalariga urg'u beriladi. Ya'ni psixologiyaning – "ijtimoiy psixologiya", tarixning – "ijtimoiy tarix", falsafaning – "ijtimoiy falsafa" shaklidagi kengayishi, rivojlanishi pedagogika fanida ham boshlanganligi aks etadi. Bu esa sobiq sho'ro davrida pedagogika fanining maktab devorlari bilan cheklab qo'yilgan imkoniyatlarining ro'yobga chiqqanligini kengayganini, pedagogikaning milliy mustaqillikni mustahkamlash, O'zbekistonning nafaqat maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurtlari talaba va o'quvchilari, (aholining 20% ish) balki jamiyatning qolgan barcha qatlamlari (80%) ongi va qalbiga milliy istiqlol g'oyalarini singdirish ishiga safarbar qilinganligini anglatadi. Bu xususiyat ijtimoiy pedagogikaning xususiy va o'zlashgan asosiy tushunchalarida ham aks etadi (7-jadval).

Sho'ro davrida kommunistik mafkura va uning sub'ekti – KPSS ijtimoiy tarbiyaning barcha qatlamlarini shu qadar ustalik bilan chirmab olgan edi-ki, hatto birinchi sinf o'quvchisi ham bu mafkuraviy tarbiya bilan qamrab olinar edi. Oktabryat, pioner, komsomol tashkilotlari maktabdagi mafkuraviy tarbiyaviy ishning asosiy ijrochilari sifatida. Siyosiy yolg'onlarni bolalar e'tiqodiga aylantira bordi. Masalan, bobosini dushmanga borib sotgan P.Morozovlar otasini, bobosini, umuman ajdodini muqaddas deb bilgan, hatto otasiga tik qarashni gunoh sanagan o'zbek bolalariga namuna, qahramon sifatida ko'rsatildi.

7-jadval. Ijtimoiy pedagogikaning xususiy va o'zlashgan tushunchalari

Pedagogika tomonidan boshqa fanlardan o'zlashtirish tushunchalar	Pedagogikaning xususiy tushunchalari	Ijtimoiy pedagogika tomonidan boshqa fanlardan o'zlashtirish tushunchalar	Ijtimoiy pedagogikaning xususiy tushunchalari
Shaxs Rivojlanish Faoliyat Jamiyat Ijtimoiylashuv	Pedagogik faoliyat Ijtimoiy malakalar Ta'lim	Shaxs Rivojlanish Faoliyat Jamiyat(sotsium, ijtimoiy institut), Ijtimoiylashuv, ijtimoiy moslashuv Ta'lim	Ijtimoiy pedagogik faoliyat(ishlar) Ijtimoiy ta'lim

Bolalar	Tarbiya O‘qitish Ta’lim muassasalari (bolalar bog‘chalari, maktab, litsey, kollej, institut, universitetlar)	Tarbiya O‘qitish Bolalar, yoshlarning ta’lim tizimi bilan qamrab olingan qismi Davlat va nodavlat tashkilotlari, mahalla Ma’naviyat va ma’rifat muassasalari	Ijtimoiy tarbiya Bolalar, yoshlar, jamiyatning ta’lim tizimi bilan qamrab olinmagan qismi Uyushmagan yoshlar Davlat va nodavlat tashkilotlari, mahalla Ma’naviyat va

Tabiiyki, bu mafkuraviy tarbiya tuzilmalarining milliy zamini yo‘q edi. Aksincha, ularning pirovard maqsadi-millatlar, xalqlarning ming yillik ma’naviy qadriyatlar tadrijini uzish edi.

Bu haqda olmon allomasi Vilgelm fon Gumboldt “Madaniyat xalqning bag‘ridan o‘sib chiqishi mumkin, shundagina u xalqning ma’naviy yuksakligiga guvohlik bera oladi. U yoki bu mamlakatga madaniyat tashqaridan olib kirilsa, u haqiqiy, o‘z madaniyatiga qaraganda tezroq tarqalishi, jamiyatning barcha qatlamlariga nisbatan erkinroq kirib borishi mumkin, ammo xalqning ruhi va xarakteriga jadal va samarali ta’sir eta olmaydi”[2], – degan edi.

Bu fikr yana isbotlandi – sobiq kommunistik mafkuraviy tarbiyaning asoratlari hali-hali uchramoqda. Biroq bu hodisani “millatning o‘zligini unutishi” emas, balki millatda ma’lum bir toifalarni, ma’lum bir qadriyatlarning qisman unutilishi, o‘zgarishi, hodisalarning qiyofasizlanishi deb aytish mumkin. Chunki o‘zbek xalqi juda uzoq, necha ming yillik tarixni bosib o‘tdi, lekin o‘z ma’naviyati, ma’naviy o‘zligini yo‘qotmagan. Jadid ma’rifatparvar bobolarimiz ham ijtimoiy, milliy taraqqiyotni milliy zaminga, milliy mafkuraga qurishni xalqni ma’rifatli qilish, tarbiyalash, ya’ni ijtimoiy tarbiya orqali amalga oshirishga harakat qilishgan. Lekin ularning o‘zlari ham, g‘oyalari ham bolshevizm mafkurasi, siyosati tomonidan qatag‘on qilindi.

Sobiq totalitar sho‘ro mafkuraviy tarbiya tizimi shu tariqa 70 yildan ortiq hukmronlik qildi. Bu o‘z asoratlarini ham qoldirdi: Mustaqil O‘zbekistonda milliy mafkura masalasi ko‘tarilgan ilk yillarda bu tushunchani qabul qilmaganlar ham uchradi. “Yaqindagina yakka hokim mafkuradan qutuldik, fikrlar rang-barangligi, demokratiya prinsiplarini ma’qulladik, Konstitutsiyamizda ham “Hech bir mafkura davlat mafkurasiga aylanmaydi”, – deb yozib qo‘yilgan-ku, yana hukmron mafkura bo‘ladimi, deb hadik bilan gapirdilar.

Bu totalitar mafkura bilan milliy mafkurani va uning maqsad-mohiyatini bir-biridan farqlay olmaslik oqibatida kelib chiqqan noto‘g‘ri qarash edi. Darhaqiqat, totalitar mafkura bitta partiya, ya’ni KPSS mafkurasi sifatida o‘z g‘oyalarini mutlaq haqiqat hisoblab, uni butun jamiyat mafkurasiga aylantirish va davlat orqali zo‘rlab, hammaning ongiga singdirish, davlatning o‘zini ham shu g‘oyalar quroliga aylantirdi. Ammo milliy mafkura mohiyati bundan tubdan farq kilar edi. Birinchidan, milliy mafkura jamiyatdagi turli fikrlilikka mutlaqo xalaqit bermay, turli partiyalar, siyosiy

guruhlar, jamoat tashkilotlari vositasida harakat qilishi; o‘z faoliyatida guruhlar, oqimlar yoki alohida olingan partiyaning g‘oyasi emas, balki barchaga zarur bo‘lgan, mamlakatning barcha fuqarosini birlashtiradigan g‘oya ekanligini namoyon qila bordi. Zero, alohida olingan siyosiy guruh, yoki partiyaning qarashlari, g‘oyasi butun jamiyat g‘oyasiga aylanishi, barcha guruh va tabaqalar tafakkurini birlashtirishi mumkin emas. Faqat umummilliy g‘oya, mafkuragina bunga qodir va u mamlakat va jamiyatning yetakchi, safarbar etuvchi g‘oyasiga aylana olishi aniq bo‘la bordi. Shu bois, O‘zbekiston Konstitutsiyasidagi “Hech bir mafkura davlat mafkurasi bo‘la olmaydi” degan jumla hech bir partiya mafkurasi davlat mafkurasi bo‘la olmaydi, deya to‘g‘ri mazmunda talqin qilindi. Ya’ni milliy mafkurani shakllantirish Konstitutsiyada e’lon qilingan demokratik tamoyillarga mutlaqo zid emasligini asoslab berildi.

Milliy istiqlol mafkurasi haqida kechgan mubohasalarda yana bir noto‘g‘ri qarash uchradi. Bu ham bo‘lsa, milliy mafkurani eski qoliplarga solishga, uni “bazis va ustqurma”, “ijtimoiy ong”, “davlat mafkurasi” kabi tushunchalar bilan izohlash holatlari uchradi. Bu ham milliy g‘oyalarimiz, milliy istiqlol mafkurasi mohiyatini xato tushunish, zararli nazariy qarashlar edi. Mafkuraviy targ‘ibot masalasida ham bu qatashlar uchrab turdi. “Afsuski”, – deyildi bu haqda O‘zbekiston ijodkor ziyolilari, fan va madaniyat namoyandalarining mamlakat jamoatchiligiga murojaati”da, “bugungi kunda mafkura,targ‘ibot va tashviqot kerak emas, degan noto‘g‘ri xulosa bilan yashayotgan odamlar ham uchrab turibdi”1.

Milliy istiqlol g‘oyalari targ‘iboti nazariyasi va uslubiyati masalalari respublikamiz olimlari tomonidan endi o‘rganilayotgan soha. Shu sababli bu borada ayrim ilmiy xulosalar, nazariy umumlashmalar taklif qila borildi. Ayniqsa, 2001 yilga kelib “Milliy istiqlol g‘oyasi nima?”, “Milliy istiqlol g‘oyasi deganda nimani tushunasiz?”, kabi savollardan “Milliy istiqlol g‘oyasini qanday targ‘ib qilish kerak?”, “Milliy g‘oyani targ‘ib qilishda qaysi vositalardan foydalanish kerak?” kabi savollarga o‘tish payti kelgan edi. Ana shu masalalarni muhokamaga qo‘yar ekan, professor A.Azizxo‘jaev targ‘ibot texnologiyasi milliy g‘oya va milliy mafkura mazmun-mohiyatiga mos bo‘lgan taqdirdagina kutilgan natijaga erishish mumkinligini ta’kidladi. Jumladan, milliy mafkurani targ‘ib qilishda ishtirok etuvchi barcha bo‘g‘in va ayrim pog‘onalarda:

1. uzluksizlik;
2. bosqichma-bosqichlik;
3. faollik;
4. mafkurani e’tiqodga aylantirish;
5. ish bilan so‘z birligi;
6. shaxsiy ibrat;
7. hayotiylik (yutuqlar bilan birga kamchiliklarni ham ko‘rsatish)”1 tamoyillariga amal qilish maqsadga muvofiq, degan fikrlar o‘rtaga tashlandi.

Milliy istiqlol g‘oyasi asosiy tushuncha va tamoyillarini xalqimizning barcha qatlamlari ongi va qalbiga singdirishda yuqorida taklif etilgan tamoyillar mazmun-mohiyati va ularni qo‘llash yo‘l-yo‘riqlari ijtimoiy pedagogik nuqtai nazardan qimmatlidir. Chunki mafkuraviy targ‘ibotning nafaqat ta’lim muassasalarida, balki har bir korxona, tashkilot, davlat sektori yoki xususiy sektorda bo‘lishidan qat’iy nazar amalga oshirish zarurati va bu ishda muassasa rahbari to‘la mas’ulligi asoslab berildi.

Mafkuraviy targ‘ibot nazariyasi va uslubiyati muammosini o‘rganish barcha ijtimoiy-siyosiy, gumanitar fanlarning korporativ hamkorligini taqozo etadi. Zero, “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” risolasida milliy istiqlol mafkurasining milliy, umuminsoniy, falsafiy, diniy, huquqiy, siyosiy, sotsiologik, ijtimoiy-iqtisodiy , ma’naviy-psixologik asoslarini, urf-odatlar, an’analar va intellektual qadriyatlarning mafkurani shakllantirish va boyitishdagi o‘rni va ta’siriga bag‘ishlangan tadqiqot ishlarini muntazam olib borilishi ko‘zda tutilgan.

Shuningdek, asosiy e’tibor qaratilishi zarur deb hisoblangan masalalar sirasiga:

mafkuralar kurashining jahonshumul jarayonini o‘rganish, uning monitoringi, bu kurashning umumbashariy va mintaqaviy muammolarini aniqlash; mafkuraviy tahdidlar va ularga qarshi kurashning samarali yo‘llari haqida ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish kabi vazifalar kiritilgan.

Bunday vaziyatda targ‘ibot-tashviqot ishlari tubdan isloh qilinmog‘i kerak. Buning uchun ma’naviyat va ma’rifat tizimida ijtimoiy tarbiyaga oid: mafkuraviy taktika amaliy chora-tadbirlarini ishlab chiqish; milliy istiqlol g‘oyalari mohiyatini, istiqbolni oddiy xalq tilida aks ettirish; mafkuraviy tarbiya mexanizmini ishlab chiqish; mafkuraviy qarshi kurash uslublarini, taktikasini ilmiy asoslash; mafkuraviy muxoliflarimizning ish uslublarini zararsizlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy choralar ko‘rish; mintaqalarning holatini tezkor va ilmiy asosda o‘rganib turish; olib borilayotgan targ‘ibot-tashviqot natijasi qanday bo‘layotganligini ijtimoiy-pedagogik o‘rganish lozim bo‘ladi. Ana shunday ilmiy-amaliy asosga qurilgan mafkuraviy tarbiya hozirgi diniy aqidaparastlik tahdidlarini ham, bundan keyin biz XXI asrda duch kelishimiz mumkin bo‘lgan xoh ichki, xoh tashqi mafkuraviy tahdidlarni ham yenga oladi. Bu – xalqimizning milliy mafkuraviy immunitetini kuchaytirish masalasidir.

Ushbu zarurat O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy siyosatning jahonda kechayotgan mafkuraviy globallashuvidan kelib chiquvchi mantiqiy rivoji talabi edi. Buning misolini mohiyatan ijtimoiy tarbiyaga qaratilgan, 1996 yilga kelib O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Respublika “Ma’naviyat va ma’rifat” jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi (1996 yil 9 sentabr) Farmoni mazmunida ko‘rish mumkin. Unda – hanuz joylarda ma’naviyatning mohiyatini, uning olg‘a siljishimiz farovon jamiyatga tezroq yetishimizdagi qimmatini chuqur idrok etmaslik hollari mavjud”ligi tanqid ostiga olindi. Ayrim katta-kichik rahbarlar eski mustabidlik, zo‘ravonlik mafkurasining sarqitlaridan haligacha qutula olmay, bu borada kechirib bo‘lmaydigan oqsoqlik qilib, ma’naviyatning asl mohiyatini tushunib yetmaslik tufayli unga ikkinchi darajali ish sifatida qaramoqdalar. Ma’naviy-ma’rifiy ishlarga bo‘lgan bunday e’tiborsizlik kelajagi buyuk demokratik, ozod davlat qurishdek ezgu maqsadimiz ro‘yobi uchun mutlaqo zid” ekanligi; ma’naviy-ma’rifiy islohotlar davlat siyosatining asosiy, ustuvor yo‘nalishi deb hisoblanishi ta’kidlandi va ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirishning 14 yo‘nalishi belgilab berildi.1

1999 yil 3 sentabrda Prezidentimizning Farmoni bilan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat Kengashi tashkil qilindi. Kengashning viloyat bo‘limlari, Ma’naviyat va ma’rifat markazlari ish boshladi. Ular tadbirlar, uchrashuvlar, konferensiyalar, seminarlar o‘tkazib, kitob, bukletlar chiqarmoqdalar. Amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy ishlar Respublika “Ma’naviyat va ma’rifat” markazining faoliyati ilmiy asosga qurila borildi. Tashkiliy, amaliy, ilmiy-uslubiy, hududlar bilan ishlash, ommaviy axborot vositalari orqali chiqishlar kabi yangi ijtimoiy-tarbiyaviy yo‘nalishlar tashkil qilindi .

Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar majmuida viloyat, shahar va tumanlar hokimlarining ijtimoiy ishlar hamda xotin-qizlar ishlari bo‘yicha muovinlari, korxona va tashkilotlar rahbarlarining ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosarlari lavozimlari joriy qilindi. Ushbu lavozimlar professiogrammalari tahlili ularning yuqorida qayd qilganimizek, “ijtimoiy pedagog”, “ijtimoiy xodim” lavozimlariga o‘xshashini ko‘rsatadi.

Ma’naviyat va ma’rifat markazlari faoliyatining ijtimoiy pedagogik jihati ular olib borayotgan targ‘ibot-tashviqot ishlar xalqimizning barcha qatlamlariga qaratilganida, ma’naviy-ma’rifiy ishlar mazmuni, uslublari, vositalari va shakllarining pedagogik mohiyatida aks etadi. Keng ijtimoiy ma’nodagi ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar

aholining turli toifalaridagi katta yoshli kishilar tafakkuri, e'tiqodi, qarash va munosabatlarini boyitish, yangilash, eski tuzumda qolgan zararli mafkura asoratlaridan poklash kabi vazifalarga yo'naltiriladi. Bu esa pedagogikaning tarmoqlaridan biri gerontopedagogikaning namoyon bo'lishi deyish ham mumkin.

Aholining ta'lim bilan qamrab olinmagan qismini ijtimoiy pedagogik qamrab olish orqali mafkuraviy targ'ibotni amalga oshirish barcha mamlakatlar olimlarini o'ylatib kelgan. Fransuz sotsiologi Abraam Mol bu haqda "Bugun oddiy ishchi aqlini "to'ldirishda" uning metro afishasida o'qigani, radiodan eshitgani, kino yoki televizorda ko'rgani, ishga borishda yo'lda gazetada o'qib olgani yoki hamkasblari va qo'ni-qo'shnilaridan eshitgani ko'proq rol o'ynaydi; maktabdan esa faqat yarim unut bo'lgan tushunchalar tutuni qoladi, xolos… Bizning davrimizda bilimlar asosan ta'lim tizimi orqali emas, balki ommaviy axborot vositalari orqali shakllanadi" degan edi. Allomaning bu xulosasi birinchidan, aholining ta'lim muassasalari bilan qamrab olinmagan 80%iga nisbatan va to'g'ri; targ'ibot-tashviqot tizimi uchun o'rinlidir. Shu sababli "… Psixologik-pedagogik ko'rsatmalar faqat o'qituvchilar va tarbiyachilargagina emas, ular boshqaruv-tashkiliy va keng madaniy-ma'naviy faoliyatda ham amaliyotga kiritilishi lozim.

Jamiyatda fan ijtimoiy va siyosiy munosabatlar tizimiga chuqurroq kirib borib, jamiyatning ma'naviy hayotiga yanada ko'proq ta'sir o'tkazmoqda. U faqat ishlab chiqaruvchi kuch sifatida emas, balki iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, tarbiyaviy kuch sifatida ham taraqqiy etmoqda. Bu esa mafkuraviy targ'ibotda ham ijtimoiy-siyosiy fanlarning faol hamkorligini taqozo qiladi.

Kuchli mafkuraviy targ'ibot – ogohlikka erishishning aniq, ya'ni ijtimoiy pedagogik kafolatidir. U yangi targ'ibotning yangi ma'no va mazmuni orqali har bir fuqaroda O'zbekistonning yangi ichki va tashqi siyosatiga yangi - istiqloliy, shaxsiy munosabatni shakllantirishni ham o'z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Коджаспирова Г. М. История образования и педагогической мысли: таблицы, схемы, опорные конспекты.- М., 2003.- С.93
2. Социальная педагогика и социальная работа за рубежом. Вып. 1. М. 1991.
3. G.Boiymer. Geschichte der Gymnasialkurse für Frauen zu Berlin. Moeser, Berlin 1906, p.152.
4. Моль, Авраам. Социодинамика культуры. /Перевод с французского. –М.: Изд-во «Прогресс». 1991. С. 158.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA ONA TILIGA OID LINGVISTIK KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

QAYUMOVA ODINAXON BUVARAYIM QIZI
GulDU tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang’ich sinf o‘qituvchilarida ona tiliga oid lingvistik kompetensiyalarni takomillashtirishning nazariy jihatlari, zaruriyati hamda amaliy ahamiyati, shuningdek bu borada amalga oshirilishi kerak bo‘lgan ishlar ham ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Lingvistika, ta’lim jarayoni, kompetentlik, sath, ona tili, o‘qituvchi, o‘quvchi, tahlil qilish, badiiy amaliy matnlar, tayanch va fanga oid kompetensiya, kompetensiya, pedagog.

Abstract. This article shows the theoretical aspects, necessity and practical importance of improving the linguistic competences of the future elementary school teachers, as well as the work that should be done in this regard.

Keywords. Linguistics, educational process, competence, level, mother tongue, teacher, learner, analysis, artistic practical texts, foundation and subject competence, competence, pedagogue.

Аннотация: В данной статье показаны теоретические аспекты, необходимость и практическая значимость совершенствования языковых компетенций будущих учителей начальной школы, а также работа, которую следует провести в этом направлении.

Ключевые слова: Языкознание, учебный процесс, компетентность, уровень, родной язык, учитель, обучающийся, анализ, художественно-практические тексты, базовая и предметная компетентность, компетентность, педагог.

KIRISH

So‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassislarga bo‘lgan talabni yanada oshirmoqda. Xususan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini metodik tayyorgarligini takomillashtirish borasida Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi doirasida pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarini ta’limning kredit tizimiga bosqichma-bosqich o‘tkazish, pedagogika, didaktika, amaliy pedagogik psixologiya, metodika kabi fanlarga alohida e’tibor qaratgan holda, o‘quv materiallarini va pedagogik baholashni ishlab chiqish orqali pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, ta’lim berishning zamonaviy nazariyalarini o‘zlashtirishni, pedagogik psixologiyani tushunish, ta’lim berishga kompetentlik hamda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar asoslarini egallashni ko‘zda tutgan holda pedagoglarni tayyorlash va qayta tayyorlash markazlari faoliyatini qayta ko‘rib chiqish, bo‘lajak pedagoglar uchun pedagogik faoliyatga moyillik va ijodkorlik qobiliyatlarini aniqlash va baholash imkoniyatini beruvchi metodlarni ishlab chiqish, umumta’lim muassasalarida o‘qituvchilarning sifat tarkibini, xususan magistrlik darajasiga ega bo‘lgan pedagoglar sonini bosqichma-bosqich oshirish masalalarini maqsad qilib belgilandi[1] va ta’lim sohasidagi o‘zgarishlarni shiddat bilan davom etishida juda katta turtki bo‘ldi.

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ta‘lim jarayoniga kompetensiyaviy yondoshuv jarayoni ko‘nikmalarga ega bo‘lishi bilan bog‘liq hodisa sanaladi. Bilim, ko‘nikma, malakalarni integratsiyalash g‘oyasi pedagogikada muayyan darajada o‘rganilgan. Bunday tadqiqotlar sirasiga Usarov J.E. ning “Tayanch va fanga oid kompetensiyalar asosida ta’lim mazmunini takomillashtirish va o‘quvchilar kompetentligini rivojlantirish” mavzusidagi tadqiqot ishida kompetensiyaning “ma’lum soha yoki yo‘nalishdagi tajriba va bilimlar, faoliyatni amalga oshirishga bo‘lgan tayyorlikning namoyon bo‘lishi hamda shaxsning turli nostandart holatlarda muvaffaqiyatli harakat qila olishidir”[2] ta’rifini ko‘rsatib o‘tgan.

G.A.Asilova dissertatsiya ishida “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalari bo‘yicha berilgan ta’riflarni umumlashtirgan holda “kompetensiya” – ma’lum bir sohada faoliyat yuritish jarayonida shaxsiy sifatlar hamda bilim, ko‘nikma va malakalarning samarali qo‘llanishi; “kompetentlik” muayyan faoliyatni amalga oshirish uchun mavjud hamda yuzaga chiqishi mumkin bo‘lgan layoqatdir deb ta’riflagan[3] .

B.X.Xodjayevning fikricha “kompetensiya o‘quvchining yangi shaxsiy tajribani o‘zlashtirishga doir o‘z-o‘zini rivojlantirishga doir harakatlarini integratsiyalashga xizmat qiladi”[4] .

Olima G.Yusupovaning “Bo‘lajak pedagoglarning lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishda aralash ta‘limdan foydalanish metodikasi” nomli tadqiqoti natijasida bo‘lajak pedagoglarning lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishda aralash ta‘limdan foydalanishning tanishuv, ijodiy qism, baholash bosqichlari, o‘zbek tilini bilish darajasini xalqaro mezonlar asosida baholash texnologiyalari aniqlashtirilganligini ko‘rishimiz mumkin [5]. Mazkur tadqiqotda ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning o‘zbek tilini bilish darajasini xalqaro mezonlar asosida baholash texnologiyalari bo‘yicha asoslab berilganligi ishning yutug‘i hisoblanadi.

Ona tiliga oid nazariy bilimlarni amalda qo‘llash muammosini metodist olim A. G‘ulomov o‘z tadqiqotlarida quyidagicha yoritadi. “Bazan o‘quvchilar berilgan savollarga nazariy jihatdan to‘g‘ri javob qaqytaradilar. O‘qituvchining nazarida u ona tilining qonuniyatlarining yaxshi o‘zlashtirgandek tuyuladi. Ammo yozma ishlar jarayonida ana shu o‘zlashtirilgan qoidaga nisbatan bir qator xatolar sodir bo‘ladi.

A. G‘ulomov o‘zining “Ona tili o‘qitish prinsplari va metodlari” nomli metodik qo‘llanmasida yuqoridagi fikrga qaytib, uni shunday tahlil qiladi: “Ayrim o‘qituvchilar “O‘quvchi ona tilining qonun-qoidalarini bilsa, aytib bersa, U savodli yozadi” – degan fikrni ilgari suradilar. Bu fikrga qo‘shilish ancha qiyin. Ona tilining qonun-qoidalarini bilish boshqa, uni amaliy hayotda qo‘llash ko‘nikmasiga ega bo‘lish boshqa. Afsuski ona tilin darslarida hamon qonun-qoidalarni bilish bilan uni amaliy ishda qo‘llash orasida ma‘lum

2 Usarov J.E. Tayanch va fanga oid kompetensiyalar asosida ta’lim mazmunini takomillashtirish va o‘quvchilar kompetentligini rivojlantirish. Ped. fan. dok. (DSc) ... dis. – Toshkent, 2019. – 267 bet.

3 Asilova G.A. Bojxona va soliq yo‘nalishlari talabalarining davlat tilida kasbiy muloqot yuritish kompetentsiyasining rivojlantirish (rus guruhlarida):ped.fan.dok. avtoreferat. –T.: 2017.35 bet

4 Xodjayev B.Yu., Bekmurodov A.Sh., Boltabayev M.R., Golish L.V., Gimranova O.B. Ilmiy-tadkikotchilik faoliyatiga tayyorgarlik asoslari: Ukuv-uslubiy kullanma - Toshkent: Ekonomika, 2010.

5 Yusupova Gulara Ataxanovna “Bo‘lajak pedagoglarning lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishda aralash ta‘limdan foydalanish metodikasi (o‘zbek tili mashg‘ulotlarida “Savodxon” elektron-ta‘lim resurslari misolida)” mavzusidagi tadqiqot ishi

bir tafovutlar saqlanmoqda [6]”

A.A.Xoliqov o‘zining ilmiy izlanishlarida “Bo‘lajak o‘qituvchilarning yuksak kasbiy tayyorgarlik darajasi, malakasi, bilimi, madaniy va ma’naviy-ahloqiy saviyasining sifatini zamon talablariga javob beradigan darajada oshirib borish; bo‘lajak o‘qituvchilarni yuqori malakali kadrlar tayyorlash bilan pedagogik faoliyatning nufuzi va ijtimoiy maqomini ko‘tarishga o‘rgatish” dan iboratligini ta’kidlaydi[7] .

6 A. G‘ulomov. Ona tili o‘qitish prinsiplari va metodlari. - T.: „O‘qituvchi", 1992.15-16

7 Xoliqov A. Pedagogik mahorat // O‘quv qo‘llanma. Toshkent. “IQTISOD-MOLIYA” 2010. 312

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Lingvistik kompetensiya – bu, nutqiy faoliyatni tartibga soluvchi grammatik qoidalarni amaliyotda uyg‘unlikda – o‘rganayotgan tilda so‘z va jumlalarni to‘g‘ri qo‘llay olish, nutqda fikrning gapdagi ifodasining to‘g‘ri-noto‘g‘riligini ajrata olish layoqatidir, ya’ni bo‘lajak pedagogning o‘zbek tilidan “lingvistik kompetensiyasi” tushunchasi deganda bu uning o‘zbek tili birliklari, nutqiy xususiyatlarni anglay olishi, til hodisalarini tahlil qila olishi, qismlarni bir butunga birlashtira olishi, namunalar asosida jumla qura olishga tayyorligidir.

Shunga ko‘ra lingvistik kompetensiyani quyidagicha tasniflash mumkin.



1.1-rasm. Lingvistik kompetensiyaning muhim tarkibiy qismlari

Bugungi kunda ona tilini o‘qitishning ustuvor yo‘nalishi - innovatsion g‘oya sifatida kompetensiyaviy yondashuv belgilandi. Ushbu yondashuv boshlang‘ich sinflarda ona tili ta’limi bo‘yicha davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturiga ko‘ra

A1 darajaga xos lingvistik va nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun asos vazifasini bajaradigan malaka talablarida o‘z ifodasini topdi. E’tiborli tomoni shundaki,

hujjatda nazariy bilimlarni amalda qo‘llashga doir talablar ham qo‘yildi.

Lingvistik va nutqiy kompetensiyalar nazariy ma’lumotlar qaysi maqsadlarda o‘rganilishiga qarab o‘zaro farqlab shakllantiriladi. Ona tili darslarida o‘quvchilar nutqining to‘g‘riligi qoidalar yordamida ta’minlanar ekan, nazariy ma’umotlardagi bilim unsurlariga farqli yondashuvni joriy etish zaruriyat sanaladi. Ushbu yondashuvga ko‘ra nutqiy kompetensiyani shakllantirishda ayni qoidalarga ustuvor ahamiyat qaratish lozim.

O‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarda lingvistik kompetensiyani shakllantirish jarayoniga 3 xil yondashuv mavjud bo‘lib ular quyidagilardan iboratdir.

Maktab o‘quv dasturi asosida ona tili fanidan o‘quvchilarga beriladigan barcha bilimlar, o‘quvchilarning tilga oida bilimlarni o‘rinli tarzda amaliy hayotda qo‘llashiga, ya’ni til qonuniyatlaridan nutqiy faoliyatda samarali foydalanishlariga xizmat qiladi. Bundan tashqari, qoidalarni amalda qo‘llash jarayoni nutq bilan bevosita bog‘lanadi: til hodisasini tahlil va tadqiq etish, qoidadan foydalanib kerakli yechimga kelish so‘z vositasida mushohada yuritishni taqozo qiladi. Shunga ko‘ra o‘quvchilarning nutq saviyasi asosida yuzaga chiqadigan nutqiy faoliyatga asoslanganlik yondashuvi o‘ta muhim sanaladi.

Hozirgi kunda kognitiv ta’lim (yondashuv) matematika, fizika, texnologiya, tabiiy fanlar bilan bir qatorda ona tili darslaridan mustahkam o‘rin egallamoqda. “Ona tili ta’limining dolzarb masalalari” nomli maqola mualliflari bunday izoh beradilar: “Kognitiv (ingl. cognition - bilishga oid, idrokiy) ta’lim esa o‘quvchini izlanish, qiyoslash, xulosa chiqarishda mustaqillikka yo‘naltiradi. Demak, reproduktiv ta’lim bilim bersa, kognitiv ta’lim bilim olishga undaydi, bilim olish yo‘llarini o‘rgatadi, usullarini tavsiya etadi - o‘quvchi qo‘liga bilim kalitini tutqazadi”[8] . Darhaqiqat, talim jarayoniga kognitiv yondoshuv asosida o‘quvchilarning mantiqiy tafakkuri o‘sadi, mustaqil fikrlashi rivojlanadi, dunyoqarashi kengayadi hamda har bir sohaga oid o‘zining shaxsiy fikriga ega bo‘ladi.

Ona tiliga oid bilimlarni o‘rganish, ularni amalda qo‘llash ko‘nikmalari ustida ishlash jarayoni kreativ yondashuvga xosdir. Ushbu yondashuvga ko‘ra o‘quvchilarda mustaqil ravishda bilim olishga, ijodkorlikka, tengdoshlaridan orqada qolmaslikka bo‘lgan intilishni tarbiyalash maqsad qilib olinadi.

O‘quvchilarning lingvistik kompetentsiyasining rivojlanish darajasini aniqlash

Lingvistik kompetentsiyani shakllantirish ko‘rsatkichi sifatida biz uning vazifasini bajaradigan quyidagi tomonlarini shakllantirishni ko‘rib chiqamiz. Buni esa biz lingvistik kompetentsiya mezonlari asosida aniqlaymiz. Lingvistik kompetentsiya mezonlariga asoslanib, biz uning har bir jihatining quyidagi rivojlanish darajalarini aniqladik: yuqori, o‘rta va past. Keling, har bir darajaning mazmunini lingvistik kompetentsiyaning u yoki bu jihatlari bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqaylik.

Leksik-semantik jihat.

Leksik-semantik jihatning yuqori darajada shakllanishi lingvistik kompetentsiya mustaqil to‘g‘ri va o‘quvchining kontekstdagi so‘zlarni aniq ishlatishi, ko‘chma ma'nodan o‘rinli foydalanishi tushuniladi. Ushbu jihatning yuqori darajada rivojlanishi bolaning ma'noni ifodalashning turli usullarini mustaqil ravishda izlashni o‘z ichiga oladi (sinonimlarni, antonimlarni to‘g‘ri ishlatish, ko‘p ma'noli so‘zlar). Yuqori daraja dialogik muloqot sharoitida quyidagi leksik-semantik guruhlarda o‘zgaruvchanlikni ta'minlovchi so‘zlarning o‘z-o‘zidan tanlanishi bilan tavsiflanadi. Quyidagi leksik-semantik guruhlar doirasidagi birliklar, aks ettiruvchi bolalik dunyosi, bolaning kognitiv

8 Metodika grammatiki i orfografii v nachalnых klassax / V.A.Kustareva, N.K.Nikitina, N.S.Rojdestvenskiy i dr. - 2-ye izd. - M.: Prosveщeniye, 1979.- 239 s.

ehtiyojlari va kundalik muloqoti uchun zaruriy nutqiy birliklar kiradi: oila, hayvonlar, qushlar, gullar, oziq-ovqat iste'moli, kiyim-kechak, sport o‘yinlari, kunning qismlari va boshqalar. Matn bazasini yaratishda xilma-xillik miqdori 60 va undan yuqori bo‘ladi, bu bizga so‘zlarni erkin tanlash haqida gapirish imkonini beradi. Yuqori daraja nutq etikasining asosiy shakllarini bilishni va ulardan til me'yoriga muvofiq to‘g‘ri foydalanishni nazarda tutadi.

Leksik-semantik jihatning o‘rtacha darajasi o‘quvchining o‘qituvchi yordamida so‘zlardan to‘g‘ri foydalanishini nazarda tutadi. Majoziy vositalarni tanlash sodda antonimlar bilan cheklangan, Bola sinonimlarning ma’nolarini tushuntiradi va ta’riflardan to‘g‘ri foydalanadi. Dialogik muloqot sharoitida so‘zni tanlash mavzuni o‘zlashtirish darajasi bilan oldindan belgilanadi. Bu daraja bolalar uchun eng qiziqarli bo‘lgan cheklangan mavzular doirasidagi leksik birliklarni bilish bilan tavsiflanadi: hayvonlar, gullar, mevalar, tashqi ko‘rinish. Matn bazasini yaratishda xilma-xillik miqdori 55 dan 40 atrofida bo‘ladi. Nutqda odob-axloqining shakllari to‘g‘ri qo‘llaniladi, lekin tashabbus bilan emas (o‘qituvchining yordami talab qilinadi).

Leksik-semantik jihatning shakllanish darajasining pastligi semantikani ifodalash uchun lug‘atning yetarli emasligida namoyon bo‘ladi. Bola majoziy iboralarni ishlata olmasligini ko‘rsatadi. Matnlarni tuzishda leksik xilma-xillik koeffitsienti 40 dan past, bu so‘zlarning tez-tez takrorlanishini ko‘rsatadi, har doim ham kontekst bilan aniqlanmaydi. Etika me'yorlariga e'tibor bermaslik, biror narsaga munosabat bildirish qiyin. Leksik-semantik guruh (oila, hayvonlar, ranglar) kommunikativ ehtiyojni qondirish uchun etarli darajada. O‘qituvchining yordami bilan ham to‘g‘ri so‘z shaklini tanlay olmaydi.

Faoliyat-nutq jihati

Tilshunoslikning yuqori darajadagi faolligi nutq jihatida o‘z aksini topadi. Kompetentsiya bolalarning leksik va grammatik birliklarni matnda mustaqil ravishda to‘g‘ri ishlatishini, turli xil nutqlarni muvofiqlashtirishni nazarda tutadi. Yuqori daraja bolaning dialogik muloqotdagi tashabbusini, so‘rash va berish qobiliyatini nazarda tutadi. Bolaning fonetika va grammatika sohasidagi bilim va ko‘nikmalari unga oldindan aytib bo‘ladigan ijtimoiy va kundalik vaziyatlarda o‘zining kommunikativ ehtiyojlarini amalga oshirishga imkon beradi.

Faoliyat-nutq aspektining o‘rtacha darajasi ta'minlaydi.Savollarga javob berish jarayonida o‘qituvchidan yordam oladi. Leksik-grammatik va fonetik birliklardan foydalanishda sezilarli darajada emas, bir qator kichik xatolar qayd etilgan. O‘quvchi osonlik bilan muloqotga kirishadi, lekin mustaqil so‘rovlar qilishda qiyinchiliklarga duch keladi va oddiy ma’lumotlarni taqdim etish. Kommunikativ ehtiyoj amalga oshiriladi.

Faoliyat-nutq jihatining past darajasi tovush talaffuzi, leksik-grammatik va monologik ko‘nikmalar shakllanmaganligini ko‘rsatadi. Bolalar topshiriqni tushunmasliklarini ko‘rsatadilar yoki dialogga kirishishdan bosh tortadilar. Bir qator hollarda, oddiy ehtiyojlarni ifodalashda, ular doimiy yordam bilan alohida so‘zlar va tovushlar bilan ishlaydigan vazifaning kichik qismini bajarish qobiliyatini kashf etadilar.

Milliy-madaniy jihat

Milliy-madaniy jihatning shakllanishining yuqori darajasi o‘quvchining asosiy milliy va madaniy birliklar haqidagi bilimlarini ko‘rsatadi. O‘quvchi o‘z mamlakati va o‘rganilayotgan ona tiliga nisbatan muhabbatli bo‘lishi, ijtimoiy-madaniy vaziyat sharoitlari o‘rtasidagi muvofiqlikni mustaqil ravishda amalga oshirishi, onaga nisbatan ijobiy munosabatni nazarda tutadi. Ular chet tili, ingliz tilida so‘zlashuvchi mamlakatlarni bilishi, ularning rasmiy nomlaridan to‘g‘ri foydalanishi sanaladi. O‘zbekiston va chet davlatlarning(Angliya, Rossiya) bayramlari, milliy libosining xususiyatlaridan yetarli darajada boxabarlik kuzatiladi, bir- biridan farqlay oladi.

Milliy-madaniy jihat shakllanishining o‘rtacha darajasi o‘quvchining asosiy milliy va madaniy voqeliklarni bilishini nazarda tutadi. Ijtimoiy-madaniy sharoitlar bilan ularning aloqalarini o‘rnatishda o‘qituvchining yordami kerak. Bolalar ingliz tilini o‘rganishga ishonishadi. Turli xalqlar kiyimidagi umumiy xususiyatlarni anglash, milliy libosga misollar keltirishda qiyinchilikka duch kelishadi. O‘zbekiston va chet davlatlarning(Angliya, Rossiya) bayramlari, milliy libosining xususiyatlaridan yetarli darajada boxabar emas ekanligi kuzatiladi, bir- biridan farqlashda qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Milliy-madaniy jihat shakllanishining past darajasi mamlakatlarning milliy madaniy voqeliklarini tarqoqlikda yoki to‘liq bilmaslikda namoyon bo‘ladi. Mavjudlikni o‘zaro bog‘lashning iloji yo‘q o‘z mamlakati madaniyati va o‘rganilayotgan til mamlakati haqidagi g‘oyalar ijtimoiy-o‘qituvchining so‘ragan savollari yordamida madaniy vaziyat. Chet tilini o‘rganishda juda cheklangan ma’lumotlar mavjud. O‘zbekiston va chet davlatlarning(Angliya, Rossiya) bayramlari, milliy libosining xususiyatlaridan bexabarlik fosh etiladi.

Lingvistik kompetentlik butunlik sifatida bir necha struktur komponentlardan tashkil topadi. Eng avvalo, ona tili fani haqidagi bilim va malaka o‘rtasidagi munosabatdan iborat. Ona tili haqidagi bilim esa o‘zbek tilining funksiyasi, ona tili fanining bo‘limlari, til sistemasi va uning birliklari, bu birliklarning ma‘no va vazifalari, so‘z turkumlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari, gap bo‘laklari va gapning ifoda maqsadiga, tuzilishiga ko‘ra turlari, ularning uslubiy belgilari imloviy xususiyatlari sistemasidan tashkil topadi. Malaka esa yuqorida ko‘rsatilgan barcha ona tili fani bo‘limlari va ularning birliklaridan nutq vaziyatiga muvofiq foydalana olish qobiliyatini shakllantirish orqali vujudga keladi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida hamda, ularing kelajakdagi ish faoliyatlarida quyidagi metoddan foydalanish juda katta samara beradi.

“4K MODEL” metodi

4K yondashuvi o‘z nomi bilan 4 ta tamoyilni o‘z ichiga oladi. Bular:

1. Kritik (tanqidiy) fikrlash.
2. Kreativ fikrlash:
3. Kommunikativlik.
4. Kollaboratsiya.

Yangi innovatsion yondashuvni O‘zbekiston maktablarida joriy etishdan oldin xorijiy tajribalar ham o‘rganildi. Singapur, Xitoy, Angliya, Finlandiya, Estoniya kabi ta’limi ilg‘or mamlakatlar o‘quvchilarda 4K tamoyilini o‘z ichiga olgan XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishga asosiy e’tibor qaratadi.

PISA, PIRLS kabi xalqaro reytinglarda yuqori o‘rinlarni egallagan davlatlar ta’limida o‘quvchilarda “4K”ni o‘z ichiga olgan muloqot, tadqiqot, yaratuvchanlik kabi ko‘nikmalarga alohida urg‘u berilgan va shuning uchun ham ular xalqaro reytinglarda katta natijalarga erishishyapti.

Kritik (tanqidiy) fikrlash: Ushbu metodologiya o‘quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o‘z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilar muammolarga tahliliy nuqtayi nazardan yondashishni o‘rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o‘z nuqtayi nazarini shakllantiradi.

Kreativ fikrlash: O‘quvchilar o‘z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo‘llashni o‘rganadi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi.

Kommunikativlik: O‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma’lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o‘rganadi.

Kollaboratsiya: Darsliklar o‘quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o‘quvchilarga hamkorlik qilish, samarali

fikr almashish va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash ko‘nikmalarini o‘rganishga ko‘maklashadi. Ushbu metod talabalarda ham o’qituchilarning ish faoliyatlarida ham qo’llash tavsiya etiladi.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash o‘rinliki, lingvistik kompetensiya atamasi dastlab lingvistika va metodikada chet tillarni o‘qitish tizimida foydalanilgan bo‘lsa, qisqa muddatdagi izchil taraqqiyoti davomida qo‘llanilish doirasi kengaydi, yangi so‘zlarning yasalishiga asos bo‘ldi. Nafaqat chet tilini o‘qitish, balki ona tilini va ikkinchi tilni o‘qitishda, umuman tillarni o‘qitish metodikasida keng o‘rin egalladi. Kommunikativ kompetensiya umumta’lim maktablarida ta’lim va tarbiyani amalga oshirishda tayanch kompetensiyalardan biri, o‘quvchilarda shakllantiriladigan asosiy kompetensiya sifatida e’tibor markaziga qo‘yilsa, oliy ta’limda kasbiy kompetentlikning tarkibiy qismi sifatida tadqiqotlar obyektiga aylanmoqda. Binobarin, lingvistik kompetensiyalarning tarkibiy qismlarini ajratib olish, uning har bir komponentiga xos xususiyatlarni aniqlashtirish, o‘zbek tili ta’limining nazariy va amaliy masalalarini hal qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni.
2. Usarov J.E. Tayanch va fanga oid kompetensiyalar asosida ta’lim mazmunini takomillashtirish va o‘quvchilar kompetentligini rivojlantirish. Ped. fan. dok. (DSc) ... dis. – Toshkent, 2019. – 267 bet.
3. Asilova G.A. Bojxona va soliq yo‘nalishlari talabalarining davlat tilida kasbiy muloqot yuritish kompetentsiyasining rivojlantirish (rus guruhlarida):ped.fan.dok. avtoreferat. –T.: 2017.35 bet
4. Xodjayev B.Yu., Bekmurodov A.Sh., Boltabayev M.R., Golish L.V., Gimranova O.B. Ilmiy-tadkikotchilik faoliyatiga tayyorgarlik asoslari: Ukuv-uslubiy kullanma - Toshkent: Ekonomika, 2010.
5. Yusupova Gulara Ataxanovna “Bo‘lajak pedagoglarning lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishda aralash ta‘limdan foydalanish metodikasi (o‘zbek tili mashg‘ulotlarida “Savodxon” elektron-ta‘lim resurslari misolida)” mavzusidagi tadqiqot ishi.
6. A. G‘ulomov. Ona tili o‘qitish prinsiplari va metodlari. - T.: „O‘qituvchi", 1992.15-16
7. Xoliqov A. Pedagogik mahorat // O‘quv qo‘llanma. Toshkent. “IQTISOD-MOLIYA” 2010. 312
8. Metodika grammatiki i orfografii v nachalnыx klassax / V.A.Kustareva, N.K.Nikitina, N.S.Rojdestvenskiy i dr. - 2-ye izd. - M.: Prosveщeniye, 1979.- 239 s.
9. http://www.multimedia.uz/uzb/article

BOLALARDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB EKOLOGIK TA`LIM BERISH

ALLABERDIYEVA KUMRI XAMRAYEVNA
Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasi o'qituvchisi
PhD.

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari ning turli yosh guruhlarida ekologik ta'lim berishda innovatsion yondashish haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, bolalarda tabiat haqidagi tasavvurlarni shakllantirish, jonivor va o'simliklar haqida ilk tushunchalarni berish masalalari yoritilgan.

Kalit so'z. Ekologik ta'lim, tabiat, empirik, kognitiv, evristik, kreativ, adaptiv, innovatsion yondashuv.

Аннотация. В статье рассматривается инновационный подход к экологическому воспитанию в разных возрастных группах дошкольных образовательных учреждений. Также освещаются вопросы формирования представлений детей о природе, дающие первые представления о животных и растениях.

Ключевые слова. Экологическое образование, природа, эмпирический, познавательный, эвристический, творческий, адаптивный, инновационный подход.

Abstract. The article discusses the innovative approach to environmental education in different age groups of preschool educational institutions. Also, the issues of forming children's ideas about nature, giving the first understandings about animals and plants are covered.

Keywords: Ecological education, nature, empirical, cognitive, heuristic, creative, adaptive, innovative approach.

Kirish. Maktabgacha ta'limda kechayotgan islohotlar ta'lim sifatini oshirishni shu bilan birga bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirib borishni ko'zda tutadi. Bugungi kunda ekologiya va atrof – muhit muhofazasi muammosi dunyo hamjamiyatini havotirga solayotgan bir vaqtda har bir shaxs, voyaga yetayotgan yoshlar bu borada zarur bilimga ega bo'lishi talab etiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilorlari tarbiyalanuvchilariga tabiat bilan tanishish va unga ehtiyotkorona munosabatni shakllantirish bevosita tarbiyachining zimmasiga tushganligi bois, ularda ekologik madaniyatni shakllantirish yuzasidan tayyorlash bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, har bir bolada o'zi yashab turgan mahalliy o'lka va O'zbekiston tabiatiga muhabbat bilan qarash, unga ko'ngil qo'yish ishtiyoqini bolalikdan o'stirib borilsa bu tuyg'u bolaning har bir yosh davrlarida rivojlanib, boyib boradi.

O'zbekiston Konstitutsiyasining 62-moddasida: "Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar", 68-moddasida esa – "Yer, yer osti boyliklari, suv o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir. Yer qonunda nazarda tutilgan hamda undan oqilona foydalanishni va uni umummilliy boylik sifatida muhofaza qilishni ta'minlovchi shartlar asosida va tartibda xususiy mulk bo'lishi mumkin" deb yozilgan. [1]

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga kichik guruhdan boshlab ekologik tushunchalarni shakllantirish, ekologik ta'lim va tarbiya berishning yangi innovatsion yo'llarini izlab topish hamda amalda qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Ekologiya bu – tirik mavjudodlarning yashash sharoiti va tevarak atrofdagi muhit bilan o'zaro munosabatlaridir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari tomonidan

bolalarga ekologik ta’lim va tarbiya, ekologik ong, ekologik faoliyat, ekologik mas’uliyat, ekologik madaniyatni shakllantirish va bunda olingan bilimlardan maqsadli foydalanish yo‘llarini o‘rgatish juda muhimdir. [2]

Barkamol avlodni tarbiyalash koinot atalmish ulkan ekologik tizimning xatosiz ishlashiga ma’lum bir ma’noda bog‘liqdir. O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A. Karimov ekologiya masalasiga alohida to‘xtalib, “Ekologiya har bir fuqaroning va oilaning maxsus e’tibor zonasiga aylanishi zarur”, deb ta’kidlashi ham bejiz emas.

Halkimizning “SOG‘ tanda — sog‘lom aql”, degan naqli asrlar davomida avloddan-avlodga o‘tib kelmokda. Chunki, atrof - muhit tozaligi, tabiat sofligi, go‘zalligi, boyligi insonning go‘dakligidanoq, sog‘lom, jismonan baquvvat, aqlan yetuk bo‘lib o‘sishida muhim ahamiyatga ega.

Tahlil va natijalar.

Ekologik ta’lim va tarbiya, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tabiat haqidagi tasavvurni shakllantirish orqali tabiat bilan tanishtirish mashg‘ulotlarida berib boriladi. Shuningdek, tabiatning rang-barangligi, foydali va zararli tomonlarini tanishtirib borish bilan birga, uni asrab-avaylash, rivojlantirish, boyitish kerakligini, buning uchun har birimiz mas’ul ekanligimizni va mehnat qilishimiz lozimligi uqtiriladi. Shu sababli ham, “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturida tabiat bilan tanishish har bir yosh guruhlarda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar soniga alohida ahamiyat berilgan.

1-jadval. – “Ilk qadam”Davlat o‘quv dasturida tabiat bilan tanishish yuzasidan 3 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan guruhlarda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar soni

№	Mashg‘ulot nomi	O‘quv yili mobaynida			Sog‘lomlashtirish davri mobaynida		
		Hafta mobaynida	Oy mobaynida	O‘quv yili mobaynida	Hafta mobaynida	Oy mobaynida	Sog‘lomlashtirish davri mobaynida
1	Tabiat bilan tanishtirish	1	4	36	1	4	12

Mashg‘ulot jarayonida jonli va jonsiz tabiat, o‘simliklar va hayvonot dunyosi haqida tasavvurlar shakllantirilib boriladi. Ekologik ta’lim va tarbiya kichik guruhdan boshlanadi. Bu bosqichda bolalarni tabiat bilan tanishtirish jonli mavjudodlarga qiziqtirish hamda ularga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishni hamda, ularni parvarish qilishda kattalarga yordam berishni o‘rgatishdan iborat.

Bolalarga tabiat hodisalarini (yomg‘ir yoki qor yog‘ayotgani, quyosh nur sochayotgani, shamol esayotgani), ko‘katlar, daraxtlar va ularning farqlovchi belgilarini (ko‘kat - past, ko‘k; daraxt — baland, uning barglari ko‘p) ko‘rish va aytish o‘rgatiladi.

Maydonchaga uchib keluvchi qushlar va ulardagi xatti-harakatlarning ayrim xususiyatlari bilan (uchadi, daraxtga qo‘nadi, cho‘qiydi, tovush chiqaradi) tanishtiriladi.

Tabiat burchagida: bolalarga xona o‘simliklari, qafasdagi qushchalarni ko‘rsatib, ularning nomini aytishni, o‘simliklarga suv quyish, qushchalarga ozuqa va suv berish, ularni parvarish qilish o‘rgatiladi.

O‘simliklar dunyosi. Bolalarni olma, limon, apel¬sin kabi mevalar bilan tanishtirib, ularni tashqi ko‘rinishi, ta’midan bilib olishga o‘rgatish, daraxtlarni, gullarni (hududda, va xonada gullovchi gullar) farqlash, nomini aytishni shakllantirish.

Hayvonot dunyosi. Bevosita kuzatishlar, rasmlar, o‘yinchoqlar orqali bolalarni jonivorlar (kuchuk, mushuk, tovuq, xo‘roz, echki, sigir, quyon, ayiq; jonivorlarning bolalari jo‘jalar, mushukchalar, uloq, buzoq va boshqalar) bilan tanishtirish. Jonivorlarning tana qismlari: kalla, dum, oyoq; boshida: kuloq, shox, ko‘z, og‘iz va boshqalarni nomlarini ayta bilishni o‘rgatish.

Bolalar jonivorlarning eng ko‘zga tashlanadigan xarakterli xususiyatlarini: sigir, echkida — shox, xo‘rozda — chiroyli toj, quyonda — uzun quloq, kalta dum, ayiqda - kichkina quloq, bo‘lib, dum yo‘qligini ajrata biladi; xo‘rozning qanday qichqirishini, mushuk, kuchuk qanday ovoz chiqarishini bilishadi.

O‘rta guruhda bolalarga o‘simlik va hayvonot olami, tabiatdagi mavsumiy holatlar haqidagi tasavvurlarini shakllantirish; atrof-tabiatga muhabbat, uning go‘zalligidan zavqlanish, o‘simlik va jonivorlarga extiyotkorona munosabat hissi: buta va gullarni bosmay aylanib o‘tish, ularni parvarish qilish va ulardan zavq olishni tarbiyalash.

Katta guruhda yaqin atrofdagi o‘simliklar, uy va yovvoyi hayvonlar, tirik jonivorlarning hayot sharoitlari, tabiatdagi fasl, hodisalar haqida bolalarda mavjud bo‘lgan tasavvurlarni aniqlash, tartibga keltirish va kengaytirish; tabiat ob’ektlarining o‘ziga xos va muhim belgilarini aniqlash asosida umumlashgan tasavvurlarni shakllantirish;

jonajon o‘lka tabiatiga muhabbat va ehtiyotkorlikni tarbiyalash; o‘simliklardan, hayvonlardan, tevarak-atrofdagi tabiat go‘zalligidan zavqlanishga o‘rgatish;

Bolalarni tabiatda o‘zini madaniyatli tutish; dam olish joylarini iflos qilmaslikka, gullab turgan o‘simliklarni, butalarni, hayvonlarni ehtiyot qilishga o‘rgatish zarur.

Tayyorlov guruhida jonli va jonsiz tabiat haqida bolalarning aniq tasavvurlarini kengaytirish va chuqurlashtirish; ularni hayvonlar va o‘simliklar dunyosi bilan tanishtirish; tabiat hadisalarini fasllarga qarab o‘zgarib borishini yil davomida kuzatish; tabiat taqvimida tasvirlab berish; bolalarda tabiatga nisbatan mexr-muhabbatni, o‘simliklar va hayvonlar haqida g‘amxo‘rlik qilish ko‘nikmasini tarbiyalash; o‘simliklarni payhon qilmaslikka va hayvonlarga ozor bermaslikka o‘rgatish; tabiat qo‘ynida o‘zini odobli tutish ko‘nikmalarini: butalar va daraxtlarni sindirmaslik, hayvonlarni qo‘rqitmaslik, dam olish joylarida axlat qoldirmaslik ko‘nikmalari singdirib boriladi. [2]

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyachi bolalarga ekologik ta’lim va tarbiyani berishda empirik, kognitiv, evristik, kreativ, adaptiv, kabi pedagogik texnologiyalarning yo‘nalishlaridan foydalangan holda, mashg‘ulotlarni tashkil etsa bolalardagi faollik yanada rivojlanadi.

Empirik - (tajriba) sezgi a’zolari orqali bilim olish. Bu texnologiyada asosiy e’tibor sezgi a’zolarining tabiiy rivojlanganlik imkoniyatlariga tayangan holda bilim berish va ularni yanada takomillashtirib borishga qaratiladi. [3]

Kognitiv - (bilishga oid) atrofdagi olam to‘g‘risidagi bilimlar doirasini kengaytirish texnologiyasi. U tabaqalash (tarkibiy qismlarga ajratib o‘rganish) tafakkurini shakllantiradi, bilish ehtiyojlarini rivojlantiradi. [3]

Evristik – (haqiqatni topish) yo‘naltiruvchi savollar berish yo‘li bilan ta’lim berish tizimi. Topqirlik, faollikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi, o‘quv-izlanish ta’lim metodi. Optimallashgan (ko‘p variantlardan eng ma’qulini, mosini tanlash) tafakkurni rivojlantiradi. [3]

Kreativ – (ijodiy) tadqiqot xarakteriga, xususiyatiga ega bo‘lib, bolalarda maqsadga yo‘naltirilgan ijodiy tafakkurni jadal rivojlantiradi. [3]

Adaptiv – (moslashtirish) axborotlarni o‘rganish va ulardan foydalanish jarayonini o‘rganish hamda o‘rgatish uchun qulaylashtirish, moslashtirish asosida kutilgan natijaga erishish. [3]

Didaktik o‘yin texnologiyalari amalga

oshiriladigan ayrim noana'naviy mashg'ulot shakllari:

Ishchanlik o'yini darsi - mashg'ulot mavzusi bo'yicha masalalarni hal etish jarayonida bolalarning faol ishtirok etishini ta'minlash orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish mashqi.

Rolli o'yin mashg'uloti - mashg'ulot mavzusi bo'yicha masalalarni o'rganishda bolalarga oldindan ma'lum rollarni taqsimlash va mashg'ulot jarayonida shu rolni bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarni mustahkamlash darsi. [4]

Teatrlashtirilgan mashg'ulot – mashg'ulot mavzusi bilan bog'liq sahna ko'rinishlarini tashkil etish orqali mashg'ulot mavzusi bo'yicha chuqur, aniq ma'lumotlar berish darsi. [4]

Kompyuter mashg'uloti - tegishli mashg'ulot turi bo'yicha mashg'ulot mavzusiga doir kompyuter materiallari (multimedia, vertual o'quv kursi va shu kabilar) asosida o'tiladigan dars. [4]

Yarmarka mashg'uloti – mashg'ulot mavzusini bo'laklar bo'yicha oldindan o'zlashtirgan bolalarning o'zaro muloqot asosida guruhga qiziqarli tushuntirish orqali o'tiladigan mashg'ulot.

Integral (integratsiyalashgan) mashg'ulot - bir nechta mashg'ulot turlariga doir va integratsiyalash uchun qulay bo'lgan mavzular bo'yicha tashkil qilingan mashg'ulot bo'lib, bolalarning turli mashg'ulot turlarga qiziqishlarini ortirib, ta'lim jarayonidagi faolliklarini ta'minlaydi.

"Mo'jizalar maydoni" mashg'uloti - bolalar bilan o'tkaziladigan qiziqarli o'yin bo'lib, turli savollarga belgilangan vaqt davomida to'g'ri javoblar topish va g'oliblarni rag'batlantirish orqali bolalarda fikrlash, topqirlik, ziyraklik va bilimlarini kengaytirib borish sifatlarini shakllantiradi. [4]

Didaktik o'yinlarini tanlashda ishtirokchilarning yoshi, bilimi va tarbiyalanganlik darajasi hisobga olinadi. Har bir didaktik o'yin mashg'ulotlariga o'ziga xos havfsizlik talablari qo'yiladi. Bu havfsizlik talablariga to'liq rioya qilinishi har bir tashkilotchining doimiy e'tiborida bo'lishi lozim. Bundan tashqari, har bir didaktik o'yin uchun sarflanadigan vaqt miqdorini to'g'ri belgilash va unga rioya qilishning o'ziga xos asoslarini bilish va mashg'ulotning maqsadiga muvofiq qo'llash talab qilinadi.

"Klaster" o'yini

Maqsad: Klaster usulida daraxt meva turlarini guruhlash, ba'zi belgilariga qarab, umumlashtira olish, e'tiborli bo'lish. [5]

Kerakli jihozlar: Turli quruq va ho'l mevalarning alohida – alohida rasmlari.

O'yinning borishi: Bolalarga turli xildagi quruq va ho'l mevalarning alohida-alohida rasmlari to'plami beriladi. Bolalar quruq va ho'l mevalarni turiga qarab guruhlab chiqadilar – ho'l mevalarga olma, o'rik, shaftoli, gilos, nok va quruq mevalarga yong'oq ,bodom,pistani ajratadi.



“Charxpalak” texnologiyasidan foydalangan holda“Nimaning bolasi?” o‘yinini tashkil qilish.

Maqsad: bolalarni hayvonot olami bilan yaqindan tanishtirish, ularning so‘z boyligini oshirish.

Kerakli jihozlar: Ot, toychoq, echki, uloqcha, qo‘y, qo‘zichoq, mushuk, mushukcha, tuya, bo‘taloq.

O‘yinning borishi:

Tarbiyachi: Bolajonlar, hayvonlarning bolalariga onasini topishga yordam beramiz.

2-jadval

№		Mushukniing bolasi	Qo‘yning bolasi	Tuyaning bolasi	Echkining bolasi	Otning bolasi
1	Toychoq					*
2	Uloqcha				*	
3	Mushukcha	*				
4	Qo‘zichoq		*			
5	Bo‘taloq			*		

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol uslublar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalar)dan foydalanib, ta’limning samaradorligini ko‘tarishga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo‘llanilganda pedagoglar egallayotgan bilimlarni o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari chiqarishlariga qaratilgan. Pedagog bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi. Shu bilan bir qatorda pedagog boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchi vazifasini bajarib, o‘quv jarayonida asosiy figuraga aylanadi. [5]

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilariga ekologik ta’lim tarbiya berish jarayonida quyidagi tuzilgan test va maqol kabi ekologik tarbiyaning vositalaridan foydalanish o‘rinlidir.

3-jadval

№	Test savollari	A	V	S
1	Viz - viz, viz - viz uchamiz, qo‘namiz. Guldan-gulga ko‘chamiz, Gul sharbatin ichamiz. Viz - viz, viz - viz, Qani toping, kim biz?	asalari	pashsha	qovoqari
2	Uy hayvonini toping.	sigir	bo‘ri	yo‘lbars
3	Qaysi qush bahorning elchisi?	qaldirg‘och	bulbul	musicha
4	Qishin - yozin ko‘m - ko‘k libosda. A) tol V) archa S) bodom	archa	tol	bodom
5	Poliz ekinini toping.	Sabzi,karam	Anor,olma	Pista,bodom
6	Yovvoyi hayvonni toping.	ayiq	ot	tuya
7	Qaysi hasharot eng kam umr ko‘radi?	kapalak	chumoli	Pashsha
8	Bahorda birinchi ochiladigan gul.	boychechak	lolaqizg‘aldoq	chuchmoma
9	Qaysi daraxt meva qilmaydi?	terak	shaftoli	olma
10	Qaysi qushlar qishda yurtimizda qishlaydi?	bulbul, qaldirg‘och	chumchuq, musicha	turna, laylak

Xalq og‘zaki ijodidan maqollar ham ta’limiy hamda tarbiyaviy ahamiyatga ega. Shu bois maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilariga “Gul tikansiz bo‘lmas”, “ Daraxt bir joyda ko‘karadi”, “Yozi ketib kuzi keldi, qishi ketib muzi keldi”, “Yong`oq, ming yil yashaydi, archa bilan teng yashaydi”, “Jo‘jali tovuqdan don ortmas”, “Jo‘jani kuzda sanaydilar”, “Ikki quyonni quvlagan birini ham tutolmas”, “Yaxshidan bog‘ qoladi, yomondan dog‘ qoladi”, “Bog‘ jamoli bog‘bonda”, “ Bulut yig‘laydi, gul kuladi” kabi xalq maqollari asosida ekologik ongni rivojlantirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. [6]

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologiyadan boshlang‘ich ta’lim –tarbiya berishning maqsadi ularni tabiatni sevadigan, asrab – avaylaydigan, odobli, erkin fikrlovchi, barkamol sog‘lom avlod etib tarbiyalashdan iborat.

Xulosa. Bolalarda tabiat bilan muloqotda bo‘la olish tabiatga qiziqish uyg‘otish, tabiatning bebaho boyligini, ekologik g‘oyalarni keng yoyish davr talabidir. Ekologik ta’lim – tarbiyaning samarali bo‘lishi, eng avvalo mashg‘ulotlar bilan bog‘liq bo‘lib, bunda tabiat bilan tanishtirish mashg‘ulotining roli katta. Bolalarning tabiatga mas’uliyat bilan ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishlariga erishish omili ekologik ta’lim – tarbiyaning maqsadlarini to‘g‘ri aniqlashdir.

Sog‘lom tabiiy muhit bo‘lmagan sharoitda na iqtisodiy, na ijtimoiy yuksalish bo‘lmasligini hisobga olgan holda bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga ekologik ta’lim – tarbiya berishda yangi innovatsion yondashish, ulardan amalda foydalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 01.05.2023 yil
2.Ravshanova N. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ekologik talim-tarbiya (Metodik qo‘llanma). T.: «ILM ZIYO», 2006,-168b
3. Maktabgacha pedagogika : darslik Sh.Sodiqova – Toshkent : “Tafakkur Bo‘stoni”, 2017 -386 b
4.R.Ishmuhammedov, M.Yuldosheva. Ta`lim va tarbiyada innavatsion pedagogik texnologiyalar. –Toshkent: -2017. -366 b
5. Allaberdiyeva K. K. MODERN APPROACHES TO INTRODUCING CHILDREN TO WORKS OF ART //“TRENDS OF MODERN SCIENCE AND PRACTICE”. – 2023. – T. 1. – №. 5. – C. 25-31.
6 Xamrayevna A. K. BOLALARNI BADIIY ASARLAR BILAN TANISHTIRISHGA DOIR ZAMONAVIY YONDASHUVLAR //Scientific Impulse. – 2023. – T. 1. – №. 12. – C. 324-327.

O’QITUVCHINING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK QOBILIYATLARI

ABDULLAEVA DILOROM NO’MONOVNA
Qo'qon davlat pedagogika instituti Boshlang'inch ta'lim fakulteti Fakultetlararo pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

Annotasiya. Ushbu maqolada oqituvchining pedagogik qobiliyatlarni oliy ta’lim va orta maxsus ta’limga mos shakildagi pedagogik qobiliyatlar psixologiyasi yoritib o’tilgan. Pedagogning individual faoliyat uslubi umumuiy darsni tashkillash metodika va texnologiyalardan unumli foydalanish pedagogning o‘zini-o‘zi boshqarish muammosi xaqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so’z va iboralar: pedagogik qobiliyat, empatiya, pertseptiv qobiliyat, didaktik qobiliyat, akademik qobiliyatlar, perseptiv qobiliyati, nutq qobiliyat, kommunikativ qobiliyat.

Абстрактный. В данной статье освещена психология педагогических способностей педагога, подходящая для высшего и среднего специального образования. Дана информация о проблеме самоуправления педагога, индивидуальном стиле деятельности педагога, организации общего урока, эффективном использовании методов и технологий.

Ключевые слова и фразы: педагогические способности, эмпатия, проницательная способность, дидактическая способность, академическая способность, проницательная способность, речевая способность, коммуникативная способность.

Annotation. In this article, the psychology of pedagogical abilities of the teacher, suitable for higher education and secondary special education, is highlighted. Information is given about the problem of self-management of the pedagogue, the individual activity style of the pedagogue, the organization of the general lesson, the efficient use of methods and technologies.

Key words and phrases: pedagogical ability, empathy, perceptive ability, didactic ability, academic ability, perceptive ability, speech ability, communicative ability.

Pedagogik jarayonning qanchalik samarali, muvaffaqiyatli tashkil etilishi o’qituvchining pedagogik qobiliyatga egaligiga bog’liq. Manbalardan birida “qobiliyat” tushunchasi shunday sharhlanadi: 1) shaxsning osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini ta’minlaydigan individual psixologik xususiyat; 2) narsa va hodisalar mohiyatini ijodiy tasavvur qilish layoqati. Odatda qobiliyat umumiy va maxsus qobiliyatlar tarzida ikki guruhga ajratiladi. Umumiy qobiliyatlar shaxs faoliyatining asosiy turlarida namoyon bo’ladi, kasbiy faoliyatning ayrim turlarida namoyon bo’ladigan qobiliyatlar (matematik, texnik, musiqa, tasviriy san‘‘at, adabiyot (poeziya va proza), jismoniy tayyorgarlik va b.) esa maxsus qobiliyatlar deb yuritiladi. Pedagogik faoliyatdagi muhim jihatlardan biri bu pedagogik qobiliyatdir.

Pedagogik qobiliyat – bu qobiliyat turlaridan biri bo‘lib, kishining pedagogik faoliyatga yaroqliligini va shu faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug‘ullana olishini aniqlab beradi.

Uzoq yillar olib borilgan tadqiqotlar pedagogik qobiliyatlar murakkab va ko‘pqirrali psixologik bilimlardan iboratligini ko‘rsatib berdi. Ana shu tadqiqot ma’lumotlaridan foydalanib, pedagogik qobiliyatlar tuzilishida muhim o‘rin egallaydigan qator komponentlarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Didaktik qobiliyatlar. Bu bolaga o‘quv materialini aniq va ravshan tushuntirib, oson qilib yetkazib berish, bolalarda fanga qiziqish uyg‘otib, ularda mustaqil faol fikrlashni uyg‘ota oladigan qobiliyatdir.

Didaktik qobiliyatga ega bo‘lgan o‘qituvchi zarurat tug‘ilganda qiyin o‘quv materialini osonroq, murakkabrog‘ini soddaroq, tushunish qiyin bo‘lganini tushunarliroq qilib, o‘quvchilarga moslashtirib bera oladi.

Ana shunday pedagogik qobiliyatni aniqlash uchun psixolog N.Gonobolin juda qulay test tavsiya etadi. Bu testga ko‘ra bilish xarakteridagi matnda o‘qituvchining fikri bo‘yicha ayrim sinf o‘quvchilari uchun qiyin deb hisoblangan qismlarni alohida ko‘rsatib, nima uchun bu qismlarning qiyinligini tushuntirib berish, shundan so‘ng esa matnni o‘quvchilarga engil va ularning o‘zlashtirishlari uchun qulay qilib qayta tuzish tavsiya etiladi.

2. Akademik qobiliyatlar – matematika, fizika, biologiya, ona tili, adabiyot, tarix va boshqa shu kabi fanlar sohasiga xos qobiliyatlardir.

3. Perseptiv qobiliyatlar – bu psixologik kuzatuvchanlik, o‘quvchi shaxsining individual psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda yondoshish, o‘quvchining vaqtinchalik psixik holatlari bilan bog‘liq nozik tomonlarini tushuna bilishdan iborat qobiliyatdir.

4. Nutq qobiliyati – kishining o‘z tuyg‘u-hislarini nutq yordamida, shu bilan birga mimika va pantomimika yordamida aniq va ravshan qilib ifodalab berish qobiliyatidir. Bu o‘qituvchilik kasbidagi muhim hislatlardan biri hisoblanadi. CHunki o‘qituvchidan o‘quvchilarga uzatiladigan axborot asosan ikkinchi signal tizimi – nutq orqali beriladi. Bunda mazmun jihatidan uning ichki va tashqi xususiyatlari nazarda tutiladi.

5. Tashkilotchilik qobiliyati -bu birinchidan, o‘quvchilar jamoasini uyushtira bilish, bunda jamoani jipslashtira olish va ikkinchidan, o‘zining shaxsiy ishini to‘g‘ri tashkil qila olish qobiliyatidir.

6. Avtoritar qobiliyati - bu o‘quvchilarga bevosita emotsional - irodaviy ta’sir etib, ularda obro‘ orttira bilishdan iborat qobiliyatdir.

7. Kommunikativ qobiliyati - bu bolalar bilan muloqotda bo‘lishga, o‘quvchilarga yondashish uchun to‘g‘ri yo‘l topa bilishga, ular bilan pedagogik nuqtai-nazardan maqsadga muvofiq o‘zaro aloqa bog‘lashga pedagogik taktning mavjudligiga qaratilgan qobiliyatdir.

8. Pedagogik xayol — bu kishining o‘quvchilar shaxsini tarbiyaviy tomondan loyihalashtirishda o‘z ish-harakatlarining natijasini oldindan ko‘ra bilishda namoyon bo‘ladigan qobiliyatdir. Bu qobiliyat o‘qituvchi ma’lum o‘quvchidan kelgusida kim chiqishini ko‘z oldiga keltirishda, tarbiyalanuvchilarda u yoki bu xildagi hislatlarni rivojlanishini oldindan ko‘ra bilishida namoyon bo‘ladi. Bu qobiliyat pedagogik optimizm, tarbiyaning kuchiga, o‘quvchilarga bo‘lgan ishonch bilan bog‘liqdir.

9. Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati — bu qobiliyat bir vaqtning o‘zida diqqatni bir qancha faoliyatga qarata olishda namoyon bo‘lib, o‘qituvchi ishida g‘oyat muhim ahamiyatga egadir.

Qobiliyatli, tajribali o‘qituvchi o‘zining diqqat-e’tiborini o‘quv materialini qanday bayon etilishiga, uning mazmuniga, o‘z fikrlarini atroflicha qilib qanday ochib berishga yoki o‘quvchi fikriga baralla qaratadi va shu bilan birga bir vaqtning o‘zida barcha o‘quvchilarni kuzatib, ularni toliqqan-toliqmaganligiga, e’tiborli yoki e’tiborsizligiga, darsni tushunish-tushunmasligiga ahamiyat berib, o‘quvchilarning intizomini kuzatadi hamda oqibat natijada o‘zining shaxsiy xulq-atvoriga (yurish-turishiga, o‘zini tutishiga, mimika va pantomimikasiga) e’tibor beradi. Tajribasiz o‘qituvchi, ko‘pincha o‘quv materialini bayon etishga berilib ketib, o‘quvchilarning nima qilayotganliklarini sezmay qoladi va nazoratdan chiqarib qo‘yadi, agar, bordiyu, o‘quvchilarni diqqat-e’tibor bilan kuzatishga harakat kilsa, bunday hollarda o‘z bayonotining izchilligini yo‘qotib qo‘yadi.

N.V.Kuzmina o‘qituvchi faoliyatidagi ba’zi qobiliyatlarga muvofiq keluvchi asosiy tarkibiy qismlarga qonstruktivlik (pedagogik maqsadga mos keluvchi materialni tanlay olish va uni namoyon etish vositalarida aks etadi), tashkillashtirish, kommunikativlik (tarbiyalanuvchilar bilan muloqot o‘rnata olish qobiliyati) va gnostik (bilimlardan foydalanish va qo‘llay olish qobiliyati) qobiliyatlarni kiritadi. Bundan tashqari, N.V.Kuzmina pedagogik qobiliyatlarga pedagogik kuzatuvchanlik,

pedagogik tasavvur, pedagogik takt, diqqatning taqsimlanishi, talabchanlikni kiritadi.

- O‘z ishini muvaffaqiyat bilan olib borishi uchun pedagog bir qator zarur bo‘lgan umumiy va maxsus qobiliyatlarga ega bo‘lishi kerak. Umumiy qobiliyat deganda, har qanday inson faoliyatida yuqori natijalarga erishish mumkin bo‘lgan, maxsus qobiliyat esa bolalarga ta’lim va tarbiya berishda yutuqlarga erishish mumkin bo‘lgan pedagog faoliyati davomidagi kerakli qobiliyat tushuniladi.

- Maxsus pedagogik qobiliyatlar ichida bolalarni tarbiyalash qobiliyati o‘ziga xos sinfni tashkil etadi. Ular ichida asosiylar deb quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

1. Boshqa odamning ichki kechinmalarini to‘g‘ri baholay olish, hamdardlik, hamfikrlik (empatiya) qobiliyati.

2. Bolalar uchun qilayotgan ishlarda namuna va o‘rnak bo‘la olish qobiliyati.

3. Bolalarda olijanoblik hissini, yaxshi inson bo‘lishga xohish va intilishni, yuqori axloqiy maqsadlarga erishishni shakllantirish qobiliyati.

4. Tarbiyalanuvchi bolaning o‘ziga xos xususiyatlariga tarbiya ta’sirlarini moslashtira olish qobiliyati.

5. Odamda ishonch hissini uyg‘ota olish, uni tinchlantirisha olish, o‘z-o‘zini rivojlantirishni qo‘llab quvvatlash qobiliyati.

6. Har bir bola bilan muomala qilishning kerakli usulini topa bilishi, o‘zaro tushunishga erisha olish qobiliyati.

7. Tarbiyalanuvchi tomonidan o‘ziga nisbatan hurmat uyg‘ota olish, bolalar orasida hurmat qozona olish qobiliyati.

Pedagogning tarbiyachi sifatidagi qobiliyati ham uning o‘qituvchilik qobiliyatiga muvofiqdir. Ammo shuni ta’kidlash lozimki, yaxshi o‘qituvchi bo‘lishdan ko‘ra yaxshi tarbiyachi bo‘lish birmuncha murakkabroqdir.

Ba’zan yaxshi o‘qituvchi bo‘lib, nisbatan kuchsiz tarbiyachi bo‘lish mumkin. Ba’zan esa yaxshi tarbiyachi bo‘lib, yaxshi o‘qituvchi bo‘lish murakkablik qiladi. Bu holat ayrimlarda o‘qituvchilik, ayrimlarda esa tarbiyachilik faoliyat doirasining asosiy ekanligini anglatadi.

Maxsus pedagoglik qobiliyatlari ichida shundaylari ham borki, ularni aniq o‘qituvchilik yoki tarbiyachilik faoliyatiga mansub deb ajratib bo‘lmaydi. Negaki, ular har ikkalasi uchun ham bir xilda zarurdir. Bu narsa - pedagogik muloqot, muomaladir. Psixolog olim V.A.Kan-Kalik bunday qobiliyatni tadqiq qilib shunday yozgan edi. Pedagoglik ishi o‘z tuzilishida ikki yuzdan ortiq tuzilmani tashkil qiladi. Muloqot uning eng murakkab tomonlaridan biridir, negaki u orqali pedagogik faoliyatning eng asosiy maqsadi - o‘qituvchi shaxsining o‘quvchi shaxsiga ta’siri amalga oshiriladi. Pedagogning muhim mahoratlaridan yana biri o‘quvchilar bilan uzoq va samarali ta’sir o‘tkazishni tashkil etishidir. Odatda bu mahoratni pedagogning kommunikativ qobiliyati bilan bog‘laydilar. Kasbiy pedagoglik muloqotiga ega bo‘lish - shaxslararo muloqotga tegishli bo‘lgan pedagog shaxsining muhim tomonidir.

Aytib o‘tish joizki, pedagogik muloqot chog‘ida namoyon bo‘ladigan kommunikativ qobiliyat - bu bolalar ta’lim va tarbiyasi bilan bog‘liq pedagogik ta’sir doirasida o‘ziga xos ravishda namoyon bo‘luvchi muomala qobiliyatidir. SHulardan kelib chiqqan holda, shunday xulosa qilish mumkin:

Birinchidan, insoning barcha kommunikativ qobiliyatlari ham birdek namoyon bo‘lavermaydi va pedagog uchun birdek zarur bo‘lmaydi. Ikkinchidan, pedagog egallashi lozim bo‘lgan bir qator kommunikativ malaka va ko‘nikmalar borki, ular boshqa kasbdagi kishilar uchun muhim ahamiyatga ega emas. Jumladan, insonning boshqa kishilarni tushuna olishi, o‘z-o‘zini anglashi, muloqot jarayonida to‘g‘ri baholashi, to‘g‘ri qabul qilishi, boshqa odamlar bilan to‘g‘ri munosabatga kirisha olishi, o‘z-o‘ziga nisbatan talabchan bo‘lishidir.

Har bir ajratilgan kommunikativ qobiliyatlar guruhini batafsil ko‘rib chiqib, shu bilan birga pedagogik muloqot davrida bu qobiliyatlarning yaxshi rivojlanmaganligi sababli yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan

muammolarni ko‘rsatib o‘tamiz.

Insonni inson tomonidan bilish - insonni shaxs sifatida umumiy baholashdir. U odatda bir ko‘rishda olingan taassurotlar natijasida jamlanib, uning shaxsini ayrim tomonlari, motivlari, va kelgusi rejalarini baholash; tashqi ko‘rinish va odamning ichki hissiyotlari o‘zaro bog‘liqligini baholash; jestlari, imo-ishoralari, mimika va pantomimikalarni o‘qib bilishda namoyon bo‘ladi.

Odamni o‘z-o‘zini bilishi o‘z bilimlarini, o‘z qobiliyatlarini, o‘z xarakterini va boshqa shaxsning o‘zidagi xususiyatlarini baholash; sirtdan qaraganda odam qanday qabul qilinadi va u boshqa odamlar ko‘zida qanday namoyon bo‘lishini bila olishdir.

Muloqat jarayonidagi holatni to‘g‘ri baholay bilish – bu holatni kuzata bilish qobiliyati, undan foydali axborot belgilarini ajratib olish va ularga e’tiborni qaratish, vujudga kelgan holatning ijtimoiy va psixologik mazmunini to‘g‘ri baholash va qabul qilishdan iboratdir.

Pedagogik nuqtai nazardan qiziqarli bo‘lgan, lekin kam o‘rganilgan va amaliyotda ko‘pdan-ko‘p muammolar keltirib chiqaradigan turi pedagogik muloqatning noverbal shakli deb nomlanadi. Bu bilan bog‘liq kommunikativ qobiliyat quyidagilarni o‘z ichiga oladi: notanish odamlar bilan muomalaga kirisha bilish, ziddiyatlarni oldini ola bilish, yuzaga kelgan tushunmovchilik va ziddiyatlarni o‘z vaqtida echa bilish, boshqa odam tomonidan o‘zini to‘g‘ri tushinishni va qabul qilishni ta’minlaydigan tarzda o‘zini tuta bilish, boshqa odamga o‘zining qiziqishlari va hissiyotlarini bayon etishga imkon berish, muloqotdan o‘zi uchun yuqori darajada foyda ola bilish qobiliyati.

Insonning o‘z -o‘ziga nisbatan qilgan harakatlarida namoyon bo‘lgan qobiliyati, o‘zining xulq - atvoridagi faoliyatini boshqarishni bilishi, atrof-muhitdagi odamlar bilan o‘zaro muloqat qilganda zarur bo‘lgan qobiliyatdir. Bu narsa bizni boshqa odamlar tomonidan to‘g‘ri qabul qilinishimiz va to‘g‘ri tushinishimizni ta’minlaydi. Bunga yana insonni odatlaridan va kamchiliklaridan qutilishga bo‘lgan layoqati, ya’ni muloqatga to‘siq bo‘ladigan, muloqat uchun zarur bo‘lgan foydali malaka va ko‘nikmalar shakllantirishga bo‘lgan qobiliyatini ko‘rsatish mumkin.

Insonning kommunikativ qobiliyati rivojlantirish mumkin bo‘lgan jarayondir. Ularni shakllantirishda ijtimoiy- psixologik trening yaxshi natija beradi.

Pedagogik muloqot maxsus jihatining namoyon bo‘lishi pedagog tomonidan rag‘batlantirish va jazolash usulining qo‘llanilishidir. Agar rag‘batlantirish yoki jazolash xizmatga yarasha odilona bo‘lsa, ular o‘quvchilarning yutuqlarini mustahkamlaydilar, qo‘llaydilar. Rag‘batlantirish va jazolash usullarining mutahkamlash roli pedagogik adolatga bog‘liq bo‘ladi. Pedagogik nuqtai nazardan olgan holda samarali va samara bo‘lmagan rag‘batlantirish tavsifini keltiramiz.

Samarali rag‘batlantirish		**Samarali bo‘lmagan rag‘batlantirish**	
1.	Muntazam ravishda amalga oshiriladi.	1.	Vaqti-vaqti bilan amalga oshiriladi.
2.	O‘quvchining qanday xatti-harakatlari rag‘batlantirishga loyiq-ligi o‘qituvchi tomonidan tushuntirib beriladi.	2.	Umuman amalga oshiriladi, hech qanday izoh berilmaydi.

3.	O‘quvchilar yutuqlaridan o‘qituvchining shaxsan manfaatdor ekanligi bilan bog‘liqligi.	3.	Rag‘batlantirish kerak bo‘lganligi uchungina amalga oshiriladi, o‘qituvchi o‘quvchilar yutuq-lari bilan qiziqmaydi.
4.	O‘quvchilarning ma’lum yutuqqa erishganliklari kuzatilib bori-ladi.	4.	Ishda o‘quvchilarning ishti-roklariga umumiy qaraladi.
5.	O‘quvchilar erishgan yutuqlarining ahamiyati to‘g‘risida axborot berib boriladi.	5.	O‘quvchiga uning natijalarigina aytiladi, uning ahamiyati to‘g‘risida gapirilmaydi.
6.	O‘quvchilarda yuqori natijalarga erishish uchun o‘z ishlarini tashkil etishga o‘rgatish.	6.	O‘quvchilarga o‘z natijalarini boshqalarniki bilan taqqoslashga yo‘naltirish, ularni raqobatlashga undash.
7.	O‘quvchilarning avvalgi va hozirgi yutuqlarini solishtirish.	7.	Bir o‘quvchining yutuqlarini boshqa o‘quvchi yutuqlari bilan solishtirish.
8.	O‘quvchining sarf qilgan kuchi yutuqlarga mos keladi.	8.	O‘quvchining sarf qilgan kuchi yutuqlarga mos kelmaydi.

O‘qituvchi o‘quvchilarning ko‘pgina sa’y-harakatlariga, agar ularning yaxshi ishlari uchun rag‘batlantirib, ular qilgan xatolariga qattiq e’tibor qaratmasa va buning uchun jazolamasa, ijobiy ta’sir o‘tkazishi mumkin.

Xulosa kilib, shuni aytish joizki, o‘qituvchining barcha ijobiy, umuminsoniy axlok me’yorlariga mos keluvchi hislatlari katta ahamiyatga ega. Agar biz quyidagi hislatlarini olib qaraydigan bo‘lsak, bularning barchasi ham o‘ta muhim omillardir. Jumladan, o‘qituvchining tashqi qiyofasi uning obro‘si shakllanishiga ta’sir etadi. O‘qituvchining ozodaligi, ixchamligi, uning poqizaligi, saranjom- sarishtaligi, o‘zini chiroyli tutishi qaddi-qomati va yurish-turishlari o‘quvchilarda juda yaxshi taassurot qoldiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduvahobov U. Shaxs (Komil inson haqida). – Toshkent: Vatan, 1996.
2. Avloniy, A. Turkiy guliston yohud axloq. – Toshkent: O„qituvchi, 1992.
3. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Moliya, 2003.
4. Akromova F. Insoniy munosabatlar psixologiyasi. – Toshkent: “Shams ASA”, 2002.
5. Bolshaya psixologicheskaya entsiklopediya / Samoe polnoe sovremennoe izdanie. – Moskva: Eksmo, 2007.
6. Vigotskiy L.S. Pedagogicheskaya psixologiya /Pod red. V.V.Davidova. – M.: Pedagogika. 1991.
7. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o’qituvchisining psixologiyasi. – Toshkent: O’zbekiston, 1999.
8. Ivanov R.I., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya / Pedagogika va psixologiya bakalavriat ta’lim yo’nalishi talabalari uchun darslik. – Toshkent: O’zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008.
9. Zimnyaya I.A. Pedagogicheskaya psixologiya / Ucheb. posobie dlya studentov vissha.ped.ucheb.zavedeniy. – Rostov-na-Donu: RGU, 1997.
10. Umumiy psixologiya / Ma’ruza matnlari. Tuzuvchilar: N.Yoqubov, D.Mirzajonova, G.Ashurova. – Qo’qon: Qo’qon Davlat pedagogika instituti, 2007.

“INFORMATIKA VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR” FANINI O‘QITISHDA ELEKTRON TA’LIM RESURSLARINING AHAMIYATI

XASANOV XAYRULLO MAHMUDOVICH
Qo‘qon DPI, “Informatika” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta’lim tizimi talabalarida axborot kompetentsiyasining ahamiyati muhokama qilinadi. Raqamli texnologiyalar va axborot bilan ishlash yo‘nalishlari tavsiflangan. Jumladan, zamonaviy axborot vositalari, axborot texnologiyalari, elektron ta’lim resurslari hamda ularni yaratish ko‘nikmalari kabi masalalar ko‘rilgan.

Kalit so‘zlar: Axborot, axborot-kommunikasiya, kompetensiya, bilim, ko‘nikma, malaka, qobiliyat, talaba, mahorat, kompyuter.

Аннотация. В данной статье рассматривается значение информационной компетентности студентов системы высшего образования. Описаны направления работы с цифровыми технологиями и информацией. В частности, были рассмотрены такие вопросы, как современные медиа, информационные технологии, ресурсы электронного обучения и навыки их создания.

Ключевые слова: Информация, информационно-коммуникация, компетентность, знание, умение, компетенция, способность, студент, умение, компьютер.

Abstract. This article discusses the importance of information competence in students of the higher education system. The directions of working with digital technologies and information are described. In particular, issues such as modern media, information technologies, e-learning resources and the skills to create them were considered.

Keywords. Information, information - communication, competence, knowledge, skill, skill, ability, student, skill, computer.

Kirish.

Bugungi kunni texnika asri, tafakkur asri, yalpi axborotlashuv asri, yuksak texnologiyalar zamoni, globallashuv davri deb ta’rif etilmoqda. Axborotlar inson tafakkuri va fikrlash qobiliyatini shakllanishiga ta’sir etuvchi asosiy omildir. Shu sababli zamonaviy sivilizatsiyalashgan jamiyatning hozirgi davrdagi rivoji axborotlashtirish jarayoni bilan tavsiflanadi.

Axborotlashtirish – yuridik va jismoniy shaxslarning axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish uchun axborot resurslari, axborot texnologiyalari hamda axborot tizimlaridan foydalangan holda sharoit yaratishning tashkiliy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy jarayonidir.

Ta’limni axborotlashtirish – ta’lim sohasini uslubiy-amaliy jihatdan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va texnik vositalari bilan ta’minlash hamda ulardan samarali foydalanish asosida ta’lim-tarbiya jarayonining psixologik, pedagogik maqsadlarini amalga oshirishga yo‘naltirilgan jarayondir.

Ta’limni axborotlashtirish ta’lim beruvchi vata’limoluvchifaoliyatiniintellektuallashtirish jarayoni sifatida faqatgina zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida rivojlanadi. “Axborotlashgan iqtisodiyot”, “Elektron hukumat”, “Elektron boshqaruv”, “Masofaviy ta’lim”, “Ochiq ta’lim”, “Elektron ta’lim”, “Multimedia” kabi tushunchalar hayotimizgakengkiribkeldi. Ma’lumki, nafaqat “Elektron ta’lim”, “Ochiq ta’lim”, “Masofaviy ta’lim”da, balki an’anaviy ta’limni zamon talablari asosida tashkil etishda ham elektron ta’lim resurslari muhim rol o‘ynaydi. “Ta’lim resursi” deganda esa o‘quv jarayoni davomida bilim olishda foydalaniladigan turli xil ko‘rinish

va shakllardagi o‘quv materiallari manbasi tushuniladi. Boshqacha aytganda, ta’lim resursi – o‘quv jarayonida foydalaniladigan axborotlar manbasi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, ta’lim resurslarini quyidagi guruhlarga ajratishimiz mumkin:

1. Matn, rasm, sxema va jadvallarni o‘z ichiga olgan an’anaviy nashr materiallari.

2. An’anaviy audio va video-materiallar: musiqiy va nutqiy materiallar namoyish roliklari, taqdimot lavhalari.

3. Zamonaviy (raqamli) elektron resurslar: turli xil axborot tashuvchi vositalarga yozilgan fayllar, zamonaviy elektron vositalari yoki kompyuterlar yordamida eshitish va ko‘rish imkoniyati yaratilgan raqamli elektron materiallar.

4. O‘qish, mustaqil ta’lim olish va olingan bilimlarni tekshirish uchun maxsus dasturlar: o‘quv mazmuni yoritilgan va o‘quvchi bilan o‘zaro muloqotga yo‘naltirilgan hamda ma’lum pedagogik vazifalarni yechish uchun mo‘ljallangan dasturlar, dasturlar majmui yoki tizimlar.

Bunday ta’lim resurslari, zamonaviy axborot – kommunikatsiya texnologiyalari, elektron didaktik vositalar ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hozirgi tendentsiyalariga eng mos keladigan ta’lim faoliyati uchun pedagogik shart-sharoitlarni yaratish hamda mavjud usullar va vositalarni takomillashgan yangi yoki sifat jihatidan yaxshilashga xizmat qiladi.


Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda kuzatish, tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning empirik manbaini kuzatish va tahlil natijalari asosda olingan xulosalar hamda ijtimoiy tarmoqlar, ya’ni telegram kanallari yordamida talabalar o‘rtasida tashkil etilgan so‘rovnoma, anketa natijalari hulosalari tashkil etdi.

Jahon ta’lim tizimi jarayonida yosh avlodni intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish jamiyat taraqqiyotida muhim o‘rin egallaydi. Fan-texnika va texnologiyalar jadal sur’atlar bilan rivojlanayotgan hozirgi sharoitda dunyoda sanoat tarmoqlarini rivojlantirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ijodkor mutaxassislarga bo‘lgan talab va ehtiyoj yanada kuchayib bormoqda.

Bunday davrida “Informatika va raqamli texnologiyalar” va u bilan bog‘liq bo‘lgan bir qancha samarador uskunalar hayotimizning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Demak, bo‘lajak o‘qituvchi yangi axborot texnologiyalari bilan ishlash bo‘yicha yetarlicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak. Jumladan, umumiy foydalanish mumkin bo‘lgan axborot manbalarining mavjudligi haqida bilish va ulardan foydalana olish - ma’lumotlarni og‘zaki, grafik va raqamli shakllarda tushunish, o‘zgartirish va taqdim etishni taklif qilish; turli darajadagi va turli formatdagi axborotni baholash va qayta ishlash imkoniyatiga ega bo‘lish; tahlil qilish texnikasidan foydalana olish; belgilangan vazifalarni, shu jumladan o‘quv dasturlari va texnologiyalari asosida hal qilish uchun ma’lumotlar bazalari, elektron ta’lim resurslari va axborot xizmatlaridan foydalanish hamda ularni yaratish imkoniyatiga ega bo‘lishlari lozim.

Elektron ta’lim resurslarini ishlab chiqish mahoratini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning eng yuqori cho‘qqisi deb hisoblash mumkin. Shunday ekan “Sanoq sistemalari ustida amallar bajarish” mavzusiga doir elektron didaktik vosita yaratish hamda foydalanishni ko‘rib o‘atylik. Buning uchun Macromedia Flash dasturini ishga tushuramiz va kerakli harakatlarimizni tayyorlab olamiz. Jumladan, asosiy oynani tayyorlash jarayonini ko‘rib o‘taylik:



Buning uchun uskunalar panelidan Rectangle Tool (To‘rtburchak chizish) uskunasini tanlaymiz va yaratilayotgan to‘rtburchak tugmasi qirg‘oq chegaralarini doirasimon shaklda chizish uchun Properties (xossalar) panelidagi maydoniga 45 sonini kiritib OK tugmasini bosamiz, hamda tugmamizga kerakli fon va chiziq rangini ham tanlab olamiz. Buning uchun fon rangi, chegara rangi tugmalaridan kerakli ranglarni tanlab, so‘ngra asosiy oynaning kerakli chegarasidan boshlab sichqoncha chap tugmasini bosgan holda harakatlantiramiz va quyidagi to‘rtburchak shaklini hosil qilamiz:




Bu to‘rtburchakka kerakli nomni berish uchun uskunalar panelidagi uskunasidan foydalanamiz. Buning uchun uskunasi tanlanadi, hossalar oynasida joylashgan uskunalari yordamida matn o‘lchami, matn rangi tanlanib, chizib olingan to‘rtburchak tugmasi ustida bir marta sichqoncha chap tugmasi bosiladi va kerakli tugma nomi matni so‘zlari kritiladi. Bizning misolda “Ikkilik sanoq sistemasida amallar bajarishga doir misollar”. So‘ngra tugmamiz quyidagi ko‘rinishga keladi:



Navbatdagi vazifamiz bu ikkita to‘rtburchak va matnlarni yahlit tugma ko‘rinishiga o‘tkazdirishdir. Buning uchun uskunalar panelidagi uskunasi yordamida to‘rtburchak va matnni birga holatda belgilaymiz, ya’ni uskunasi tanlanib to‘rtburchak va matnlarni ichida qamrab oluvchi yangi to‘rtburchak chizamiz va tugmamiz quyidagi holatga keladi:



So‘ngra Modify menyusidan Covert to symbol yoki klaviaturadan F8 tugmasini bosamiz va quyidagi oyna hosil bo‘ladi:



Bu oynaning Name: bo‘limidagi Symbol 1 o‘rniga “2utish” deb nom beramiz hamda Type bo‘limidan Button bandini tanlaymiz va OK tugmasini bosamiz. Natijada dastur kutubxonasida “2utish” nomli tugma hosil bo‘ladi. Huddi shu tariqa “Sakkizlik sanoq sistemasida amallar bajarishga doir misollar” va “O‘n oltilik sanoq sistemasida amallar bajarishga doir misollar” tugmalarini ham tayyorlab olamiz va bularning barchasini “Asosiy” qatlamimizning birinchi kadrida boshqaruv kadrini hosil qilamiz F7 tugmasi yoki Modify menyusidan Timeline → Convert to Blank Keyframes ketma - ketligi orqali hamda tugmalarimizni joylashtiramiz.

Endigi navbatda asosiy oynamizda joylashtirilgan sanoq sistemalarida amallar bajarish tugmalari uchun maxsus kodlarni kiritib chiqamiz. Buning uchun dastlab



tugmasi tanlanadi va Window menyusidan Actions qism menyusi tanlanadi yoki klaviaturadan F9 tugmasi bosiladi. Natijada ishchi maydon quyi qismida Actionscript oynasi ochiladi. Bu ochilgan oynaga tegishli qodlarni kiritiladi. Misolimizdagi tugma uchun quyidagi kodni kiritamiz:

on (release) {
gotoAndPlay("jad2-lik"); }

Huddi shu tariqa qolgan ikkita tugmalarimiz uchun ham tegishli kodlarni kiritib chiqamiz.



tugmasi uchun **on (release) {**

gotoAndPlay("j-8-q");}



tugmasi uchun **on (release) {**

gotoAndPlay("j-16-q");}

Shuni takidlab o‘tish joizki yuqorida Macromedia Flash dasturi kutubxonasidan chaqirib olingan harakat (animatsiya) roliklarni ham yuqoridagi keltririb o‘tilgan asosiy oynada bajarib o‘tilgan amallar ketma - ketligi singari tayyorlab chiqiladi.

Tahlillar va natijalar

Kuzatish va tahlil natijasi asosida olingan xulosalar quyidagilarni tashkil etdi

1. Kuzatishlar tahlili shuni ko‘rsatadiki oliy ta’limda axborotlashtirish va kompyuterlashtirish darajasi qancha yuqori bo‘lsa, bo‘lajak pedagoglarda kelgusidagi kasbiy faoliyatida ushbu vositalardan samarali foydalanish ko‘nikmasi, nafaqat nazariy jihatdan balki amaliy ko‘rinishdagi bilim, ko‘nikma va malakalarning rivojlanishiga xizmat qiladi.

2. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki oliy ta’lim o‘quv jarayonida elektron ta’lim resurslaridan samarali foydalanish, bo‘lajak o‘qituvchilarning axborot kommunikatsion kasbiy kompetentligini rivojlantirishning muhim omili hisoblanib, kelajakda informatika va axborot texnologiyalari (IT) sohasida yuqori malakali o‘qituvchini tayyorlashda zaruriy jihat xisoblanadi.

3. Kuzatishlar tahlili shuni ko‘rsatadiki oliy ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, elektron didaktik vositalarni qo‘llash bo‘lajak mutaxassislarning AKT kompetentligini rivojlantirishda juda muhimdir, chunki u bo‘lajak o‘qituvchining kasbga yo‘naltirilgan kompitentligini rivojlantirishning eng muhim va dolzarb masalasidir.

Xulosa. Shuni aytishimiz mumkinki, bu ko‘nikmalarning barchasi talabalarda “Informatika va raqamli texnologiyalar” kabi fanlarni o‘rganish jarayonida ma’lum darajada shakllanadi, chunki elektron ta’lim resurslari bo‘lajak o‘qituvchining AKT kompetensiyasi bilan belgilanadigan aniq ko‘nikmalarni talab qiladi.

Shunday qilib, bo‘lajak o‘qituvchini tayyorlash jarayonida talabaning elektron ta’lim resurslaridan mustaqil foydalanishi ushbu fanni o‘zlashtirish bo‘yicha samarali natijalarga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risi”da O’RQ-367-son Qonuni.
2. Abduqodirov A. va boshqalar. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. T.: Iste’dod. 2008. -180 b.
3. Makhmudovich, Khasanov Khayrullo. "THE IMPORTANCE OF ICT COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS IN INFORMING EDUCATION." Open Access Repository 9.11 (2023): 80-84.
4. Makhmudovich, Khasanov Khayrullo. "THE IMPORTANCE OF THE BLENDED LEARNING SYSTEM IN ORGANIZING THE EDUCATIONAL PROCESS." Academia Science Repository 4.5 (2023): 715-718.
5. Xasanov, Xayrullo Maxmudovich. "BO ‘LAJAK O ‘QITUVCHINING PEDAGOGIK FAOLIYATIDA AKT KOMPETENTSIYASINING AHAMIYATI." Academic research in educational sciences 4.KSPI Conference 1 (2023): 221-224.
6. Xasanov, Xayrullo Maxmudovich. "OLIY TA’LIM TALABALARINI “INFORMATKA VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR” BILAN ISHLASH KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI." Academic research in educational sciences 4.KSPI Conference 1 (2023): 217-220.
7. Maxmudovich, Xasanov Xayrullo. ""SANOQ SISTEMALARI USTIDA AMALLAR BAJARISH” MAVZUSINI O’QITISHGA DOIR ELEKTRON DIDAKTIK VOSITALAR YARATISH METODIKASI." E Conference Zone. 2023
8. Maxmudovich, Xasanov Xayrullo. "TA’LIM JARAYONIDA O ‘QUV FAOLIYATINI TASHKIL ETISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O ‘RNI." Conferencea (2023): 31-36.

KESIM VA QIRQIM BAJARISHDA YO‘L QO‘YADIGAN TIPIK XATOLARNING OLDINI OLISH

XURRAMOVA E’ZOZA SHERZOD QIZI
Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Sa’natshinoslik” fakulteti “Tasviriy sa’nat va muhandislik grafikasi” yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ma’lumki, ta’lim berish jarayoni-ikki yoqlama jarayondir. Bu jarayonda o‘qituvchi ham, o‘quvchi ham faol bo‘lishi kerak. Agar pedogog o‘z ishida muvafaqqiyatga erishishga intilsa u albatta talabalarning faolligini oshirish, faollikni rag‘batlantirish va kerakli yo‘lga solishi lozim. Talabalar faoliyatini oshirishning asosiy vositalaridan biri ularning chizmalarda tipik xatolarni to’g’irlashga o’rgatish.

Annotation: It is known that the process of education is a two-way process. Both the teacher and the student should be active in this process. If the pedagogue strives to achieve success in his work, he must definitely increase the activity of students, encourage their activity and guide them in the right direction. One of the main means of improving students' performance is teaching them to correct typical mistakes in drawings.

Аннотация: Известно, что процесс воспитания является двусторонним процессом. И учитель, и ученик должны принимать активное участие в этом процессе. Если педагог стремится добиться успеха в своей работе, он обязательно должен повышать активность учащихся, поощрять их активность и направлять их в правильном направлении. Одним из основных средств повышения успеваемости учащихся является обучение их исправлению типичных ошибок в рисунках.

Kalit so‘zlar: ananaviy, tipix xato, amaliy, elektron, joizki, shakllantirish, topshiriq, modellashtirish, ta’kidlash, qirqim, kesim, proyeksiya.


Key words: traditional, typix error, practical, electronic, appropriate, formation, assignment, modeling, emphasis, cut, section, projection.


Ключевые слова: традиционный, опечатка, практический, электронный, соответствующий, формирование, присвоение, моделирование, акцент, разрез, разрез, проекция.

Chizmachilik fani aniq fanlar qatoriga kiradi. Lekin umumta’lim maktablarida chizmachilik faniga etibor boshqa fanlarga qaraganda kamroq o‘lganligi sababli Oliy ta’lim muassalariga kiruvchi o‘quvchilar ayrim to‘siqlarga uchramoqda. Maktab o‘qtuvchilarida tasviriy san’at va chizmachilik fanlariga aloxida ixtidorli bo‘lishi kerak degan fikr, g’oya mavjud va bu g’oyalar bolaning o‘qishiga salbiy tasr ko‘rsatadi. Maktab o‘qituvchisining vazifasi shundaki o‘zining mutaxasisligiga o‘quvchini qiziqtra bilishi kerak. Tasviriy san’at va chizmachilik fanlari bolani borliqni seva bilish, o‘rganish xisqila bilishga undaydi. Kichik yoshdagi bolalar rangbaranglikka qiziqadi va unga intiladi. Har bir inson yoshlik davrida rasm chizishga qiziqshi balland bo‘ladi. Shu o‘rinda chizmachilik fani ham dars o‘tilishi talab darajasida emasligi oliy ta’lim muassalariga xujat topshirgan o‘quvchilarda sezilarli namayon bo‘lmoqda. Maktab o‘quvchisining bilim darajasi pasligi yoki dars soatlari kamligining evazida mavzular to‘liq yoritilmaydi. Bu esa turmish sharoyitda ayrim to‘siqlarga uchrashiga sabab bo‘ladi.

Chizmachilik faniga qancha chuqurlashsak shuncha ko‘p atrofdagi olamni his qilishimiz osonlashadi. Aftomobil yo‘larida har birimiz ko‘p yuraniz va ayrim belgilarga nazarimiz tushadi. Bu belgilar yo‘l harakatidagi xavzizlikni bir meyorda taqsimlab turadi. Yo‘l belgilarni agarda so‘zlar bilan yozsakchi, tez yuadigan mashuna haydovchisi uni o‘qishga ulgirmaydi, bu esa salbiy oqibatlarga olib keladi.

O‘quvchilar chizmada kesimlarni bajarishda kesimlarni tasvirlash uchun qabul qilingan ayrim qoidalarni bilmasliklari natijasida quyidagi tipik xatolarga yo‘l qo‘yadilar; val yoki shunga o‘xshash detallarning silindrik teshiklari yoki konussimon o‘yiqchalari ko‘rsatilgan kesimlari uzib tasvirlanadi. O‘quvchilarning oddiy kesim va qirqim bajarishlarida uchraydigan tipik xatolari va ularni oldini olish bo‘yicha tavsiyalarga to‘xtalib o‘tamiz. O‘quvchilarga qirqimlar bo‘yicha individual topshiriqlar berishdan oldin qirqim bajarishda ularning chizmalarida uchraydigan tipik xatolar haqida to‘xtalib, u xatolarni o‘quvchilar bilan birgalikda muhokama qilish kerak. Buni to‘g’ri va noto‘g’ri bajarilgan chizmalarni taqqoslash yo‘li bilan bajarish kerak. 1-chizmada o‘quvchilarning kesim va qirqimlarni bajarishlarida tez-tez uchrab turadigan tipik xatolarni keltirilgan.






O‘quv plakati yoki sinf doskasida noto‘g’ri bajarilgan tasvirning ustida chizib, “noto‘g’ri” deb yozib qo‘yish kerak. Bunday metodik usul bilan ko‘plab xatolarning oldi olinadi. Amaliyotning ko‘rsatishicha, o‘quvchilarning ushbu mavzu bo‘yicha mustaqil ishlari jarayonida xatolarini tahlil qilish ko‘proq samara beradi. Bunda o‘quvchilarning chizma ustidan ishlarini vaqtincha to‘xtatib, xatolarni tahlil qilishga iloji boricha ko‘proq

o‘quvchilarni jalb qilish kerak. Xatolarni oldini olish uchun qirqim va kesimni taqqoslash bo‘yicha mashqlar bajarish ham kata yordam beradi.


1-chizmadagi ustiga qizil chiziq bilan chizilgan kesimlar noto‘g’ri yasalgan. Kesim xato shundan iboratki, silindrik teshikda va konussimon o‘yiqchada kontur o‘tkazilmagan (aylana uzib qo‘yilgan). Qirqim yasashda detalning ichki ko‘rinmas konturlarini qirqimgacha ko‘rsatuvchi shtrix chiziqlar tutash asosiy chiziqlar bilan almashtiriladi, qirqim tarkibiga kiruvchi kesim yuzasi shtrixlanadi; buyumning old (ko‘rinadigan) yarmida joylashgan chiziqlar ko‘rsatilmaydi. O‘quvchilar ushbu qoidaga amal qilmasdan daslapki qirqim bajarish bo‘yicha topshiriqlarni bajarishda diqqatlarini ko‘proq qirqim konturi shaklini to‘g’ri tasvirlashga qaratadilar va kesuvchi tekislik orqasida joylashgan kontur tasvirini ko‘pincha esdan chiqarib qoldiradilar (2-chizma)

Qirqimlar mavzusini tushintirishda o‘qituvchi ularni yasashda amal qilinadigan maxsus qoidalarga alohida to‘xtalib o‘tishi kerak. Bularga mustahkamlik qovurg’asi va kegayli detallarni qirqimda tasvirlashlar kiradi.

3-chizmada mustahkamlik qovurg’asi bor bo‘lgan detal tasvirlangan. Frontal qirqim berilgan. Kesuvchi tekislik qovurg’alar bo‘ylab o‘tgan, shuning uchun ham ular qirqimad (3-chizma.) kesuvchi tekislik bilan kesilgan bo‘lsa ham shtrixlanmagan.



2-chizma.



3-chizma.

Kegayli detallarni (g'ildiraklar, shkivlar, maxoviklarni) qirqimda tasvirlashda yupqa qovurg'alar uchun qanday qoidalar qo'llanilsa, bularga ham shunday qoidalar qo'llaniladi, ya'ni kesuvchi tekislik kegaylar uzunligi bo'ylab yo'nalgan bo'lsa, u holda, ular shtrixlanmaydi. Bu holda, agar kegay kesuvchi tekislikka biror burchak ostida joylashgan bo'lsa ham, kesuvchi tekislik kegay orqali o'tayapdi deb tasavvur qilinadi.

